

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

“TABIIYOT VA GEOGRAFIYA O‘QITISH METODIKASI”

fani bo‘yicha

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

bilim sohasi: 100000 – gumanitar soha

ta‘lim sohasi: 140000 – tabiiy fanlar

ta‘lim yo‘nalishi: 5140600 - geografiya

FARG‘ONA – 2020

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil "25" avgustdagi "744"-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Geografiya o'qitish metodikasi" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Farg'ona davlat universiteti Uslubiy Kengashining 2020 yil "___" "_____" dagi "___" - son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Tuzuvchilar:

Djo'raboeva H.Sh - "Geografiya" kafedrasida katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Boymirzaev K. -NamDU "Geografiya" kafedrasida dotsenti, geografiya fanlari nomzodi

Xoliqov R.Y. -FarDU "Geografiya" kafedrasida dotsenti, geografiya fanlari nomzodi

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi "Geografiya" kafedrasining 2020 yil 26 avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muxokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri : _____ **R.Xoliqov**

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi "Tabiiy fanlar" fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2020 yil 27 avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

Fakultet dekani: _____ **Sh.A.Mamajonov**

MUNDARIJA

5-CEMESTR		
O‘QUV MATERIALLARI		5
I.	MA‘RUZA MASHG‘ULOTLARI	5
I.1	“Geografiya o‘qitish metodikasi” fanining predmeti, tadqiqot ob’ekti	5
I.2	Geografiya ta’limi metodikasining shakllanishi va rivojlanishi tarixi	16
I.3	O‘rta maxsus, kasb-hunar, umumta’lim tizimi geografiyasining mazmuni, tarkibi.	32
I.4	O‘qitish metodlari	39
I.5	Geografiya ta’limida qo‘llaniladigan metodlar tasnifi	45
I.6	Og‘zaki bayon usullari	49
I.7	Geografiya ta’limida harita bilan ishlash.	60
I.8	Geografiya ta’limini uyushtirishning shakllari	70
I.9	O‘quv ekskursiyalari. Geografiya ta’limida ekskursiyaning o‘rni va roli	82
I.10	Geografik ta’lim jarayon qismlari	91
I.11	Tarbiya turlari	99
I.12	Ta’limda tadqiqot usullari	103
I.13	Geografiya maydonchasi va xonasi	109
I.14	Geografiya ta’limi vositalari	125
I.15	Geografiya o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	136
I.16	Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari	139
I.17	O‘qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash	147
AMALIY MASHG‘ULOTLAR		
II.1	Geografiya o‘qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. Bilimlar hajmini belgilashda geografiya o‘qitish metodikasining roli	175
II.2	Mustaqillik yillarida geografiya ta’limi	177
II.3	Xorijdagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish	183
II.4	Germaniya, Fransiyada geografiya ta’limi	188
II.5	Geografiya darsliklari tahlili	190
II.6	Geografiya darslarida ma’naviy, ekologik, iqtisodiy tarbiya.	191
II.7	Tabiiy geografik tushunchalarni shakllantirish (THK, Geografik qobiq tushunchalari misolida).	193
II.8	Metodlarni tasniflash usullari	197
II.9	Og‘zaki bayon usullari	200

II.10	Geografiya darslarida harita va globus bilan ishlash	200
II.11	Kuzatish va tajriba usullari. Amaliy va mustaqil ishlar	202
II.12	Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.	204
II.13	Geografiya ta'limida o'yinlardan foydalanish	205
II.14	Muammoli metodlar	209
II.15	Hamkorlikda o'qitish, interfaol va modulli ta'lim texnologiyalari	210
II.16	Dars konspektini tuzish (tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslari misolida).	213
II.17	Darslarni rejalashtirish.	216
III.	MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI	218
IV.	GLOSSARIY	222
V.	ILOVALAR	228
V.1.	FAN DASTURI	228
V.2.	ISHCHI O'QUV DASTURI	234
V.3.	TARQATMA MATERIALLAR	234
V.4	TESTLAR	239
VI.	BAHOLASH MEZONLARI	250

O'QUV MATERIALLARI

MA'RUZA MATERIALLARI

1-ma'ruza. Geografiya o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Reja

1. Geografiya o'qitish metodikasi fanining predmeti, tadqiqot ob'ekti, maqsadi va vazifalari.
2. Geografiya o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Maktabda geografiya o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari.
4. Maktab geografiyasining mazmuni

Tayanch iboralar

Didaktika, tadqiqot ob'ekti, tadqiqot metodlari, xususiy metodika, umumiy metodika, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, o'qitishning ta'limiy maqsadi, o'qitishning tarbiyaviy maqsadi, o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi, maktab geografiyasining mazmuni

1. Geografiya o'qitish metodikasi fanining predmeti, tadqiqot ob'ekti, maqsadi va vazifalari.

Jamiyat taraqqiyotini har tomonlama etuk o'qituvchilarsiz tasavvur etish qiyin. Malakali pedagog mutaxassislar tayyorlash esa ko'p jihatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog'liq. Ayniqsa, hozirgi murakkab axborotlarni, geografik hodisa va sabab oqibatlarini, tabiiy va iqtisodiy geografiya tushunchalarini o'quvchilar ongiga yetkazish va shakllantirish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi. Maktab dasturi o'quvchilarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishni ham o'z zimmasiga oladi. Har bir o'quvchi darsda olgan ko'nikma va malakalar asosida bilimlarni mustaqil egallashi zarur bo'ladi.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq umumiy o'rta ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarning muntazam bilim olishi, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirishni, o'quvchilarda mehnat ko'nikmalari, mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va atrof muhitga ongli munosabatni hosil qilishni, milliy va umumbashariy qadriyatlarini hurmat qilishni, o'z vataniga, xalqiga sadoqat, mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash vazifalari belgilandi.

Bu vazifalarni bajarishda geografiya ta'limi alohida salmoqqa ega. Ayniqsa tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslarini o'qitish borasida milliy dasturda qo'yilgan vazifalarni bajarish cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini tajribalar isbotlamoqda. Bularning barchasi geografiya o'qituvchisidan pedagogik faoliyatdagi yutuq kamchiliklarini tahlil qila olishni, o'z ish tajribasini tahlil qilib, umumlashtira bilishni, boshqa o'qituvchilarni tajribasini umumlashtirish va samarali ta'lim shakllari va metodlardan o'z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi. Geografiya ta'lim metodikasi pedagogika fanining tarkibiy qismidir. U maktabda geografiya o'qitishning maqsad va vazifalarini, umumiy geografik bilimlar mazmunini, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashini

shakllantirish g'oyalari ilgari suradi va ishlab chiqadi.

Geografiya o'qitish metodikasi pedagogika fanlari tizimiga kiradi. Geografiya metodikasining asosini maktab geografiyasi, xususan tabiiy va iqtisodiy geografiya hamda ular bilan uzviy aloqada bo'lgan kartografiya, geologiya, iqtisod, biologiya, aholishunoslik va boshqa ko'plab fanlar tashkil qiladi. Ta'lim tarbiyaning umumiy qonuniyatlarini didaktika tahlil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, didaktikaning mohiyati ta'lim-tarbiya jarayoni hisoblanib, u aniq o'quv fanlari uchun ta'lim va tarbiya jarayoni bilan shug'ullanmaydi.

Geografiya o'qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo'lib, u o'quvchilarga geografiyadan puxta bilim berish, ularni har tomonlama etuk dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs qilib tarbiyalash va o'qitiladigan geografiya fanining maqsadini, ta'lim vazifalarini, mazmunini, metodlarini hamda geografiya o'qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi. Bilish nazariyasi geografiya o'qitish metodikasining metodologik asosini tashkil qiladi. Geografiya o'qitish metodikasi tadqiq qiladigan metodologik va nazariy muammolarga chet ellarda va O'zbekistonda geografiya ta'limi, geografiya va uning alohida kurslari bo'yicha o'qitish mazmuni, maqsadi va vazifalari, geografik bilimlarni egallashda ta'lim bilan tarbiyaning birligi, o'quvchilarda geografik bilim, ko'nikma va malakalar hamda dunyoqarashini shakllantirish, geografiya ta'limi jarayonining umumiy qonuniyatlari kiradi.

Geografiya o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- geografiya ta'limining maqsadi
- geografiya ta'limining mazmuni
- geografiya o'qitish metodlari
- geografiya fanini o'qitish va o'rganishni tashkil etish (ta'lim shakllari)
- o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilish imkoniyatlari
- geografiya ta'limining natijalari va boshqalar.

Yuqoridagi tarkibiy qismlar o'rtasida mustahkam aloqa mavjud. Masalan, o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish usullari hamda vositalaridan maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilishni taqozo qiladi.

Geografiya ta'limi metodikasining nazariy metodologik masalalari ko'pgina metodist-geograf olimlar A.E.Bibik, A.V.Darinskiy, G.P.Gerasimova, M.K.Kovalevskaya, I.S.Matrusov, L.M.Pancheshnikova, M.V.Rijakov, O.A.Mo'minov, X.X.Xasanov, P.G.Musaev va boshqalar asarlarida o'z ifodasini topgan. Geografiya ta'limi metodikasi fani umumiy metodika, metodikaning nazariy masalalari, tabiiy va iqtisodiy geografiyani o'qitish metodikasi kabi qismlardan iborat. O'z navbatida ularning har biri xususiy metodikalar (maktab geografiya kurslarini alohida-alohida o'rganish metodikalarini) o'z ichiga oladi.

Umumiy metodika maktab geografiyasi kurslari uchun o'qitish qonuniyatlarini ya'ni o'qitishning umumiy mazmuni va maqsadini tashkil etilishini, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari,

sinf dan tashqari ishlar va boshqalarni o'rganadi. A.V.Darinskiy umumiy metodikani geografiya didaktikasi deb aytgan edi. Xususiy metodika maktab geografiya kurslarining maqsadi, mazmuni, tarkibi, geografik bilim, ko'nikma malakalar shakllantirish, har bir kurs bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va kabilar bilan shug'ullanadi.

Geografiya ta'limi metodikasi - maktab geografiyasining ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlari, geografiya ta'limining mazmuni, geografiya o'qitishning shakl va usullari, ta'lim jarayonida geografiya o'qitish vositalari (dasturlar, darsliklar, atlas haritalar, o'quvchi va o'qituvchilar uchun ilmiy metodik qo'llanmalar va boshqalarni yaratish), o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishlari, ta'lim jarayonida o'quvchilar fikrlashining rivojlanishi va boshqalar bilan bog'liq vazifalarni hal qiladi. Rus pedagog-geografi A.Panchevnikova ta'biri bilan aytganda, geografiya ta'limi metodikasi fani quyidagi muammolarni, ya'ni o'qitish maqsadi **«geografiyani nima uchun o'qitamiz?»** geografiya ta'limi mazmunini (**nimani o'qitamiz?**), geografiya ta'limi vositalarini (**nimalar yordamida o'qitamiz?**) o'qitishning shakl va usullarini (**qanday o'qitamiz?**) tadqiq qiladi.

Geografiya o'qitish metodikasi fanining vazifalari:

- maktab geografiya kurslarining sinflar bo'yicha maqsadi, mazmuni va ahamiyatini belgilash va mazmunini takomillashtirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda geografiya fanidagi asosiy g'oya, fakt tushuncha va qonuniyatlarni ajratib olish;
- o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlab olingan bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradigan ta'lim usullarini aniqlash;
- geografiyaga oid ma'lumotlar asosida o'quvchilarda voqea va hodisalarga nisbatan dunyoqarash shakllantirish ularni milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'llarini ko'rsatib berish;
- o'quvchilarga amaliy ko'nikma va malakalarni singdirish imkoniyatlarini aniqlash;
- ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini oshiradigan va bilimlarini mustaqil egallashga yordam beradigan samarali metodlarni aniqlash;
- geografiya darslarida o'quvchilarga mehnat, kasb, ekologik, iqtisodiy, ahloqiy, estetik, milliylik tarbiya berish vazifalarini ochib berish;
- ta'limni tashkil etishning zamonaviy shakllarini, ularning samaradorligini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- sinalgan o'qitish metodlarini takomillashtirish;
- geografiya darslarida pedagogik texnologiya elementlarini qo'llashni takomillashtirish;
- kurslar bo'yicha o'quvchilarning yoshiga mos keladigan o'quv qurollariga bo'lgan talablarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish metodikasini yaratish;
- o'quvchilarni o'lkashunoslik va sinfdan tashqari ishlarini mazmuni turlari va metodikasi

bilan tanishtirish;

- geografiyaga oid ilmiy - ommabop adabiyotlarni yaratish;

Demak yuqoridagilardan xulosa qilib geografiya o'qitish metodikasi vazifalarini 3 ta guruhga ajratish mumkin:

1. Geografiya metodikasi o'quvchiga geografiyadan qanday bilimlar berishi zarurligi va har bir kursda beriladigan bilim, ko'nikma malakalarini shakllantirish yo'llarini aniqlashi;

2. Ta'lim jarayonini uyushtirish va tashkil etish shakllarini aniqlashni va har bir shaklga mos keladigan metod, o'quv jihozlari, sinfdan tashqari ishlar va boshqlarni belgilashi;

3. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish, jarayonida ularning tarbiyalanishi, ta'lim jarayonida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi kabilardan iborat bo'ladi.

2. Geografiya o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Geografiya ta'limi metodikasi geografiya fani bilan uzviy bog'liq bo'lib, u geografiya metodikasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Geografiya fanlari bilan aloqadorlik, maktab geografiyasi mazmunini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Maktab geografiyasi mazmuni uzluksiz takomillashib borishi tufayli keyingi yillarda maktab geografiya kurslarida tabiiy, hududiy ishlab chiqarish komplekslari, bozor iqtisodi kabi tushunchalarning kiritilishi, tabiiy sharoit va resurslardan oqilona foydalanish zaruriyatini tug'dirdi. O'quvchilarning TTK (TXM) va bozor iqtisodiga oid tushunchalar haqida puxta bilimga ega bo'lishi ularga ekologik, iqtisodiy tarbiya elementlarini singdirish imkoniyatlarini ham vujudga keltiradi. Demak geografiya o'qitish metodikasi ekologiya kartografiya, geologiya, iqtisod, fizika, biologiya va boshqa fanlar bilan mustahkam aloqaga ega.

Hozirgi kunda eng muhim muammolaridan biri geografiya darslarida jamiyat bilan tabiat, inson bilan tabiat o'rtasidagi murakkab aloqadorlikni o'rganish masalasi hisoblanadi. Shu tufayli ham maktab geografiya kurslariga geografik bilimlardan tashqari ekologik va iqtisodiy tushunchalar ham kiritila boshlandi. Geografiyaga yaqin bo'lgan fanlar o'qitish metodlari va vositalarini tanlashga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Buni geografiya ta'limiga kartografik, statistik, kuzatish, taqqoslash metodlarining kiritilish va ishlatilishidan bilsa ham bo'ladi. Chunonchi maktab geografiyasi kurslarini kartasiz, ko'rgazmali qurollarsiz, texnika vositalarisiz va zamonaviy kompyuterlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Geografiya o'qitish metodikasi geografiya fanining ba'zi bir tekshirish metodlaridan foydalanar ekan, o'quvchilarning bilimlarini yaxshiroq o'zlashtirishini va ularni geografiya fanining ba'zi tadqiqot usullari bilan tanishtirishni ko'zda to'tadi. Geografiya o'qitish metodikasi pedagogika fani tarmoqlariga kiruvchi didaktika, psixologiya fanlari bilan ham chambarchas bog'liq. Geografiya metodikasi didaktikaning asosiy koidalarini geografiya o'qitish jarayoniga tadbiiq etishda uning mazmuniga xos xususiyatlarni ham e'tiborga oladi. Didaktika geografiya o'qitish

jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi qonuniyat va munosabatlarni oydinlashtiradi va shu asosida o'qitishning maqsadi, mazmuni, usullari hamda o'qitish jarayonini jihozlashga doir talablarni belgilab beradi. Demak, didaktika barcha fanlar uchun ta'limning umumiy qonuniyatlari va nazariyalarini yaratsa, metodika didaktikaning fanlarni o'qitish haqidagi umumiy nazariyasini ma'lum bir o'quv fani, ya'ni geografiyani o'qitish jarayoniga tadbqiq etish bilan uni yanada aniqlashtiradi va to'ldiradi. SHunga asosan, didaktika va geografiya o'qitish metodikasi fanlari birbirlarini to'ldirib turadi deyishga to'la asos bor.

Geografiya o'qitishda o'quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyati va umuman ruhiy faoliyatini e'tiborga olmasdan turib, ularning o'quv faoliyatiga samarali ta'sir yetib bo'lmaydi. Shu tufayli geografiya metodikasi psixologiya fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Psixologiya fanining hozirgi bosqichdagi taraqqiyoti maktabda fanlarni o'qitish jarayonini ilmiy asosda har tomonlama chuqur tadqiq etish va uni o'qitishni yanada takomillashtirish uchun zarur imkoniyatlarni yaratib beradi. Geografiya o'qitish metodikasi ham geografiya o'qitish jarayonini o'rganishda psixologiya faniga tayanadi.

Psixologiya o'quvchilardagi ruhiy faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o'rgansa, metodika esa, o'quvchilarning ruhiy faoliyatini ularning geografiya ob'ekti va hodisalarini o'zlashtirishlari bilan bog'liq bo'lgan tomonlarnigina tadqiq qiladi. Metodika bilan psixologiyaning eng muhim bog'liqlik tomoni shundaki, bunda geografiya o'qitishning mazmuni va metodlari bilan ruhiy faoliyat orqali erishiladigan natijalar o'rtasidagi qonuniyatli bog'lanishlar tadqiq qilinadi.

Turli geografik ob'ektlarning kartadagi joylashishini fazoviy tasavvurlarsiz egallab bo'lmaydi. Bunda albatta psixologiya fani bilimlariga tayaniladi. Demak, geografiya ta'limi metodikasi o'qitishda yaxshi natijalarga erishish uchun o'quvchilarning geografiya materialini puxta o'zlashtirishi bilan o'quvchilarning ruhiy faoliyati o'rtasidagi qonuniyatli bog'lanishlarni ham o'rganadi, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda psixologiya faniga tayanadi va psixologik tekshirish metodlaridan ham foydalanish yo'llarini ko'rsatib beradi. SHunday qilib geografiya o'qitish metodikasi pedagogika fanining mustaqil tarmog'i bo'lib, u o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega bo'lib, boshqa fanlarga tayangan holda mazmunan boyib, takomillashib boradi.

2. Maktabda geografiya o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari.

O'qitish maqsadlarini aniqlash didaktika va geografiya o'qitish metodikasining eng muhim muammosidir. O'qitish maqsadi geografiya nima uchun o'qitiladi, degan savol bilan chambarchas bog'liq. O'qitish maqsadi maktab geografiyasining mazmunini, tuzilishini, o'qitish usullari va yo'nalishini belgilashda katta ahamiyatga ega. Barcha fanlar uchun o'qitish maqsadlarini aniqlashda avvalo didaktik tadqiqotlar amalga oshiriladi. "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va boshqa qonunlarda o'qitish maqsadini aniq belgilashga katta e'tibor berilgan. O'qitish maqsadini aniqlashda milliy qadriyatlar va jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari, qiziqishi albatta

e'tiborga olinadi, ya'ni o'quvchilar o'zi yashayotgan jamiyat uchun kurashadigan va qayg'uradigan bo'lishi zarur. Shu tufayli umumgeografik ta'limga o'quvchilar tarbiyasi va rivojlanishiga ta'sir qilishi nuqtai nazardan qarash kerak. Hozirgi zamon ishlab chiqarish tarmoqlari yirik sanoat, transport, agrosanoat komplekslari tarmoqlaridan iborat, ular tabiat kompleksi va uning komponentlariga keskin ta'sir qilib qolmasdan, balki atrof muhitning ifloslanishiga, tabiatdagi ekologik aloqalarning buzilishiga olib keladi. Ayniqsa hozirgi kunda Orol inqirozi davom etayotgan bir vaqtda tabiat va uning boyliklariga oqilona yondashish muammolari ko'ndalang bo'lib qoldi.

Tabiiy va iqtisodiy geografiyaning asosiy vazifasi jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi murakkab aloqadorlikni ochib berishdan iborat. Bu aloqadorlikni chuqur tahlillar o'tkazmasdan amalga oshirish mumkin emas. Bunda quyidagilarni e'tiborga olish kerak: a) jamiyat ishlab chiqarishi faoliyatining atrof muhitga ta'sirini o'rganish va bu o'rganishlar oqibatlarini oldindan aytish, uni ilmiy jihatdan asoslash; b) tabiiy resurslarni izlash, ularga iqtisodiy jihatdan baho berish va samarali foydalanish; v) tabiiy resurslar bilan atrof muhitni qo'riqlash o'rtasidagi aloqadorlikni ochish; g) hozirgi zamon ilmiy texnika inkilobiga tayanib, inson yashashi uchun qulay bo'lgan muhitni qo'riqlash yo'llarini tadqiq etish.

Iqtisodiy geografiya ishlab chiqarishning geografik joylashishini o'rganadi. Bunda ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlarini birgalikda tadqiq qilinadi. Uning tadqiqot predmetiga sanoat, qishloq xo'jaligi va transportni ijtimoiy, tabiiy, iqtisodiy omillarni e'tiborga olgan holda joylashtirishning qonuni va koidlarini o'rganish kiradi. Bularning barchasi ishlab chiqarishni hududiy joylashishi, mehnat manbalari, tabiiy sharoit va boyliklarni birgalikda o'rganishni takoza qiladi, iqtisodiy geografiya ijtimoiy masalalar bilan ham chambarchas bog'liq. Iqtisodiy geografiya iqtisodiy rayonlashtirish, iqtisodiy rayon, HICHMlar, iqtisodiy geografik o'rin, ishlab chiqarishni joylashtirishning umumiy masalalari, aholi joylashishi va boshqa masalalarni ham tadqiq qiladi. Ayniqsa "Inson va atrof muhit" muammosining jamiyat oldida ko'ndalang bo'lib turishi, iqtisodiy geografiya oldiga talay vaziflarni qo'yadi. Har bir geografiya o'qituvchisi geografiya ta'limi va uning alohida kurslari maqsadlarini bilishi shart. Agar o'qituvchi o'qitiladigan fan maqsadini bilmasa, yirik mavzular va alohida darsliklarning maqsadini umuman to'g'ri aniqlay olmaydi. Geografiya fani deyarli barcha sinflarda o'qitilganligi tufayli uning maqsadi ham ko'p qirralidir. Geografiya ta'limi maqsadlarini uch guruhga ajratish mumkin:

1. Geografiya o'qitishning ta'limiy maqsadlari:

- o'quvchilarga tabiiy, iqtisodiy, kartografik va boshqa geografiya fanlarining asoslarini o'rgatish. Zero, tabiatni qo'riqlash va undan oqilona foydalanishning tabiiy-ilmiy va texnik-iqtisodiy tomonlarining ochilishi, bu jamiyat hayoti va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun imkon yaratsin;

- o'quvchilarni iqtisodiy, ekologik ta'lim bilan qurollantirish;

-o'quvchilarni tabiiy geografik va iqtisodiy geografik ob'ekt va hodisalarni o'rganish usullari bilan qurollantirish;

-o'quvchilarda geografik madaniyatni shakllantirish;

-o'quvchilarni kartalar, ma'lumotnomalar bilan ishlay olishga, kundalik matbuot materiallarini o'qishda geografik bilimlarni qo'llay olishga o'rgatish;

-o'quvchilarni geografiya va unga aloqador bo'lgan fanlar sohasida o'z bilimlarini oshirish qobiliyatlari shakllantirish;

-o'z respublikasining tabiiy va Iqtisodiy geografiyasiga oid bo'lgan bilimlarni chuqur bilish va boshqalar.

2. Geografiya o'qitishning tarbiyaviy maqsadlar:

-o'quvchilarda tabiatga, xo'jalikka, tabiat bilan xo'jalik o'rtasidagi aloqalarga nisbatan to'g'ri ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;

-o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy g'urur xislatlarni shakllantirish;

-o'quvchilarga turli mamlakatlarning xo'jalik yuritish usullari, tabiat boyliklaridan unumli foydalanishi, aholini ish bilan ta'minlash kabi masalalar mohiyatini ochib berish;

-zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti davrida o'quvchilarning mehnat tarbiyasi, kasb tanlashi, umuman hayotda o'z o'rnini topishishiga ko'maklashish.

-o'quvchilarda o'z mamlakati iqtisodiyoti yutuqlari bilan g'ururlanish, o'zi yashab turgan jamiyatning haqiqiy egasi deb xis qilishi kabi xislatlarni shakllantirish.

3. O'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish maqsalari.

-o'quvchilarda kuzatuvchanlik, fikrlash, esda saqlab qolish, nutq kabi xislatlarni shakllantirish va rivojlantirish;

-o'quvchilarni kuchi etadigan darajada geografik muammolarni echishga o'rgatish;

-geografik narsa va hodisalarga nisbatan atroflicha yondashish, o'z fikr va mulohazalarini bevosita kartaga bog'lay olish qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish.

Ta'lim maqsadi geografiya fani mazmuni bilan chambarchas bog'liq. Demak, ta'lim maqsadini yuqori pogonaga kutarish uchun, geografiya ta'limi ilmiy jihatdan rivojlanishda bo'lishi kerak. Ta'lim maqsadlari aniq ilmiy siyosiy yo'nalishga ega bo'lishi bilan birga u hayot bilan uzviy, ekologik, iqtisodiy, kasbiy, nafosat, bilimlarni ham mujassamlashtirgan bo'lishi kerak.

Geografiya ta'limi maqsadlari dasturlar, darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ta'lim vositalari va ta'limni tashkil etish shakllari bilan ham chambarchas bog'liq. Vaqt o'tishi bilan maktablarda geografiya o'qitish maqsadlari ham o'zgarib turadi. Kelajakda bunday o'zgarishlar yanada kuchayadi. Ilmiy texnika taraqqiyotining rivojlanishi geografiya fanining sifat o'zgarishlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Har 10-15 yilda ta'limda islohotlarning amalga oshirilishi, geografiya o'qitish jarayoniga ham ta'sir kilmadan qolmaydi. Natijada geografiya bo'yicha o'quv

dasturlari, o'quv rejalari tubdan o'zgarishiga sabab bo'ladi. Demak geografiya fani mazmunining o'zgarishi geografiya o'qitish maqsadlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Maktab geografiya kurslari maqsadlarini aniqlamasdan turib, geografiya o'qitishni amalga oshirish talay qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday qiyinchiliklar quyidagilarda namoyon bo'lishi mumkin.

1. Aniq maqsadlarsiz dasturlar tuzish ancha mushkul bo'lib qoladi.
2. Maqsadni aniq belgilamasdan turib, metodlarni aniqlab bo'lmaydi.
3. Geografiya o'qitish maqsadlarini aniqlamasdan, o'quvchilar bilimni tekshirishning samarali yo'llarini yaratish qiyinlashadi.
4. Geografiya ta'limining kelajakdagi (20-25 yil ichida) mazmunan qanday bo'lishini aniqlamasdan turib, o'quv predmetining ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni aniqlash qiyin kechadi.

Demak, geografiya o'qitishdagi maqsadni belgilamasdan turib, geografiya o'qitishning ahamiyatini ham belgilab bo'lmaydi. Bundan 100 yil oldin geografiya ta'limida asosan karta va onda-sondagina har xil rasmlardan foydalanilgan bo'lsa, elliginchi yillarning boshlariga kelib, darslarda aerofotosurat, televidenie, kinofilmlardan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi. Bugunga kelib esa, geografiya o'qitishda xilma-xil ta'lim vositalari paydo bo'ldiki, bular geografiya o'qitish maqsadlariga ham ta'sir kilmadan qolmadi. EXM dan tortib kosmik suratlargacha, kompyuterdan tortib proektor va boshqa xilma-xil ko'rgazmali qo'llanmalargacha geografiya o'qitish mazmunini boyitdi. Ta'limda texnologiya elementlari paydo bo'ldi. Bugungi talaba va o'quvchi rivojlangan va taraqqiy etgan madaniy muhitda yashamoqda, ularni o'rab olgan muhit bundan 20-30 hatto 50 yil oldingiga qaraganda keskin farq qiladi.

Geografiya fanida shakllantiriladigan bilimlar o'z mazmuniga ko'ra xilma-xil bo'lib, bunday bilimlarning aksariyati kuzatuvlar natijasida shakllanadi, ularni kuzatuvchilar dala sharoitida, harita va rasmlar yordamida ham to'plashi mumkin. Shu tufayli bu bilimlarni o'rganish ko'p jihatdan fakt va ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish bilan uzviy bog'liq. O'quvchilar geografiyani o'rganar ekan, u yoki bu hodisani keltirib chiqaradigan sabablarning murakkab ekanligini bilib oladilar. Bu murakkablik xilma-xil omillar tufayli shakllanganligini anglaydilar.

Barcha hududiy komplekslar, regionlardagi tabiiy xususiyatlar tabiiy va antropogen omillarning o'zaro ta'siri tufayli vujudga keladi. Antropogen omillar turli ko'rinishlarda xususan siyosiy, tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik mazmun kasb qilgan holda bo'lishi ham mumkin.

Geografiya o'quvchilarni ko'pgina muammolarga sergak qarashga ularni echishning konstruktiv yo'llarini topishga kumaklashadi. Bu fan insonlarning savodxonlik darajasini ta'minlashda ham cheksiz imkoniyatlarga ega. Inson bilan atrof muhitning o'zaro bog'liqligi ming yillardan buyon davom kilmoqda. Bu bog'liqlikni oqilona yuritish faqat geografik bilimlar puxta egallagandagina amalga oshiriladi. Demak, yuqoridagilarning aksariyati geografiya ta'limi maqsadlarida aniq aks etishi davr talabidir.

3. Maktab geografiyasining mazmuni

Ma'lumki geografiya eng qadimgi fanlardan biri. Uning asosiy vazifasi biror mamlakat hududida va butun er sharidagi tabiat, aholi va xo'jalikni o'rganishdan iborat bo'lgan. Hozirgi kunda geografik tadqiqotlar natijalaridan, tabiiy resurslar, qishloq xo'jaligi uchun erlar ochishda, sanoat korxonalarini barpo etishda aholi turar joylari, infrastruktura tarmoqlarini oqilona joylashtirishda keng qo'llanilmoqda.

Hozirgi kundagi maktab geografiyasining asosiy mazmuni 60- yillarning oxirlarida shakllantirildi. Unga maktablarimizda 30-yillarda ishlab chiqilgan dasturlar asosida ta'lim tarbiya ishlari olib borildi. 60-yillardan boshlab tabiiy geografiya fanida chuqur o'zgarishlar ruy berdi, yangi-yangi tabiiy boyliklar ochildi, quruqlik va dunyo okeanidagi fundamental tadqiqotlarning o'tkazilidi, bular maktab geografiyasi mazmuniga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Geografiya hududlar va mamlakatlarni tasvirlovchi fan bo'lib qolmasdan, balki bevosita amaliy tadqiqotlar olib boruvchi fundamental fanga aylandi.

Geografiya fanlari tizimi ikki yirik qismga: tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga bo'linadi. Tabiiy geografiya geografik qobiqni, voqea va hodisalarini hamda unda sodir bo'ladigan qonuniyatlarni o'rgansa, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya jamiyatdagi voqea va hodisalar, ishlab chiqarish, xo'jalik va aholini joylashishi qonuniyatlarini tadqiq kiladi. Tabiiy va iqtisodiy geografiya o'z navbatida bir qancha fanlarga bo'linadi. Tabiiy hududiy komplekslarni tashkil etgan qismlarni o'rganish tabiiy geografiyaning (geomorfolgiya, iqlimshunoslik, gidrologiya, okeanalogiya, tuproqshunoslik va boshqalar.) qator maxsus tarmoqlariga to'g'ri keladi. Bu fanlar umumiy er bilimi va mintaqa tabiiy geografiyasi bilan chambarchas bog'liq.

Iqtisodiy geografiya o'z navbatida ikkita asosiy qismga bo'linadi: umumiy iqtisodiy geografiya (butun yer sharida aholining va xo'jalikning joylashishi tarkibini o'rganish) va mintaqaviy (regional) iqtisodiy geografiya (alohida mamlakatlar va hududlar misolida aholi va ishlab chiqarishning joylashishini o'rganadi) bo'linadi. Iqtisodiy geografiya o'z navbatida bir necha tarmoq fanlarga: sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, shaharlar, qishloqlar geografiyasi kabi o'nlab tarmoqlarga bo'linib ketadi. Geografiya fanlari tizimiga tabiiy va iqtisodiy geografiyaga deyarli bir xil aloqador bo'lgan mamlakatshunoslik va kartografiya fanlari ham kiradi. Maktab geografiyasi geografiya fani to'plagan bilimlarni o'quvchilarga yetkazishda quyidagilarga amal qilishi maqsadga muvofiq:

1. O'quvchilar yoshiga mos keladigan va ular o'zlashtira oladigan darajadagi bilimlarni berishi;
2. O'quvchilarga to'la shakllangan va hayotda eng ko'p qo'llaniladigan bilimlarni berishi kerak.

Maktab geografiyasining hozirgi shakldagi mazmunini belgilashda geograf-metodist olimlar

N.N.Baranskiy, A.S.Barkov, A. A.Borzov, A.A.Polovinkin, I.A.Vitver, S.V.Chefranov, P.T.Terexov, V.G.Erdeli, X.X.Xasanov, Z.M.Akramov, O.A.Mo‘minov, P.G.Musaev, P.G‘ulomov va boshqalarning xizmatlari katta bo‘ldi. Ilmiy texnika taraqqiyoti va geografiya fanining ko‘proq amaliy fan bo‘lishi maktab geografiyasi mazmunini sifat jihatdan o‘zgarishiga yordam berdi. 50-yillardan boshlab maktab dasturlari mazmuniga amaliy ishlar kiritila boshlandi. Hozirgi kunda esa har bir kurs maxsus amaliy ishlar tizimiga ega. Amaliy ishlarni uyushtirishning majburiyligi ta‘limni hayot bilan yaqinlashtirishga yordam beradi.

Maktab geografiyasining mazmuni hozirgi zamon geografiya fani taraqqiyoti bilan belgilanadi, ya‘ni geografiya fani qanchalik rivojlansa, maktab geografiyasi ham unga bog‘liq holda shunchalik rivojlanishda bo‘ladi. Geografiya ta‘limi jarayonida o‘quvchilar asosiy geografik tushunchalar va qonuniyatlar tizimini egallashlari kerak. Ta‘lim jarayonida geografik ob‘ektlar va hodisalar, sabab-oqibat nuqtai-nazaridan eritilishi lozim. O‘quvchilar tabiiy geografiya asoslarini bilishlari uchun geomorfologiya, iqlimshunoslik, okeanologiya, quruqlik gidrologiyasi, tuproqshunoslik, geologiya, geofizika, geoximiya va boshqa fanlardagi ma‘lumotlarni bilishlari va o‘rganishlari kerak. Ayniqsa hozirgi kunda tabiiy geografiya mazmuniga tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va uni qo‘riqlash, inson bilan tabiat o‘rtasida ketaetgan jarayonlar haqidagi bilimlar keng o‘rin olishi kerak.

Iqtisodiy geografiyani o‘rganish o‘quvchilarga iqtisodiy geografik o‘rin, tabiiy sharoit va boyliklariga iqtisodiy jihatdan baho berish, territorial ishlab chiqarish kompleksi, geografik mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, agrosanoat kompleksi, dehqon fermer xo‘jaligi iqtisodiy rayonlar, shaharlar, qishloqlar kabi tushuncha va kategoriyalar haqida bilimlar berilishi lozim. Ayniqsa o‘quvchilar aholi joylashishi va mehnat resurslari, hududiy mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni joylashtirishning muhim qonuniyatlari va hududiy ishlab chiqarish komplekslarining vujudga kelish qonunlari, bozor iqtisodi munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘nlab tushunchalarni puxta egallashlari kerak.

Barcha fanlar qatori geografiyaning ham eng asosiy usuli kuzatishdir. Geografik ob‘ekt va hodisalarni uzoq vaqt jarayonida kuzatish shu ob‘ektlar haqida batafsil va atroflicha bilimlar olish imkoniyatini yaratadi. Qisqa muddatli kuzatishlar (maktab geografiya maydonchasi va ekskursiyalar)da keng tarqalgan. Biron yo‘nalish bo‘yicha vaqt va zamonda kuzatish olib borishda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bunda rel‘ef geologik tuzilish, o‘simliklar, tuproqlar haqida ma‘lumotlar to‘plash mumkin. Maktab sharoitida yo‘nalish bo‘yicha kuzatishlar, ekskursiyalar olib boriladi.

Landshaft va iqtisodiy kuzatishlar jarayonida statistik ma‘lumotlar to‘planadi, ular iqtisodiy va iqtisodiy-geografik ma‘lumotlarni umumlashtirishda foydalaniladi. Yuqoridagi usullar tabiiy va dala sharoitida keng qo‘llaniladi. Ulardan geografiya ta‘limida taqqoslab dars o‘tishda keng

ishlatiladi. Geografiya ta'limida laboratoriya metodidan ham samarali foydalanish zarur. Tog' jinslari, foydali kazilmalar, tuproqlar, suvlarning natural namunalari geografiya kurslaridagi amaliy ishlarni uyushtirishda juda ko'1 keladi. Geografiya o'qitishda yer haqidagi umumiy belgilarni berishda eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan yana biri geografik ob'ektlarning modellardan foydalanish hisoblanadi. Modellarning eng asosiy turlariga: globus, kartalar va statistik materiallar kiradi. Kartografik tadqiqot metodlarisiz geografiya tali-mini tasavvur etish qiyin. Kartografik tadqiqot metodlari o'quvchilardan juda yuqori darajada tayyorgarlikni talab qiladi.

2-ma'ruza. Geografiya ta'limi metodikasining shakllanishi va rivojlanish tarixi

Reja

1. O'rta Osiyoda geografik bilimlarning rivojlanishi va geografiya o'qitish metodikasining shakllanish bosqichlari.
2. Mustamlaka davrida o'qitish metodikasining rivojlanishi.
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda geografiya ta'limi.

Tayanch iboralar

Geografik bilimlar, didaktika, Sharq geografiyasi, Ma'mun akademiyasi, geografik koordinatalar, geografik kenglik, geografik uzunlik

1. O'rta Osiyoda geografik bilimlarning rivojlanishi va geografiya o'qitish metodikasining shakllanish bosqichlari.

Geografiya o'qitish metodikasi fani uzoq shakllanish tarixiga ega. Chunki bu fan bevosita geografik bilimlarning shakllanishi bilan bevosita bog'liq. Geografik bilimlar ibtidoiy jamoa tuzumidan boshqa barcha formatsiyalarda shakllandi va rivojlandi. Geografik bilimlar mukammallasha borgani sari kishilar o'z sayohatlarini, xotiralarini, yurishlarini oddiy chizmalarda aks ettirgan va shu tariqa geografik kartaning yaratilishiga asos bo'luvchi fakt va ma'lumotlarni to'plaganlar. Qadimgi Rim, Misr, O'rta Osiyo kabi davlat va hududlarda geografik bilimlar birmuncha taraqqiy etgan.

Tarixchilar Xorazm madaniyatini eramizdan 2 ming yil ilgari vujudga kelgan deb ta'kidlaydilar. Buni Xorazm hududida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar ham tasdiqlamoqda. Xorazm iqtisodiyoti qadim zamonlardayoq yuqori darajada taraqqiy etgan. Buni eramizning 1-ming yilligida qazilgan juda katta sug'orish kanallari tarmog'i isbotlashi mumkin. Murakkab sun'iy sug'orish boshqa sharq mamlakatlaridek qumlar bilan o'ralgan Xorazm dehqonchiligining ham asosi bo'lib, u Xorazmliklarga qishloq xo'jaligini rivojlantirishda katta yutuqlarga erishish imkonini bergan. Qadimiy Xorazm qurilish texnikasi, irrigatsiya inshootlari, qal'alari bilan mashhur bo'lgan. Xorazm juda qadim zamonlardan buyon Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq, Kavkaz, Yevropa davlatlari bilan yaqindan savdo iqtisodiy aloqada bo'lib kelgan.

XII-XIII asrlarda Ko'xna Urganch Xorazmning eng yirik madaniy savdo shahri hisoblangan. Xorazmda iqtisodning taraqqiy etishi o'z navbatida fan, san'at, madaniyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Xorazmda yozuv ham juda qadimdan mavjud bo'lgan. Tuproqqal'a saroyi harobalaridan topilgan teriga va yog'ochga yozilgan yozuv va xujjatlarning topilishi buning yorqin misolidir. Murakkab irrigatsiya inshootlarini qurish, qal'alar bunyod etish, hisob-kitoblarni bajara olish yerlarning past balandliklarini aniq bilishni taqozo etar, bularni bajarish esa geografik bilimlarsiz mumkin emas edi. Xorazmning qumlar va cho'llari oralig'ida joylashganligi ularni uzoq-uzoqlarda joylashgan davlatlar bilan savdo sotiq ishlarini ham yaxshi bilishni taqozo qilardi. Sug'oriladigan dehqonchilikni amalga oshirish va uni rivojlantirish uchun kalendarlar (taqvimlar) tuzish zarur edi. Bularning barchasi Xorazmda geodeziya, geografiya, astronomiya fanlarining paydo bo'lishiga va rivojlanishiga zamin yaratdi. Xorazmda II asrga oid bo'lgan kalendarlarning topilishi va ularning mavjudligini Beruniy o'z asarlarida yozib qoldirgan.

IX asrda Xorazmning mashhur olimlardan biri matematik, geograf, astronom Muhammad Xorazmiy olamga keladi. Muhammad Xorazmiy O'rta va yaqin sharq mamlakatlari geografiyasi rivojlanishida yangi davr ochgan birinchi asar muallifi edi. Uning "Yer manzaralari" risolasi taxminan 836-847 yillarda yoziladi. Unda dunyodagi 537 shaharning koordinatalari va qisqacha izohi berilgan. Aslida bu kitob kattagina bir geografik atlasning izohnomasi bo'lgan. Xorazmiy bu kitobini yozishda Ptolemeyning "Geografiya" asaridan qisman foydalangan. Muhammad Xorazmiy o'z asarlarida juda ko'p joylarning geografik sharoitini ko'rsatuvchi jadvallarni tavsiya etadi. U o'z asarlarida tog'lar, dengizlar, orollar, daryolar jadvallarini va tasvirini keltiradi. Xorazmiy bunda yer yuzasining kishilar istiqomat qiladigan qismlarini o'sha davrda qabul qilingan etti iqlim kenglik zonalariga bo'lish prinsipiga amal qiladi. 9-asrdan e'tiboran arab va fors tillarida yaratilgan barcha geografik asarlar Xorazmiy kitobiga asoslangan. Shunday qilib, Xorazmiy butun Sharq geografiyasining asoschisi bo'lib qoldi.

Xorazmiy iqlimlarni kenglik darajasiga qarab bo'lishdagina katta originallik ko'rsatib qolmasdan, yaratgan kartalari bilan mashhur. X asrda Xorazmda savdo, qishloq xo'jaligi, xunarmandchilik yanada rivojlanadi. Taxminan 1010 yilda Xorazm shoxi Mamun II ning saroyida ilmiy to'garak tashkil etilib, keyinchalik u "Mamun akademiyasi" nomi bilan yuritiladi. "Mamun akademiyasi" O'rta Osiyodagi olimlarni ma'lum davrgacha birlashtirib turadi. 1017 - yilda bu akademiya o'z faoliyatini tugatadi. Bunga Xorazmning Maxmud G'aznaviy tomonidan bosib olinishi sabab bo'ladi. Podsho Xorazmda ijod qilayotgan ko'pchilik mashhur olimlarni G'aznaga chaqirib oladi. Shulardan biri Abu Rayxon Beruniy edi. U 973 yilda Janubiy Xorazmning markazi hisoblangan Kot shahrida tug'iladi.

O'rta asrning mashhur olimi astronom va matematik Abu Nasr ibn Iroq Beruniyning ustozlari edi. 995 yilda Kot shahri Mamun I tomonidan zabt etiladi. Beruniy o'z vatanini tashlab ketishga

majbur bo'ldi. U dastlab Kaspiy bo'yidagi Jurjon shahrida keyin Ray (Texron) shaharlarida istiqomat qiladi. Beruniy Jurjonda "Osari Boqiya" ("O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar") nomli asarini yaratadi. Asarda yunonlar, eroniylar, arablar, sug'diyonlar, xorazmliklarning kalendar sistemalarini mufassal yoritadi va ularni qiyoslaydi. Asar "Kun va tun ekanligi haqida so'z", "Oy va yillarning moxiyati", "Oyning manzillari haqida so'z" degan boblardan iborat bo'ldi.

Beruniyning "Hindiston tarixi" asarining katta qismi astronomiya va geografiyaga bag'ishlanadi. U 995 yilda dunyoda birinchi bo'lib yer shari shakli globusini yasaydi. Lekin u yasagan asbob bizgacha yetib kelmagan Beruniyning bu globusni yaratganiga 1995 yilda 1000 yil to'ldi. Beruniy yaratgan asarlarning aksariyatida geografik bilimlar keng o'rin egallaydi. Beruniy geografiya fanida o'tmishdoshlarining yutuqlarini to'la egallabgina qolmasdan, balki ularga juda ko'p yangiliklar va qo'shimchalar kiritadi. Beruniyning "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar" asarida geografik bilimlar keng o'rin egallaydi. Asarning ayrim boblari kenglik va uzoqliklarga, joylarni iqlimiga qarab bilish va xakozolarga bag'ishlanadi.

Beruniyning yer sathida dengizlarning taqsimlanishi to'g'risidagi nazariyasi uning dunyoqarashi nihoyatda keng ekanligini ko'rsatadi. U bu asarida o'zidan oldin o'tgan geograflarning ma'lumotlarini o'zi to'plagan ma'lumotlar bilan to'ldiradi. Beruniy o'zining geografik tadqiqotlarida o'sha zamon sayyohlari, savdogarlari, kuzatuvlari va xabarlaridan ham o'rinli foydalangan. U Boltiqbo'ylari, Oq dengiz, Sharqiy Yevropa kabi uzoq va kam o'rganilgan mintaqalar haqida ham tasavvurga ega edi.

Beruniy ekvatorning janubida ham hududlar mavjudligini aytadi. Bu to'g'rida u "bizda yoz bo'lgan paytda u yerda qish bo'ldi" deb yozadi. U Shimoliy hududlar haqida ham ma'lumotlar keltiradi. XII asrda yashab ijod etgan arab sayyoxi va geografi Yoqutning aytishicha, u bir kuni Maxmud G'aznaviyga uzoq joydan elchi kelganini, elchi kelgan yurtida quyoshning, hamma vaqt ko'rinib turishini, u yerda tun bo'lmasligini, quyoshni kuzatish mumkinligini hikoya qilib beradi. Buni eshitgan Maxmud G'aznaviy gazablanib kelgan kishini dindan qaytganlikda ayblaydi. Shunda Beruniy uni himoya qilib, u aytayotgan narsa to'g'ri ekanligini faktlar bilan isbotlab tushuntiradi. Shundan keyingina elchining aytganlariga Maxmud G'aznaviy ishonib u bilan yaxshi muamola qila boshlaydi.

Beruniyning yerda dengizlarning taqsimlanish nazariyasi O'rta asr geograflari o'rtasida munosib o'rin egallagan. O'sha davr geograflari ham dengizlar taqsimlanishi haqida ko'p fikrlar aytganlar, ammo o'z davri uchun nisbatan mukammal va puxtaligi bilan Beruniy nazariyasi ustun ekanligini undan 200 yil keyin yashab o'tgan arab geografi Yoqut aloxida uqtirgan edi. "Munajjimlik san'atida boshlang'ich tushunchalar"dan tashqari, Beruniy tasviriy geografiyaning masalalari bilan ham o'zining boshqa asarlarida ham ko'proq to'xtaladi. Beruniy asarlarining deyarli ko'pchiligi bizgacha yetib kelmagan. Jumladan uning mashhur "Iqlimlarining bo'linishi"

asari faqat nomidagina ma'lum. Alloma o'zining "Hindiston" asarida geografiyaga oid juda boy meros qoldirgan. U bu asarida okean, uning soxillari, davlatlarning katta-kichikligi haqida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. Asarda Hindiston daryolari alohida bob qilib berilgan. Unda hind daryolarining boshlanishi, rejimi haqida ham anchagina geografik ma'lumotlari qoldirgan. Beruniy bu asarida hindlarning geografiya sohasidagi mavjud bilimlarini ham umumlashtirishga harakat qiladi.

Beruniyning zamonimizgacha yetib kelgan geografik asarlari orasida eng muhim "Turar joylar orasidagi masofalarni tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash haqida" deb ataladi. Asarda yer yuzining odamlar yashaydigan qismini iqlimlarga bo'linadi. Ayniqsa uzoq viloyatlar haqida juda ko'p ma'lumotlar keltiradi. U bu asarida ettinchi iqlimning qarama - qarshi tomonidagi mamlakatlar aholisi va iqlimi haqida so'z yuritadi. Bu yerdagi odamlar qishda chanalarda, chang'illarda yurishini izohlab shunday yozadi: "Kishilar u yerga valako'shalar" (chanalar) bilan keladilar, ularga tortib qorlar ustidan yurib boradilar yoki ularni itlar tortadilar. Ikkinchi yurish vositasini suyakdan yasaydilar va oyoklariga bog'lab qiska vaqt ichida uzoq masofalarni bosib o'tadilar"(lija)deydi.

Beruniy "Al Qonun va Al Ma'sud" asarida geografiyaga oid ma'lumotlarni keltiradi. U bu asarida Hindiston, O'rta Osiyoning, Xitoy, Tibet bilan bo'lgan chegaralarni u yerda yashovchi aholini tariflaydi. Meteorologiya va iqlimshunoslik fani o'rganayotgan ko'pgina masalalarni ham Beruniyning qator asarlarida uchratish mumkin. Allomaning g'arbiy qit'aning mavjudligi haqidagi bashorati alohida diqqatga sazovvordir. Uning bu aytganlariga asoslanib, Beruniyni Amerika qit'asining kashfiyotchisi deya olishimizga bemalol asos bor.

Beruniy geografiyaning matematik masalalari bilan ham juda mukammal shugullanadi. U bu soha bo'yicha o'nlab risolalar yozadi. Afsus ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Beruniyning matematik geografiya bo'yicha eng qiziqqan masalalaridan biri geografik ob'ektlarning kenglik va uzoqliklarini aniqlash metodini ishlab chiqish va takomillashtirishi edi. Geografik koordinatalarni aniqlash metodlari Beruniygacha ham mavjud bo'lgan. Bu borada grek olimlari ham yirik tadqiqotlar olib boradilar va yaxshi natijalarga erishadilar. Beruniy va boshqa O'rta Osiyo olimlari grek olimlari qoldirgan merosni har tomonlama kengaytiradilar va takomillashtiradilar.

Beruniy o'z zamondoshlari va o'zidan oldin o'tgan olimlarning geografik kenglik va uzoqliklarni aniqlashdagi turli metodlarini bir-biriga taqqoslaydi. Ularning aniqlik darajasini belgilaydi. Boshqalarning bu boradagi ishlariga tanqidiy yondashib, ularga o'z fikrini yozib qoldirgan. Masalan: Ibn Sino Jurjonning uzoqlik va kengligini aniqlashda xatog'a yo'l qo'yganligini Beruniy shunday deb yozadi. "Abu Ali o'zining nihoyatda aqlli va ziyrak bo'lishiga qaramay astronomik jadvallarni qo'llashda ancha zaif edi" deydi. U Ibn Sino tomonidan olingan

natijalarning aniq bo'lmaganining sababini ko'rsatib, "agar Ibn Sino o'z zamondoshlarining yangilish o'lchovlariga suyanmay, masofalarni o'zi aniqroq belgilaganida edi, uning o'lchovlari to'g'ri bo'lgan bo'lur edi" deb yozadi.

Beruniy "Hindiston" asarida quyidagi shaharlarning geografik koordinatalarini yozib qoldiradi: Lahor- $34^{\circ} 10'$; G'azna- $33^{\circ} 35'$; Kobul- $33^{\circ} 47'$; Dunpur- $34^{\circ} 2'$; Purshavar- $24^{\circ} 44'$; Jilom- $33^{\circ} 20'$; U "Ma'sud Qonuni" asarida ham yer yuzidagi ko'pgina geografik ob'ektlarning kenglik, uzunliklarini va ularning jadvallarini keltiradi. Beruniyning kuzatishlari va o'lchash ishlari juda aniqlik bilan bajarilgan. Xususan geografik koordinatalari borasidagi ishlari hozirgi zamondagidan juda oz farq qiladi. Ammo uning bu boradagi o'lchash natijalari o'rta asr olimlari natijalaridan bir muncha aniqligi bilan ajralib turadi. Bu borada Beruniy tarixda birinchi bo'lib, ko'pgina geografik kenglik va uzoqliklarini 15° gacha aniqlikda hisoblaydi. Beruniy o'z tadqiqotlarida grek olimi Ptolomey asarlarida sayyoh va savdogarlar materiallaridan foydalanliklarini etirof etadi. Ammo ularning aksariyatlaridan taqqoslash maqsadida foydalanadi, o'zi esa ko'proq kuzatuvlar olib boradi. Bu Beruniyga joylarning kenglik va uzoqliklarini aniqlashda yangi original metodlar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Tadqiqotchilar va olimlar kenglikni aniqlash uchun XVI asrda Tixo Brago qo'llagan metod va formulalar Beruniy tomonidan yaratilganligini, uning "Al-Qonun Al-Ma'sud" asarida batafsil yoritilganini e'tirof qiladilar.

Beruniy Buxoro shahrining kengiligini $39^{\circ} 20'$ deb o'lchaydi. Buxoroning hozirgi aniqlik bilan o'lchangan kengligi $39^{\circ} 46'$; ya'ni xatolik atigi 26 minutga teng. Boshqa ob'ektlar va punktlar haqidagi ma'lumotlar ham xuddi shunday xatoliklar bilan farq qiladi. Beruniy geodeziya sohasida ham izlanishlar olib borgan. U Yerning o'lchamlarini aniqlashga harakat qilgan. Ma'lumki, Hindiston va grek olimlari Yerning shar shaklida ekanligini bilar edilar va bu borada turli xil natijalarga erishadilar. Grek olimlaridan Eratosfen eramizdan II asr ilgari yerning aylanasini 250 000 stadiya, Ptolomey esa 100 000 stadiya deb hisoblaganlar. IX asrda Bog'dod astronomlari bu borada dastlabki o'lchash ishlarini bajaradilar. Ular Yer meridiani yoyining bir darajasini o'lchaydilar. Beruniy o'zining "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar" asarida shunday deb yozadi: "Yerni o'lchash haqida qarama-qarshilik chiqishi turgan gap, chunki bunga o'xshagan ilmiy masalalar kishilarning uzoq tajriba va kuzatishlariga asoslangan bo'lsa kerak. Barcha xalqlar bu masalani har xil o'lchov birliklarida bayon qiladilar va bular ularning mamlakatlarida qo'llanilmokda. Masalan, greklar stadiyalarda, hindlar yaxanlarda ko'rsatadilar. Ularning asarlari arab tiliga tarjima qilinganda, ularning xaqiqiy birlik o'lcham kattaligi noma'lum bo'lib qoladi".

Beruniy Yer kattaligini bir necha bor o'lchab ko'radi. Tekshirish ishlarining ko'p qismini Hindistonda olib boradi va bu borada yangi usul ishlab chiqadi. Bu metod "Yer o'lchami tog' tepasidan ko'rinadigan pastlik gorizontni kuzatish yo'li bilan aniqlash haqida" asarida bayon

etilgan. Afsus asar bizgacha yetib kelmagan. Yer aylanasi uzunligini o'lchash uchun qanday joy tanlagani haqida u shunday deb yozadi: "Bu maqsad uchun men Hindistonda baland tog' ustidagi tekislikni tanladim, tekislikni sathi dengiz sathidan ham tekisroq edi". Beruniy yer sathi xajmini hisoblab, meridian yoyi uzunligini 1 gradusi 111,6 km (111,1 km hozirgisi) teng ekanligini o'lchaydi. To'g'ri, Beruniy o'z o'lchash ishlarini "farsang birligi" bilan bajaradi. Beruniyning bu metodlari keyingi davrlarda ancha unutilib ketadi. Faqat Yevropada XVI asrda uning o'lchash ishlari qaytadan kashf etiladi.

Beruniy o'zining "Burjlar va mamlakatlar proeksiyasi" haqida degan asarida kartografik proeksiyalar haqida ham qator tadqiqotlar qiladi. Olimlar uning ba'zi proeksiyalarini hozirda ham o'z amaliy ahamiyatini yo'qotmaganini ta'kidlaydilar. Alloma biologiya, mineralogiya sohalarida ham buyuk kashfiyotlar qiladi va o'lmas asarlar yozib qoldiradi. U 1048 yilda yozib tamomlagan "Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo'yicha ma'lumotlar" kitobi uning minerologiya sohasiga oid eng buyuk va eng so'nggi asari sanaladi. Asarning arabcha matni 1937 yilda Hindistonda nashr etildi. Bu kitob 2 qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi minerallarga, ikkinchi qismi metallarga bag'ishlangan. Beruniy mineralogiya va fizika fanlari tarixida birinchi bo'lib minerallarning solishtirma og'irligini aniq o'lchaydi va bu borada maxsus asbob ham yaratadi. Olim aniqlagan solishtirma og'irliklar hozirgi zamon fanida qo'llanayotgan ma'lumotlardan deyarli farq qilmaydi. Beruniy O'rta Osiyo foydali kazilmalari haqida ham muhim tadqiqotlar qiladi. U Farg'onada asfalt, neft va boshqa jinslar, Zarafshon daryosining boshlanishi qismida esa temir, simob olish texnologiyasiga ham to'xtaladi.

Beruniy gidrologiya sohasida ham unumli ishlar olib boradi. U Amudaryo o'zanining o'zgarishi Orol dengizining paydo bo'lishi nazariyalarini yaratish bo'yicha shug'ullanadi. Uning qadimiy sug'oriladigan rayonlarning rejimi, buloqlarning paydo bo'lishi haqidagi tadqiqotlari geografiya fani sohasidagi erishgan katta yutuqlardir.

Beruniy tabiatshunoslik fani sohasida 150dan ortiq asarlar yozdi. "Saydana", "Minerologiya", "Hindiston", "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya", "Ma'sud qonuni" kabi asarlari alohida qimmatga loyiq. Beruniy ijodiy faoliyatini o'rganishda ko'zga ko'ringan yirik olimlar V.E.Bartold, M.YU.Krachkovskiy, M.N.Qori-Niyoziy, X.X.Asanov, X.M.Abdullaev, I.M.Mo'minov, S.P.Tolstovlarning xizmatlari katta. Beruniy qiziqqan soha haddan tashqari keng bo'lgan. Ammo uning ko'pgina asarlari bizgacha yetib kelmagan. O'rta asr yozuvchilaridan biri XIII asr arab sayyohi, geograf Yoqut Beruniyning astronomiya, mantiq, falsafaga doir asarlarining ro'yxatini ko'rganini, bu ro'yxat juda mayda yozilgan bo'lib, uning 60 betdan iborat ekanligini yozadi. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtgacha Beruniy asarlarining ma'lum qisminigina aniqlagan bo'lib, ular qisman tarjima qilingan va o'rganilgan xolos.

O'rta Osiyo hududida geografiyaga oid qimmatli ma'lumotlar Maxmud Qoshg'ariy

(XI asr)ning "Devonu lug'otit-turk" (Turk tili lug'ati) asarida ko'plab uchraydi. U nafaqat til, balki geografiya bilan ham chuqur shug'illangan. Qoshg'ariy Rimdan Xitoygacha bo'lgan hududlardagi tillar, mamlakatlar, shaharlar, cho'llar, tog'lar, daryolar, ko'llar va boshqa yuzlab ob'ektlarni nomlari bilan qiziqqan. Yozilmay qolgan geografik nomlarga izox berib o'tgan. U o'z asariga dunyo haritasini ham ilova qiladi. Qoshg'ariyning bu kartasi o'sha davrning eng mukammal kartasi hisoblangan. Asar va karta Buyuk ipak yo'lidagi hududlarda savdo-sotiq ishlarini avj oldirishda ko'p yillar xizmat qilgan.

Mirzo Ulug'bekning ham geografiya fanini rivojlantirishdagi xissasi salmoqli. Samarqand rasadxonasida olib borgan kuzatish va ilmiy ishlari «Ziji Ko'ragoniy» jadvalida aks etadi. Asarda 250 dan ortiq joylarning geografik koordinatalarini mukammal ko'rsatib berilgan. Rasadxonada Yer shari globusi tuzilib, unda iqlim chegaralari, tog'lar, cho'llar, dengizlar, daryolar belgilab qo'yilgan.

Buyuk alloma Zaxiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida Turkiston, Afg'oniston, Hindistonning tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy geografiyasiga oid 1000 dan ortiq geografik joy nomlarini bayon etgan. Asarga bir necha xilma-xil kartalar ilova qilingan. "Boburnoma" asari qimmatli geografik asar bo'lib, hozirga qadar u o'zining ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Asrlar davomida geografik bilimlar har tomonlama kengayib va taraqqiy yetib, tasvirlovchi fandan hozirgi kundagi mukammal fundamental fan darajasiga ko'tarildi. Ammo maktablarda fan sifatida o'qitiladigan geografiya predmeti "o'z otasi" taraqqiyotidan birmuncha boshqacharoq vujudga kelgan. Maktab geografiyasi umumta'lim maktablarining o'quv rejalariga boshqa predmetlardan keyinroq kiritilgan. Maktab geografiyasi bo'yicha mazmun jihatidan keng miqyosida XVI asr oxiri XVII asr boshlarida chinakam ilmiy geografik asarlar vujudga kela boshladi. Ayniqsa golland geografi Bernard Varen (1622-1650) (Varenius) "Umumiy geografiya" kitobi bilan shuxrat qozonadi. Kitobda yer bilimlarga oid geografik bilimlar ancha mukammal berilgan edi. Maktab geografiyasining fan sifatida paydo bo'lishini XVII asr oxiridan boshlandi, desak xato qilmaymiz. Faqat shu davrdan boshlab geografiya boshqa o'quv predmetlari safidan o'rin ola boshladi. Xatto Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin ham maktablarda geografiya deyarli o'qitilmagan edi.

Birinchi geografiya darsliklari qatoriga M.Neander (1525-1595) kitoblarini kiritish mumkin. Uning asarlarida mamlakatning o'tmishi qiziqarli ravishda bayon etiladi. Lekin unda tarixiy ma'lumotlar (bilimlar) ko'proq berilgan. U mamlakatshunoslikning mazmuni har bir mamlakatdagi qiziqarli narsa va voqealarni aytib berishdan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Uning mamlakatlarni tasvirlashi ko'proq sarguzashtlar bilan bog'liq bo'lgan.

Mashhur chex pedagogi Yan Amos Komenskiyni (1592-1670) o'qitish metodikalarining otasi deyish mumkin. Komenskiy o'zining "Ulug' didaktika" nomli asarida geografiyaning mazmuni va o'qitish metodlari haqida yaxshigina g'oya va fikrlarni ilgari suradi. U geografiyani quyi maktablardan to akademiyalargacha (oliy ma'lumot olish) bo'lgan barcha bug'inlarda

o'qitilishi shart deb yozadi. Komenskiy bolaning beshigi va onasi turgan uy – uning geografik ma'lumot oluvchi manbai bo'lishi kerak deb hisoblaydi. U ta'limda sinf-dars tizimini birinchi bo'lib qo'llaydi. U geografiya o'qitishni oddiydan – murkkabga, yaqindan – uzoqqa, xususiyan – umumiyga tamoyili asosida o'qitish va rejalashtirishni targ'ib qiladi. O'qitishda ko'rgazmali ayniqsa rasm va kartalardan foydalanish zarurligini qayta-qayta uqtiradi.

Komenskiy ko'rgazmalardan iborat rasmlar to'plamini va ulardan foydalanishning dastlabki metodikasini yaratadi. O'sha davrda undan geografiya o'qitishda ham unumli foydalaniladi. Darslarda gazeta materiallardan foydalanishga katta e'tibor beradi. Shveysariyalik pedagog Genrix Pestalotsi (1746-1827)ning "pedagogika" va "didaktika" asarlarida geografiya o'qitish bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina masalalarga to'xtaladi. Uning maktabida geografiya ancha ma'lumotlarga boy qilib o'qitiladi. Ammo uning yangiliklari geografiyada yangi davr ocha olmadi.

XVIII asrda Rossiyada Petr I davrida geografiya maktablarning o'quv predmetlari qatoridan o'rin oladi. Ammo bu davrdagi geografiya darsliklari talabga javob bermas edi. Avvalo ularning hajmi juda katta 400-650 betni tashkil qilgan. Kitob tili ancha og'ir bo'lib, unda xorijiy atamalar ko'p uchragan. Rossiyada geografiya ta'limi metodikasini rivojlantirishda atoqli pedagog K.D.Ushinskiy geografiyani maktabdagi asosiy predmetlaridan biri bo'lishi kerak degan g'oyani ilgari suradi. U geografiyani o'rganishni o'z joyini ya'ni o'lkasini o'rganishdan boshlashni tavsiya etadi. Umuman olganda Turkistonda geografiya ta'limining taraqqiyoti va rivojlanishi bevosita Rossiya maktablarida geografiya o'qitish bilan bog'liq desak, xato qilmaymiz.

XIX asrning 60 yillarida Rossiyaning Turkistonni bosib olishi qisman bo'lsa ham geografiya o'qitishga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. 1866 yilda Toshkentda boshlang'ich ma'lumot beruvchi birinchi rus maktabi ochildi. 1877 yilda Toshkentda birinchi gimnaziya faoliyat ko'rsata boshladi.

XIX asrning 80-yillaridan boshlab maxalliy aholi farzandlari uchun maxsus rus – tuzem maktablari ochila boshlandi. O'zbekistonda birinchi rus-tuzem maktabi 1884 yilda Toshkentda keyinchalik Xiva, Buxoroda ham ochiladi. ularning soni XIX asr oxirida 100dan oshdi. 1873 yildan boshlab "Turkiston viloyati" gazetasi nashr etila boshlandi. Bu gazeta geografiyaning fan sifatida o'qitilishida va geografik bilimlarni tarkalishida yangi davrni boshlab berdi. Gazetalarda elon qilingan maqolalarda ko'plab geografik ma'lumotlar berilar edi. XIX asrning 90-yillariga kelib o'zbek tilida geografiya o'quv qo'llanmalari tashkil etila boshlandi. Nemis professori Gekkelning maqolalari asosida "Yer xususida ilmdan olingan so'zlar" nomli ilk o'zbek tilidagi birinchi geografiya qo'llanmasi nashrdan chiqadi. Avval u "Turkiston viloyati" gazetasining 1889 yilgi sonlarida e'lon qilinadi. 1901 yilda esa kitob tarzida chop etiladi. Bu kitobda yer shakli, kecha va kundo'z, havo, yog'inlar, iqlim haqidagi ma'lumotlar berilgan edi.

XX asr boshlarida M.V.Lavrovning "Turkiston o'lkasi geografiyasi va tarixi" nomli risolasi ham o'lkada geografiya o'qitishda juda ahamiyatli bo'ldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab

ijod etgan Xoji Yusuf Xay'atiy madaniyat arbobi, sayyox va geograf bo'lgan. U 1880 yilda globus yasaydi. U yasagan globusning aylanası 160 sm masshtabi 1 smda 250 km bo'lgan. Bu globus hozirgi kunda Samarqand muzeylaridan birida saqlanmoqda. Toshkentda 1900 yilda dastlabki "yangi usul" maktabi ochiladi. Bu maktablarda maxalliy aholidan yetishib chiqqan jadidlarning ta'siri kuchli bo'lgan. Unda bolalar sinflarga bulinib, partalarda o'tirib, darslarda o'tilgan mashg'ulotlari dars jadvali asosida amalga oshirilgan. "Yangi usul" maktablarida geografiya o'qitila boshlanadi. 1905 yilda yangi usul maktablari uchun o'zbek tilida geografiya darsligi va birinchi geografik karta "Turkiston va unga yondoshgan mamlakatlar kartasi" ham nashr etiladi.

Bexbudiyning "Qisqacha umumiy geografiya" (1902y) "Aholi geografiyasiga kirish" (1909y) F.Karimiyning "Geografiya" (1914y) Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'lining "Yer yuzi" (1915y) nomli kitoblari chop qilindi. Nashr qilingan geografiya darsliklari o'qituvchilar o'rtasida muhokama qilinar edi. Eng yaxshi geografiya kitoblari dastur tarzida qabul qilinib, o'qitishga tavsiya qilingan edi. A.Munavvar Qorining "Yer yuzi" kitoblarining birinchi nashri Turkiston geografiya o'qituvchilari o'rtasida muhokama qilinib, o'qitishga tavsiya qilinadi. Ushbu kitob "Yangi usul" maktablari uchun yozilgan bo'lib, to 1928 yilgacha darslik sifatida qo'llanib kelindi. O'sha davrda bunday geografik darsliklar va o'quv qo'llanmalarining paydo bo'lishi o'zbek xalqining geografik bilimlariga nisbatan extiyoji ortayotganligini va maxalliy kadrlar orasidan ham geograflar yetishib chiqayotganligidan darak berar edi.

O'sha davrdagi Turkiston hududidan yetishib chiqqan ilm marifat namoyondalari - A.Donish, Furqat, Xoji Yusuf Xayatiy, X.X.Niyoziy, A.Avloniylar ham maktablarda geografiyani sifatli o'qitishga salmoqli xissa qo'shadilar. A.Donish astronomiya va geografiya sohalari bo'yicha ham ilmli odam bo'lgan. U jaholatga tushib qolmaslik uchun dunyoviy bilimlarni egallashga quyidagicha da'vat etadi. "Biz dunyoni gullatib yashnatish uchun, yer osti boyliklarini izlab topish uchun yerning hamma qit'alarini va aholisini bilish uchun tug'ilganmiz". X.X.Niyoziy ham 1901 yilda Qo'qonning Xojibek Guzarida kambag'allarning farzandlari uchun maktab ochadi. Uning bu maktabida geografiya ham o'qitiladi. Dars berishda yangi metodlardan foydalaniladi. Hamza maktabi ham geografiya ta'limi rivojlanishida muhim o'rin egalladi. Ajoyib marifatparvar va pedagog A.Avloniy ham o'zi ochgan maktablarda dunyoviy fanlar qatori geografiya o'qitishiga katta e'tibor berdi. U "Geografiya" nomli kitob ham yozadi.

Oktabr to'ntarishidan oldingi maktablarda geografiyani predmet sifatida o'qitishda Toshkentlik pedagog Sobir Raximovning ham xizmatlari katta bo'ldi. U 1910 - 1914 yilda Toshkentning Taxtapul maxallasida maktab ochadi. Maktabda o'zi geografiyadan dars beradi. Oktabr to'ntarishi arafasida Turkistonda geografiya ta'limiga e'tibor ancha kuchaydi. Bu paytdagi maktab geografiyasida ko'proq yer haqidagi bilimlar, qit'alar, davlatlar, Rossiya haqidagi ma'lumotlar ko'proq berilar edi. Bu bilimlar sinflarga taqsimlanib o'rganilganligi diqqatga

sazovordir. O'sha vaqt maktab geografiyasida geografik nomlar ko'proq o'rganilgan, ammo ob'ekt va hodisalar o'rtasidagi sabab aloqadorlik, qonuniyatlar esa zaif ochib berilgan yoki umuman o'rgatilmagan. Bu davrdagi maktablarda bilim, ko'nikma va malakalar xajmini ifodalovchi xujjatlar geografiya dasturi va geografiya ta'limi haqida muayyan ko'rsatmalar beruvchi metodik qo'llanmalar, darsliklar bo'lmagan. Og'zaki bayon, suxbat metodlari geografiya ta'limida yetakchi o'rin egallagan. Geografiya aksariyat xollarda faqat tasvirlovchi fan sifatida namoyon bo'lgan.

2. Mustamlaka davrida o'qitish metodikasining rivojlanishi.

O'zbekiston maktablarida geografiya ta'limining rivojlanishini (darsliklar va dasturlari mazmuni, o'qitish metodlari, o'quv moddiy bazasi, kadrlar tayyorlash va boshqa xususiyatlariga ko'ra) 5 ta bosqichga ajratish mumkin.

1-bosqich. 1918-1934 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr o'zbek-sovet maktablarida geografiya o'qitishni yo'lga qo'yish bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda yangi tipdagi maktablar bilan eski tipdagi sovet maktabi geografiyasiga asos solinadi. Yangi dasturlar asosida (1922-1923 yillarda) o'qitishning "kompleks dasturlari" ishlab chiqildi. Bu turli variantlarda bo'lib, bir necha marta o'zgardi va 10 yil mobaynida qo'llanilib kelindi. Geografik materiallar kompleks mavzular orasiga singib ketdi. Geografiyani o'rganish juda past saviyada olib boriladi. Kompleks dasturlarning uzoq xukmronligi maktab geografiyasi uchun og'ir davr bo'ldi. 1925-1926 yillarda maktablarning yuqori sinfida geografiya fan sifatida o'quv rejasidan umuman chiqarib tashlanadi. Geografiya tabiiy, fizika, ijtimoiy fanlar tarkibiga kiritiladi. Kartani o'rganish esa nihoyatda zaif bo'ldi. Yuqoridagi fanlar geografiyani o'qitish vazifalarini mutloka bajara olmadilar. Kompleks metod aslida predmetsiz o'qitish yo'li edi. Birinchi bosqich geografiya fani uchun og'ir sinov yillari bo'ldi. Bu bosqichda dastlab maxsus karorlar asosida 9 yillik yagona mehnat maktablari tashkil etildi. Bu maktab ikki bosqichdan iborat edi. Birinchi bosqich 1-5 sinflar, 2-bosqich 6-9 sinflardan iborat. Bunday maktabda geografiya ta'limi maqsad va mazmun jihatdan boshqacha edi. 1918-1922 yillarda geografiyaga rasmiy namunaviy dasturlar paydo bo'ldi. Bunda ayrim landshaftlarning xususiyatlarini o'rganishga ko'proq e'tibor berildi. O'sha davrlar "landshaft dasturlari". bilan mashhur-dir. Masalan "Ovchilar landshafti", "kuchmanchilar landshafti" va boshqalar.

Landshaft dasturlari o'zini o'zini oklamadi. 1921 yilda geograf D N. Anuchin rahbarligida umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan geografiya dasturi loyixasi ishlab chiqildi. Ungacha ayrim hududlar xatto ayrim maktablar xuddi landshaftlar dasturiga uxshash bo'lgan dasturlarni o'zlari tuzar edilar. Anuchin dasturi oktabr tuntarishiga qadar bo'lgan geografiya ta'limining eng yaxshi tomonlarini qisman bo'lsa ham o'zida aks ettirgan bo'lib, unda geografiyani o'qitish sinflar bo'yicha taqsimlangan edi. Anuchin dasturiga muvofiq 3- sinfda o'z kishlogi, shahari, guberniyasi o'rganilar edi u bu to'zni «mamlakatshunoslik» deb atadi. O'quvchilar geografik nomlar, tushunchalar geografiyaga oid rasmlar bilan tanishtirilar edi. 4-sinfda mamlakatlar, turli mintaqalarning

tabiati, insonlar hayotini aks ettiruvchi rasmlar namoyish qilinardi. 5-sinfda mamlakatshunoslikga oid bo'lgan ma'lumotlar va "kitalar geografiyasi o'rganiladi. 6 va 7-sinflarda Rossiya geografiyasi, 8- sinfda iqtisodiygeografiya, 9-sinfda astronomiya va astrologiya o'qitilardi. Mazkur dastur o'quvchilarning geografiyaga oid bilimlarni oshirishda katta rol o'ynaydi. Unda geografiyaga ajratilgan soatlar miqdori ancha ko'p edi. Ammo bu dastur asosida darsliklar yaratilmagan edi. 1924 yildan 1930 yillarda maktab geografiya ta'limi uchun og'ir yillar bo'ldi. 1924 yildan boshlab maktab geografiyasi yangi dasturlar asosida ishlashga utdi, ammo bu darsliklar bo'yicha, geografiya bo'yicha aloxida predmetlar yo'q edi. Unda geografiyadan o'z-uzuluk bilim berilardi. 1-4 sinflarda aloxida geografiya kurslari o'rnini kompleks mavzular egalladi. Bu mavzular mazmuniga kiskacha geografik savollar kiritilardi. Masalan 1-sinfda yil fasllari, 2-sinfda maxalliy tabiat va xo'jalik bilimlari, berildi, 4-sinfda Rossiya geografiyasi va boshqa fanlar geografiyasi o'rgatildi.

Ikkinchi bosqich sinflarida geografiya, biologiya, tarix, jamiyatshunoslik fanlari tarkibiga singib ketgan edi. Tabiiy geografiya va mamlakatshunoslik haqidagi bilimlar nochor axvolga tushib koldi. Xullas kompleks dasturlarning kabul qilinishi geografiyani mustaqil fan sifatida barham topishiga olib keldi. Faqat 1927 yilda avval 1-bosqich maktablarda, keyinroq 2-bosqich sinflarda geografiya fan sifatida qayta tiklandi. O'zbekistonda 1920-1930 yillar oralig'ida geografiya darsliklari rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilindi. G.I.Ivanovning "Boshlang'ich jug'rofiya" darsligi geografiya darsliklarining tungichi edi. Bu darslik 1927 yilda N.L.Korjenevskiy yordamida P.Arxangelskiy tomonidan o'zgartirib nashr qilindi. G.I.Ivanov, G.G.Ivanovlarning Baxtiyorov va Makarov bilan hamkorlikda birmuncha o'zgartirib nashr qilingan "Jug'rofiya ham o'lkani o'rganish" darsligi ham o'zbek tilidagi dastlabki darsliklardan edi. Bu davrda Balashovning "O'zbekiston hamda unga kushni jumxuriyatlar va viloyatlar" P.Arxangelskiyning "Jug'rofiya" (o'lkani o'rganish darsligi), A.Obidovning "O'zbekiston sotsialistik sho'rolar jumxuriyat jug'rofiyasi" darsliklari geografiya ta'limida katta ahamiyatga ega bo'ldi. A.Obidovning "O'zbekiston jug'rofiyasi" darsligi O'zbekistonda geografiya ta'limida o'z respublikasini o'rganishda birinchi xaqiqiy asar edi. Ammo bu darsliklar yagona dastur asosida yozilmagan edi. 1930 yilda o'zbek tilida dastlabki geografiya o'qitish metodikasi paydo bo'ldi. Uning muallifi N.Leonov edi. Bu metodika suxbatlar usulida yozilgan bo'lib, u talay kamchiliklarga ega edi. Unda kartalar bilan ishlash metodlari yoritilmagan edi.

O'zbekiston maktablarida geografiya o'qitish samaradorligini oshirishda 1925 yildan boshlab chop etilgan "Ma'orif va o'qituvchi" jurnalining roli katta bo'ldi. Jumladan ushbu jurnallarning 1925 yil 5-6 sonlarida "Jug'rofiyaning foydasi", "Lug'at va atamalar", "Samarkand", "Maktabda o'lkani o'rganishning ahamiyati", "Muz davrining oxirlarida Ovroqada qanday irqalar yashadilar", "Sahroi Kabir" va boshqa o'nlab geografiyaga oid maqolalar elon qilinadi. Bu jurnal geografiya o'qituvchilariga ilmiy va metodik jihatdan yaqindan yordam bergan. 1931 yil 4 iyuldan

"Madaniy inqilob" (keyinchalik "O'qituvchilar gazetasi", hozirda "Ma'rifat") gazetasi chiqa boshladi. Bu gazeta geografiya o'qituvchilarining xaqiqiy yordamchisi bo'ladi. Unda yuzlab ilmiy, uslubiy maqolalar e'lon qilinadi.

Geografiya ta'limida kadrlar yetishtirish masalasi sekin asta yo'lga qo'yildi. 1927 yilda Samarkand oliy pedagogika instituti ochildi. 1930 yillar oxirlariga kelib, oliy ma'lumotli geografiya o'qituvchilari yetishib chiqa boshladi. Bular N.Ibadov, G.Nazarov, I.Mirzaboyev, A.Axrarov va boshqalar edilar. 1930 yillarning o'rtalarida Toshkent, Buxoro, Samarqand, keyinchalik Nukus, Urganch, Qo'qon, Andijon shaharlarida pedagogika institutlari ochildi. 1934 yildan "Geografiya v shkole" jurnalining chiqa boshlashi nafaqat Rossiyada, balki O'zbekistonda ham geografiya ta'limini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ilg'or o'qituvchilarda oliy va o'quv yurtlari o'qituvchilari geografiyadan darslik va boshqa qo'llanmalar yaratishga jalb etildi. Darslarda o'quvchilarning mustaqil va amaliy ishlariga e'tibor kuchaydi.

2-bosqich. 1934-1955 yillarni o'z ichiga oladi. O'zbek maktablarida geografiya o'qitishning muayyan bir tartibga tushish bosqichi bo'lib, bu davrda yagona dastur asosida muayyan darsliklar yaratiladi. O'quvchi va o'qituvchilar uchun o'zbek tilida o'quv qo'llanmalari nashr etila boshlandi. Maktab geografiyasiga xissa qo'sha oladigan metodistlar, geografiya o'qituvchilari yetishib chiqa boshladi. Ko'plab metodik kitoblar rus tilidan o'zbek tiliga o'giriladi. 1935 yilda O'rta Osiyo universitetida - geografiya - geologiya fakulteti tashkil etildi. 1935-1940 yillar mobaynida O'zbekistonda pedagogika institutlarining aksariyatida geografiya mutaxassisligi ochildi. 1943 yilgacha Respublikada 10ga yaqin o'qituvchilar institutlari ochiladi. Ularda geografiya o'qituvchilari ham tayyorlangan.

Geografiya o'qituvchilarining ta'lim sohasidagi ehtiyojlari e'tiborga olinib, ularga metodik yordamlarini kuchaytirish maqsadida o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari, ular bazasida esa geografiya kabinetlari (kafedralari) tashkil etiladi. Geografiya ta'limi har tomonlama rivojlanishida buyuk iqtisodiy-geograf N.N.Baranskiyning xizmatlari katta bo'lgan. U mualliflik qilgan "iqtisodiy geografiya" darsligi 20 yil maboynida muntazam ravishda nashr yetib turildi. N.N.Baranskiy "o'qituvchi-ta'lim jarayonida markaziy figura" deb qayta-qayta ta'kidlagan. U geografiya ta'limida yetakchi o'rinni karta va ko'rsatmalilik egallashi zarur deb "karta-geografiyaning ikkinchi tilidir", "Karta-geografiyaning falsafasi va omegasi", "Birgina karta bir necha varaq matnning o'rniga o'tadi" degan o'lmas fikr va g'oyalarini o'rta tashlaydi.

II Jahon urushi geografiya ta'limiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Ko'pgina geografiya o'qituvchilari frontga ketishi natijasida oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash izdan chiqdi. O'quv qo'llanmalar umuman etishmay qoldi. Urushdan keyingi yillarda maorif sohasida talaygina yutuqlar ko'lga kiritila boshlandi. Dastlab 4 yillik, keyin 7 va 8 yillik majburiy to'liq o'rta ta'limga bosqichma-bosqich o'tilishi, ta'lim mazmunini tubdan qayta qurishga yordam

berdi. Bu davrda geografiya o'qituvchilari diqqati ko'proq o'quv jarayonini amaliyot bilan bog'lashga qaratildi.

Geografiya ta'limini hayot bilan bog'lash borasida tabiiy sharoitning xalq xo'jaligidagi ahamiyatiga katta e'tibor berildi. O'z o'lkasi geografiyasini o'rganish va o'z joyini kartasini chizish, ob-havoni kuzatish, o'z joyidagi barcha tabiiy kompleks-komponentlarini o'rganish geografiyani turmush bilan bog'lashga qaratildi. Maktabni turmush bilan bog'lash haqidagi qaror asosida o'quvchilarning mustaqil ishlariga katta e'tibor berildi. O'zbekiston geografiyasini o'rganishga bir muncha e'tibor kuchaydi. Sinfdan tashqari ishlar faoliyati kuchaydi. 1953-1954 o'qish yillaridan boshlab amaliy mashg'ulotlarini uyutirish majburiy tarzda maktab geografiya dasturlariga kiritildi. O'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishga, mehnatga muhabbat ruxida tarbiyalashga e'tibor kuchaydi.

3-bosqich. 1956-1966 yillar. Bu davrni maktab geografiyasini turmush bilan bog'lash bosqichi desa bo'ladi. Bu davrda maktab geografiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O'qitishning samarali xillari toboro kengroq joriy qilina boshlandi. Maxalliy milliy kadrlar, yirik geograf va metodistlar yetishib chiqdi. O'quvchi va o'qituvchilar uchun ilmiy ommobop va metodik adabiyotlar tarjima qilindi. Geografik atama va nomlar ma'lum bir tizimga tusha bordi. 1958 yil 24 dekabrda Oliy Sovetning maktab haqidagi qonuni geografiyaning takomillashuvida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qonun boshqa fanlar qatori geografiya ta'limini ishlab chiqarish mehnati bilan yaqinlashtirishga e'tiborni kuchaytirdi. Geografiya ta'limida o'z o'lkasini chuqurroq o'rganishga bo'lgan talab oshdi. O'zbekistonda geografiya ta'limini takomilashtirishda bir kancha ilmiy maskanlar va oliy o'quv yurtlari qatori Pedagogika fanlari ilmiy tekshirish institutidagi geografiya laboratoriyasining xizmatlari katta bo'ldi. Bu institut geografiya laboratoriyasida P.Musaev rahbarligidagi metodist geograf olimlar maktabda geografiya o'qitishni takomil-lashtirish bo'yicha qator izlanishlar olib bordi. P.Musayev o'sha mustamlaka yillarida ham xech narsadan xadiksiramadan milliy maktab muammolari bo'yicha g'oyat dadil fikrlarini ilgari suradi.

1960 yildan boshlab geografiya ta'limi metodikasiga oid maxsus qo'llanma va darsliklar nashr etila boshlandi. O'sha davrlarda O'zbekistonda geografiya fanini takomillashtirishda A.Obidov, O.Saidrasulov, X.Xasanov, N.Dolimov, Z.Akramov, O.Mo'minov, M.Nabixanov, I.Mirzaboev va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. Umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlari uchun geografik adabiyotlar, darslik va metodik qo'llanmalarni tarjima qilish keng tus oldi. Bunda X.Xasanov, P.Sultonov, M.Qoriyev, P.G'ulomov, R.Raximbekovlar unumli mehnat qildilar. Jumladan N.F.Kurazovning "Geografiya o'qitish metodikasi" (1962) P.Budanovning "Tabiiy geografiya metodikasi" (1950) A.V.Darinskiyning "Geografiya o'qitish metodikasi" (1964) N.Dolimovning "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" yangi darsligi bosmadan chiqadi.

4-bosqich. 1967-1990 yillar. Bu davrda ta'lim sohasida turli o'zgarishlar paydo bo'ldi.

O'quv ko'rgazmali qo'llanmalar chop qilindi. Ta'limni isloh qilish borasida bir qator tadbir va o'zgarishlar amalga oshirildi. Muayyan darsliklar tizimi va yangi o'quv kartalari paydo bo'ldi. O'lkashunoslikka e'tibor birmuncha kuchaydi. Ammo O'zbekiston geografiyasini o'rganish bo'yicha soatlar xajmi 20% dan oshmadi.

1960 yillardan boshlab, O'zbekistonda geografiya ta'limi metodikasining turli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O.Mo'minov "O'zbek maktablarida tabiiy geografiya o'qitish masalalari" (1967), T.Abdullaeva "Tabiiy geografiya o'qitishda O'zbekiston tabiati haqida o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish" (1967) M.Nabixanov "SSSR geografiyasida badiiy ko'rsatmalik vositalarining roli va qo'llanishi" (1969) P.Musayev "O'zbekiston iqtisodiy geografiyasini o'qitish xususiyatlari" (1968) M.Juraboyev "O'zbekiston maktablarida geografiya o'qitishda predmetlararo aloqalarni joriy etish" (1969), M.Asanov "Topografik tushunchalar shakllantirish" (1970) M.Yunusova "Geografiya ta'limida natural qo'llanmalardan foydalanish" (1985), R.Qurbonniyozov "Geografiyadan fakultativ mashg'ulotlarda o'quvchilarni mehnatga yo'naltirish" (1986) mavzulari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalarini ximoya qildilar.

O'rta maktab va oliy o'quv yurtlarida geografiya o'qitish metodikasini rivojlantirishda X.Xasanovning xizmatlari katta bo'ldi. Professor Xasanov o'quvchilar va geografiya o'qituvchilari uchun o'nlab ilmiy maqolalar ilmiy ommobop adabiyotlarni o'quvchilar diqqatiga havola etdi va nashr ettirdi. Bular: "Geografiya terminlari lugati" (1964) "Sayyoh geograflar" (1965) "Yer tili" (1967) "Maxmud Qoshg'ariy" (1965) "Geografik nomlar imlosi" (1962) va boshqalar bunga misoldir. X.Xasanov geografiya metodikasiga oid ishlarida o'quvchi va talabalarning mustaqil ishlari, metodlari, bilimlarni nazorat qilishning o'ziga xos tomonlarini ishlab chiqdi, rivojlantirdi, takomillashtirdi.

1960-1970 yillar oralig'ida geografiya o'qitish metodikasiga oid qator o'quv qo'llanmalari chop etildi va tarjima qilindi. Bular: M.Qoriyevning "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi" (1964,1968 yillarda), O.Mo'minov, E.Belskaya 2-3-4 sinflar uchun "Tabiatshunoslik", M.Qoriyev, N.Dolimov, O.Mo'minov "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" (7-sinf), Z.Akramov, P.Musayev "O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi" (8-sinf), P.Musayev "O'zbekiston SSR iqtisodiy geografiyasini o'qitish" (1977), O.Mo'minov "Geografiya ta'limi metodikasi" (1978), P.Musayev R.Qurbonniyozov "Geografik o'yinlar" (1978-1990), I.Abdug'aniyev "Geografiya darslarida ta'limning texnik vositalaridan foydalanish" (1990), M.Nabixanov, E.Safarov, G.Asanovlarning "O'zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy jo'g'rofiyasi" (oliy o'quv yurtlari uchun) kabi darslik o'quv va metodik qo'llanmalar chop qilindi. Shuni aloxida ta'kidlash kerakki, bu davrlarda geografiya metodikasi erishgan yutuqlar bevosita o'qituvchilar amaliyoti bilan muntazam bog'langan edi. Natijada geografiya ta'limi metodlari bo'yicha maxalliy sharoitni e'tiborga oladigan nazariyalar paydo bo'ldi. Bu nazariyalar asosi "Geografiya v shkole", "Sovet maktabi" (xalq ta'limi) jurnali

“O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti” to‘plamlarida o‘z aksini topdi.

Geografiya fanini o‘qitishda kartalarning o‘rni nihoyatda katta. Mamlakatimizda geografik va topografik kartalarni vujudga kelishi, maktab geografiyasining mazmunini ancha boyitdi. Bu sohada samarali ilmiy izlanishlar olib borildi. T.Mirzaliyev, A.Egamberdiyev va boshqalar tomonidan talaygina o‘quv qo‘llanmalar, kartalar chop qilindi. Bevosita uning rahbarligida geografiya o‘qituvchilari uchun geografik kartalar va ulardan foydalanish (1978), "Kartografiya" (1982), "Geografik tadqiqotlarda aerokosmik metodlar" (1981), "Kosmos xalq xo‘jaligida" (1985) va boshqalar shular jumlasidandir.

Geografiya ta‘limini keng ommalashtirish va rivojlantirishda atlaslarning ham xizmati katta. O‘zbekistonda 1981 yilda O‘zbekiston atlasining 2-tomi chop qilindi. 1999 yilda yangidan O‘zbekiston geografik atlas nashrdan chiqdi. Bu atlaslarning vujudga kelishida professor T.Mirzaliyevning xizmatlari katta bo‘ldi. Respublikamizda atlas, kartalar, kontur kartalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining nashr etilishi yuqoridagilarni tasdiqlashi mumkin. Eng muhimi dasturlarda mavzularni o‘rganishda "o‘z o‘lkasini" o‘rganishga e‘tibor kuchaydi. Bu o‘z navbatida didaktikaning yaqindan uzoqqa, oddiydan murakkabga deb ataluvchi qonuniyatiga ancha mos kelar edi va o‘quvchilarga kasb, mehnat, iqtisodiy tarbiyalarni berishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ammo shuni ta‘kidlash kerakki, chop etilgan metodik adabiyotlarning ko‘pchiligi chuqur izlanishsiz, tadqiqot uyushtirmasdan, eksperimentlarsiz nashr etilish xollari bo‘ldi. Eksperimental tadqiqotlar orqali nashr etilgan ishlar saviyasi ham hayot talablariga unchalik javob bermadi. Ularda o‘quvchilarda zarur ko‘nikma va malakalarini shakllantirish jarayonlari mavjud edi.

O‘zbekistonda 1969-1970 o‘quv yilida geografiyadan yangi dasturlar joriy etildi va u 1980-1981 o‘quv yiligacha amal qildi. Bu dastur bir muncha takomillashtirildi. Har bir geografiya kursi uchun zarur amaliy ishlar uyushtirish kat‘iy qilib qo‘yildi. Birinchi marta dasturda mavzular bo‘yicha fanlararo aloqalar, o‘quvchilar bilimi va bajara olishi zarur bo‘lgan bilimlar aloxida ko‘rsatildi. Umumta‘lim maktablarni takomillashtirish va rivojlantirishda maktabni islox qilishga tayyorgarlik ishlari ko‘rib chiqildi. Islox geografiya ta‘limi mazmuniga ham ta‘sir qilmasdan qolmadi. Maktab geografiyasi kurslari tarkibida ham ba‘zi o‘zgarishlar paydo bo‘ldi. Ta‘limning 9-yillik tizimga o‘tish bilan geografiyani o‘qitishda ham mehnat ta‘limi, kasb tanlash, politexnik ta‘lim elementlari, iqtisodiy bilimlar kiritildi.

5-bosqich. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda geografiya ta‘limi

3. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda geografiya ta‘limi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, respublika xo‘jaligining barcha sohalarida bo‘lganidek ta‘limda ham tub isloxatlar davri boshlandi. 1992 yilda ilk bor O‘zbekiston respublikasining "Ta‘lim to‘g‘risida" gi yangi qonuni kabul qilindi. Uning 3- moddasida "Ta‘lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv" zarurligi ta‘kidlangan. Bu qonunga

asosan mamlakatimizda geografiya ta'limida ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangi mazmundagi o'quv dasturlar va rejaları ishlab chiqildi. Dasturlar asosida darsliklar, o'quv qo'llanmalari metodik adabiyotlari yaratishga kirishildi. Sobiq SSSR tabiiy va iqtisodiy geografiyalari o'rniga o'z respublikalarini shu sohadagi geografiyalarini atroflicha o'rganishga o'tildi. Ta'lim muassasalarini ilmiy maktab uchun zarur bo'lgan didaktik vositalar bilan ta'minlashga, o'quv muassasalarini atestatsiya va ankreditatsiyadan o'tkazish tizimga kirishildi va amalga oshirildi. Asta-sekin milliy ta'lim tizimi shakllana boshladi. Metodist olim P.Musayev rahbarligida geografiya o'qitishga oid milliy ta'lim kontsepsiyasi ishlab chiqildi. Milliy maktablarda geografiya o'qitish mazmuni va deyarlik o'zgardi. Xorijiy mamlakatlar bilan ta'lim sohasi bo'yicha hamkorlik yo'l ga qo'yildi. Ulardagi ilg'or pedagogik texnologiya tankidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqildi. Mamlakatimizda tashkil qilingan "Ustoz" jamg'armasi orqali ko'pgina geograflar xorijiy mamlakatlarda bo'lib ularning tajribalarini o'rganib qaytdilar va boshqalar. Amalga oshirilgan tadbirlar tufayli mamlakatimizning o'ziga xos milliy ta'lim tizimi shakllanib, ta'limning moddiy bazasi mustahkamlanib bordi.

Mamlakatimizda yangi turdagi o'quv muassasalari, litseylar, gimnaziyalar, kollejlarda tashkil qilindi. Ularda ta'lim tizimi deyarli yangidan uyushtirildi. Barcha o'quv muassasalari kompyuter texnikasi bilan ta'minlana boshlandi. O'quvchilarni tabaqalab o'qitish joriy etildi. Ammo bu tadbirlarning barchasi mafkuraga sodiq xodimlarni tayyorlashga da'vat etilgan sobiq ta'lim tizimini yangilash borasidagi dastlabki qadamlar edi. Endilikda mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq maqsad-mazmun, vazifalar, boshqarish, tashkil etish va xalqimizning milliy madaniy an'analariga mos keladigan hamda demografik va milliy mafkuraga aynan to'g'ri keladigan tamoman yangicha "ta'limiy xizmat"ni shakllantirishga kirishildi. Mamlakatimizda geografiya ta'limining mazmuni va tuzilishi quyidagi tizimda barpo etildi:

Umum ta'lim maktablarida: 5-sinf – Tabiiyot (1999-2000 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich tabiiy geografiya), 6-sinf – Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, 7-sinf – O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi (1-yarmida), 7-sinf – O'zbekiston tabiiy geografiyasi (2-yarmida), 8-sinf – O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, 9-sinf – Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Akademik litseylarda: 1-bosqichda – ekologiya asoslari, 2-bosqichda – Amaliy geografiya, 3-bosqichda – Iqtisodiy geografiya. Kollejlarda esa Iqtisodiy geografiya asoslari o'qitiladigan bo'ldi.

Mustaqillik yillarda geografiya ta'limi mazmuni va maqsadi o'zgarishi munosabati bilan dastlabki paytlarda geografiya o'qituvchilari talaygina qiyinchiliklarga duch keldilar. Bular avvalo o'quv qo'llanmalari va vositalarining etishmasligi, bilim berishda faqat o'qituvchining yetakchilik qilishi, o'quvchilarning esa oddiy ishtirokchi bo'lishi hukm surdi. Aksariyat o'quvchilarning egallagan bilimlarini amalda qo'llay olmasliklari ma'lum bo'lib koldi. O'qituvchilar o'z ish

faoliyatlarida muammoli metodlardan, kompyuter texnikasidan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo‘llarini bilmasliklari ayon bo‘ldi. O‘tish davridagi maktab darsliklari jahon standartlari talabalariga javob bermasdan koldi. Bularning barchasi maktablar uchun yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqishni takozo etdi.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi ToshDU geografiya fakulteti olimlari tomonidan oliy o‘quv yurtlari uchun ishlab chiqilgan dasturlari hozirgi davr talablariga birmuncha javob berishi bilan ajralib turadi. Ammo o‘rta maktablar uchun ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari oliy ta‘limda aks etgan bilimlar tizimidan birmuncha ajralib qolgan. Ayniqsa, boshlang‘ich tabiiy geografiya, materiklar va okeanlar geografiyasi, Turkiston tabiiy geografiyasi, O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasi dastur va darsliklari talablar darajasida emasligi tajribalarda ayon bo‘ldi. Bu muammoni xal etish uchun respublikamizdagi barcha geografiya olimlari, metodistlari faollik etishlari zarur bo‘ladi. Muqobil darsliklar yozish masalalari ilgari surildi.

Mustaqillik yillarida o‘nlab ilmiy ommabop, o‘quv-metodik adabiyotlar yaratildi va geografik mazmundagi adabiyotlarni yozishga kirishildi. Jumladan, 5-sinfda “Tabiiyot” kursi (P.G‘ulomov, P.Musaev, A.Baxromov), 6-sinf uchun “Boshlang‘ich tabiiy geografiya va materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” (P.Musaev, A.Baxromov, R.Qurbonniyozov, Mahammadiyeva), 7-sinf uchun "Turkiston tabiiy geografiyasi" (P.Gulomov, X.Vaxobov, A.Xasanov) “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” esa (A.Mo‘minov, P.Baratov, M.Mamatkulov, R.Raximbekov), 8-sinf uchun O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasi (Z.M.Akramov, P.Musayev) darsliklari chop etildi.

Geografiya darsliklaridan tashqari o‘quvchi va o‘qituvchilar uchun o‘nlab metodik adabiyotlar chop etildi. Bular: R.Qurbonniyozovning "Geografiya ta‘limi metodikasi" (1992), P.G‘ulomov, "Inson va tabiat" (1992), R.Qurbonniyozov, Xoliqovlarning oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilar uchun "Geografiya" ma‘lumotnomasi (1993), R.Qurbonniyozov "O‘zbekiston geografiyasi", (qiziqarli savol va topshiriqlar) (1997), R.Qurbonniyozov "Umumiy tabiiy geografiya" (1999), P.Baratov "O‘zbekiston tabiiy geografiyasi" (1996), G.Asanov, M.Nabixanov, N.Safarov "O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" (1993), P.Baratov, M.Mamatkulov, A.Rafiqov, «O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi» (2002), M.Kayumov, I.Safarov, M.Tillaboyeva «Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» (2002) darsliklari yaratildi. Aksariyat viloyatlarning tabiiy va iqtisodiy geografiyalari nashr etildi. Bular Abdug‘aniev (Farg‘ona), A.Ro‘ziev (Surxondaryo), I.Nazarov (Buxoro), R.Qurbonniyozov (Xorazm) muallifliklarida amalga oshirildi.

Ilmiy va metodik adabiyotlarning chop etilishi geografiya ta‘limi metodikasi bo‘yicha chuqur tadqiqotlarning amalga oshirilishi hamda ta‘limning birmuncha takomillashuvi tufayli geografiya o‘qitishni tashkil qilish borasida talaygina yangilik vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. O‘qitish jarayonida baholash tartiblarini yangi reyting tizimi yaratildi. Geografiya ta‘limida o‘quvchilar bilimini tekshirishning reyting tizimi jadallik bilan joriy etildi. Reyting tizimi

o'quvchilarning mustaqil ishlarini mukammal baholash imkoniyatlarini yaratdi. Ammo u o'qituvchilar uchun qator noqulayliklar ham keltirib chiqardi. Mustaqillik yillarida test sinovlariga bag'ishlangan metodik adabiyotlar ko'plab nashr qilindi. Shu jumladan axborotnomalarining nashr etilishi ayni muddao bo'ldi. 1992 yildan respublikamizning barcha oliy o'quv yurtlarida kirish imtixonlarining test usulida amalga oshira boshlanishi katta samarali natijalarga olib keldi.

Ma'lumki geografiyani kartasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa umumiy o'rta ta'lim maktablarida kartasiz darslarni olib borish mumkin emas. Respublikamizda o'quv kartalarini tashkil etish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirildi. O'tish davrining qiyinchiliklariga karamasdan, O'rta Osiyo va Qozog'istonning tabiiy, O'zbekiston Respublikasining tabiiy, iqtisodiy, iqlim, ekologik aholi zichligi, dunyoning siyosiy-ma'muriy va boshqa kartalarini nashr etish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirildi. 1999 yilda Prezident farmoyishi bilan O'zbekiston geografiya atlasini chop qilindi. 5-6-7-8-9 sinflar uchun geografiya atlaslari va konturli kartalar nashr etildi. Ammo dunyoning turli mazmundagi kartalari, globuslar va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalari nashr etishda sustkashlikka, yo'l qo'yildi. Geografiya fani bo'yicha ta'lim vositalarni yaratishda xorij tajribalaridan unumli foydalanishimiz maqsadga muvofiq.

3-ma'ruza. O'rta maxsus, kasb-xunar, umumta'lim tizimi geografiyasining mazmuni, tarkibi.

Reja.

1. O'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim tizimi geografiyasining mazmuni va tarkibi.
2. Umumta'lim tizimi geografiyasining mazmuni va tarkibi.

Tayanch iboralar

O'rta-maxsus ta'lim, kasb-xunar ta'limi, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey, davlat ta'lim standartlari, kasbga yo'naltirilgan ta'lim

1. O'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim tizimi geografiyasining mazmuni va tarkibi.

O'rta-maxsus, kasb-xunar ta'limi umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi. Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki

mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi. Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

- akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;
- soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;
- akademik litseylarning o'quvchilari mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;
- kasb-hunar kollejlarda tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;
- hududlarning geografik va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;
- akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

Dastlabki yillarda yurtimizda tashkil etilgan o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimida muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi, yutuqlarga erishildi. Ammo vaqt o'tishi bilan bugungi taraqqiyot tufayli yana bir narsa — o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimida ham hali hal qilinmagan

kamchiliklar va muammolar borligi, bu tizim hozirgi talablarga javob berolmasligi va uni jiddiy isloh qilish zarurligi ma'lum bo'ldi.

Bu kamchiliklarni quyida sanab o'tishimiz mumkin:

➤ kasb-hunar kollejarining aksariyati aholi punktlaridan, qishloq va ovullardan chetda joylashganligi; Bu esa o'quvchilarning darslarga muntazam qatnashishiga to'sqinlik qildi. Ushbu holat ta'lim sifatining pasayishiga olib keldi.

➤ Kasb-hunar kollejlari va ularning o'quv ustaxonalari laboratoriya uskunalari bilan kam ta'minlanganligi;

➤ Kasb-hunar kollejarida darsliklar va o'quv qo'llanmalari etishmasligi;

➤ Kasb-hunar kollejarida hududlardagi iqtisodiyot tarmoqlarining real ehtiyojlari hisobga olinib, kadrlar tayyorlash sistemasi ishlab chiqilmaganligi; Masalan, sanoat tarmoqlari tashkil etilmagan hududlarda sanoat kollejarining barpo etilganligi;

➤ Kollejlarda o'qish tizimi bir xil qilib belgilanganligi; Bunday jarayonda o'qitish muddatlari kasblarning murakkablik darajasiga, ularni o'zlashtirish jarayoniga javob bermasligi.

Shuning uchun ham Prezidentimiz tomonidan 2018 yil 25 yanvarda "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim tizimidagi bunday kamchiliklar, muammolar to'la ko'rsatib berildi. Ayni paytda davlatimiz rahbari farmonida bunday muammolarni, kamchiliklarni bartaraf etish borasida muhim takliflarni ham o'rtaga tashladiki, bu ham ta'lim tizimi vakillarining ko'nglidagi ish bo'ldi. Ya'ni 2018-2019 o'quv yilidan boshlab majburiy umumiy o'rta ta'lim 11 yillik ta'lim negizida amalga oshiriladigan bo'ldi. 2019-2020 o'quv yilidan boshlab kasb-hunar kollejariga o'qishga qabul qilish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf bitiruvchilari hisobidan, ularning o'z xohishlariga ko'ra bajarilishi belgilandi. Demak, kasb-hunar kollejlari, ba'zilar o'ylagandek, yoppasiga yopilmaydi, balki ularning faoliyatini yanada takomillashtirish ko'zda tutildi.

Endilikda kollejar vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalariga birlashtirilishi belgilab qo'yildi. Ularda har bir tayyorlov yo'nalishi bo'yicha rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqiladi, milliy kvalifikatsion ramkalar belgilanadi va kasbga oid standartlar joriy etiladi. Professional standart ma'nosi shuki, deylik, bitta ish o'rni ishchidan qanday malaka va ko'nikma talab qiladi, ushbu holat o'rganilib, shu asosda modulli o'quv rejaları paydo bo'ladi. Ta'lim jarayoni esa doimiy ravishda takomillashtirib boriladi. Bundan maqsad — kasb-hunar ta'limi tizimini iqtisodiyot rivojlanishining muhim komponentiga aylantirishdir. Ya'ni yuqori malakali ishchi, kasb egalari, iqtisodiyotning o'rta bo'g'ini mutaxassisleri tayyorlanadi.

Kollejlarda nafaqat maktab bitiruvchilari, bunga qadar ham o'rta maxsus ma'lumot olgan, oliy ma'lumotga ega bo'lgan, ishsiz qolish xavfi ostida qolgan ixtiyoriy yoshdagi fuqarolar ham

tahsil olishlari mumkin bo'лади. Hozirgacha kollejlarda faqat kunduzgi ta'lim shakliga ega edi. Kelgusida kollejlarda kunduzgidan tashqari sirtqi, masofaviy va uyg'unlashtirilgan ta'lim yo'nalishlari yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, o'qish muddati kasblarning murakkabligidan kelib chiqib, 6 oydan 2 yilgacha muddatda ixtiyoriy yetib belgilandi.

2. Umumta'lim tizimi geografiasining mazmuni va tarkibi.

Hozirgi kundagi maktab geografiasining asosiy mazmuni XX asrning 60-yillarning oxirlarida shakllantirildi. Unga maktablarimizda 30-yillarda ishlab chiqilgan dasturlar asosida ta'lim-tarbiya ishlari olib borildi. 60-yillardan boshlab tabiiy geografiya fanida chuqur o'zgarishlar ro'y berdi, yangi-yangi tabiiy boyliklar ochildi, quruqlik va dunyo okeanidagi fundamental tadqiqotlarning o'tkazildi, bular maktab geografiasini mazmuniga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Geografiya hududlar va mamlakatlarni tasvirlovchi fan bo'lib qolmasdan, balki bevosita amaliy tadqiqotlar olib boruvchi fundamental fanga aylandi.

Tabiiy resurslardan foydalanishda, tabiatni qo'riqlashda, ishlab chiqarishning xududiy joylanishida va rivojlanishida geografiyani ahamiyati va o'rni keskin oshdi. Geografiya amaliy - konstruktiv fanga aylana boshladi. Geografiya nazariyasini yaratishda, yangi usullarni ishlab chiqish va qo'llashda juda katta yutuqlarga erishildi. Geografiya fani rivojlanishidagi erishilgan yutuqlar, geografiya fanining mazmuni bilan maktab geografiasini mazmuni o'rtasidagi aloqani uzilishiga olib keldi. Bu esa maktab geografiasini mazmunini qaytadan tubdan ishlab chiqish zaruriyatini tug'dirdi. Bunda asosiy e'tibor maktab geografiasini ilmiyligini oshirishga yo'naltirildi. Maktab geografiasini qayta ishlash zaruriyati, majburiy o'rta ta'limga o'tilishi bilan ham bog'liq.

Maktab geografiasini ishlab chiqishda juda ko'p metodist olimlar, o'qituvchilar katta xissa qo'shishdi. Maktab geografiya kurslarini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlar buyicha olib borilgan:

- maktab geografiasini mazmunining ilmiy asoslarini yanada kuchaytirish yo'llarini qidirish;
- maktab geografiasini mazmunini o'quvchilarga tushunarli bo'lishini ta'minlash;
- murakkab va ikkinchi darajali ma'lumotlarni darslikdan olib tashlash;
- maktab geografiasini tarbiyaviy imkoniyatlarni oshirish.

Geografiya fanlari tizimi ikki yirik qismga: tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga bo'linadi. Tabiiy geografiya geografik qobiqni, voqea va hodisalarini hamda unda sodir bo'ladigan qonuniyatlarni o'rgansa, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya jamiyatdagi voqea va hodisalar, ishlab chiqarish, xo'jalik va aholini joylashishi qonuniyatlarini tadqiq kiladi. Tabiiy va iqtisodiy geografiya o'z navbatida bir qancha fanlarga bo'linadi. Tabiiy hududiy komplekslarni tashkil etgan qismlarni o'rganish tabiiy geografianing (geomorfolgiya, iqlimshunoslik, gidrologiya, okeanalogiya, tuproqshunoslik va h.k.) qator maxsus tarmoqlariga to'g'ri keladi. Bu fanlar umumiy

yer bilimi va mintaqa tabiiy geografiyasi bilan chambarchas bog‘liq.

Tabiiy geografiya maktab ta’limida juda muhim fan bo‘lib, o‘quvchilarga atrofni o‘rab olgan tabiatning mohiyatini, uning xilma-xil geografik bog‘lanishidagi bir butunligini ochib beradi. Tabiiy geografiyani o‘rganishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

1. O‘quvchilarga yer qobiqlari, ularni tadqiq qilish metodlari haqida, tabiat komplekslari, komponentlari va ularning o‘zaro aloqalarini tushunarli tarzda bilim berish;

2. O‘quvchilarga boshlang‘ich sinflardagi geografik bilimlarini takomillashtirish, chuqurlashtirish imkonini berish;

3. O‘quvchilarning joyning plan, yerning globus va kartada tasvirlanishi xususiyatlari bilan tanishtirish;

4. Yer qobiqlari, iqlim, daryolar, ko‘llar, okean va dengizlar, tog‘ jinslari, tuproqlar haqidagi bilimlarini takomillashtirish;

5. Yer shari aholisi soni va ko‘payishi, irqalar haqida ma’lumotlar berish;

6. Ayrim tabiiy ob’ektlarning joylashishi, o‘simliklar, hayvonot dunyosi, tabiat boyliklari kabilar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Iqtisodiy geografiya o‘z navbatida ikkita asosiy qismga bo‘linadi: umumiy iqtisodiy geografiya (butun yer sharida aholining va xo‘jalikning joylashishi tarkibini o‘rganish) va mintaqaviy (regional) iqtisodiy geografiya (alohida mamlakatlar va hududlar misolida aholi va ishlab chiqarishning joylashishini o‘rganadi) bo‘linadi. Iqtisodiy geografiya o‘z navbatida bir necha tarmoq fanlarga: sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, shaharlar, qishloqlar geografiyasi kabi o‘nlab tarmoqlarga bo‘linib ketadi. Geografiya fanlari tizimiga tabiiy va iqtisodiy geografiyaga deyarli bir xil aloqador bo‘lgan mamlakatshunoslik va kartografiya fanlari ham kiradi.

O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasining vazifasi - o‘quvchilarga respublikamiz mehnat resurslari, halq xo‘jaligi va tarmoqlari, ularning rivojlanishi va joylanishi haqida tushuncha va bilimlar berishdan iborat. O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasini o‘rganish bilan iqtisodiy geografiya kursida egallagan iqtisodiy geografik tushuncha va qonuniyatlar o‘z respublikasi misolida yanada kengayadi, mustahkamlanadi, tegishli ko‘nikma va malakalar esa takomillashadi. O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasi yosh avlodga milliy tarbiyani singdirish uchun qulay sharoit yaratadi. O‘quvchilar o‘z respublikasi iqtisodiy geografiyasiga oid aniq bilimlar olish bilan ob’ekt va hodisalarga yondoshishga o‘rganadilar.

O‘zbekiston tabiiy resurslari va halq ho‘jaligi yutuqlarini batafsil o‘rganish o‘quvchilarni o‘z o‘lkasiga bo‘lgan muhabbatini oshiradi, ularda vatanparvarlik hissiyotlarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Respublikamiz moddiy va ma’naviy boyliklarini yaratishda qardoshlarcha hamkorlik o‘quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. Respublika xalq xo‘jaligi tarmoqlarini o‘rganishda o‘quvchilar turli

mutaxassisliklar bilan tanishadilar, binobarin, kasb tanlashga bo'lgan tayyorgarliklari asta sekin orta boradi.

O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi ikki qismdan iborat:

1. O'zbekiston xalq xo'jaligiga umumiy xarakteristika.
2. O'zbekistonni iqtisodiy rayonlari va viloyatlariga xarakteristika.

Birinchi qismda O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari, ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, aholisi va mehnat resurslari, shaharlari, og'ir sanoat (ko'mir, neft, gaz, elektroenergetika, rangli metallurgiya, qora metallurgiya, mashinasozlik va metalsozlik, ximiya, qurilish materiallari), engil sanoat (paxta tozalash, to'qimachilik, poyabzal, ipakchilik), oziq-ovqat sanoatlari, dehqonchilik (paxtachilik, don ekinlari, sabzovotchilik, polizchilik, bog'dorchilik, uzumchilik), chorvachilik (qo'ychilik, qoramolchilik, yilqichilik), parrandachilik, baliqchilik, irrigatsiya, temir yo'l, avtomobil, suv va havo transporti geografiyasini o'rganishni nazarda tutadi. Ikkinchi qismda esa O'zbekiston hududidagi iqtisodiy rayonlar va viloyatlar namunaviy reja asosida ko'rib chiqiladi.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy geografiyasi kursining asosiy vazifasi o'quvchilarga horijiy mamlakatlarning iqtisodiy geografiyasidan zarur bilimlarni berishdan iboratdir. Bunda o'quvchilar mamlakatlarning iqtisodiy geografik hususiyatlarini tavsiflovchi aniq materiallarni o'zlashtirishlari va uning sabablarini tushunib etishlari nazarda tutiladi. Ular mazkur kurs materiallarini o'rganish jarayonida jahon mamlakatlari xo'jalikning rivojlanish va joylanish qonuniyatlarini o'zlashtirishi lozim. Jahon mamlakatlari iqtisodiy geografiyasi kursi dasturi o'quvchilardan kurs materiallarini o'rganish bilan mamlakatlarning tillari haqida etarli tushuncha tarkib topishini, hozirgi jahon ho'jaligida muhim rol o'ynayotgan davlatlar bilan tanishib chiqishlarini yetiborga olgan holda tuzilgan.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy geografiyasi kursi asosan ikki bo'limdan iborat:

1. Jahonning umumiy iqtisodiy geografik obzori.
2. Dunyoning regional obzori.

Xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy geografiyasi quyidagicha:

Hududning tarkibi va iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy resurslari, aholisi, ho'jaligining umumiy xarakteristikasi, sanoati, qishloq ho'jaligi, transporti, ichki tafovutlari va tashqi iqtisodiy aloqalari o'rganiladi. Jahon mamlakatlari iqtisodiy geografiyasi kursida o'rganiladigan asosiy obekt-aholi va ho'jalik - iqtisodiy hodisalardir. Kursda o'rganilayotgan iqtisodiy hodisalar siyosat bilan birga o'rganiladi. Iqtisodiy faktlarni siyosiy nuqtai nazardan xarakterlash joizdir.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy geografiyasi kursida iqtisodiy masalalarni siyosat bilan bog'lab o'rganish, o'quvchilarning siyosiy tayyorgarligida muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy geografik ta'lim kundalik iqtisodiy va siyosiy materiallardan foydalanib borishni ham taqozo etadi. Iqtisodiy geografiya ta'limida kundalik yangiliklardan foydalanish o'quvchilarni g'oyaviy tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi, ularning saviyasini yanada oshiradi va bilim doirasini kengayishida katta ahamiyatga ega.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy geografiyasi kursida iqtisodiy kartalardan yanada ko'proq, hususan, iqtisodiy kartalarning yangi turlaridan ko'proq foydalaniladi. Bu kurs 1964 yildan beri A.G. Artyomova, V. P. Maksakovskiy va boshqalarning «Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi» darsligi asosida o'rganib kelinadi. Jahon mamlakatlari iqtisodiy geografiyasi kursini o'rganishda «Materiklar va okeanlar geografiyasi» va «YAngi tarix» kurslaridan olingan bilimlarga tayaniladi.

Kurs materiklarni o'rganishda mamlakatlarga iqtisodiy geografik xarakteristika berish sxemasi, ularning ixtisoslanishiga qarab bir oz o'zgarishi mumkin. Chunonchi industrial mamlakatlarda sanoatning salmog'i, qishloq xo'jaligiga nisbatan ustun bo'lganligi uchun avval sanoati, agrar mamlakatlarda esa qishloq xo'jaligi ning salmog'i sanoatdan yuqori bo'lganligi uchun dastlab qishloq xo'jaligi o'rganiladi.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy geografiyasi kursi materiallarni o'rganishda vaqtlilik matbuot materiallari va adabiyotlardan foydalanishi joizdir, binobarin o'quvchilar gazeta va jurnallarni muntazam o'qib borishga, kurs materiallarini hozirgi voqealar bilan bog'lab borishga o'rganadilar. O'quvchilar bilimni baholashda, ularning kundalik voqealarni muntazam kuzatib borishlarini e'tiborga olib rag'batlantirish lozim. Kurs materiallarini o'rganish jarayonida o'quvchilar aktivligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan muammoga ham e'tibor berib borish lozim, shu maqsadda «YAponiya» mavzusini o'rganayotganda o'quvchilarga «Nima uchun urushdan keyingi yillarda Yaponiya iqtisodiy jihatdan tez rivojlana boshladi?» - degan muammoli savol berish mumkin.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy geografiyasi kursi materiallarini o'rganishda ko'pchilik masalalarni hal etish uchun bilim manbai bo'lib xizmat qiladigan turli mazmundagi kartalar, suhbat va mustaqil ishlarni tashkil etishda katta imkoniyatlar vujudga keltiradi.

Xususan, mamlakatlarning iqtisodiy geografik o'rni, aholisi, sanoati, qishloq xo'jaligi va transporti asosida o'rganish yaxshi natija beradi. Shuningdek statistik materiallar bilan ishlashda suhbat metodi juda qo'l keladi. Jahon mamlakatlari iqtisodiy geografiyasi kursi materiallarni o'rganishda iqtisodiy kartalar bilan birga boshqa ko'rsatmali vositalardan, jumladan transport, diafilm va kinofilmlardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Maktab geografiyasi geografiya fani to'plagan bilimlarni o'quvchilarga yetkazishda quyidagilarga amal qilishi maqsadga muvofiq:

1.O'quvchilar yoshiga mos keladigan va ular o'zlashtira oladigan darajadagi bilimlarni

berishi;

2.O'quvchilarga to'la shakllangan va hayotda eng ko'p qo'llaniladigan bilimlarni berishi kerak.

Maktab geografiyasining hozirgi shakldagi mazmunini belgilashda geograf-metodist olimlar N.N.Baranskiy, A.S.Barkov, A.A.Borzov, A.A.Polovinkin, I.A.Vitver, S.V.Chefranov, P.T.Terexov, V.G.Erdeli, X.X.Xasanov, Z.M.Akramov, O.A.Muminov, P.G.Musaev, P.G'ulomov va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. Ilmiy texnika taraqqiyoti va geografiya fanining ko'proq amaliy fan bo'lishi maktab geografiyasi mazmunini sifat jihatdan o'zgarishiga yordam berdi. 50-yillardan boshlab maktab dasturlari mazmuniga amaliy ishlar kiritila boshlandi. Hozirgi kunda esa har bir kurs maxsus amaliy ishlar tizimiga ega. Amaliy ishlarni uyushtirishning majburiyiligi ta'limni hayot bilan yaqinlashtirishga yordam beradi.

Maktab geografiyasining mazmuni hozirgi zamon geografiya fani taraqqiyoti bilan belgilanadi, ya'ni geografiya fani qanchalik rivojlansa, maktab geografiyasi ham unga bog'liq holda shunchalik rivojlanishda bo'ladi. Geografiya ta'limi jarayonida o'quvchilar asosiy geografik tushunchalar va qonuniyatlar tizimini egallashlari kerak. Ta'lim jarayonida geografik ob'ektlar va hodisalar, sabab-oqibat nuqtai-nazaridan eritilishi lozim. O'quvchilar tabiiy geografiya asoslarini bilishlari uchun geomorfologiya, iqlimshunoslik, okeanologiya, quruqlik gidrologiyasi, tuproqshunoslik, geologiya, geofizika, geoximiya va boshqa fanlardagi ma'lumotlarni bilishlari va o'rganishlari kerak. Ayniqsa hozirgi kunda tabiiy geografiya mazmuniga tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va uni qo'riqlash, inson bilan tabiat o'rtasida ketaetgan jarayonlar haqidagi bilimlar keng o'rin olishi kerak.

Iqtisodiy geografiyani o'rganish o'quvchilarga iqtisodiy geografik o'rin, tabiiy sharoit va boyliklariga iqtisodiy jihatdan baho berish, territorial ishlab chiqarish kompleksi, geografik mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, agrosanoat kompleksi, dehqon fermer xo'jaligi iqtisodiy rayonlar, shaharlar, qishloqlar kabi tushuncha va kategoriyalar haqida bilimlar berilishi lozim. Ayniqsa o'quvchilar aholi joylashishi va mehnat resurslari, hududiy mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni joylashtirishning muhim qonuniyatlari va hududiy ishlab chiqarish komplekslarining vujudga kelish qonunlari, bozor iqtisodi munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan o'nlab tushunchalarni puxta egallashlari kerak.

4-ma'ruza. O'qitish metodlari

Reja

1. Metod haqida tushuncha.
2. Ta'lim metodlariga qo'yiladigan talablar.

Tayanch iboralar

Bilim, ko'nikma, malaka, didaktika, metod, usul, ta'lim metodlari, og'zaki bayon metodi,

taqqoslash, solishtirish, hikoya, suhbat, savol-javob.

1. Metod haqida tushuncha.

Hozirgi paytda, avval ta'kidlab o'tganimizdek, tayyor bilimni o'zlashtirish asosiy maqsad bo'lmay, eng asosiysi, o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qilish ob'ektiv zaruriyatga aylandi. Bu maqsadni amalga oshirish esa ko'p jihatdan dars o'tish metodlarini tanlashga bog'liq. Har qanday fanni o'rganishda turli metodlar qo'llaniladi. Buning sababi, birinchidan, dars o'tishda turli uslublarni qo'llash uni qiziqarli bo'lishiga, o'quvchilarni diqqatini o'tilayotgan darsni o'zlashtirishga qaratiladi. Bir xil metodda dars o'tilaverishi o'quvchilarni zeriktiradi. Psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra, har qanday mohir o'qituvchi ham bir xil metodni qo'llab dars berar ekan, aytaylik, ma'ruza o'qir ekan, o'quvchi-talabalar dastlab 20 minut, so'ngra darsni tugashidan oldin 20 minut ma'ruzani diqqat bilan eshitar, kolgan paytda xayolga berilib ketar ekan.

Ikkinchidan, o'quvchilarning darsni o'zlashtirish, bilimni qabul qilish qobiliyatlari har xil bo'lib, turli uslublarni qo'llashgina o'tilayotgan mavzuni o'quvchilar tomonidan nisbatan to'liq o'zlashtirishga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bilimni o'zlashtirish jarayonida mavzuni tezroq anglashga bir xil o'quvchilarga bir uslub yordam bersa, ikkinchilariga boshqa uslub yordam beradi.

Uchinchidan, dars o'tish metodlari o'quvchilarni fikrlash doirasini shakllantirishga yordam beradi. Shuning uchun ham, barcha pedagoglar o'quvchilarga bilim berishning eng samarali yo'li, dars o'tishga turli metodlarni qo'llash zarur degan fikr tarafdori bo'lib, aynan qaysi metod qaysi kategoriyadagi o'quvchilar uchun qo'llanilishi ma'qulligi bo'yicha esa yagona qolip yo'q,

Jahon pedagogikasi tajribasi shuni ko'rsatadiki, taxliliy fikr yuritadigan o'quvchilardangana muvaffaqiyat bilan ishlovchi biznesmenlar, siyosiy liderlar (sardorlar), fan arboblari yetishib chiqadi. Tahliliy fikrlash mustaqil fikrlashdir. Har bir kishining fikr yuritishi individual xarakterga ega bo'lib, boshqalarnikidan ajralib turadi. Axborot esa tahliliy fikrlashning boshlang'ich nuqtasidir. G'arb olimlari tomonidan chop etilgan uslubiy adabiyotlarda bilim berish uslubiga ta'sir etuvchi parametrlarga:

-har bir talabanning individual xususiyatlari;

-axborotni qayta tiklash qobiliyati;

-o'quvchilarni bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatishi, hamkorlik qilish xislatlarini kiritishadi.

Psixologlar odamlarni introvert va ekstravert guruhlarga bo'lishadi: Introvert tipidagi o'quvchilar ko'proq individual qatnashish ustun dars o'tish uslublarini yoqtirishadi. Masalan, ma'ruza eshitish, kitob o'qish, adabiyotlarni konspekt qilish, nazorat ishi, referat, doklad yozish kabilar. Ekstravert guruhidagi o'quvchilar o'qitishning faol turlarini, boshqalar bilan hamkorlikda bajariladigan

uslublarni yoqtirishadi. Masalan, kichik guruhlarda ishlash, modellashtirilgan o'yinlar o'tkazishda qatnashish kabilar.

Insonda olgan axborotni qayta ishlash qobiliyati ham turlicha. O'quvchilar bilim olish, olgan axborotlarini yodda saqlash, tushunish va qo'llashda ham bir-biridan farq qiladilar. Ba'zi o'quvchilar uchun verbal (so'zda ifodalangan) axborot, masalan, ma'ruza eshitish yoki radio orqali tinglash etarli. Boshqalari uchun esa vizual (ko'rish) axboroti muhim. Ular ko'rgazmali qurollar: jadval, sxema, fafik. diagramma kabilar orqali mavzuning mazmuniga tez tushunishadi

O'quvchilar ko'p narsalarni bir-birlaridan o'rganishadi. Shuning uchun o'quvchilarni bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, hamkorlik qilishga asoslangan dars o'tish metodlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, ba'zilar mustaqil, birinchi bo'lishga intilishi bilan ajralib turadi. Ular alohida o'qishni ma'qul ko'radi. Ularga debat, munozara olib borish, konkursarga qatnashish yoqadi. Boshqalar yolg'izlikdan ko'ra hamkorlikda o'qishga moyil. Ular uchun kooperatsiyalashgan o'qitish uslublarini qo'llagan ma'qul. Ba'zi o'quvchilar aniq faktlar, ma'lumotlarni tezroq qabul qiladi. Boshqalari nazariy matematik modellarni yoqtiradi. Ba'zi talaba-o'quvchilar ko'rgazmali rasmlar, diagrammalar orqali, boshqalari munozara qilganda, uchinchilari esa amaliyotda o'zi bajarishda qatnashsa yaxshiroq, puxtarok o'rganadi.

Umuman olganda, ta'lim-tarbiyaning metodlari qotib qolgan emas. Vaqt o'tishi bilan ular o'zgaradi. O'quvchilarni bilim olishi va olgan axborotini qayta ishlashi uchun turli-tuman metodlarni o'ylab topib, qo'llash mumkin. Ayniqsa, hozirgi paytda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun juda ko'p sohalarga bilishning turli usullarini qo'llash va bilim berishda moslashuvchanlik, rang-barang pedagogik metodlar qo'llash talab etiladi. O'qituvchilarni dars jarayonida turli uslublarni, o'quv topshiriqlarini qo'llab, o'quvchilarda bilim olishga ishtiyoq uyg'otishlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning qobiliyatini, ularni individualligini hisobga olgan holda turli metodlarni qo'llash, albatta, o'zlashtirish natijasini ko'taradi.

Pedagog - olimlarning tadqiqotlari bo'yicha o'qitish jarayonida berilgan axborotni eslab qolish qo'llanilgan metodlarga ko'ra quyidagicha ko'rinishda aks etar ekan: Biz ma'ruza, doklad eshitar ekanmiz uning 5 foizini, o'qigan materiallarimizni 10 foizi, video, rasm, ko'rgazmalarni ko'rganimizni 20 foizini, tajribani namoyish qilinganida ko'rgan va eshitganlarimizni 30 foizini, munozaraga kirishsak, birga muhokama qilganimizni 40 foizini, mashq echar ekanmiz, o'qigan, yozgan, gapirganlarimizning 50 foizini eslab qolar ekanmiz. Tahlil qilganlarimizni muhokama qilish samarali metod ekan. Buning natijasida o'quvchilar ongida ma'lumotning 75 foizi saqlanib qolar ekan. Lekin, o'quv-amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning bir-birlariga o'rgatishlari undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90 foiz ma'lumot o'zlashtiriladi. Insonning esda saqlash xotirasi - biokompyuterdir. Odatda, olingan axborotning juda ko'pi qisqa muddat yodimizda saqlanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar muayyan bilimlar ko'nikmalar va malakalarni egallaydilar. Didaktikada metod deganda o'qituvchining rahbarligida turli usullar vositasida o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalari bilan qurollantirishga, hamda ularning dunyoqarashini shakllantirishga tushiniladi. O'quv materiali mazmuni ta'limning turli vositalari yordamida va turli usullar bilan o'zlashtiriladi. Shu sababli har doim o'qituvchi oldida o'quvchilarni muvafakkiyatli va samarali o'qitish va ularning o'qishiga yordam beradigan yo'llarni tanlash muammosi ko'ndalang bo'lib turadi. O'quv materialini o'rganishning turli shakllarini kidirish, darsning maqsadlari, vazifalarini anglab olishdan boshlanadi. Metod so'zi grekcha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, aynan "tadqiqot" degan ma'noni anglatadi. Didaktika fanida metod atamasiga ta'rif berish bo'yicha aniq bir koidani mavjud emas. Bu borada xil-xilma ta'rif va koidalar mavjud. Shunga qaramasdan didaktikada metod quyidagicha talkin etildi. Ta'lim metodi deganda o'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayoni-dagi birgalikdagi faoliyati tushuniladi. Bunda ular qo'yilgan maqsad uchun birgalikda harakat qiladilar.

Metod o'qituvchi va o'quvchi faoliyati turlarini ta'lim qanday ketishligini, o'qituvchining o'quv materialini kay darajada tushuntirishini, o'quvchi uni qanday o'zlashtirishi kerakligi bilan belgilanadi. Metodning alohida detallari usul dyoyiladi. Masalan, yangi bilimni o'zlashtirishda darslik bilan ishlash bunga misol bo'lishi mumkin. Metod va usul o'rtasida doimiy aloqa mavjud. Geografiya asoslarini puxta o'zlashtirish, o'quvchining bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni hayotga tayyorlash ma'lum darajada ta'lim usullariga ham bog'liq.

Ta'lim metodlari-o'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan ish usullari bo'lib, o'quv materialini nazariy va amaliy o'zlashtirish shaklidir. Ta'lim metodlari o'quvchilarga bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmaydi. Ta'lim metodlari, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini shakllantirishga, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga, ilmiy bilimlarga asoslangan to'g'ri dunyoqarash va etikodni tarbiyalashga ham yordam beradi. Shunday qilib, ta'lim metodlari uchun 2 ta asosiy narsa xos.

1. Metodlar o'qituvchi faoliyati yo'l-yo'riklari bo'lib, o'quvchilar faoliyatini belgilashga va yo'naltirishga yordam beradi.

2. Ta'lim metodlari faqat bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish bilangina cheklanmasdan balki o'quvchilarda ijodiy faoliyat, bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatini tarbiyalashga ham yordam beradi.

Ta'lim metodlari o'qitishning umumiy va aniq maqsadlariga, hamda maktab ta'limining mazmuniga ham bog'liq. Ta'lim metodlari ko'p hollarda o'quvchilarning ruxiyati va yosh xususiyatlarini e'tiborga olishni ham talab qiladi. Uni tanlash geografiya ta'limining moddiy-texnika ta'minotiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Chunki o'qituvchi ta'lim usulini tanlar ekan, maktabda mavjud bo'lgan texnika-vositalarini va ulardan foydalanish imkoniyatlarini hisobga

oladi. Pedagogikada fanida o'qitish metodlari maktab joylashgan sharoitga, va o'qituvchilar tajribasida tar-kib topgan ananalarga ham bog'liq. Masalan, o'qituvchi o'z ishiga alohida tus bag'ishlaydigan muayyan metodlardan foydalanishni afzal ko'radi. U ilmiy-texnika jarayoni sharoitida ananaviy metodlarini takomillashtirishga va yangi metodlarni izlab topishga, harakat qiladi.

2. Ta'lim metodlariga qo'yiladigan talablar.

Metod tanlash juda ko'p omillarga bog'liq:

* usul mavzuning mazmuniga to'g'ri kelishi kerak;

* o'quvchilarning bilish qobiliyatini hisobga olish (o'quv mavzusining murakkabligi, nazariy bilimlar hajmi, sinfnig darajasi, o'quvchilarni mustaqil ishlarni bajara olish qobiliyati);

* geografik bilimlarning xususiyatlari hisobga olinishi kerak.

Geografik bilimlar bilishning xususiyatiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- geografik voqea va hodisalarni tashqi ko'rinishi haqidagi bilimlar. Bu bilimlar o'quvchilarda o'rganilayotgan voqealarni tasavvurini shakllantirishi kerak: tog'lar, o'rmon, yassi tog', harita va boshqalar;

- geografik voqea va hodisalarning fazoda joylanishi haqidagi bilimlar. Masalan tabiat zonalarining, iqlim mintaqalarining joylanishi;

- geografik voqea va hodisalarni xossalari to'g'risidagi bilimlar. Tuproqning xosildorligi, namgarchilik, bug'lanish, intensiv va ekstensiv xo'jalik, qattiklik va boshqalar;

- geografik jarayonlar haqidagi bilimlar. Shamol va suv eroziyasi, yotqiziqlarning xosil bo'lishi, suvning aylanib yurishi, migratsiya, urbanizatsiya, vulkanlar va boshqalar;

- geografik voqea va hodisalarning tarkibi xakidagi bilimlar. Energetika, og'ir sanoat, Yer qobiqlari, okean, eksport va import tarkibi, til, milliy tarkib va boshqalar;

- geografik voqealarning tuzilishi haqidagi bilimlar (Yer kobishning tuzilishi, havo massalari, atmosferaning tuzilishi, xalq xo'jaligi tuzilishi, qishloq xo'jaligi tuzilishi va boshqalar);

- geografik voqea va hodisalar orasidagi aloqalar haqidagi bilimlar. Sabab va oqibatlar, davriy, fazoviy, funksional aloqalari.

Bu bilimlarning har biri alohida o'qitish usullarini qo'llashni talab qiladi.

Hozirgi kunda ta'lim metodlari muammosi eng asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. U quyidagi talablarga javob berishi kerak.

Birinchi talab - metodning tarbiyaviyligi bunda har qanday metod o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga, bilimga qiziqishlariga, etikod xis tuyg'u va qarash lariga ta'sir ko'rsatadi. ta'limning

tarbiyaviy vazifa-sini amalga oshirish metodning tanlanishiga bog'liq.

Ikkinchi talab - metodning ilmiyligi. Dars berish va ta'limning har qanday metodi o'quv jarayonining qonuniyatlari bilan belgilanadi. Metod ilmiy jihatdan qanchalik asoslangan bo'lsa, shunchalik ravshan va aniq bo'ladi. Eng muhimi shundaki, biror metod yordamida qanday umumiy va aniq vazifalarni xal etish mumkinligini, u qanday mazmunga mos kelishini, faoliyatining qanday turlarini talab qilishini va ularni qanday tashkil etish lozimligini ko'ra bilish kerak. Metodning ilmiyligi geografik voqea va hodisalarni, qonuniyatlarini to'g'ri anglanishini ta'minlaydi va o'quvchilarni to'g'ri ilmiy tasavvurga olib boradi.

Uchinchi talab - metodning ommabopligi. Bunda o'quvchilar rivojlanishining pedagogik - ruhiy imkoniyatlari e'tiborga olinadi. Agar metod o'quvchilarda mavxum tafakkurni ham e'tiboriga olib tanlansa, o'quvchi murakkabroq materialini ham egallay oladi va jadal rivojlanadi. Demak, metod tanlanganda o'qituvchi nimalarni tushuntirishi kerakligi haqida emas, balki o'quvchi nimani tushuna olishi haqida ham o'ylash kerak.

To'rtinchi talab - ta'lim metodining samaradorligi, uning o'quv materialining mustahkam egallashga qaratilganligidan kelib chiqadi.

Beshinchi talab - o'z ish faoliyatida ilg'or tajribalarni qo'llashi va uni muntazam o'rganishi zarur. Nazariya va amaliyda ta'lim metodlari bilan bog'liq yangiliklarni doimo o'rganib borish lozim. Geografiya o'qitish metodlari haqida so'z borar ekan "metod", "usul" degan so'zlar yonma-yon uchraydi. Metod, usul bir-biridan ba'zan deyarli farq qilmaydi, ba'zan bir xil ma'noda yuritib kelinadi. Masalan: kartalarni solishtirish-taqqoslash metodi deb yuritiladi. Bu noto'g'ri, chunki kartalarni solish-tirish metod emas, u solishtirish usulidir. O'zbek tilidagi mavjud qo'llanmalarda taqqoslash ham, solishtirish ham birdek-taqqoslash deb ishlatiladi. Vaholanki, taqqoslash - o'rganilayotgan geografik ob'ektni ilgari o'rganilgan ob'ekt bilan taqqoslash tufayli o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Masalan, Janubiy Amerika cho'lini Osiyo cho'li bilan, Sirdaryoni Enisey bilan taqqoslab, ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Taqqoslash og'zaki bayon metodining bir usulidir. Solishtirish - kartalarni solishtirish va tahlil qilish bilan bir geografik ob'ektga xos bo'lgan ob'ekt va hodisalarning sabablarini aniqlashdan iborat. Masalan: turli mazmundagi kartalar solishtirilib, tahlil etiladi. Solishtirish esa kartografik qo'llanmalar bilan ishlash metodining bir usulidir. Metod usullar yig'indisidan iborat. Usul esa metodning tarkibiy qismidir. Masalan, geografiyaga xos bo'lgan karta bilan ishlash metodi bir necha usullarni o'z ichiga oladi: karta bo'ylab sayohat; kontur kartaga geografik ob'ektlarni tushirish; kartalarni solishtirish va boshqalar.

Ayrim usullarni bir necha metod tarkibiga kiritish ham mumkin. taniqli metodist olim M.K.Kovalevskaya: ta'lim vositalarini (darslik, karta bilan ishlash), bilimning og'zaki bayon shakllari (hikoya, suhbat, tushuntirish, maruza)ni bilish usullari (taqqoslash, kartalarni qiyoslash

umumiy xuloslar chiqarish)ni va o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari va shakllari (nazariy bilimlarni egallash, amaliy ish usullari, mustaqil ish usullari)ni metodik usullar deb hisoblagan. U ayrim hollarda bir usulning metod tarkibida ishtirok etilishini misollarda keltirgan. Masalan, taqqoslash usuli og'zaki bayon, suhbat, karta bilan ishlash metodlarida ham ishtirok etishi ham mumkin. Demak, metod bilan usul o'rtasida uzviy bog'lanish bor. Ta'lim metodlarining tasnifi shu tarzda kelib chiqadiki, bu narsa o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv materialini egallash shakllaridagi o'xshash va tafovut qiladigan muhitlarni chuqurroq anglab olishda, hamda o'z o'qituvchilik faoliyatini muvaffaqiyatliroq tashkil etishda yordam beradi.

5-ma'ruza. Geografiya ta'limida qo'llaniladigan metodlar tasnifi

Reja

1. Geografiya fanlardan dars o'tishda turli metodlarni qo'llash zaruriyati
2. Geografiya ta'limi metodlari tasnifi

Tayanch iboralar

Ta'limi metodlari tasnifi, o'qitish metodi, analitik, sintetik, konstruktiv, guruhlashtiruvchi, darslik bilan ishlash, globus va harita bilan ishlash, ko'rgazma, namoyish metodi, kuzatish, tajriba, suhbat, ma'ruza

1. Geografiya fanlaridan dars o'tishda turli metodlarni qo'llash zaruriyati

Geografiya ta'limi metodlari muammosi pedagogika fanlarining tarixida eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan va hozir ham shunday bo'lib kelmoqda. Bu muammo bo'yicha ilmiy tortishuvlar hozir ham davom etmoqda. O'qitish metodi degan tushunchani juda ko'p ta'riflari bor, ulardan eng keng tarqalgani quyidagicha: «O'qitish metodi - bu ta'lim maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchining o'zaro bog'langan va tartibga solingan faoliyati».

O'tgan asrda Rossiya pedagogikasi nemis pedagogikasi ta'sirida bo'lgan. Shuning uchun 1877 yili nemischadan Oberlenderning «Geografiya metodikasi» degan kitobi tarjima qilingan va 30-chi yillargacha shu kitob bo'yicha dars berib kelingan. Bu kitobda quyidagi metodlar ajratilgan:

- * analitik-avval umuman Yerni o'rganib, keyin uning qismlarini o'rganishga o'tiladi;
- * sintetik-avval ayrim joylarni o'rganib, keyin umuman Yerni bir butunligini o'rganish;
- * konstruktiv-o'quvchilar harita chizish davomida Yer yuzasi shakllari bilan tanishishadi;
- * o'zaro aloqa (assotsiruyushiy)-o'rganilayotgan xodisalar orasidagi o'zaro aloqalarni ochib berishga asosiy e'tibor berish;
- * guruhlashtiruvchi bir xil geografik, xodisalarni taqqoslashga yo'naltirilgan;

Ushbu metodlar keyinchalik D.D. Semenov, E.Yu.Petri, A.F.Sokolov, V.P. Budanov, S.P. Arjanov tomonidan qayta ishlab chiqildi. S.P.Arjanov geografiya o'qitish usullarini quyidagi guruhlariga bo'ladi: analitik, sintetik, konsentrik, assotsialashtiruvchi, guruxlashtiruvchi, taqqoslash, tajriba, o'zaro aloqa, evristik, dogmatik, sintetik-genetik, tajriba-evristika.

«O'qitish metodi» degan tushunchani yangi ta'rifi ishlab chiqildi. V.G.Erdeli tomonidan geografiya o'qitish metodlarini ikki guruhga bo'lish taklif qilindi:

- a) umumiy, boshqa fanlarda ham qo'llaniladigan;
- b) geografiya fanining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan metodlar (karta va globuslar bilan ishlash).

A.A.Polovinkin 1938 yil «Tabiiy geografiya metodikasi» nomli kitobida quyidagi metodlarni ajratadi: og'zaki bayon, haritalar, diapozitiv, plastilin, darslik, globus bilan ishlash, ekskursiya va tajriba. V.P.Budanov 1939 yili «Tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi» nomli kitobida o'qitish metodiga quyidagicha ta'rif beradi: «O'quvchilarni yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini o'qituvchi tomonidan boshqarilishi» V.P.Budanov quyidagi metodlarni ajratadi: jonli so'z, darslik bilan ishlash, globus va harita bilan ishlash, ko'rgazma, namoyish (illyustrsiya) metodi, kuzatish va tajriba. 50-yillardan keyin bu muammo N.N.Baranskiy, A.V.Darinskiy, V.A.Juchkevich, V.A.Korinskaya tomonidan rivojlantirildi.

Shuni ta'kidlab aytish kerakki, har doim turli davrlarda o'qitish metodlarini sinflashtirish bitta yagona qoida asosida olib borildi, bu ham bo'lsa bilish manbalariga asosan. Shuning uchun xozirgi paytda geografiya o'qitish metodikasida, metodlarni bilish manbalariga qarab sinflashtirish qabul qilingan. Suhbat, ma'ruza, haritalar bilan ishlash, kuzatish, darslik bilan ishlash, statistik ma'lumotlar bilan ishlash va boshqalar. Bu usullar xozirgi paytda maktabda u yoki bu shaklda keng qo'llanilmoqda. Oxirgi paytlarda yangi o'qitish metodlarini qidirish kuchayib ketdi. Geografiya o'qitish metodlarini bilish manbalariga qarab sinflashtirishni tanqid qilishga urinilmoqda, chunki bunday metodlar asosan tashqi belgilariga qarab, bolalarni o'quv faoliyatini hisobga olmagan holda sinflashtirilgan.

Endi geografiya o'qitish usullarini metodologik asosini ko'rib chiqamiz. Falsafa fanida metodga quyidagicha ta'rif beriladi: «Borliqni amaliy va nazariy o'rganish». Bu ta'rif asosan ilmiy bilimlarga tug'ri keladi. Bilishning ilmiy va o'quv tomonlari turlicha, shuning uchun bu ta'rifni tug'ridan tug'ri o'quv jarayoniga qo'llab bo'lmaydi, chunki ularni maqsadlari va faoliyat shakllari, hamda natijalari turlicha, ammo ularning umumiy tomonlari ham bor.

Eng muhim umumiy tomoni fan ham, o'qitish ham bilish jarayoni hisoblanadi. Ilmiy bilishda ob'ekt bu - o'rganilayotgan borliq, sub'ekt -olim. O'qitish jarayonida ob'ekt - bu

o'quv predmetlarining mazmuni sub'ekt - o'quvchilar. Ikkala sharoitda ham alohida o'rinni sub'ektning faoliyati egallaydi. Mana shu narsa o'qitish metodini falsafiy ta'rifini o'quv jarayoniga qo'llashga imkon beradi. Endi o'qituvchi bilan o'quvchini maqsadlarini aniqlab olishimiz kerak. O'qituvchining o'qitish maqsadlari quyidagilardan iborat:

- * o'quvchini bilim va ko'nikmalarni egallashini ta'minlash;
- * o'quvchilarni ongini rivojlanishini ta'minlash;
- * egallangan bilim va ko'nikmalar asosida o'quvchilarni shakllanishini ta'minlash, ya'ni ularni tarbiyalash.

O'quvchining maksadi bilim va ko'nikmalarni egallash. YA'ni o'quvchilarni maqsadi, o'qituvchining o'qitish metodlari tarkibiga kiradi. Demak o'quvchilarning o'qitish metodi o'qitish metodining asosini tashkil qiladi. O'qituvchi o'quv jarayonini boshqaribgina qolmasdan balki mana shu jarayonni ichida bo'lish kerak, ya'ni o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarni egallashida ham boshqaruvchi, ham nazariyasi ham yordam beruvchi bo'lishi kerak. Bularni hammasi o'qitish metodlariga quyidagicha ta'rif berishga imkon beradi. «O'quvchilar tomonidan o'quv mazmunini o'zlashtirishga imkon beradigan o'qituvchi va o'quvchilarni birgalikdagi faoliyatdir». Metod doimo o'quv mazmuniga mos kelishi kerak. Maktab geografiyasida esa geografiya o'qitish metodlari so'zsiz geografiya fanining bilish usullariga mos kelishi kerak. O'qituvchi va o'quvchining faoliyatiga quyidagilar kiradi: kartografik ma'lumotlar bilan ishlash usullari, kuzatish va tajriba qilish, statistik materiallar bilan ishlash, turli xil chizmalar bilan ishlash, iqtisodiy hisob kitoblar. Demak o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati o'qitish metodini tashkil, qilar ekan.

2. Geografiya ta'limi metodlari tasnifi

Ta'lim metodlari muayyan belgilariga ko'ra guruhlariga ajratiladi. Hozirgi kunda ta'lim nazariyasi va geografiya ta'limida quyidagi metodlar tasnifi keng tarqalgan:

I. Bilim olishning asosiy manbalariga ko'ra.

1. Og'zaki-bayon (hikoya, tushuntirish, ma'ruza)
2. Suhbat, savol-javob
3. Kartografik qo'llanmalar bilan ishlash
4. Ko'rsatmali qo'llanmalar bilan ishlash
5. Kuzatish va tajribalar
6. Raqamli materiallar bilan ishlash
7. Darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash
8. Amaliy metodlar.

II. Didaktik maqsadlarga ko'ra:

1. Yangi materiallarni o'rganish metodlari

2. Bilimlarni mustahkamlash metodlari
3. Bilim, ko'nikma, malakalarni tekshirish metodlari

III. Xulosa chiqarish faoliyatiga ko'ra:

1. Analitik metodlar
2. Sintetik metodlar
3. Induktiv metodlar
4. Deduktiv metodlar

IV Fikrlash faoliyati va bilim olish faolligi xususiyati bo'yicha

I.YA.Lerner M.N.Skatkinlar quyidagi metodlar tasnifini ilgari suradilar:

1. Izoxli ko'rgazmali metodlar.
2. Reprodukativ yoki olingan bilimlarni qayta tiklash metodi
3. Muammoli bayon metodi
4. Qisman izlanuvchan metod
5. Tadqiqot metodi

V. S.G.Shapovalenko didaktik metodlarni 3 ta guruhga ajratishni

tavsiya etadi:

1. Og'zaki metodlar
2. Ko'rgazmali metodlar
3. Amaliy metodlar.

Yuqoridagi barcha metodlarni shartli ravishda "Yangi bilim olish metodlariga", va "Olingan bilimlarni qayta tiklash usullariga" ajratish ham mumkin. Har bir ta'lim metodi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ta'limiy va tarbiyaviy tomonlar bilan bog'lanib turadi. Ayrim pedagoglar ta'limda faol va sust metodlarni ham ajratadilar. Bu unchalik to'g'ri yo'l emas. Chunki, barcha metodlar ham o'z o'rnida to'g'ri qo'llanilsa, o'quvchilarni faoliyatini faollashtirishi mumkin. Metod tanlashda ko'pgina xususiyatlarni e'tiborga olish takozo etiladi.

O'quvchilarning bilish faoliyati ko'pgina omillarga: Xususan o'quv materialining murakkabligi, nazariy bilimlar hajmi, sinfning bilim darajasi, o'quvchilarning mustaqil ishlarni kay darajada bajara olish qobiliyati va xakozalarga bog'liq. Ayrim metodlar o'quvchilarda esda saqlab qolishni, ayrimlari fikrlashni, ba'zilar xis-xayajonni rivojlantiradi.

Har bir metod ijobiy va salbiy tomonlarga ham ega. Masalan; hikoya va ma'ruza (ma'ruza) metodlarini qo'llash shu paytda yaxshi natija beradiki, kachonki o'quvchilarda bilim olishga ishtiek kuchli bo'lsa. Savol-javob metodi bilan dars o'tish o'quvchilardan ko'p vaqt va maxorat talab qilishi bilan birga o'quvchida ham zarur va tayanch bilimlar bo'lishini takozo etadi. YOki muammoli yoki tadqiqot metodlarini qo'llash va uni uyushtirish o'qituvchidan kuchli bilim va ko'p vaqt talab etadi. Biror metodni tanlagan paytda albatta o'quvchilarning bilish faoliyati, aqliy

darajasi, ta'lim vositalari bilan ta'minlanganlik axvoli ham e'tiborga olinishi kerak. Ta'lim metodlari samaradorligini oshirish hozirgi sharoitda dolzarb vazifalardan biridir. Ta'limda bir yoki bir necha metodni afzal ko'rish o'rinsizdir. Chunki bunga har tomonlama yondashish zarur. Ta'limdagi muvaffaqiyatni ko'p hollarda ta'lim metodlari tizimi ta'minlaydi. Metodlarning har biri o'ziga xos afzalliklarga ega u yoki bu tushunchani o'quvchi ongida shakllantirishda har bir metodning o'ziga xos o'rni bor.

Ta'lim metodlarida o'qituvchining qiyofasi, uning dunyoqarashi ruhiy-pedagogik, metodik va maxsus ilmiy tayyorgarligi aks etgan bo'ladi. Xuddi ana shu omillar ta'lim metodlari samaradorligini belgilaydi. Muayyan metodga yaxshi tayyorgarligi bo'lgan o'qituvchida shu metodning o'zi salbiy jihatlarni ham namoyon qilishi mumkin. Shu sababli ta'lim metodlari samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining tayyorgarlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Metodlarni noto'g'ri tanlash o'quvchilarning bilim va kunik malari sust egallashiga sabab bo'ladi. Demak ta'limda universal metod bo'lishi amri maholdir. Shu tufayli ham o'qituvchi faqat bitta metoddan foydalanib dars o'tmaydi. Bunday bo'lishi mumkin ham emas.

Geografiya ta'limining eng muhim xususiyati shundan iboratki, o'qituvchi aksariyat darslarni o'qitishda og'zaki bayon metodlarini (ma'ruza, hikoya, suhbat, savol-javob) karta bilan uyg'unlashgan holda qo'llaydi va samarali natijalarga erishadi. Har bir bilim ko'nikma, malaka xilma-xil metodlarni qo'llashni talab qiladi. Chunki u yoki bu metodni tanlash dars mazmuni, maqsadi, o'quvchilarning tayyorgarligi, o'quv jihozlari bilan ta'minlanganlik kabi ko'plab omillarga bog'liq ekanligini hayotning o'zi talab qilmoqda.

Geografiya ta'limida kartalarni, rasmlarni tanlashda izchillikning bo'lmasligi ham bilimlarining sust o'zlashtirilishiga sabab bo'ladi. Masalan, 6-sinfda "Afrika tabiat zonalari" mavzusida o'quvchilar "Ekvatorial urmon", "Savanna", "Sahro" kabi tushunchalarni egallashlari kerak. Bunda dastlab o'qituvchi o'quvchilarda yuqoridagi tabiat komplekslarining tasvirini (ko'rinishini) o'quvchilar ko'z oldida gavdalantirishi, keyin esa uni kartadagi o'rni bilan bog'lab ularda tabiiy hududiy komplekslar turli-tumanligi haqida o'quvchilar va tasavvur hosil qilishi zarur. Keyin esa turli metodlar yordamida yuqoridagi tushunchalar egallanadi.

6-ma'ruza. Og'zaki bayon usullari

Reja

1. Geografiya ta'limida og'zaki metodning tutgan o'rni.
2. Geografiya ta'limida hikoya va tushuntirish usulidan foydalanish
3. Geografiya ta'limida suhbat, ma'ruza va o'qib berish usullaridan foydalanish
4. Geografiya ta'limida darslikning ahamiyati.

Tayanch iboralar

Bilim, ko'nikma, malaka, didaktika, metod, usul, ta'lim metodlari, og'zaki bayon metodi,

taqqoslash, solishtirish, hikoya, suhbat, savol-javob.

1. Geografiya ta'limida og'zaki metodning to'tgan o'rni.

O'qitish metodlari tasnifi asos qilib olingan bilim olishning assosiy manbalari (metodlari) ichida o'qituvchining jonli so'zi-nutqi ya'ni og'zaki bayon metodi alohida o'ringa ega. Jonli nutq o'quvchi ongiga tez yetib boradi, uni ma'lum xulosalar qilishga undaydi. O'qituvchining jonli nutqi puxta bilim, ko'nikma va malaka manbai bo'lishi bilan birga, juda katta tarbiyalovchi kuchga ham ega. O'qituvchi nutqidagi mantik, intonatsiya, urguning kuchi, dalillarning jonli va ishonarli bo'lishi o'quvchilarning ongiga, xis-tuyg'ulariga, kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni fikrlashga o'rgatadi. Jonli nutq o'quvchilarning bilim olishidagi boshqa manbalar: ko'rsatmali qurollar va matnlar mazmunini tushunishga, ular ustida mustaqil ishlashga, fikr yuritishga ham yo'l ochib beradi.

O'qituvchi dars jarayonida o'quv materiallarini og'zaki bayon qilib berish bilan chegaralanib qolmasdan, har xil ko'rsatmali qurollar (rasmlar, illyustratsiyalar, maketlar, texnika vositalar)dan ham foydalanadi. O'qituvchining og'zaki bayonini keng ma'noda tushunmoq kerak. Jonli nutq deganda ta'limining og'zaki usuligina emas, balki o'qituvchining butun dars davomida jaranglab turadigan so'zini, o'quvchilar bilan o'tkaziladigan savol-javobini, yakunlovchi so'zini, uyda bajarish uchun berilgan topshiriqlar mazmunini va ularni bajarish yo'llarini, izoxlashga doir so'zini, seminarlar uyushtirishdagi kirish so'zini, o'quvchilarga beriladigan turli yo'l -yo'riqlarini, izoxli baholashni va boshqalarni tushumoq kerak. O'qituvchining jonli so'zini o'quvchilarning o'qib o'rganishi va bilim faoliyatini boshqarishni, unga rahbarlik qilish yo'llari va vositalarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Jonli nutqning bu imkoniyatlaridan oqilona foydalanish o'quvchilar bilimining puxta va mustahkam bo'lishini ta'minlaydi, geografiya o'qitishning ta'limiy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. O'qituvchining og'zaki bayoni quyidagi pedagogik talablarga javob berishi kerak.

1. Og'zaki bayon ilmiy va g'oyaviy jihatdan to'g'ri bo'lishi, tanlangan materialning ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishiga;
2. Bilimlarning mantiqiy to'g'ri bo'lishini ta'minlashga yordamlashishga;
3. O'quvchilar uchun tushunarli, bilimlarni tushunarli va puxta o'zlashtirilishini ta'minlashga;
4. Nutq obrazini qiziqarli bo'lishiga, o'quvchilarni xayajonlashtirishga undashi;
5. Bayon qilinayotgan materialni o'quvchilar yozib olishlariga ham e'tibor berishi kerak.

O'quvchilar o'qituvchi bayonini o'zlashtirishda ba'zan qiynaladilar. Ular materialni xoxlagan vaqtlarida qayta-qayta o'qib chiqishlari mumkin, ammo o'qituvchining bayonini qayta eshita olmaydilar. SHunga ko'ra o'quvchilarning o'rganishi ustidan o'qituvchining nazorati va rahbarlik qilish, ayniqsa katta ahamiyat kasb qiladi. Og'zaki bayon boshqa metodlar bilan birgalikda

qo‘shib olib borilishi kerak. Aks holda ayniqsa kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida uning ko‘p qo‘llanilishi salbiy natijalar berishi ham mumkin. Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, 6-7 sinflarda hikoya yoki tushuntirish 5-15 minutdan oshmasligi kerak. Yuqori sinflarda unga ajratiladigan vaqt bir muncha ko‘proq bo‘lishi ham mumkin. O‘quvchilarning o‘qituvchi bayonini e‘tibor va qiziqish bilan o‘rganishini quyidagi yo‘llar bilan tashkil etish mumkin:

1. O‘qituvchi darsning vazifalari, maqsadi va bayonini asosiy o‘rinlarini qisqacha so‘zlab beradi.

2. O‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzuning muhim yoki qiyinligini aytib, uni puxta tushunib, bilib olish uchun nima qilish kerakligini, aytaylik, bayonining qaysi qismlariga e‘tibor berish kerakligini, qanday qo‘shimcha materiallar (vaqtli matbuot, ilmiy ommabop, geografik adabiyotlar) ni o‘qib chiqish zarurligi va boshqalarni uktirib o‘tadi.

3. O‘qituvchi bayoni albatta geografik karta, statistik materiallar, grafiklar diagrammalar, kontur kartalar, natural qo‘llanmalar, darslik bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi kerak. Ayniqsa geografiya o‘qitishda og‘zaki nutqni karta bilan bog‘lash nihoyatda salmoqli o‘ringa ega.

Og‘zaki metod o‘quvchilar bayonini puxta bo‘lishi hamda ularning bilish jarayonini faollashtirishda muhim o‘rin to‘tadi. O‘qituvchi bayonidagi intonatsiya va urguning kuchi, pauza, geografik jummalarning ixcham va mantikan to‘g‘ri ifoda qilinishi, nutqning ravon,sof obrazli va ta’sirchan bo‘lishi,tabiat va xalqlarga oid xikmatli so‘zlar hamda aforizmlardan o‘rinli foydalanish ayniqsa muhimdir. Demak, geografiya o‘qituvchisi didaktik va pedagogik talablar asosida hamda geografiya fanining mazmuni va vazifalariga mos ravishda materiallarini aniq va ko‘rgazmali qilib so‘zlab,tushuntirib bera olishi kerak. Har bir o‘qituvchi bu san’atni egallashi zarur.

Og‘zaki bayon metodini puxta egallash uchun nutqni o‘stirish ustida izlanish aniq, ravon, ta’sirli va obrazli so‘zlash ustida tinmay ishlash, mashq qilish zarur. To‘g‘ri, barcha o‘qituvchilar nutqidagi yorokinlik va badiiylik bir xil emas. Eng muhimi geografiya o‘qituvchisi o‘z fanini, dunyodagi voqealarni, kartalarni yaxshi bilsa, ularni bir-birlariga bog‘lay olsa ko‘zlangan maqsadga albatta erishadi. Eng ahamiyatlisi esa o‘qituvchi dars o‘tish oldidan, darsni so‘zlab berish metodlarini puxta o‘ylab qo‘ygan bo‘lsa og‘zaki bayon metodlarini samaradorligi yanada oshadi.

Geografiya fani uchun xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlardan yana biri shuki, o‘qituvchi o‘zi ko‘rgan, bilgan, boshidan kechirgan, hodisa voqea larni erkin gapira olishi darsni qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. O‘qituvchi kitobga, qog‘ozga qarab gapirishi, og‘zaki bayon, metodini ahamiyatini pasaytirib yuboradi. Ammo ayrim raqamli materiallarni kitob yoki qog‘ozga qarab gapirishi mumkin. Og‘zaki bayon metodi o‘z ichiga hikoya, tushuntirish, ma’ruza, suhbat, o‘qituvchining o‘qib berishi kitob bilan ishlash, statistik materiallar bilan ishlash kabilarni oladi. Metodik adabiyotlarda og‘zaki bayon metodlarining afzal va zaif tomonlari etarlicha ochib berilmagan. Geografiya ta’limi metodikasi oldida turgan muhim vazifalaridan biri og‘zaki bayon

paytida o'quvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish, bu metodni boshqa metodlar bilan birgalikda foydalanish muammolarini echish ko'ndalang bo'lib turadi. Ayniqsa, og'zaki bayon paytida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilish va boshqalar geografiya ta'limi metodikasidagi muhim muammolardan hisoblanadi.

2. Geografiya ta'limida hikoya va tushuntirish usulidan foydalanish

Hikoya-o'quv materialini bayon qilish shakli bo'lib, asosan tasvirlash xarakteriga ega. Hikoyada (ma'ruzaga karaganda) o'qituvchi o'quvchilar bilan ko'proq muloqotda bo'ladi. Hikoya yordamida o'quvchilar bilan savol-javob qilib bo'lmaydigan mavzularni o'qitishda bu metod keng qo'llaniladi. Masalan, vulqonlar otilishi, Yer qimirlashlar, okeandagi oqimlar, kashfiyotlar, ekvatorial urmonlar va boshqalarda bu metodning afzalligi yorqin syoziladi. Hikoya, ob'ekt va hodisalarni, tabiat va jamiatda hamda xalqlar hayot idagi voqea hodisalarning nutqda ifodalanishidir.

O'qituvchi biron narsani tasvirlash orqali unga xos bo'lgan belgilarni ajratadi va shu bilan ularda tushuncha va tasavvurlar hosil qiladi. Hikoya o'quvchilarda materialni o'zlashtirishni engillashtiradi. Hikoyaning ta'lim tarbiyaviy ahamiyati faktlarni to'g'ri tanlanishga bog'liq. Ba'zan o'qituvchi asosiy bilimlarni o'zlashtirilishini qiyinlashtiradigan bir qator qo'shimcha, ikkinchi darajali ma'lumotlarni bayon qiladi. Ayrim hollarda o'quvchi ekskursiyada olgan taassurotlarini aytayotganda asosiy narsani ajrata olmasdan, ko'rgan narsalarning hammasi haqida gapiraveradi. Ma'lumotlar, faktlar, voqealar, misollar bitta umumiy mavzu, yagona vazifaga birlashtirilib shu vazifa izchil va muntazam tarzda ochib berilsa, hikoya ijobiy natija beradi va oson o'zlashtiriladi. Hikoya mazmuni o'quvchining shaxsiy tajribasi bilan, maxalliy tabiat bilan bog'lanishi uni maroqli qiladi, kechinma va xis-tuyg'ularni vujudga keltiradi. O'qituvchi konkret vaziyatni va o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib, bevosita dars mazmuniga mos keladigan hikoyalarni tanlashi kerak. Eng muhimi hikoya aniq tuzilishiga ega bo'lishi, ya'ni uning boshlanishi, voqea larning rivojlanishi, ko'lminatsion nuqtasi va xotima qismi albatta bo'lishi kerak.

Agar o'qituvchi hikoya metodini oldindan tanlamasa hikoya qiziqarsiz chiqadi. Maktab geografiyasida hikoyaning quyidagi ikki turi keng qo'llaniladi;

1. O'rganilayotgan kursda faktlarga asoslangan bilimlar tizimini bayon qilishdan iborat bo'lgan hikoyalar. Bularga sayohatchilar xotiralari, materiklar va okeanlar tabiati xalqlari hayot i O'zbekiston geografiyasida kishilarning xo'jalik, turmushi, madaniyati haqidagi hikoyalari kiradi.

2. Tasviriy yoki ko'rgazmali-hikoyalar. Bu turdagi hikoyaning asosiy maqsadi geografik ob'ekt va hodisalar haqida o'quvchilarda aniq tasavvurlar hosil qilishdan iborat.

Birinchi turdagi hikoyalar meaterialni o'rganishda asosiy metod sifatida qo'llanilsa, illyustrativ hikoyalar metodlarni to'ldiruvchi qo'shimcha material sifatida ishlatiladi. Ko'pchilik hollarda har ikki turdagi hikoyalar bitta mavzuni bayon qilishda ham qo'llanilishi mumkin. Tasviriy

hikoya mazmunini badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar, o'qituvchining sayohat va kinofilmlardan olgan shaxsiy kechinmalari tashkil qiladi. Tasvirli hikoya geografik talablarga javob berishi bilan birga ob'ekt va hodisalar, dars mazmuni bilan uygunlashgan ham bo'lishi lozim. Geografiya ta'limida karta, rasmlar asosidagi uyushtirilgan hikoyalar ham keng qo'llaniladi.

Hikoyada ob'ektning umumiy belgilaridan asosiy belgilar ajratib ko'rsatilishi yaxshi natijalar beradi. Masalan, Materiklar geografiyasida o'qituvchi Uzoq sharq tabiiy rayonidagi janubiy urmonlarni hikoya kilmoqchi deylik. O'quvchilarda bu urmonlar haqida yaxshi tasavvur hosil qilish uchun bu urmonlarning asosiy o'simlik turlarini va ularning joylashishi haqida gapirishi kerak. Keyin o'qituvchi bu urmonlarga xos bo'lgan umumiy belgilarni ajratadi. (qalinlik, ko'p yaruslik, keyin shu urmonlargagina xos bo'lgan o'simliklarni ta'riflaydi). Masalan, Manjuriya yongogini tasvirlab uning barglari kattaligini, barglari asosan shoxlari uchida bo'lishligini, mevasi qalin etli qobiq bilan uralganligini hikoya qiladi.

Hikoyadan darsning turli bosqichlarida foydalanish zarur. Hikoya qo'shimcha bilimlarni xabar qilish vositasi ham bo'lishi mumkin. Hikoya darsda mustaqil o'rin egallab, uning turli bosqichlariga tushuntirish jarayoniga ham kiritilishi mumkin. Hikoya darsning boshida yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlaydi, oxirida qo'llanilsa o'rganilgan materialni umumlashtiradi va darsga xotima yasaydi.

Hikoyaga yuqori sinflarda 20-25 minut, kuyi sinflarda 5 minutdan 15 minutgacha vaqt ajratish mumkin. Hikoyaning salbiy tomonlari ham bor. Hikoya paytida o'quvchilar faqat diqqat bilan tinglovchi bo'lib, darsga faol jalb qilinmaydilar. Hikoya anchaga cho'zilib ketsa ular diqqati pasayishi mumkin. O'qituvchi hikoya vaqtida o'quvchi yoshiga mos keladigan, dars mazmuniga to'g'ri keluvchi materiallar to'plashi kerak. Hikoyada ortiqcha faktlar, raqamlar, uzuq-yuluq tasvirlar bo'lmasligi kerak. O'qituvchi faqat o'zi bilgan narsalarni gapirmasdan, balki mavzuga oid bo'lgan materiallarni hikoya kilmogi zarur. Hikoya juda soddalashtirib yuborilmasligi, unda tushunchalar, atamalar albatta aks etgan bo'lishi kerak. Qisqasi hikoya geografik ko'nikma shakllanishida muhim omil bo'lishi maqsadga muvofiq. Hikoya paytida ayrim mavxum narsalar, raqamlar, doskaga yozib borilishi zarur. Hikoya davomida o'qituvchi nazorat savollar berib borishi materialning puxta o'zlashtirilishini ta'minlashga yordam beradi.

Tushuntirish - nazariy o'quv materialini egallash shakli bo'lib, o'quvchilarga geografik jarayon va qonuniyatlarini kengrok ochib berishi lozim bo'lganda qo'llaniladi. Tushuntirishda muloxaza qilish shakllari tahlil va sentez, kuzatish va xulosalar chiqara olish, induksiya (aniq ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish), deduksiya (ilgari o'rganilgan umumiy hodisalar asosida ma'lum koida, ta'rifini shakllantirish) keng qo'llaniladi. Hikoya qilib berish qiyin bo'lgan bilimlar tushuntiriladi.

Yerning shakli, kattaligi geografik kenglik va uzoqlik, yerning sutkalik va yillik harakati,

gradus turi, tog'larning paydo bo'lishi, briz, passat, musson, siklon, antitsiklon, frontlar, geologik hodisalar, iqtisodiy qonuniyatlar ishlab chiqarishni joylashtirish shakllarini o'rganishda tushuntirish metodidan keng foydalaniladi.

Materiklar va okeanlar geografiyasida Sharqiy Osiyo mavzusini o'tish-da musson va musson tipidagi iqlimni quyidagicha tushuntirish mumkin. Ma'lumki, Sharqiy Osiyo eng katta okean bilan tutash hududda joylashgan, shu tufayli Sharqiy Osiyo iqlimi bevosita quruqlik va suv ustida turlicha harorat, bosim vujudga kelishi bilan belgilanadi. Buni doskada quyidagi tayanch sxema asosida tushuntirish maqsadga muvofiq. O'qituvchi doskadagi rasm asosida o'quvchilar diqqatiga quyidagi savollarni havola qiladi:

1. Yozda quruqlik va okean ustida havo harorati qandaytaqsimlanadi? Qishdachi?
2. Yozda quruqlik va okean ustida havo bosimi qandaytaqsimlanadi? Qishdachi?
3. Agar bizga havo bosimi taqsimlanishi ma'lum bo'lsa, shamol yunali-shini aniqlasa bo'ladimi?

Yuqoridagi savollar asosida mussonning mavsumiy harakterga ekanligi o'quvchilarga tushuntiriladi. Tajribali o'qituvchilar tushuntirish vaqtini oldindan belgilaydilar. Bu o'qituvchidan puxta tayyorgarlik talab qiladi. Nazariy va amaliy materialni puxta, izchil bayon qilish, puxta o'ylangan tushuntirishlar va qo'shimchalar, tushuntirishni ilmiy bilimlarni egallashning ta'sirchan usuliga aylantiradi. Mamlakatlar, iqtisodiyzonalar ixtisoslashuvi, iqtisodiyhududlar iqtisodi tushuntirilayotganda o'qituvchi avvalo dalillarga asoslangan ma'lumotlarni yig'adi. Masalan, biron mamlakat sanoati tushuntirilganda, unga doir bo'lgan savollar aniqlanadi. (Sanoat tizimini, asosiy tarmoqlari, sanoat markazlari, xom ashyo bilan ta'minlanish) keyin aytish lozim bo'lgan ma'lumotlarni yigadi va shu mamlakat sanoatining usishi; qiyinchiliklari, muammolari haqidagi ma'lumotlarni to'playdi. Tushuntirish bandlardan iborat bo'lishi kerak. Masalan, O'zbekiston geografiyasida, O'zbekiston sanoatini quyidagi reja asosida yoritish mumkin:

1. O'zbekiston sanoatini Yaponiya, Isroil sanoatiga nisbatan birmuncha zaifligi sabablari.
2. O'zbekiston sanoatini hozirgi davrda rivojlantirish vazifalari
3. Asosiy sanoat tarmoqlarining rivojlanishi
4. Sanoatning joylashishi va asosiy sanoat rayonlari

O'qituvchi har bir savolga javoblarni faktlarga tayangan holda berishi kerak. Kuyi sinflarda tushuntirishda suhbat va hikoya elementlari ham qisman ishtirok qildi. Yuqori sinflarga o'tish bilan tushuntirishda hikoya elementlari deyarli uchramaydi. Tushuntirish jarayonida o'quvchilar tomonidan javob reaksiyasini . bo'lishini ko'zda to'tish kerak. O'qituvchi qisqacha muammoli savollar berishi, qiyin joylarni qandaytushunganliklarini so'rash, aqliy yoki amaliy ishlarni bajarishga undashi zarur.

3. Geografiya ta'limida suhbat, ma'ruza va o'qib berish usullaridan foydalanish

Suhbat - ta'lim metodi sifatida o'quv materialini egallashning savol-javob shaklidir. Bunda asosiy o'rinni o'qituvchi savoli va o'quvchi javobi egallaydi. Ba'zi hollarda (juda siyrak) o'quvchi savoli va o'qituvchi javobi ham uchraydi. Suhbat jarayonida o'quvchilar tushunmaganlarini o'qituvchidan so'rashlari mumkin. Ba'zilar suhbat metodini savol-javob metodi bilan chalkashtiradilar. Ayni paytda ularning har ikkisi deyarli mazmunan bir xil metoddir. Bu metodning bosh talabi - mukammal o'ylangan savollar va o'quvchilar qaytarishi mumkin bo'lgan javoblarining puxta tizimidir. Savol aniq bo'lishi, ya'ni o'quvchilar suhbat nima ustida borayotganini hamisha tushunishlari kerak. O'qituvchi suhbat paytida o'quvchilar fikrini o'rganiladigan geografik ob'ekt va hodisalarining asosiy belgilariga yunaltiradi va ularning bilish faoliyatlarini boshqarib boradi. Mavzu e'lon qilingandan keyin savollar o'rta tashlanadi, suhbat mantiqiy qismlarga bo'linadi, o'qituvchi o'quvchilar javobini tinglaydi, ularning javobidagi xatolarini tuzatadi va to'ldiradi. Shundan sung o'quvchilarni yakun yasashga undaydi. O'quvchilarni savollarni to'g'ri berishga o'rgatish kerak. Savollarni to'g'ri tuzish va berishning o'zi san'at ekanligini doimo uktirish lozim. Savol berilayotganda o'quvchilar qaytaradigan javoblar turlicha bo'lishini nazarda to'tish kerak. Buni bilgan o'qituvchi oldindan bir qator yordamchi, tuzatuvchi savollarni tayyorlab kuyadi.

Suhbat hamisha savollar tizimidir. Unda hamma narsa o'zaro bog'liq va asosiy g'oyaga buysundirilgandir. Savol shakl jihatidan aniq va ravshan bo'lishi kerak. Suhbatda tushunish qiyin bo'lgan atamalarni, murakkab iboralarni kiritish, savollarni takrorlayverish yaramaydi. Suhbat jarayonida turli xil ko'rsatmali qurollardan foydalanish zarur, bu o'quvchilar faolligini oshirishga yordam beradi. Suhbatni uyushtirish ancha murakkab vazifa bo'lib, o'qituvchidan pedagogik maxorat talab qiladi. Suhbat metodining yana eng muhim afzalligi shundaki, bu usulda yangi materialni o'rganish bilan bir vaqtda o'quvchilar bilimini aniqlash mumkin bo'ladi. Suhbat o'quvchilarni turli bilim manbalari karta, globus, gerbariyalar, kolma'ruzalar bilan ishlashga o'rgatadi. Suhbat metodini murakkab mavzularini o'rganishda qo'llash qiyin, chunki o'quvchilarda bu borada tayanch bilim kam. Eng muhimi suhbatning yaxshi chiqishi uchun o'quvchilarda tayanch bilimlarning mavjud bo'lishi maqsadga muvofiq. Suhbat ya'ni savol-javob savollari mazmunan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Aniq va to'g'ri ma'lumotlarni o'zlashtirishga oid savollar? Masalan: O'zbekistondagi eng baland cho'qqi necha metr? U qaysi tog' tizimida joylashgan? Globusni kim kashf etgan? Jamolungma cho'qqisini birinchi kashf qilgan sayoxni ayting? va boshqalar.

2. Kartani bilish va o'qib olishga oid savollar. Masalan, Toshkentdan shimoliy va janubiy kutbgacha masofalarini daraja va km hisobida ayting. Karta yordamida Adir zonasiga ta'rif bering.

3. Kartalardagi ob'ektlarni ta'riflay olish tarzidagi savollar? Masalan: Samarkand va Toshkent shaharlari geografik o'rnini kiyoslang.

4. Sabab aloqadorlik, qonuniyatlarini o'zlashtirishga qaratilgan tarzdagi savol-javoblar. Masalan: Nima sababdan yosh tog'larda zilzilalar ko'p bo'ladi? Nima sababdan chukindi foydali kazilmalar tekisliklarda ko'proq uchraydi va boshqalar. Har bir yangi mavzuni o'tishdan oldin o'quvchilarga havola etilishi mo'ljallangan savollar tayyorlab kuyilishi kerak. Ayniqsa ish faoliyatini endi boshlayotgan o'qituvchilar bu koidagi nihoyatda amal qilishlari zarur. Chunki dars va suhbat jarayonida bunday mazmundagi savollarni bevosita tuzish va o'quvchilar diqqatiga havola qilish ancha murakkab masaladir. Qo'yiladigan savollar mantikiga ko'ra suhbat metodi 2 turga bo'linadi:

1. Savol-javob suhbat . Bunda o'qituvchi savollar kuyadi, o'quvchilar unga esa qisqa javob qaytaradilar. Savol-javob orqali dalillar va geografik ob'ektlarning joylashishi haqidagi bilimlar aniqlanadi. Bu usulda o'quvchilarning ilgari olgan bilimlari takrorlanadi. Masalan, Yevropa bilan Osiyo, Yevroosiyo bilan Afrika o'rtasidagi chegaralar qaerlardan o'tadi?

2. Keng ko'lamdagi evristik suhbat. Bu usulda o'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyati ustidan nazorat qiladi. Ular diqqati geografik ob'ekt va hodisalarning eng muhim belgilarini aniqlashga va mustaqil xulosalar chiqarishga qaratiladi. Savollar shunday kuyilishi kerakki, berilgan javob asosiy fikrni ifodalashi va shu fikrni davom ettirishi kerak. Yoki qo'yilgan savollar o'zuyuluk bo'lmay birinchisi ikkinchisini, ikkinchisi esa uchinchi savolni to'ldirishi maqsadga muvofiq. Savol-javoblarning keng ko'lamda uyushtirilishi o'quvchilarda faol fikrlash jarayonini rivojlantiradi.

O'zbekiston iqlimi mavzusida iqlim kartasi asosida bir-birini to'ldiruvchi quyidagi savollarni berish va unga javob talab qilish mumkin.

1. O'zbekistonning SHimoliy va Janubiy qismida yozda havo harorati qanday bo'ladi?
2. Shu joylarda kish harorati-chi?
3. O'zbekiston shimoliy va janubiy qismlarida havo haroratining yillik amplitudasi qanday?
4. Yillik amplitudaning bunday farqlanishiga sabab nima?
5. O'zbekiston shimoli va janubida yog'inlarning taqsimlanishi qanday?
6. Yog'inlarning bunday farqlanishiga sabab nima?
7. Sovuk kunlar O'zbekiston shimoli va janubida qancha vaqt davom etadi?

Keng ko'lamdagi bunday suhbat asosan yangi bilimlarni o'rganishda va yakuniy takrorlashda ko'proq qo'llaniladi. Suhbatda bir necha tipdagi savollar qo'llaniladi:

- a) O'quvchilardagi mavjud bilimlarni aniqlash savollari;
- b) Karta, ko'rgazmali qurollar, statistik materiallar asosida yangi bilimlarni egallashda qo'llaniladigan savollar;
- c) Taqqoslash orqali geografik voqea va hodisalarning sabab-oqibatlarini bilishga qaratilgan savollar va boshqalar;

Geografiya ta'limida karta asosida uyushtiriladigan suhbat keng qo'llaniladi. Suhbat metodini didaktik maqsadiga ko'ra 3 ta turga ajratish mumkin.

1. Tushuntirish yoki kirish suhbat. Yangi materialni o'rganishda qo'llaniladi va o'quvchilardagi mavjud bilimlarga tayangan holda uyushtiriladi. O'quvchilar ob'ekt va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni mustaqil aniqlashdan iborat bo'lgan vazifalarni bajaradi. O'quvchilarga karta va boshqa ko'rsatmali vositalar asosida savollar beriladi. Savol vositasida yangi material eski materiallar bilan bog'lanadi. Masalan, Afrika iqlimini o'tishda o'quvchilar 5-sinfda egallagan tushunchaga tayanib, iqlimga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlaydi.

2. Nazorat suhbat. O'quvchilar ekskursiya va kezishlardan (poxod) keyin geografik materialni yoki sinfda so'zlab berilganlarni qanchalik to'g'ri o'zlashtirganliklarini hamda bilim, ko'nikma va malakalarni qanday egallaganliklarini aniqlashda qo'llaniladi.

3. Umumlashtiruvchi suhbat. Bu turdagi suhbatni uyushtirishdan asosiy maqsad o'quvchilarni xulosa chiqarishga o'rgatishdan iborat. Bunda o'quvchilarning geografik taassuroti va bilimlari tartibga solinadi. Yakunlovchi suhbat yirik mavzular, qismlar, bilimlar utib bo'lingandan keyin qo'llaniladi. Suhbat turlari o'quvchilarning tayyorgarligiga qarab o'zgarib turishi ham mumkin. Geografiya ta'limining dastlabki bosqichlarida suhbat oddiy, kam sonli va qisqa javob talab qiluvchi savollardan iborat bo'ladi. O'quvchilarning fikrlash qobiliyati rivojlanishi va mustaqilligi oshishi bilan suhbat metod sifatida takomillashadi. Geografiya o'qitishda suhbatning yaxshi chiqishi uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq.

1. Savol shakl jihatidan aniq va ravshan bo'lishi kerak. U butun sinfga tushunarli bo'lishi uchun jumlar aniq tuzilishi lozim. Qiyin atamalar va murakkab iboralarni kiritish yaramaydi. Berilgan savol muayyan javob talab qilishi kerak. Masalan, urmonda o'simliklardan nimalarni kurdingiz deb emas, balki siz urmonda qandaydaraxt turlarini uchratdingiz, deb kuyilishi maqsadga muvofiq.

2. O'quvchi javoblari aniq va ravshan bo'lish kerak. Javob muayyan reja asosida bo'lishi zarur. Eng muhimi, qanday vositalardan foydalanib, nimani isbotlayotganligi yoki tushuntirayotganligini o'quvchi anglashi zarur.

3. Qo'shaloq savol berishdan saqlanish kerak. Masalan, siz tekislikda oqadigan daryolarni bilasizmi va ular qay jihatdan tog' daryolaridan farq qiladi? Yoki O'zbekistonlik sayoxlardan kimlar va qanday qilib Jamolungma cho'qqisini zabt qildi? va boshqalar. Agar savol juda qisqa bo'lsa ko'shalok savol berish mumkin.

4. Savollarga keraksiz, ortiqcha so'z va jumlar kiritmaslik lozim. Masalan: endi ko'raylikchi, kim javob berar ekan, "demak", "ya'ni", so'zlarini keragidan ortiqcha ishlatmaslik zarur.

5. Javobi chalkashib ketadigan tarzdagi savollar bermaslik kerak. Masalan: Kuzatuvchi

yuqoriga kutarilgan sari ufq chizigi kengayadimi? Bu savolni kuzatuvchi yuqoriga kutarilganda ufq kay holda o'zgaradi? shaklida havola qilgan va tuzgan ma'ko'l.

6. G'oyat murakkab va g'oyat uzun javob berishni talab qiladigan og'ir savollar tuzmaslik zarur.

7. Ha yoki yo'q deb javob qaytarish talab qilinadigan savol bo'lmasligi kerak. Masalan: Volga Kaspiyga qo'yiladimi? va boshqalar.

8. Har xil javob berilish mumkin bo'lgan noaniq savollar berishdan kochish kerak. Masalan: Sel paytida nima bo'ladi? Tuman bo'lganda nimalar bo'ladi?

9. Muhokama (diskussiya) talab etadigan savollar puxta o'ylab o'rtaga tashlanishi kerak. Masalan: Orol ko'li yana o'z holiga kaytishi mumkinmi? yoki Orol butunlay kurisa nima bo'ladi? va boshqalar.

10. Savollar ma'noli, grammatik jihatdan to'g'ri, sodda tilda, tushunarli qilib ifoda etilishi kerak.

Savollar o'quvchidan o'ylab ko'rish, muhokama qilishni talab etadigan qilib tuzilishi zarur. Savollarni tuzish uchun ko'p vaqt ketishligi bu metodning kamchiligi hisoblanadi. Suhbat metodi asosida o'rganiladigan mavzuning bir necha qismga bo'lib o'rganilishi oqibatda o'quvchilarning xotirasida uning bir butunligi yo'qolishi mumkin. Biroq bu kamchilikni yakunlovchi suhbatda bartaraf qilsa bo'ladi. Bilimlarni egallash shakli sifatida suhbat o'quv jarayonida turli o'rinni egallashi mumkin: dars boshida tayyorgarlik va yangi materialni o'zlashtirish, uyga berilgan vazifani tekshirish, e'tiborini to'plash vositasi bo'lishi, tushuntirish jarayonida yangi materialni o'rganilgan bilimlar bilan bog'lash, dars yakunida o'rganiladigan koidalar va ta'riflarni mustahkamlash metodi, yakun sifatida foydalanish mumkin. Suhbat boshqa metodlar bilan bog'langan bo'lib, ularni to'ldirib turadi. Materialni egallashning har qandayshakllarida qisqacha suhbatlardan ham foydalaniladi.

Ma'ruza deganda, mavzuni ravon, ilmiy va izchillik asosida bayon etilishiga tushuniladi. ma'ruza 30-40 minut davom qiladi. Qolgan vaqtni o'qituvchi maslaxati va uyga vazifa egallaydi. Bu metodlarni boshqa metodlar bilan uygunlashtirilib olib borilsa, uning samarasi yuqori bo'lishligi tajribalarda isbotlangan. Ma'ruza o'quvchilardan o'qituvchining biroz uzun nutqini eshitalishini talab qiladi. SHu tufayli undan yuqori sinflarda ko'proq foydalaniladi. Ma'ruza deganda oliy o'quv yurti o'quvchilariga 80 minutlik, maktab o'quvchilarga esa 30-40 minut vaqtda bayon etilishini farq qilish kerak. Ma'ruza o'qituvchidan katta tayyorgarlik talab qiladi. U bir vaqtning o'zida ta'lim shakli bo'lish bilan birga o'qitishni og'zaki bayon metodi hamdir.

Geografiya ta'limida ma'ruza qilish, dasturning yirik boblarini o'tganda, o'rganilayotgan materialda nazariy bilimlar ko'proq bo'lsa, keng qo'llaniladi. Ma'ruzani o'qituvchidan tashqari ilmiy xodimlar, iqtisodchilar, jurnalistlar va boshqa mutaxassislar ham olib borishlari mumkin.

Ma'ruzaga tayyorlanishda quyidagi reja asosida ish ko'rish maqsadga muvofiq:

1. Mavzuni tanlash va ma'ruza maqsadini aniqlash;
2. Tanlangan mavzu bo'yicha darslik va qo'shimcha adabiyotlardan materi-allarni o'rganish;
3. Ma'ruzaning reja ko'chirmasini tayyorlash, unda ma'ruza vazifalari, jihozlari, o'qituvchi

va o'quvchi faoliyati, uy vazifasi belgilanishi kerak. Ilg'or o'qituvchilar tajribalari shuni ko'rsatdiki, ma'ruzani quyidagi hollarda ko'proq qo'llash samarali natijalar beradi:

-Oldingi material bilan oz miqdorda bog'liq bo'lgan yoki umuman bog'liq bo'lmagan yangi materialni o'tishda;

-O'tilgan o'quv materialining turli bulimlarini umumlashtirishda;

-O'rganilgan qonuniyatlarning amaliy qo'llanilish to'g'risidagi o'quvchilarga ma'lumotlar berilganda;

-Fanlararo aloqalar zarur bo'lgan mavzular o'rganilayotganda;

-Muammoli darslarni o'tkazishda.

Oliy maktab ma'ruzasi konkret material ustida atroflicha nazariy muhokama yuritish uni ilmiy asosda chuqur tahlil qilish va umumlashtirishdan iborat. Bunda ma'ruza materiallari tahlili va umumlashtirishlar suhbat shaklida emas, balki monolog shaklida bo'ladi. Tahlil qilish, umumlashtirish, tartibga solish va muhokama yuritish ma'ruza metodining eng muhim tomonlarini tashkil etadi. Oliy maktab ma'ruzasi o'zining ana shu xususiyatlari bilan ajralib turadi. Maktab ma'ruzasi faqat ajratilgan vaqtning ko'p yoki ozligi bilan emas, balki o'zining mazmuni, o'qitilishi va o'rganishning metod va usullari jihatidan ham oliy maktablardagi ma'ruzalardan farq qiladi. Uning ahamiyati shundaki, o'quvchilarni tinglashga, asosiy narsalarni ajrata bilishga va ko'proq ko'chirma olishga ham o'rgatadi.

Ma'ruza uchun nazariy bilimlar ko'proq mujassamlangan mavzularni tanlash kerak. Bundan tashqari tanlangan material o'zida qiziqarli faktlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'qituvchi ma'ruza mavzusi bilan birga uni bayon qilish rejasini ham e'lon qiladi. Reja doskaga yozib qo'yilsa, yana ham yaxshi, rejaning har bir bandiga alohida to'xtalish kerak.

Maktab ma'ruzasida suhbatning ayrim ko'rinishlari qo'llanilishi mumkin. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning diqqatini ma'ruzani muhim tomonlariga jalb qilish maqsadida savollar berilib borilishi mumkin. Maktab ma'ruzasi materiali yakuniy suhbat bilan tugaydi. Maktab ma'ruzasi o'quvchilar yozib ulgurishi uchun sekin o'qiladi. Ma'ruzadagi raqamli materiallar, ayrim tushunchalar, atamalar, doskaga yozib borilishi yanadi yaxshi. O'quvchilarni ma'ruza rejasini mustaqil tushunishga o'rgatish kerak. O'quvchi tuzgan ma'ruza rejalari rag'batlantirilib borilsa, samarali natijalar berishi mumkin.

Ma'ruzani 2 usulda tashkil qilish mumkin: O'qituvchi ma'ruzasi va olim yoki mutaxassis

ma'ruzasi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki mutaxassis yoki olim o'qigan ma'ruza o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Ma'ruza jarayonida texnika vositalari, turli ko'rgazmali qurollardan ham foydalanish kerak. Iqtisodiy geografiya kurslarida iqtisodiy zonalar, rivojlangan mamlakatlar, Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar, Afrika mamlakatlari, jahon iqtisodiy munosobatlari kabi juda ko'p mavzularda ma'ruza usulini qo'llash mumkin. Maktab ma'ruzasi quyidagi didaktik talablarga javob berishi kerak:

1. Ma'ruzaning ilmiy jihatdan mukammal bo'lishi

2. Ma'ruza darslik mazmuniga qaraganda keng va uni ko'p jihatdan oydinlashtiradigan bo'lishi kerak. Agar ma'ruza mazmuni darslik mazmunidan juda qisqa yoki aynan shu mazmundan iborat bo'lib qolsa, uni o'quvchilar tinglamay qo'yishlari ham mumkin.

3. Ma'ruza mazmunan ko'rgazmali bo'lishi

4. Ma'ruza o'quvchilarni fikrlashga, voqea va hodisalarni tahlil qilishga, umumlashtirishga o'rgatishi

5. Ma'ruzaning o'quvchilarga yetib borishi uchun o'qituvchi o'zining nutqi ustida ko'p ishlashi

Savollar ma'ruza yakunida berilishi maqsadga muvofiq.

Geografiya darslarida o'qituvchining o'qib berishi. Mavzuni og'zaki bayon qilish va suhbat jarayonida o'qituvchi tomonidan o'qib berilishi ham keng qo'llaniladi. Odatda geografiya xrestomatiyasidagi maqolalar, darsliklarning ba'zi joylari, dars mavzusiga oid gazeta va jurnallardan olingan parchalar o'qiladi. O'qib berishdan asosiy maqsad quyidagicha:

1. O'qitish metodini tez-tez o'zgartirib turish zarur bo'lganda

2. Dars va ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirishda

3. Darsda utilayotgan mavzu o'qituvchi o'z so'zlari bilan aytib berolmaydigan darajada bo'lsa

4. Matn badiiy jihatdan boy bo'lsa.

Darsda o'qib berish 10-15 minutdan oshmasligi kerak. O'qib beriladigan material dars materiallarini to'ldirishi zarur. Darslikdagi materialni o'quvchining o'zi ham o'qib oladi. Demak darslikda yo'q bo'lgan qiziqarli materiallar o'qib berilsa o'quvchilarning darsga faolligi oshadi. O'qish jarayonida ob'ektlar kartadan ko'rsatib borilishi lozim. Ayrim atamalarga izox ham berilib borilsa yanada yaxshi bo'ladi. O'quvchilarni eng muhim joylarni yozib borishlariga ahamiyat berish kerak. O'qib berilgan materiallar o'quvchilardan surab borilsa va ularga qisqacha rejalar tuzdirilsa dars samaradorligi yanada oshadi.

7-ma'ruza. Geografiya ta'limida harita bilan ishlash

Reja

1. Geografiya ta'limida kartaning roli va ahamiyati
2. Geografiya ta'limida kartalar bilan ishlash.
3. O'quvchilarda kartalarni o'qish ko'nikmalarini shakllantirish.
4. Globus bilash ishlash.

Tayanch iboralar

Karta, o'quv geografik karta, globus, modellashtirish, karta bilan ishlash, kartani o'qish, profil, grafik, kartogramma, kartadiagramma, shartli belgilar, kartografik tasavvur

1. Geografiya ta'limida kartaning roli va ahamiyati

Geografiya ta'limini kartasiz tasavvur qilish qiyin. Karta geografiya fanidagina emas, balki insonning amaliy faoliyatida ham cheksiz ahamiyatga ega. Chunki biron-bir geografik tadqiqotni, inson turmushini kartasiz tasavvur qilishi qiyin. Uchuvchi, quruvchi, geolog, tuproqshunos, ekolog, agronom kartasiz ish ko'ra olmaydi. Ta'lim jarayonida karta ta'limiy va tarbiyaviy vazifani bajaradi. O'quvchilar karta bilan quyi sinflardan tanisha boshlaydilar. Karta ob'ektlar joylashgan o'rinni ko'rsatibgina qolmasdan, balki voqea va hodisalarni, ular o'rtasidagi bog'liqlikni bilishga ham yordam beradi. Maktabda qo'llaniladigan kartalar, o'quv geografiya kartalari dyoyiladi. Geografiya ta'limida kartalar ko'rsatmali qurol va bilim manbai sifatida ishlatiladi. Kartani bilish va undan foydalana olish deganda, undan xilma-xil ma'lumotlarni, xususan, tabiiy va iqtisodiy geografik ma'lumotlarni o'qishga tushuniladi.

Kartaning eng muhim xususiyatlaridan biri bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bulmagan hodisalarni modellashtirishdan iborat. (ob-havo, iqlim geologik kartalar va boshqalar.) Geografiya ta'limi metodikasi nuqtai nazardan qaraganda, karta o'qitish vositasi sifatida 4 ta vazifani bajaradi:

- 1.O'rganish ob'ekti bo'lib xizmat qiladi
- 2.Ko'rgazmali qurol bo'lib xizmat qiladi
- 3.Geografik hodisalarni o'rganishda bilim manbai bo'lib xizmat qiladi

4.Karta geografiya ta'limida psixologik-pedagogik vazifani ham bajaradi. YA'ni uning yordamida bilimlarni egallanishi, esda qolishi va ma'lum bir tizimga tushishi engillashadi. Yuqoridagi 4 ta vazifa kartani o'rganishda bir-birini to'ldiradi, mabodo ularning bittasi bo'lmagan taqdirda ham kartografik bilimlarini to'la egallash qiyin kechadi. Kartani o'rganish ob'ekti dyoyilganda uning yordamida xilma-xil geografik ma'lumotlarni olishga tushuniladi. Karta faqat o'rganish ob'ektgina bo'lmay, balki kartani tushunishdek pedagogik maqsadga ham xizmat qiladi.

2. Geografiya ta'limida kartalar bilan ishlash.

Geografiya ta'limida kartografik bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishga quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

1.O'quvchilarga karta yer yuzasining modeli ekanligini, kartadagi har bir belgining ma'nosini tushunish kerak. Kartaga biron-bir belgi maqsadsiz qo'yilmaydi.

2.O'quvchilarni kartadan ko'rgazmali qurol va bilim manbai sifatida foydalanishni o'rgatish, toki o'quvchilar kartadan o'z bilimlarini oshirish uchun hohlagan geografik ma'lumotlarni ola bilsinlar.

3.Karta o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantiradi ularda kuzatuvchanlik, fazoviy tasavvur, mantiqiy fikrlash kabi xislatlarni ham tarbiyalaydi.

Geografiya ta'limida o'quvchilar quyidagi kartografik bilimlarni egallashlari kerak.

1.Karta va planda yer yuzasini tasvirlash xususiyatlarini.

2.Kartaning shartli belgilari, geografik ob'ektlar va hodisalarni kartalarda tasvirlash usullarini

3.Joyda kartasiz mo'ljal olish usullarini

4.Reja va karta asosida mo'ljal olishni

5.Kartalarning masshtabini

6.Kartalarni hududni kamrashi va mazmuniga ko'ra turlarini

7.Kartadagi xatoliklar va ularning sabablarini

8.Profil, grafik, kartogramma, kartodiagrammalar mazmunini va boshqalar.

O'quvchilar kartografik bilimlarni amalda qo'llay olishlari shart Aks holda egallangan bilimlar kuruq bo'ladi. Geografiya o'qituvchisining asosiy vazifasi o'quvchilarda quyidagi kartografik ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

1. Joyda va kartada mo'ljal ola bilishni;

2. Kartada o'lchash ishlarini bajara olishni;

3. Umumgeografik, tematik kartalarni qiyoslay olish va o'qiy olishni;

4. Bir xil va turli masshtabdagi kartalarni taqqoslay olishni;

5. Karta asosida geografik ob'ektlarga, hududlarga, mamlakatlarga, tabiat zonalari va tabiiy komplekslarga ta'rif yoza olishni;

6. Sxema, kartasxema, kartogramma, kartodiagrammalarni tuza olishni va boshqalar.

Kartografik ko'nikma va malakalarni shakllantirishni quyidagi tizim asosida olib borish maqsadga muvofiq:

-boshlang'ich sinflarda va geografiyaning birinchi darsidan boshlab, to maktabni bitirgunga qadar geografik kartani o'qish bo'yicha uzluksiz mashg'ulotlar o'tkazish, hamda undan mustaqil ravishda bilimlarni ola bilish;

-dars maqsadini aniq tasavvur etish, uni bevosita karta bilan uyg'unlashtirish va unga erishish yo'llarini izlash.

-muammoli savollar tug'ilganda, albatta, kartaga murojaat etish, egallangan kartografik bilimlar yordamida mustaqil xulosalar chiqara bilish.

Karta asosidagi asosiy ilmiy bilimlar va eng oddiy ko'nikmalar boshlang'ich tabiiy

geografiya kursining "Plan va karta" mavzusida beriladi. Ushbu mavzuni tahlil qilish shu narsani ko'rsatadiki, uning asosida karta tuzish tushunchasi etadi. Haqiqatan ham kartaning qanday tuzilganligini bilmasdan, undan bilim manbai va ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish ancha mushkul. Mavzuning qolgan tushunchalari (joyni rasmda aks ettirish, aerosurat, kosmik surat, reja, kartada va kartasiz mo'ljal olish, masshtab shartli belgilar, mutloq va nisbiy balandlik, daraja to'ri va boshqalar) yordamchi yoki asosiy tushunchaga bo'uysunadi. Bundan ushbu tushunchalarni o'rganish ikkinchi darajali, degan xulosaga kelmaslik kerak. Chunki, bu bilimlarsiz kartaning tuzilishini o'rganib bo'lmaydi. Karta tuzilishini puxta bilish uchun, eng avvalo ko'z bilan chamalab plan olishni, nevilirlashni har bir o'quvchi bilishi lozim. Ammo ko'pgina o'qituvchilar bunga etarlicha e'tibor bermaydilar.

Ko'z bilan chamalab plan olish, nivelirlash karta tuzishdagi eng muhim bosqichlardan sanaladi, chunki har qanday oddiy karta negizida joy plani etadi. O'quvchilar oddiy planlarni mustaqil tuzishni o'rganmasdan turib karta tuzishni, karta masshtabini, shartli belgilarni egallay olmaydi. Joy planini tuzish-oddiy kartalarni tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu o'quvchilarga karta tuzish va kartalarning mazmuniga oid bo'lgan savollarni egallashga yordam beradi. Zarur geografik bilimlarni egallash uchun, o'quvchilar ob'ektlarning kartografik obrazlarini tasavvur qila olishlari maqsadga muvofiq. Kartografik tasavvur kartani o'qish jarayonida shakllanadi. Karta o'qish-kartografik metodning eng muhim qismlaridan biri. Karta o'qishda, inson kuzatish faoliyatida narsa va hodisalarning tasavvuri paydo bo'ladi. O'quvchilarning karta o'qishdagi xatoliklarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular yo'l kuyadigan aksariyat xatoliklar ular kuzatishni bilmasligidan kelib chiqadi.

O'quvchilar kuzatish jarayonida kartadagi zarur belgilarga etarlicha e'tibor bera olmasliklari tufayli ham yuqoridagi kamchiliklar paydo bo'ladi. Kartani o'qish murakkab psixologik jarayon bo'lib, uni o'qishni ikkita qismga ajratish mumkin. Birinchi qism-kartani tushuntirish apparatini o'rganish. Ikkinchi qism -kartaning mazmunini o'rganish. Kartani o'qish deganda avval idrok qilingan narsa va hodisalarning tasvirini shartli belgilar asosida ongda aks etilishiga tushuniladi. O'quvchilar o'z bilimini, joyda va ba'zi hollarda rasmlarni kuzatish orqali haqiqiy vokelik tasvirini hayollarida aks ettiradilar. Ko'p yillik kuzatishlar va ilg'or geografiya o'qituvchilarining tajribalari shuni ko'rsatadiki, kartani bilishdagi eng to'g'ri yo'l oddiydan murakkabga borishdir. O'quvchi o'zi yashab turgan joyni shartli belgilar asosida tasvirlangan planini o'rganishi, plan mazmunini tushinishni engillashtiradi. Shu tufayli ham o'quvchining mustaqil ravishda oddiy planlarni tushira olishi uning kartani puxta egallashiga olib keladi. Kartani o'qishdagi eng muhim xususiyat uni diqqat bilan ko'zdan kechirishdan iborat, bu uning sirlarini bilib olishga yordam beradi.

Kartani o'qishni o'rganish va zarur ko'nikmalar hosil qilish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Geografik ob'ektni o'rganish rejasini mukammal bilish
2. Kartadagi har bir geografik ob'ekt shartli belgisini haqiqatda qanday ekanligini tasavvur etish

3. O'rganilayotgan ob'ektning obrazini hayolan tiklay olish va boshqalar

O'quvchi kartani bilish uchun quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

1. Geografik ob'ektning kartadagi tasvirini aniq egallab olishi

2. O'rganilayotgan ob'ekt haqida fazoviy tasavvurga bo'lishi xatto, kartaga qaramasdan uning harakterli xususiyatlarini ayta olishi

3. Ushbu ob'ektning kartadagi boshqa ob'ektlar bilan aloqasini urnata olishi va o'rganilayotgan ob'ektning obrazlarini ham tiklay olishi va boshqalar.

Kartani o'rganishni sxemalar bilan birga qo'shib olib borish, ya'ni ulardan unumli foydalanish kartani o'qishni birmuncha engillashtiradi. Masalan, Pomir tog' tuguni sxemasini chizish Pomirning geografik o'rnini kartadan topishni osonlashtiradi. Shuni ta'kidlash joizki, sxemalar karta o'rnini bosa olmaydi, ammo uni to'ldiradi xolos. Shu tufayli ularni o'rganishni birga qo'shib olib borish maqsadga muvofiq.

Kartani bilishdagi eng muhim xususiyatlardan yana biri, kartografik belgilarning nimalar (rang, chiziq, belgilar, so'zlar, raqamlar)ni aks ettirishini puxta bilish lozim. Faqat shundagina nafaqat kartani o'qiy olish balki, uni tushunish ham ancha engillashadi. Geografiya ta'limida aksariyat hollarda zurur bilimlarning hammasini ham kartografik manbalardan olib bo'lmaydi, ularni nazariy manbalardan ham izlashga to'g'ri keladi. Masalan: turli tipdagi kartalarni tahlil qilish orqali Surxondaryo viloyatining O'zbekiston janubida joylashganligini, rel'efdagi va foydali qazilmalarini, u yerda Amudaryo, Surxondaryo kabi daryolar borligini, sharqda Tojikiston, janubda Afg'oniston bilan chegaradoshligini bilib olsa bo'ladi. Ammo nima sababdan Surxondaryo quruq subtropikda joylashganligini, sitrus mevalar o'sishini viloyatning ixtisosli tarmoqlarini va hokozolarni geo-grafiyaning nazariy bilimlari egallamasdan turib faqat karta orqali tushunib bo'lmaydi. Kartani tushunish geografik ob'ekt va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni nazariy bilimlar bilan bog'lab isbotlay olishni ham o'z ichiga oladi.

Demak, kartani tushunish kartografik bilimlarni namoyon bo'lishidagi oddiy shakl desak xato qilmaymiz. Chunki kartografik bilimlarni o'quvchilar uzoq mashqlar orqaligina egallaydilar. Ma'lumki, fikrlash jarayoni murakkab, qator aqliy jarayonlarni - taqqoslash, tahlil, sintez, xulosa chiqarishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlarsiz kartografik va geografik bilimlarni egallash qiyin kechadi. Karta-faqat bilish manbaigina bo'lmay, balki muhim ko'rgazmali qurol hamdir. Karta o'quvchilarni faollashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Karta bilan ishlashda quyidagi darajalarni ajratish maqsadga muvofiq:

Birinchi daraja - geografiyani o'rganishga kirushgunga qadar egallangan kartografik

bilimlar. Bu bilimlar asosan tabiatshunoslik kurslarida (3-4 sinflarda) olingan bo'lib, ular tabiiy geografik bilimlar hisoblanadi. Bunda o'quvchilar ob'ektlarni tashqi belgilariga ko'ra ajratadilar. Masalan: O'rganch aholi yashaydigan punkt, Pomir tog' tuguni va boshqalar.

Ikkinchi daraja - o'quvchilar o'zlaridagi mavjud geografik bilim va tassavvurlarini karta bilan bog'lay olishi. Geografik ob'ektlarni joylashishi bo'yicha hayoliy fazoviy tasavvurlarga ega bo'lishi, alohida ob'ektlar va joylarga oddiy ta'rif yoza olish, daryoning boshlanishi, quyilishi, havzasi tizimini ko'rsata olishi kerak.

Uchinchi daraja - kartani bilish (tushunish), undan bilim manbai sifatida foydalana olish. Eng muhimi o'quvchilar o'zlaridagi geografik bilimlarni karta bilan uyg'unlashtira olishi talab qilinadi. O'quvchilar 3 - darajada kartada erkin mo'ljal ola bilishlari, biron hududga har tomonlama ta'rif bera olishlari, ob'ektlarini taqqoslay olishlari, tabiiy va iqtisodiy xususiyatlarini, sabab - oqibatlarini ajrata olishlari zarur. O'quvchilarni kartografik bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishda, xilma-xil kartografik vositalarning ahamiyati katta.

3. O'quvchilarda kartalarni o'qish ko'nikmalarini shakllantirish.

Kartani o'qish ko'nikmasi birdaniga hosil bo'lmaydi. U sekin-asta uzoq mashqlar tufayli chuqurlashadi va takomillashadi. Karta o'qishni murakkablik darajasiga ko'ra 3 ta turga ajratish mumkin.

1. Kartani eng oddiy o'qish. Bunda ob'ektning tashqi ko'rinishdagi xususiyatlariga asosiy e'tibor beriladi. Masalan, mana bu Avstraliya, Yevrosiyo, Pomir tog'lari, O'zbekistonning davlat chegaralari va boshqalar. Bu usul juda oddiy bo'lib, u ko'proq boshlang'ich sinflarda qo'llaniladi. Bu usulni xuddi alifboni o'rganish bilan qiyoslasa bo'ladi. Ammo kartani eng oddiy usulda o'qishni ko'nikma malakalarini shakllantirmasdan murakkablikka intilib bo'lmaydi. SHu tufayli geografiya o'qituvchisi kartani o'qish alifbosiga quyi sinflarda zamin yaratilishi kerakligini doimo esda saqlashlari kerak.

2. Kartani murakkab o'qish. Karta asosida ob'ekt va predmetlarning xususiyatlari haqida xulosalar chiqara olish. Yer yuzida ob'ektlarning o'zaro joylashishi haqida fazoviy tasavvurlar hosil qilishdan iborat. Bu usul ham tinimsiz mashqlar orqali amalga oshiriladi. Karta asosida turli ob'ektlarning taqqoslash jarayonida u yoki bu ob'ektlarga xos bo'lgan xususiyatlari aniqlanadi. Masalan, karta asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.

9.1-jadval

Tekisliklar	Geografik o'rni	Shimoldan janubga uzunligi km.	Sharkdan garbga uzunligi km.	Ichki suvlari	Foydali qazilmalari	Iqlimi	Tabiat zonasi	Xulosa
1.Turon pastekisligi								
2.Sibir past tekisligi								

Kartani o'qishning uchinchi darajasi o'quvchilardan chuqur aqliy mushoxada talab qiladi. O'quvchi geografik bilimlarga va kartadagi faktlarga tayanib yangi xulosalarga keladi. Buning asosida esa qo'shimcha bilimlarga ega bo'ladi. Qisqacha kartadan bilim manbai sifatida foydalana oladilar.

5-7 sinflarda tabiiy kartalar juda keng qo'llaniladi. Ular yordamida hududning geografik o'rni, rel'efi, iqlim hosil qiluvchi omillari, ichki suvlari, geologiyasi, tektonikasi va boshqa masalalar atroflicha o'rganiladi. Tabiiy kartalarni o'qish metodikasi xilma-xil bo'lib, shunga qaramasdan bunday kartalarni o'qish usullari juda kam tadqiq etilgan. Mustaqillik sharofati tufayli O'zbekiston, O'rta Osiyo tabiiy geografiyalarining deyarli yangidan yaratilishi, ular bilan bog'liq tabiiy kartalar mazmuni va o'qish usullariga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Quyida tabiiy kartalarni o'qishning ayrim metodik tomonlariga to'xtalamiz.

Geografiya fani o'rganadigan har qanday ob'ektlar Yer yuzida bir-biri bilan geografik o'rni jihatidan farq qiladilar. Hududning geografik o'rnini aniqlamasdan, uning boshqa xususiyatlarini aniqlab bo'lmaydi. Geografik o'rinni aniqlashga darslik va dasturda katta e'tibor berilishiga qaramasdan aksariyat o'quvchilar ularni kartaga bog'lay olmaydilar va bu borada turli xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Bu xatoliklar quyidagilardan iborat.

a) Geografik o'ringa rel'ef, iqlim va tabiatning boshqa tomonlari haqidagi ma'lumotlarning kiritilishi;

b) Geografik o'ringa karta asosida ta'rif berish, ta'lim maqsadi sifatida ajratilmaganligi;

v) Geografik o'rinni o'rganishda o'quvchilarning karta bo'yicha bajaradigan amaliy faoliyatlari asosiy rol ni emas balki qo'shimcha rol ni o'ynashi va bunga zarurat darajasida e'tibor bilan qaralmasligi tufayli yuqoridagilar sodir bo'ladi. Hatto o'quvchilarning uy vazifalari tekshirilganda ham ularning darslik asosidagi javoblari bilan chegaralaniladi.

Har qanday ob'ekt va hududning geografik o'rnini karta asosida ta'riflash ta'limining eng asosiy maqsadi bo'lgandagina o'quvchilarni kartani o'qishni o'rgatish mumkin. Aks holda bu tushunchaning mazmunini ochib berishga uning muhim belgilarini bilib olishga imkoniyat yaratilmaydi. Materiklar va okeanlar geografiyasi hududining geografik o'rnini o'rgatish bo'yicha boshqa kurslarga qaraganda ancha boy imkoniyatlarga ega. Quyida materik geografik o'rnini karta asosida tasvirlashda o'quvchilarga tubandagi rejani tavsiya qilish mumkin.

1. Materik kattaligi

2. Materikning ekvator va bosh meridianga nisbatan joylashishi

3. Materikning chekka nuqtalari va koordinatalari

4. Materikning tropiklar va qutb doiralari nisbatan joylashishi

5. Materikning shimoldan janubga va g'arbdan sharqqa uzunligi (km va daraja hisobida)

6.Materikni o‘rab turgan okeanlar va dengizlar

7.Materikning boshqa materiklarga nisbatan holati, ularga uzoq yaqinligi

8.Materikning boshqa materiklarga nisbatan kattaligi yoki kichikligi bu reja asosida karta bo‘yicha quyidagi savol-javobni uyushtirish maqsadga muvofiq.

- Yarim sharlar kartasiga diqqat bilan qarang qaysi materiklar maydoni Afrikadan kichik yoki katta?

- Afrika Yevrosiyo materigidan qancha kichik?

- Materikning qaysi qismidan ekvator kesib o‘tgan?

- Materikning qaysi qismidan bosh meridian kesib o‘tgan?

- Shimoliy va Janubiy tropiklar materikning qaysi qismlaridan ke-sib o‘tgan?

- 20⁰ meridian bo‘ylab Afrika materikning shimoldan janubga uzunligini aniqlang

- Materikning garbdan sharqqa uzunligini ekvator bo‘ylab toping va boshqalar.

Tajribalar va tadqiqotlar shu narsani ko‘rsatadiki, o‘quvchilar har xil mashqlar topshiriqlarni bajarishlari va geografik o‘rinni karta asosida mustaqil aniqlay olishi, bu ko‘nikmani yangicha sharoitlarda qo‘llay olishlariga imkon yaratiladi. Natijada ular rejadan foydalanmasdan turib ham geografik o‘rinning turli tomonlarini ochib beradigan bo‘ladilar.

Keyinchalik o‘quvchilarda geografik o‘rnining boshqa bilimlarni egallashiga ta’siri sinab ko‘riladi. Buni geografik o‘rin bilan O‘rta Osiyo tabiati xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik misolida bajarilib o‘quvchilar bilan quyidagi mazmunda karta asosida suhbat uyushtiriladi.

1.O‘rta Osiyo o‘lkasining okeanlardan uzoqda joylashganligi

2.Uning Yevrosiyo markazi qismida joylashganligi

3.Qishning ancha sovuqligi. Iqlimning chekka shimol, g‘arb, sharq, janubda bir-biridan ancha farq qilishi

4.O‘lka yozining ham turli qismlarida turlicha ekanligi

5.Nima sababdan "berk o‘lka" dyoyilish sabablari

6.YOg‘inlar taqsimlanishining xilma-xilligi

7.Janub va Sharqiy qismlarida joylashgan tog‘larning o‘lka tabiati shakllanishiga ta’siri

8.O‘rta Osiyo o‘lkasida tabiatning xilma-xil ko‘rinishlari, barxanlar, chakalakzorlar, to‘qaylar, obod voxalar va boshqalar mavjudligi sabablari karta bilan bog‘langan holda aniqlanadi. Suhbat yakunida o‘quvchilarga karta ma’lumotlari va suhbat natijalari asosida O‘rta Osiyo geografik o‘rniga oid mustaqil reja tuzish topshiriladi va boshqalar.

Agar o‘quvchilar bu vazifani o‘qituvchi yordamisiz bajara olsalar ularning kartalarni o‘qiy olganligidan dalolat beradi.

4. Globus bilash ishlash.

Globus karta oldida talay qulayliklarga ega. Unda ob’ektlar, orasidagi masofalar to‘g‘ri aks

ettirilgan bo‘ladi. Masshtab, burchaklar, maydonlar hamma yo‘nalishlarda bir xil bo‘ladi. Ana shu xususiyatlarni e‘tiborga olib, kartani o‘rganishning dastlabki bosqichlarida globus bilan kartani o‘rganishni birga qo‘shib olib borish lozim. Globusdan foydalanmasdan turib o‘quvchilarda keng ko‘lamli tasavvurlar hosil qilish qiyin. Qutb, ekvator, paralellar, meridian, kenglik, uzunlik, gradus turi tushunchalarini globussiz o‘quvchilar onggiga yetkazish ancha mushkul. Globus yordamida masofalarni aniqlash borasida turli mashqlar bajarish mumkin. Globusdan yer sharida vulqanlarning joylashishi, dunyo okeani va uning qismlari, suv ko‘tarilishi va kaytishi, Yerning issiqlik mintaqalari kabi ko‘plab mavzularni o‘rganishda unumli foydalanish lozim.

Tabiiy geografiya boshlang‘ich darklarida quyidagi bilimlarni globus yordamisiz o‘rganish qiyin. Bular: Yerning umumiy ko‘rinishi, Yerning shar shakldaligini isbotlash, yuqoriga ko‘tarilgan sari ufqning kengayishi, tog‘ tizimlarining balandligi, Yer shari kattaligi, Shimoliy va Janubiy, G‘arbiy va Sharqiy yarim sharlar, globus turi, gorizont tomonlari quyosh turlarining qiyaligi va tushish burchagi, tropiklar, qutb doirasi, Yer sharining issiqlik mintaqalari, Yerning sutkalik va yillik harakati, Yer o‘qining orbita tekisligiga qiyaligi, yil fasllari, globusda, joyda kartada mo‘ljallanish, dengiz oqimlari, dunyo bo‘ylab sayohatlar, havo yo‘llari, masshtab, globusda masofalarni aniqlash, atmosfera, gidrosfera, mahalliy mintaqa vaqti, Yerning ichki tuzilishi, globusda materiklar joylashishi va hakoza globussiz egallash qiyinlik qiladi.

Materiklar va okeanlar kursida esa passatlar, tabiat zonalari, iqlim mintaqalarini ham globussiz o‘rganish birmuncha qiyin. Yuqori sinflarda globusdan doimiy foydalanilmasada undan davlatlarni o‘rganishda avvalo uni globusdan ko‘rsatib keyin kartadan ko‘rsatish yaxshi natijalar beradi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki materiklar va okeanlar geografiasini o‘rganishda globus juda kam ishlatiladi. Bu juda katta xatodir. Globus yer yuzidagi bir-biridan uzoqda joylashgan punktlar orasidagi masofalarni aniqlashda hech narsa bilan almashlab bo‘lmaydigan vositadir. Globusning ahamiyati butun geografiya ta‘limi jarayonida saqlanib qolishi kerak. Bunga rioya qilmaydiganlar katta xatolarga yo‘l kuyadilar. Globusdan yer yuzasidagi ob‘ektlar o‘rtasidagi masofalarni aniqlashda unumli foydalaniladi. Buning uchun ortodramiyadan foydalaniladi. Ortodramiya deb 2 ta nuqta o‘rtasidagi eng qisqa masofaga aytiladi. Uni topish uchun globus yuzasiga (2 ta nuqta orasiga) ip tortib, shu ip bo‘lagini o‘lchash kerak. Olingan uzunlikni (ipni) globus masshtabiga ko‘paytirish kifoya. Kartada esa 2 nuqta orasidagi eng qisqa masofa to‘g‘ri chiziq emas, balki egri chiziq bo‘ladi.

Ortodramiyani globusda aniq masshtab bilan o‘lchansa, kartada murakkab formulalar bilan hisoblab topilishi asosida amalga oshiriladi. Ortodromiyani globusdan kartaga ko‘chirish bo‘yicha mashqlar bajarilsa, o‘quvchilarni kartografik proeksiyalar tushunchasi bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Buning uchun globusda va kartada bir xil va turli xil nuqtalar orasidagi masofalarni o‘lchab bir-biriga qiyoslanadi. Globus bilan kartani taqqoslash tufayli o‘quvchilar

globusda hududning masshtabi, shakli, maydoni birday to'g'ri tasvirlanganligini o'z ko'zlari bilan ko'radilar. Geografik o'rin tushunchasini sayyoraviy nuqtai nazardan olib qaraganda globussiz o'quvchilar ongiga yetkazish ancha qiyin.

Yer sharida mamlakatlarning butun yer shariga va dengiz yo'llariga nisbatan holatini ham globussiz o'quvchilarga to'laqonli yetkazish amrimahol. Ayniqsa iqlim hosil bo'lish omillari, tuproq-o'simlik zahiralarning hosil bo'lishi jarayonlarini geografik o'rin bilan bog'lab tushuntirish katta ahamiyatga ega. Buni globussiz amalga oshirib bo'lmaydi. Shu tufayli undan barcha sinflarda unumli foydalanish geografiya ta'limi samaradorligini oshirishda nihoyatda foydali. Kontur (nomsiz) kartalar bilan ishlash kartani tushunishda va zarur ko'nikmalar hosil qilishda nomsiz kartalarning roli katta. Nomsiz kartadan darsning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Nomsiz karta o'quvchilarda quyidagi hollarda foydalanilganda yaxshi natijalar beradi.

- egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashda;
- o'quvchilarda fazoviy tasavvurlarini takomillashtirishda va hosil qilishda;
- kartografik shakl va belgilarni esda saqlab qolishda;
- o'quvchilarda diqqat, kuzatuvchanlik, fikrlash faolligini jonlantirishda;
- bilimlarni tahlil qilish, asosiy bilimlarni ajrata olish xislatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Kontur kartalarni to'lg'azishda esda saqlashning bir necha turlari qo'llaniladi. (eshitish, ko'rish, qo'l bilan tushirish) Kontur kartani ishlashga kirishishdan oldin o'quvchilar yo'riqlantirilishi lozim. Ishni avvalo chegaralarini tushirishdan boshlanadi. Dengiz chegaralarini, yarimorol, qo'ltiqlar ko'k rangda, tog' tizmalarining yo'nalishlari jigarrangda, daryolar ko'kda, aholi punktlari (punsonlar) qizil, shamollar, yuk yo'nalishlari, oqimlar chiziqlar bilan beriladi. Kontur kartalardan amaliy va nazorat ishlarida ham foydalanish mumkin. Masalan:

- a) shartli belgilar yordamida foydali qazilmalar va sanoat markazlarini tushiring;
- b) yirik sanoat rayonlarini tushiring;
- v) shartli belgilar asosida qishloq xo'jaligining ixtisosli tarmoqlarini ajrating va boshqalar.

Kontur karta asosida geografik diktant ham o'tkazish mumkin. Masalan, yo'g'on chiziqda Qrim, Ural, Pomir, Oltoy, Hisor, Tyanshan tog' tizimlarini tushiring, ularni karta chekkasida raqamlar bilan ajrating yoki yer sharidagi yirik 5 tadan yarimorol, orolning nomini yozing va boshqalar. Kontur karta asosida nazorat ishi uyushtirish 10-15 minutdan oshmasligi kerak. O'qituvchi nomsiz kartalardan foydalanishni 4 guruhga ajratishi maqsadga muvofiq.

1. Yangi materialni o'rganish jarayonida;
2. Uy vaziflarini bajarishda;
3. O'quvchilar bilimini tekshirish paytida;
4. Nazorat ishlarini o'tkazishda;

O'quvchilarning eng yaxshi ishlangan nomsiz kartalarini sinf, maktab ko'rgazmalarida namoyish qilish o'quvchilarning geografiyani, kartani o'rganishga bo'lgan havaslarini oshiradi.

8-ma'ruza. Geografiya ta'limini uyushtirishning shakllari

Reja

1. Darsning ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati
2. Geografiya darsiga qo'yiladigan pedagogik talablar.
3. Geografiya darslarini rejalashtirish
4. Geografiya darslarining turlari va ularning tuzilishi.
5. Geografiya darslarining tahlili

Tayanch iboralar

An'anaviy dars, dars, darsning maqsadi, dars natijasi, dars tizimi, dars tahlili, dars samaradorligi, o'quv-tarbiya jarayoni elementlari, noan'anaviy dars.

1. Darsning ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati

Dars o'quvchilarning doimiy tarkibi bilan, qat'iy o'quv jadvali asosida o'qituvchi rahbarligida uyushtiriladigan jarayon. Yirik didaktik olim M. N. Skatkin darsni-"pedagogik jarayonning hujayrasi " deb atagan edi. Har bir dars o'ziga xos mazmuniga ega bo'lib, u boshqa darslardan mazmunan farq qiladi. Dars jarayonida ta'lim-tarbiya va o'quvchilarni rivojlantiruvchi funksiyalar amalga oshadi. Darsning eng asosiy vazifasi-o'quvchilarda zarur bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Insoniyatning dastlabki shakllanishidan boshlab ta'lim katta rol o'ynagan. Hozirgi zamon ta'limida darsning shu darajaga etishi uchun ming yillar vaqt sarf bo'ldi. Sinf-dars sistemasining asosiy didaktik tamoyillarini dastlab buyuk chech pedagogi Ya.A.Komenskiy bundan qariyb 400 yil oldin o'zining "Buyuk didaktika" asarida ta'riflab bergan edi. Komenskiy davridan buyon dars tizimida va ta'lim metodida juda katta o'zgarishlar, yangiliklar sodir bo'ldi va xatto sinf-dars tizimidan voz kechuvchi guruhlar ham paydo bo'ldi. Shunga qaramasdan, dars hozirgi kunda ham maktab, kollej umuman ta'lim-tarbiya tizimining muhim komponenti sifatida o'z ahamiyatining yo'qotgani yo'q.

Dars pedagogik g'oyalarni amalga oshirish shakli bo'lib, o'qituvchi va o'quvchining doimiy muloqot qiladigan jarayoni hisoblanadi. Darsning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilish faoliyatini har tomonlama rivojlantirishdan iborat. Dars natijasiga qarab o'qituvchining pedagogik va metodik mahoratiga baho beriladi hamda o'quvchining bilim darajasi aniqlanadi. Shu tufayli ham darsni ba'zan o'qituvchining vizit kartochkasi ham deyish mumkin. Bu kartochka har bir geografiya o'qituvchisida xilma-xil bo'lishi muqarrardir. To'g'ri, har bir dars-murakkab tashkiliy pedagogik tizim bo'lib, uning barcha komponentlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga har bir dars ta'limning tugallangan bitta fragmenti hisoblanadi. Bu fragment o'z vazifalari va natijalariga

ega bo'lib, boshqa darslardan mutlak farq qiladi. Har bir dars o'qituvchidan o'ziga xos ijodiy yondoshuvni talab qiladi. Ayni paytda o'qituvchi har bir darsning muallifi hisoblanadi. Chunki o'qituvchi ushbu darsni tayyorlashda ilg'or o'qituvchilar tajribasiga tayanadi, uslubiy qo'llanmalarni o'rganadi va boshqalar.

Geografiya darsida o'quv-tarbiya jarayonining barcha elementlari o'zaro uyg'unlikda bo'ladi. Bular maqsad va mazmun, vositalar, metodlar, ta'limni tashkil etish shakllari bilan uzviy bog'liq. O'qituvchining darsdagi muvaffaqiyati avvalo uning dars maqsadini aniq tuzishiga bog'liq. Maqsad qanchalik aniq va puxta bo'lsa va shunga yarasha materiallar tanlansa, maqsadga muvofiq ta'lim metodlari, ta'lim vositalari aniqlansa, darsning yakuniy natijasi ham ko'p jihatdan shunga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi zamon darslari ta'lim shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bular seminarlar va ma'ruzalar, o'yinlar va konferensiyalar, darslarni boshqa fanlar bilan birgalikda qo'shib olib borish (integratsiyalash) va hokozolar. Hozirgi kunda aksariyat geografiya o'qituvchilari tajribalarida quyidagi kamchiliklar sodir bo'lmoqda.

- darslarning alohida elementlariga e'tibor bermaslik
- mavzuning, bobning, bo'limning maqsadiga oid vazifalarini aniq belgilay olmaslik
- darsda tarbiyaviy masalalarga kam e'tibor berishlik
- har bir o'quvchining shaxsiy individual xislat va qobiliyatlarini e'tiborga olmaslik
- har bir o'qituvchi o'zini nafaqat predmet o'qituvchisi balki pedagog ekanligini ham unutib qo'yishi va boshqalar

Hozirgi zamon darsi xususiyatiga ko'ra o'zida quyidagilarni mujassamlashtirishi kerak.

1. Darsda ko'riladigan bilimlar mazmunining tarkibi. Bu bilimlar nafaqat geografik mazmun jihatidan puxta bo'lishi, balki o'zida metodologik bilimlarni ham mujassamlashtirishi zarur. O'rganilayotgan ob'ektning (materialning) ilmiy va ijtimoiy ahamiyati, unga bo'lgan shaxsiy munosabatlar ham oydinlashtirilishi zarur. Metodologik bilimlar bilimlarini egallashning usullarini, metodlarini o'zida aks ettiradi. O'rganilayotgan ob'ektlarni o'quvchining qanday va nima yordamida o'rganishi, turli geografik bilim manbalari bilan qanday ishlashi kerakligini ham ko'rsatish kerak.

2. O'rganilayotgan bilimlar mazmuniga mos bo'lgan ta'lim metodlari va vositalarini tanlash. Shunday qilinganda darsda o'quvchilar bilim faoliyati to'g'ri tashkil etiladi va rejalashtirilgan ta'lim natijalariga sinfning o'zidayoq erishish imkoniyatlari tug'iladi.

3. Shunday ta'lim shakllarini tanlash kerakki, ular o'quvchilarning o'qishga va fanga bo'lgan qiziqishlarni, havaslarini oshirsin.

4. O'quvchilarning mo'ljallangan (kutilayotgan) dars natijalariga erishishini ob'ektiv baholash, ularga erishish yo'llarini dars boshidayoq yetkazish.

5. Darsda ishchan vaziyat, o‘zaro hurmat holatini vujudga keltirish. Ijodiy hamkorlikni barpo etish, bunda o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘qituvchi munosabatlarini shakllantirish.

Dars samaradorligini yanada oshirish uchun birinchidan, har bir dars mavzusining kurs tizimidagi maqsadini aniqlashtirish zarur. Buning uchun nafaqat bitta darsni balki kursdagi barcha mavzularni o‘zaro uyg‘unlikda, aloqadorlikda, bog‘liqlikda rejalashtirish maqsadga muvofiq. Darslarni rejalashtirish mavzuning savollarini belgilab olishga, shu mavzuga mos bo‘lgan dars tiplarini aniqlashtirishga imkoniyat yaratadi. Darslarni rejalashtirishda quyidagilarga alohida e‘tibor berish zarur.

- darsda hal etiladigan ta‘lim tarbiyaviy vazifalar;
- o‘quvchilarning qanday ko‘nikma va malakalar egallashiga yoki ta‘lim natijalarini rejalashtirish;

- qaysi bilim va ko‘nikmalarni egallashda o‘quvchilar faolligini oshirish zarurligiga;
- o‘rganilayotgan materialga mos keladigan metodlarni tanlashga;
- zarur ta‘lim vositalariga;
- uy vazifasi mazmuni, xajmi va uni bajarish yo‘llariga;

Dars turini belgilashda, bilimlarni o‘rganishda mustahkamlashni, takrorlashni ham e‘tiborga olish kerak. Rejalashtirishda o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini e‘tiborga olish zarur. Bunda mezon sifatida o‘rta o‘quvchi emas balki, kuchli va zaif o‘quvchilar ham o‘qituvchi diqqat nazarida bo‘lishi zarur. O‘quvchilar faoliyati o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan rejalar asosida uyushtirilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, darsning qanday elementlardan tashkil topishini aniq bilish kerak. eng muhim dars elementlari o‘rtasidagi optimal aloqadorlikni aniq tasavvur qilish zarur. Darsning quyidagi elementlari mavjud:

- bilim va ko‘nikmalarni tekshirish
- yangi materialni o‘rganish
- o‘rganilgan materialni mustahkamlash
- o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini baholash va nazorat qilish
- uy vazifasini to‘g‘ri tashkil etish
- bilimlarni umumlashtirish va tizimlash.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, agar dars jarayonida yuqoridagi elementlardan birontasi tushib qolsa, dars sifati ko‘ngildagidek bo‘lmaydi. Shu tufayli ham darslarni zamonaviy usullarda tashkil etilganda ham yuqoridagi elementlar albatta saqlanishi maqsadga muvofiq. Maktab geografiyasining eng muhim xususiyati shundaki, barcha sinflardagi o‘quv predmetlari mazmuni nazariy va amaliy tarzdagi bilimlar bilan to‘ldirilib tashlangan. Ammo bunday katta xajmdagi bilimlarni o‘rganishga ajratilgan vaqt deyarlik etmaydi. Shu tufayli ham geografiya darslarida

yuqoridagi dars elementlarining barchasi qatnashadi. Bu darsni rejalashtirishda aralash tipdagi darsdan unumli foydalanishni taqozo etadi.

Uchinchidan, maqsad va mazmunga mos bo'lgan ta'lim metodlarini tanlash Masalan, agar dars ob'ektiv murakkablikka ega bo'lgan nazariy savollardan iborat bo'lgan yangi materialni o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, o'qituvchi hikoya yoki ma'ruzani qo'llaganini ma'qul. Bu yerda albatta asosiy savollar mustahkamlanishi kerak. Ta'limda faol metodlarni qo'llash darsdagi mutloq shakllarini o'zgarishiga olib keladi. O'qituvchi materialni bayon qilishda, o'quvchilar bilimlarini tekshirishda ayniqsa faol metoddan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan dars-suhbat, dars tadqiqot, dars-konferensiya, har xil vazifaviy o'yinlar o'quvchilarni darsga tayyorlashda, darsning ayrim bosqichlarida o'qituvchining o'rnini bosa olish imkoniyatlarini yaratadi. Bunday darslar o'quvchilarni o'qishga bo'lgan havaslarni oshiradi.

Noan'anaviy darslar o'quvchilarni nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi, balki ularni ijodiy izlanishga, bu tajribalarni boshqa o'quvchilarga berish yo'llarini ham o'rgatadi. O'quv harakatlari o'qituvchi va o'quvchilar bilan mulohaza qilish va xulosa chiqarish bunday darslarning muhim qismi sanaladi.

2-jadval.

Geografiya ta'limida an'anaviy jarayon	Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiya
Har bir dars maqsadi mazmunan kelib chiqqan holda shakllantiriladi	Dars maqsadi o'quvchi faoliyati natijalari bilan aniqlanadi
Mazmun : - faktlar - nazariy qonuniyatlar - ko'nikmalar	Mazmun: - faktlar - qonuniyatlar, nazariyalar - ko'nikmalar - metodologik bilimlar
Ta'limni tashkil etishning asosiy shakli dars (ko'pchilik hollarda aralash)	Ta'lim shakllari xilma – xil tarzda bo'ladi - dars - amaliyot - seminar - fanlararo darslar - geografiya kunlari - geografik o'yinlar va boshqalar.
Bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish (kundalik tekshirish uchun yakuniy kam hollardagina uyushtiriladi)	Ta'lim natijalari xilma xil tekshirish turlari orqali amalga oshadi (kundalik, yakuniy) va bosh ka shakllarda Sinov, testlar, o'yinlar, press - konferensiyalar, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqalar.

Ta'limda texnologik yondoshuvning geografiya o'qitishga ham kirib kelishi an'anaviy metodlar bilan qiyoslash imkoniyatlarini yaratadi. Texnologik yondoshuvning muhim xususiyati shundaki, bu ta'limda ko'proq reproduktiv metodni qo'llashni ilgari suradi. Bu metod o'quvchini ko'proq mustaqil ishlashga va bilimlarni mustaqil egallashga undaydi. Ammo uning asosiy

kamchiligi o'quvchi shaxsiga kam e'tibor qilinishidadir. Demak, maqsadga erishish yo'lidagi eng muhim xususiyat o'quvchilarning individual qobiliyatlarini e'tiborga olishdir. Bunda ta'lim jarayonida erishilgan natijalar albatta baholanib, bir vaqtni o'zida korreksiya qilinib, tuzatilib borilishi kerak. Ta'limda texnologik yondoshuv an'anaviy ta'limdan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi.

Jadvaldan shu narsa ko'rinib turibdiki, har ikkala ta'limda ham maqsad asosiy o'rnini egallagan. Ammo pedagogik texnologiyada yakuniy natija asosiy o'rnini egallaydi. Unda nostandart darslar, amaliy mashg'ulotlar va boshqalar ta'lim shaklining asosini tashkil qiladi. Eng muhimi yangi ped texnologiyada maqsadlarga, ta'lim shakliga, ta'lim mazmuniga tuzatish (korreksiya) kiritish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, yangi texnologiyani amalga oshirishda albatta zamonaviy darsliklarni, o'qitish metodikalarini yaratish ko'ndalang bo'lib turadi. Noan'anaviy ta'limda 4 ta komponent uyg'unlikda amalga oshiriladi. Bular; maqsad, mazmun, faoliyat, natija. Demak hozirgi zamon geografiyasi darsning asosiy belgilari quyidagilardan iborat. Bular:

- Darsning dastur talablariga mosligi
- Har bir dars maqsadlarining aniq rejalashtirilishi
- O'quv materialining sinfda sifatli qilib o'zlashtirilishini ta'minlashi va rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish
- O'quvchilarni sinfda toliktirmasdan faol ishlashlarini ta'minlash
- O'quvchilarning fanga va bilimlarni egallash jarayoniga bo'lgan qiziqishlarga e'tibor qaratish va boshqalar.

Yuqoridagi belgilar yordamida o'qituvchilarning darslarini baholash imkoniyatlari paydo bo'ladi. Shunday qilingandagina mavjud darsning zamonaviy dars bo'la olish yoki bo'la olmaslik darajasini tekshirish imkoniyati tug'iladi. O'qituvchilarning zamonaviy pedagogik nazariyalarini bilishi, metodik maxoratlarni kay darajada egallanganligi, nimalarni bajarishi engil, o'quvchilarning bilimlarini egallashdagi qiyinchiliklar va hakoza'larni aniqlashi mumkin bo'ladi. Geografiya darslarining sifatini baholashda yaxshi darsning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat.

1. Har bir darsning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini echishda dastur talablari asosiy bo'lishi
2. Darsning mazmuni va dars shaklining uning maqsadiga mosligi
3. O'qituvchi tomonidan tanlangan metodning qo'yilgan maqsadga mosligi va sinf o'quvchilari imkoniyatlariga to'g'ri kelishi
4. Sinfda o'quv materialini sifatli o'zlashtirishni ta'minlash
5. Rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish
6. O'quvchilarning sinfda faol ishlashlariga erishishi
7. O'quvchilarning ushbu darsga, fanga bo'lgan qiziqishlari.

Darslarga tayyorlanishda shu narsa unutilmasligi kerakki, har qanday dars juda katta tarbiyaviy potensialga ega. Uni o'tkazishda bosh rolni o'qituvchi egallaydi. Har qanday zamonaviy ta'lim shakli, ta'lim metodini uyushtirish va qo'llash o'qituvchining o'rnini bosa olmaydi. Darslar va bilimlarning sifati o'qituvchiga bog'liq bo'lib, uning pedagogik mahorati, hayot tajribasi ko'pchilik hollarda butun sinfdagi o'quvchilarning bilim sifatini, kayfiyatini belgilaydi.

2. Geografiya darsiga qo'yiladigan pedagogik talablar.

Dars quyidagi pedagogik talablarga javob berishi kerak:

1. Dars ta'lim-tarbiya va rivojlantiruvchi vazifalarni har taraflama amalga oshirilishini nazarda to'tishi

2. Dars o'tish shakliga ko'ra qat'iy bir tartib bo'yicha olib boriladi: muayyan boshlanishdan, darsning maqsadlari va vazifalarini belgilashdan, materialni tushuntirish, mustahkamlash va takrorlashdan, uy vazifasi berishdan iborat bo'ladi. Darsning qismlari o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lishi, biridan keyin ikkinchisiga o'tishi

3. Dars mazmuni o'quv dasturiga muvofiq bo'lishi

4. Darsga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tishda o'qitish va tarbiyalashga nisbatan zamonaviy pedagogik texnologiya va uslubiy yondashish hisobga olinishi kerak

5. Dars uchun kerakli ta'lim vositalarini belgilash, zarur metod va usullarini aniqlash

6. Darsning turli bosqichlarida o'quvchilar faoliyati nimalardan tashkil topishligini belgilash

7. Ta'lim va tarbiya natijalarini aniqlab borish maqsadida o'quvchilar bilimini hisobga olib borish

8. Darsda har bir o'quvchining shaxsiy qobiliyati e'tiborga olinishi va boshqalar. Darsni tashkil etishning muhim masalalaridan biri - o'qituvchi va o'quvchi faoliyati hisoblanadi. O'quvchilarning dars jarayonidagi umumli ishi va uning samarali bo'lishi faqat o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchining eng asosiy vazifasi o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan ehtiyojini yozdirishdan iborat.

Geografiya darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarda yangi geografik tasavvur va tushunchalar, ko'nikma va malakalar shakllantirishdan iborat.

Geografiya o'qituvchisining eng asosiy vazifasi darsning maqsadini to'g'ri aniqlashdan iborat. Buning uchun o'qituvchi avvalo quyidagilarga doimo e'tibor qilishi lozim:

1. Darsda o'quvchilar qanday bilimlar, tushunchalar, qonuniyatlar g'oyalarini egallashlari;

2. Ilgari o'quvchilar egallagan qanday bilim ko'nikma va malakalar bu darsda takomillashuvi hamda qanday ko'nikmalar birinchi marta berilishi lozimligi;

3. Dars davomida o'quvchilarni tarbiyalay oladigan qanday ishlar bajarilishi lozimligi;

3. Geografiya darslarini rejalashtirish

Har bir sinfda o'qitiladigan geografiya kurslari bir qancha mavzulardan iborat. Ular mazmunini va o'rganish tartibini o'quv dasturi belgilaydi. O'quv ishlarini rejalashtirish mavzularni va alohida darslarni rejalashtirishdan boshlanadi. Geografiya ta'limida darslarni rejalashtirishda quyidagilardan iborat.

1. Har bir sinf o'quv dasturidagi mavzularni choraklarga yoki 2 ta yarim yilga taqsimlash (yillik ish rejasi).

2. Mavzularni darslarga bo'lib chiqish va ularning o'tish muddatini aniqlash. (mavzularni rejalashtirish).

3. Har bir darsni o'tishning bajarish rejasini (dars-reja konspekti) tuzish.

Yillik ish rejasi

Geografiya darslarining muvaffaqiyati avvalo o'qituvchining yillik rejalarini qanchalik muvaffaqiyatli tuza olishiga bog'liq. Har bir darsda o'qitiladigan predmet uchun alohida ish rejasi tuziladi. Uni bajarishdan oldin geografiya o'qituvchisi predmetning maqsad va vazifalarini aniq tasavvur qilishi zarur. Dasturdagi mavzularni choraklarga taqsimlashda o'qituvchi ijodiy yondoshishi zarur. Dastur asosida yillik ish rejasining quyidagi taxminiy tizimini tavsiya qilish mumkin.

Yillik ish rejasi

D ar s №	Yirik mavzular	Kichik mavzular	Soati	M ud da ti	Zarur ta'lim vositalari va kurgazmali qurollar	Qo'llaniladigan asosiy metodlar	SHakllan tiriladigan ko'nikma va malakalar	Predmetl araro aloklar va tayanch bilmilar	Mustaqil va amaliy ishlar	Qo'shim cha adabiyotlar va boshqa ma'lumotlar

Mavzuli rejalar ko'p soatlik mavzularni sun'iy bo'lib tashlashni emas balki, ularni ma'lum tartib, mazmun asosida, ta'lim metodlarini tanlashni e'tiborga olgan holda taqsimlashni taqozo etadi. O'qituvchi dastur va darslik asosida har bir darsning ta'lim-tarbiyaviy maqsadini, mazmunini, tayanch bilimlarini, amaliy va mustaqil ishlarni, ta'lim vositalarini aniqlaydi. O'qituvchi o'quv ishlarini rejalashtirishning turli shakllarini qo'llashi mumkin. Bunday rejalashtirishlar jurnallarda metodik adabiyotlarda keng yoritilgan. Ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan geografiya o'qituvchilari dars rejalarini tuzishda ijodiy yondoshadilar.

Maktablarda geografiya darslarini rejalashtirishda yagona tizim yo'q. Chunki o'quv jarayoni mazmuni va vakllarini tashkil qilish hamma o'qituvchida ham bir xil emas. Geografiya ta'limida turli xil rejalar keng tarqalgan. Ayniqsa, kurslar bo'yicha butun o'quv jarayonini yirik bilim va mavzular bo'yicha rejalashtirish ko'p ishlatiladi. Geografiya darslariga tayyorlanish jarayonida mavzuli (tematik) reja keng ishlatiladi. Bunday reja o'qituvchiga bilimlarini tadrijiy shakllantirishni, mavzular o'rtasida aloqadorlikni o'rnatishda, tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirishda, tayanch bilimlar va ko'nikmalarni belgilashda, amaliy ishlar tizimini aniqlashda

qanday ko'rgazmali qurollarni ishlatish zarurligini oldindan belgilab olish imkonini beradi. Mavzuli rejaning u yoki bu kurs bo'yicha darslarning turi, maqsadi, metodlari, vositalari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishligini oldindan belgilab olishda ham roli katta. Har bir darsni rejalashtirishda taxminan quyidagi bandlarni e'tiborga olish lozim.

Dars №

Dars mavzusi

Didaktik maqsad yoki ta'lim tarbiyaviy vazifalar

Tayanch bilimlar

Yangi mavzu bayoni

Ta'lim vositalari

Ta'lim metodlari va metodik tavsiyalar

Fanlararo aloqalar

O'quvchilarning mustaqil va amaliy ishlari

Uyga vazifa

Mazkur rejalashtirishga ijodiy yondoshish va o'zgartirishlar kiritish mumkin. Darslar tizimi rejasi asosida alohida darslar rejasi tuziladi. Bu rejada o'qituvchi faoliyatini tashkil qilishning aniq dasturi beriladi. Darslarni an'anaviy tarzda, ya'ni, bilim tekshirish, yangi bilim berish, mustahkamlash, uyga vazifa tarzida tashkil qilaverish ta'lim sifatini pasaytiradi. O'quvchilar faolligi, fikrlashni susaytiradi. Shuning uchun ham darslarni rejalashtirishda uning uslubiy tuzilishini doimo o'zgartirib turish kerak. Darslarni rejalashtirishga qarab o'qituvchilar ijodiga baho ham berish mumkin. Bu erda o'qituvchining ilmiy- metodik mahorati, topqirligi o'z fanini qanchalik puxta bilishligini aniqlab olish imkoniyati tug'iladi. Demak darslarni rejalashtirish tartibi bo'yicha yagona usul bo'lishi mumkin emas ekan. Bitta kurs bo'yicha aynan shu o'qituvchi har yili turlicha darslar tartibini tuzishi mumkin. Taxminiy dars rejasi quyidagi bandlardan iborat bo'lishi mumkin.

- **Sinf**

- **Kun**

- **Darsning tartib raqami va dars mavzusi.**

- **Dars jihozlari**

- **Maqsadi**

- **Darsning borishi** (mazmuni, tanlangan metodlar, har bir qismga ketgan vaqt, qaysi o'quvchilardan so'ralishi, yakka va yalpi so'rash uchun savollar, doskaga chizilishi kerak bo'lgan rasm va chizgilar.

- **Uyga vazifa.**

Quyidagi dars rejasining taxminiy matn qismini keltiramiz (yosh o'qituvchilar uchun)

O'rganchshahridagi 18-maktab VII "B" sinfi dars R.12

Dars mavzusi : Afrikaning geografik o'rni. Materikni kashf qilish va tadqiqot tarzi.

Jihozlash: 1.Afrika tabiiy kartasi, yarimsharlar kartasi, o'quvchilarning atlaslari, kontur kartalar, sayyoh va tadqiqotchilarning portretlari.

Darsning borishi.

1. Materikning daraja turida to'tgan o'rni(ekvatorga va bosh meridianga nisbatan (min)
2. Materikning shimoldan janubga uzunligi (3min)
3. Materikning g'arbdan sharqqa uzunligi (3min)
4. Materikning boshqa ob'ektlarga nisbatan to'tgan o'rni (3min)
5. Mustaqil va amaliy ishlar :
 - a) chekka shimoliy va janubiy nuqtalarni kartadan toping, ular o'rtasidagi masofani km va daraja hisobida aniqlang (3min)
 - b) G'arbiy va sharqiy chekka nuqtalarni kartadan toping, ular o'rtasidagi masofani daraja va kmlarda aniqlang. (3min)
 - v) Afrikaga yaqin bo'lgan materiklarni ayting, ular qancha masofada joylashgan (3min)
 - g) Materikni yuvib turgan okeanlar, dengizlar, bo'g'ozlar, qo'ltiqlarni kartadan toping (2min)
6. D. Livingston tekshirishlari, kartadan uning sayohat qilgan joy larini ko'rsating.
7. V.Yunker, N.Vavilov, tadqiqotlari (2minut)
8. Yangi materialni mustahkamlash (10minut)

O'quvchilarga savollar:

- a) el-Abed va Igolnyy burunlarining geografik koordinatalarini aniqlang.
- b) Almadi va Ras-Xafun burunlarining geografik koordinatalarini aniqlang.
- c) Materikning shimoldan janubga va g'arbdan sharqqa uzunligi uning tabiatiga qanday ta'sir ko'rsating.
- d) Materikning geografik o'rniga asoslanib uning tabiiy sharoiti haqida biron narsa deyish mumkinmi ?
- e) D.Livingston tadqiqotlarining ahamiyati nimadan iborat ?

10. Uyga vazifa (3 minut)

Dars rejasi bo'yicha qabul qilingan aniq shakl yo'q. Uning turlari ko'p bo'lib, ular ta'limning konkret sharoitini e'tiborga olgan holda kelib chiqadi.

4. Geografiya darslarining turlari va ularning tuzilishi.

Darslarning turi ko'p, har bir dars o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uning aniq vazifasi mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. O'qitish jarayoni bir necha bosqichga bo'linadi: yangi materialni o'rganish; mustahkamlash; takrorlash; tekshirish va nazorat qilish ; uy vazifalari berish;

umumlashtirish va yakun yasash va boshqalar. Didaktikada darslarni turli belgilariga ko‘ra tasnif qilinadi. Geografiya ta‘limida darslar didaktik vazifasiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi: Aralash dars, yangi bilimlar berish darsi, mustahkamlash darsi, malaka va ko‘nikmalar darsi, bilim va ko‘nikmalarni umumlashtiruvchi dars, kirish darsi, takrorlash darsi, bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash darsi va xakozo.

Quyida geografiya o‘qitishda ko‘p qo‘llanib kelayotgan ayrim dars turlarini ko‘rib chiqamiz.

Aralash dars. Maktablarda ommaviy tus olgan dars bo‘lib, bunda ish olib borishning har xil turlari, tushuntirish, mustahkamlash, tekshirish, yakun yasash uyg‘unlashgan bo‘ladi. Aralash dars bir necha tarkibiy qismlardan: kirish (dars vazifa larini belgilash), o‘quvchilarning darsga tayyor ekanligini tekshirish, o‘tilgan material bilan yangi materialni bog‘lash, uy vazifasini tekshirish va uni umumlashtirish, darsda ish natijalarini mustahkamlash va tekshirish, uyga vazifa va uni bajarish uchun ko‘rsatmalar berishdan iborat bo‘ladi. Aralash darsning har bir qismi o‘ziga xos metod va ish usullari qo‘llashni talab qiladi. Aralash dars tuzilishi xilma–xil bo‘lib, darsni tayanch bilimlarni tekshirishdan boshlash ham mumkin. Ba‘zi hollarda o‘rganilishi lozim bo‘lgan yangi material qismlarga ajratilib, har bir qism bo‘yicha bosqichma-bosqich yangi bilimlar beriladi, ular mustahkamlanadi va tekshiriladi, keyin qolgan qismlar ham shu tarzda o‘rganiladi. Ko‘pchilik o‘qituvchilar darsni o‘tilgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilar bilimini tekshirishdan boshlaydi. Bunda o‘tilgan mavzu materialini yangi mavzu uchun asos bo‘lib xizmat qilsa, shundagina bu samara berishi mumkin. Aralash darslarni ko‘p soatli mavzularni o‘rganishda va darsda oldingi mavzular bilan bog‘lanishi lozim bo‘lgan mavzularda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Yangi materiallarni o‘rganish darsi tarkibiy qismida bilimlarni tekshirish alomati uchramaydi, darsning asosiy maqsadi o‘quvchilarga yangi bilimlar berishdan iborat bo‘ladi. O‘rganiladigan material hajmi katta bo‘lib, uni o‘zlashtirish o‘quvchilar uchun birmuncha qiyinchilik tug‘dirsa, hamda turli ko‘rsatmali qurollar va vositalar talab etiladigan, shu xil darsdan foydalaniladi. Chorak boshida, yirik va murakkab mavzularni o‘rganishda butun dars yangi bilimlarni egallashga qaratilishi mumkin. Bu dars o‘qituvchidan bilim, mahorat, ijod talab qiladi. Yangi bilimlarni berish darsi o‘qituvchidan o‘quvchilar diqqatini uzoq vaqt o‘ziga jalb qilib turishini talab qiladi. Bunday darslar iqtisodiy geografiya darslarida ko‘p qo‘llaniladi.

Ko‘nikma va malaka hosil qilish hamda mustahkamlash darslarida egallagan bilimlarni amalda sinash ko‘proq o‘quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash har xil mashqlarni bajarishga e‘tibor beriladi. Bu darslarning asosiy maqsadi geografiyaga xos bo‘lgan hamda nazariy bilimlar bilan mustahkam aloqada bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. O‘quvchilar faoliyati amaliy ishlarni bajarishga ko‘proq jalb qilinadi. Ko‘nikma va malakalar bevosita bilimlarni egallash jarayonida bajariladigan amaliy ishlarda shakllantiriladi. Masalan: geografik koordinatalarni aniqlash, tekisliklarga, tog‘larga ta‘rif berish maxalliy va mintaqa vaqtiga oid

masalalar echish, karta va globus asosida xilma-xil mashqlarni bajarish bunga misol bo'ladi.

Amaliy ishlarning ba'zilarini yangi materialni o'rganib uni mustahkamlash qismida, ayrimlarini so'rash jarayonida ham uyushtirish mumkin, so'rash jarayonida uyushtirilgan amaliy ishlarni oldindan tuzilgan tayyor reja asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Masalan: tekisliklarni ta'riflash, daryolarni taqqoslash, geografik koordinatalarni aniqlash va hakoza bunga misol bo'lishi mumkin. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish, amaliy ishlarni mashq qilish va yakuniy guruhlariga ajratish mumkin. Mashq qilish tarzidagi amaliy ishlar o'quv ishlarining biron-bir metodda, masalan, ob'ektning geografik o'rni aniqlash, karta bo'yicha profil tuzishni o'rgatish va hakozalarni maqsad qilib qo'yadi.

Yakuniy tarzda amaliy ishlar geografik ob'ektlarga ta'rif berishni masalan, tabiiy hududiy komplekslar, tabiiy rayonlar, xalq xo'jaligi tarmoqlari kabi masalalarni o'rganishda keng qo'llaniladi. Ularni bajarish uchun maxsus darslar ajratilgan bo'lib, bunday darslarning asosiy maqsadi geografiyaga xos bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Ko'nikma va malakalar shakllantiruvchi darslar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi;

- 1) ta'lim tarbiyaviy vazifalarning qo'yilishi;
- 2) o'quvchilarni amaliy topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo'lgan o'quv vositalari bilan tanishtirish;
- 3) amaliy topshiriqlar natijalarini yakunlash uchun ko'rsatmalar berish; ishga yakun yasash va uyga topshiriq.

Yakuniy tarzidagi amaliy ishlarning aksariyatini o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil qiladi. Masalan, okean, materiklar tabiiy komplekslar yoki biron mamlakat og'ir sanoati, qishloq xo'jaligiga ta'rif yozish bunga misol bo'ladi.

O'quvchilar bilimini hisobga olish darsi o'quvchilarning darsda bilim olishga bo'lgan havaslarni oshirishga yordam beradi. Chunki o'quvchilarga qo'yilgan baho ularni qiziqtiradi, faollashtiradi. Bunday darslar bir necha soatga mo'ljallangan mavzulardan keyin o'tkaziladi. Yuqori sinflarda bunday darslar dars sinov tarzida ham uyushtirilishi mumkin. Dars sinovni uyushtirish uchun sinfdagi kuchli o'quvchilardan ijodiy guruh tuziladi. Bu guruh o'quvchi bilan hamkorlikda tarqatma so'rov materiallari tayyorlaydi. Tarqatma savollar o'quvchilarning ko'nikmalarini tekshirish maqsadida qilinishi kerak, sinov jarayonida bilimlarni tekshiruvchilardan bir necha nazoratchi tuziladi. Har bir nazorat tekshiruvchisi maxsus savollarni tekshirishlari mumkin. Masalan :

1. Nazariy bilimlarni tekshirish
2. Geografik nomlardan iborat bilimlarni tekshirish
3. Statistika materiallarni, tekshirish jadval va diagrammalarga asoslangan bilimlarni tekshirish
4. Daftar va kontur kartalardagi mustaqil va amaliy ishlarni tekshirish.

O'quvchilar har bir nazorat tekshiruvchilaridan baholarini olgach, o'qituvchi baholarini umumlashtirib, o'quvchilar bilan birgalikda qo'yilgan baholarni tahlil qiladi. Har bir o'quvchi egallagan bilimi va ko'nikmalariga tegishli baho olgach, ularning nimalarni qayta ko'rib chiqishlari uqtiriladi. Bo'lim yoki bob bo'yicha har bir o'quvchi shu tarika baholanadi. Sinov uyushtirishdan oldin ijobiy guruhdan iborat o'quvchilar maxsus konsultatsiyalar uyushtirishlari va zarur hollarda alohida o'quvchilar bilan shug'ullanishlari ham mumkin. Ilg'or o'qituvchilar tajribalari shuni ko'rsatadiki, dars-sinov uyushtirishning taxminiy tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- a) dars vazifasini aniqlash;
- b) o'quvchilar bilimini tekshirish hamda hisobga olishning shakl va metodlarini belgilash;
- v) bilimlarga nisbatan talablar ishlab chiqish;
- g) baho normalarini ishlab chiqish;
- d) bilim manbalari bilan ishlash yo'llarini belgilash;
- e) topshiriqlar tayyorlash va bajarish;
- i) o'quvchilar javoblarini mantiqiylik va to'laligini tahlil qilib, yakun yasash.

O'quvchilarning tarqatma materiallarga javoblarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

O'quvchining ismi-sharifi.

Tarqatma material raqami.

1-savolga ball	2-savolga ball	3-savolga ball	Yakuniy ball	Eslatma/o'quvchi bilimi va ko'nikmasidagi kamchiliklar
----------------	----------------	----------------	--------------	--

O'quvchilar bilimini hisobga olish darsi 45 minut jarayonida o'tkaziladi.

Takrorlash darsini o'tkazishning o'ziga xos xususiyati va murakkabligi o'quv materiali chegarasini aniq belgilab olishda, asosiy g'oyalarni, tushunchalarni, voqeliklarni, ob'ektlarni o'rinli ta'kidlashdan iborat. Takrorlash darsi tarkibi taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Darsning boshlanishini tashkil etish
2. Darsning maqsadi va vazifalarini belgilash
3. O'quv materiallarni umumlashtirish va tartibga solish
4. Darsga yakun yasash va uyga vazifa berish

Takrorlash darslari yirik mavzular o'tib bo'lingandan keyin uyushtiriladi va geografiya ta'limida kam qo'llaniladi. Takrorlash darslarida tegishli bo'limdagi hamma materiallar takrorlanmay, asosiy yetibor mavzudagi eng muhim tushunchalarni chuqurlashtirish, yakunlash va yangi bilim bilan boyitishga qaratilishi lozim. Takrorlash vaqtida darsning tarbiyaviy tomoniga ko'proq e'tibor berish kerak. Bunda o'quv materiali qiziqarli dalillar, voqealar, taassurotlar bilan bog'lanishi lozim.

Kirish darsi yil boshida uyushtiriladi. Kirish darsining asosiy vazifasi o'rganishga kirishayotgan kursning maqsad va vazifalarini ochib berishdan iborat. Kirish darsi orqali o'quvchilar kelajakdagi darslarga ruhiy jihatdan tayyorlanadilar. Kirish darsi qanchalik puxta, o'ylab uyushtirilsa, kelajakda o'quvchilar shu fanga qiziqib katnashishlari uchun zamin tayyorlanadi. Kelajakdagi darslarning muvaffaqiyatli chiqishi ko'p jihatdan kirish darsiga bog'liq.

5. Geografiya darsining tahlili

(Taxminiy tartibi)

1. Maktab, sinf, fan o'qituvchisining familiyasi ismi.
2. Dars mavzusi, uning maqsadi va vazifalari.
3. Darsdagi o'quv materialining mazmuni, ilmiyligi, dasturga muvofiqligi, tarbiyaviy yo'nalishi, dars mazmunida nazariya bilan amaliyotning aloqadorligi.
4. Darsning borishi, izchilligi, o'zaro bog'lanishi va uning qismlari o'rtasidagi bog'liqlik, o'quvchilar bilimni tekshirish, ta'lim metodlarining tanlanishi. Dars samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar.
O'quvchilarning faolligini oshirish. O'quvchilar ulgurmovchiligining oldini olish uchun ko'riladigan tadbirlar.
5. O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilishda o'qituvchining rahbarligi:
 - a) o'qituvchining ish usuli, maqsadga erishishdagi qat'iyatligi, o'quvchilarga nisbatan talabchanligi, ularni nazorat qilib turishi, o'qituvchining nutqi, madaniyati, pedagogik mahorati va hakoza.
 - b) darsda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari, darsga qiziqishi, ular bilish faoliyatining faolligi, o'quvchilarni bilim olishga jalb etish usullari.
6. Dars natijasi. Ijobiy tomoni va kamchiliklari. Dars bo'yicha umumiy xulosa. SHu dars mavzusi bo'yicha o'qituvchining ishini yaxshilash, o'quvchilar faolligini oshirish bo'yicha taklif va mulohazalar.

9-ma'ruza. O'quv ekskursiyalari. Geografiya ta'limida ekskursiyaning o'rni va roli

Reja

1. Geografiya ta'limida ekskursiyaning o'rni va roli
2. O'quv va o'lkashunoslik ekskursiyalari
3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish va baholash

Tayanch iboralar

Sinfdan tashqari ishlar, ekskursiya, o'quv ekskursiya, o'lkashunoslik ekskursiyasi, o'quvchilarning bilimni tekshirish, baholash

1. Geografiya ta'limida ekskursiyaning o'rni va roli

Geografiya ta'limida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish shakllaridan biri ekskursiya

bo'lib, unda o'rganilayotgan ob'ekt va hodisaning bo'lgan va ro'y berayotgan joyida kuzatiladi. Ekskursiyada o'quvchilar o'rganayotgan ob'ekt yoki hodisani bevosita o'z ko'zlari bilan ko'rib asli holida kuzatish, tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ekskursiya o'quvchilarda geografik tasavvur va aniq tushunchalar hosil qiladi. O'quvchining dalada, qirda va tog'da o'tkazgan bir kuni maktabda o'tkazgan bir necha kundan ko'ra samaraliroq bo'lishi mumkin. Ekskursiya o'quvchilarning kuzatuvchanlik va sinchkovlik kobiliyatlarini, hayotiy faoliyatlarini oshiradi. O'quvchilar ekskursiya vaqtida ma'lum darajada mehnat qiladilar, tabiat bilan tanishadilar, o'z o'lkalarini yaxshiroq o'rganadilar. Shuningdek, ekskursiya o'qituvchi bilan o'quvchilarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita hamdir.

2. O'quv va o'lkashunoslik ekskursiyalari

Ekskursiyani o'quv va o'lkashunoslik yo'nalishlarida olib borish mumkin. O'quv ekskursiyalarining maksadi o'quvchilarni dastur talab etgan geografik ob'ekt va ayrim tabiat hodisalari, shuningdek axolining xo'jalik faoliyati bilan tanishtirishdan iborat. Ekskursiya tabiatni ongli va to'liq bilib olishga imkon beradi. Biron-bir ko'rsatmali qo'llanma, yoki badiiy tasvir o'rganiladigan ob'ekt va xodisa haqida ekskursiyadagidek to'liq tasavvur berishi mumkin emas.

6-sinfda Yer yuzasi shakllari va ularni tashkil etuvchi jinslar hamda mahalliy suvlarni o'rganish maqsadida o'quv yili boshlarida ekskursiya o'tkazish mumkin. Chunki keyingi tegishli mavzularni o'rganishda mazkur ekskursiyadan olingan tushuncha va ma'lumotlarga tayaniladi. Korxonalariga uyushtirilgan ekskursiyalarda o'quvchilar mazkur rayon xalq xo'jaligining bir qismi sifatida korxonaning iqtisodiyoti, ishlab chiqarishdagi mavqei, shuningdek xo'jalikning muayyan sohadagi ishlab chiqarish xususiyatlari bilan tanishtiriladi.

Ekskursiyalar joy sharoitiga qarab turlicha bo'lishi mumkin: qishloq maktablarida tabiatga, yirik shaxarlarda ko'proq korxonalariga uyushtiriladi. Maktab joylashgan hududning rel'ef xususiyatiga bog'liq xolda ham ekskursiya mazmuni o'zgarishi mumkin. Masalan, bir maktab voxada, ikkinchi maktab tekislikda, uchinchi maktab esa tog'da joylashgan bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari o'tkazish uchun kamida ikki soat vaqt ajratilishi lozim.

Ekskursiya samarali o'tishi uchun o'qituvchi: a) ekskursiyaga tegishli asbob-uskunalarining tayyor ekanligini ko'zdan kechirishi; b) ekskursiya uyushtiriladigan joyni oldindan borib ko'rishi; v) ekskursiyaning maqsadi, mazmuni va o'tkazishli sababini aniqlashi; g) ekskursiya o'tkazish rejasini ishlab chiqqan, tegishli adabiyotlar bilan tanishgan bo'lishi lozim.

O'qituvchi ekskursiyaga chiqishdan avval o'quvchilarning qanday ishlar bajarishlari, ekskursiya uchun zarur o'quv qurollari va ularni foydalanish yo'llari haqida tushuntiradi. O'quvchilarni guruhlariga bo'ladi. Agar ekskursiya marshruti va ko'lami kichik bo'lsa, barcha guruhlar o'zlari uchun ajratilgan maydonlarga bo'linib, o'qituvchining ko'rsatmasiga muvofiq o'zlariga topshirilgan topshiriqlarni bajaradilar. Ekskursiya so'ngida yakunlovchi yig'ilish yoki

konferensiya o'tkaziladi, bunda o'kuvchilar qilingan ishlar haqida axborot beradilar, to'plagan materiallarini ko'rsatadilar. Ekskursiyada to'plagan materiallar, ya'ni kolleksiyalar, gerbariyalar maktab laboratoriyasini, tegishli kabinetlarni boyitadi.

Tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyaning taxminiy rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

9.1-rasm

Ekskursiyaning taxminiy rejasi

1. Sinf, oy va kun
2. Ekskursiya mavzusi
3. Ekskursiyaning maqsadi
4. Ekskursiya uyushtiriladigan joy, marshruti va kuzatish ob'ektlari.
5. Ekskursiya uchun tegishli o'quv qurollari.
6. Ekskursiyaning o'tkazilishi:
 - a) o'qituvchining axboroti;
 - b) o'quvchilar olib boradigan kuzatishlar, tadqiqatlar va o'rganadigan qonuniyatlar;
 - v) tog' jinsi, tuproq, o'simlik va mayda hayvonlar namunalari to'plash;
7. Ekskursiya materiallarini ishlab chiqish:
 - a) ekskursiya marshrutini chizish;
 - b) chizma va fotorasmlarni tayyorlash;
 - v) o'lkani o'rganish muzeyi (yoki burchagi)ga material tayyorlash;
 - g) devoriy gazeta uchun maqola yozish.
 - d) rasm va sxemalar chizish.

O'lkashunoslik ekskursiyasining maqsadi maktab atrofiga (ma'muriy rayon doirasida) yaqin joyning tabiati, xususiyati va aholisining xo'jalik faoliyatini o'rganish va tadqiq qilishdan iborat. O'lkashunoslik ekskursiyalari mazmuni, sinfdan tashqari vaqtda o'tkazilishi va ixtiyoriyligi bilan o'quv ekskursiyalaridan farq qiladi. O'lkashunoslik ekskursiyalari o'z rayoni tabiatini har tomonlama o'rganish maqsadida ham, yoki uning biron-bir elementini o'rganish maqsadida ham uyushtirilishi mumkin. Ta'lim ishlarida o'quv ekskursiya materiallaridan qanday foydalanilgan bo'lsa, o'lkashunoslik ekskursiya materiallaridan ham shunday foydalaniladi. Bu ekskursiya vaqtida to'plagan materiallar asosida maktab o'lkashunoslik muzuyini tashkil etish mumkin.

3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish va baholash

Darsning har bir shakli o'quvchilarga ma'lum bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Har qanday shakl o'quvchilarda 4ta yo'nalish bo'yicha bilimlar tizimini shakllantirishi maqsadga muvofiq.

1. O'quvchilarni dunyoviy bilimlar bilan qurollantirish
2. Geografik ko'nikma va malakalar shakllantirish
3. O'quvchilarda ijodiy faoliyat hislatlarini shakllantirish
4. Atrof-muhitda bulayotgan voqea va hodisalarga befarq qaramasdan, ularga bevosita o'zi katnashayotganidek his qila olish qobiliyatlarini tarbiyalash va boshqalar.

Agar ta'limida yuqoridagi elementlardan birontasi tushib qolsa, yoshlardan har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash qiyin bo'ladi. Bu elementlar o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda asosiy rol ni o'ynaydi. Ular bir-biri bilan ob'ektiv bog'langan bo'lib, biri ikkinchisiga tayanadi va to'ldirib turadi. Masalan bilimni egallamasdan turib, ko'nikma va malaka hosil bo'lmaydi. Darsda o'quvchining ijodiy faoliyatisiz ham bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni qiyin kechadi.

O'quvchining ijodiy faoliyati egallangan bilimlarning mustahkam va chuqur bilishini ta'minlaydi. Ammo yuqoridagi 4ta yo'nalish bir-birlarining o'rnini bosa olmaydi. Chunki ta'lim mazmunining har bir qismi o'ziga xos yo'l va usullar bilan egallanadi. Bunda idrok, esda saqlash, tanish ob'ektlarni ko'z oldiga keltira olish, jadvallarni to'ldira olish, muammoli misol va topshiriqlarni echa olish kabi o'ziga xos bo'lgan metodlarni qo'llash va tanlashni talab qiladi.

O'quvchi ijodkorligisiz, uning bilim va ko'nikmalarni egallash jarayoni qiyin kechadi, ularda bilimga qiziqish deyarli mavjud bo'lmaydi. Yuqoridagi omillarni qo'llash jarayonida bilim egallashning 3 ta darajasi hosil bo'ladi.

1. Bilim va ko'nikmalarni ongli ravishda idrok qilish va esda saqlab qolish
 2. Bilim va ko'nikmani tanish vaziyatlarda qo'llay olish
 3. Egallangan bilim va ko'nikmalarni amalda ijodiy qo'llay olish
- Bilim egallash usullarining har bir elementini puxta egallagan xoldagina va ularning har biriga mos ta'lim metodlarini qo'llagandagina u puxta egallanadi.

Ilk bilim va ko'nikmalarni egallash jarayonini tushuntirish va ko'rgazmalarini namoyish qilish (reproduktiv) metodini qo'llash orqali shakllantiriladi. Bunda yetakchi rol ni o'qituvchi egallaydi va u bilimlarni o'quvchiga tayyor holda yetkazadi. O'quvchiga berilgan bilim va ko'nikmani uning qay xol va darajada egallaganligini aniqlash o'qitish metodikasining eng dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Chunki o'quvchining bilish faoliyatini nazorat qilmasdan turib, ularga berilgan bilim va ko'nikmalarini qay darajada o'zlashtirganligini aniqlab bo'lmaydi.

Geografik bilim va ko'nikmalarini tekshirishda quyidagi talablarga rioya qilish maqsadga muvofiq.

1. Geografik bilim va ko'nikmalarni tekshirish izchil, doimiy bo'lishi kerak
2. Bilim, ko'nikmalarni tekshirishda asosiy mezon geografik dasturi bo'lishi lozim.
3. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishda og'zaki, yozma, karta va har xil aralash

mazmunga ega bo'lgan usullar keng qo'llanilishi zarur. An'anaga aylanib qolgan doska oldiga chaqirib so'rashga barham berish.

4. So'rashda kompyutrlardan unumli foydalanish va boshqalar.

Geografiya ta'limida o'qituvchilarga juda qo'l keladigan va yordam beradigan quyidagi tekshirish usullaridan kengroq foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Bilim va ko'nikmalarni joriy usulda tekshirish. Undan darsning hamma bosqichlarida foydalanish mumkin.

2. Bilimlarni oraliq tekshirish.

Yirik mavzu yoki bobning qay darajada o'zlashtirishini nazorat qilinishini ta'minlaydi. Oraliq tekshirishda o'rganilgan material bir muncha tizimlashadi. Bu tekshirish o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, o'quv materialidagi muhim jiddiy bog'lanishlarni, geografik tasavvur va tushunchalarning mustahkam egallanishini ta'minlaydi. Yakuniy tekshirish chorak yakunida va yil oxirida qo'llaniladi. Uning asosiy maqsadi materialining qanchalik puxta o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

Geografik bilim va ko'nikmalarni tekshirish ta'lim jarayonining eng murakkab turi hisoblanadi. Geografik bilim va ko'nikmalarni tekshirishda quyidagi tekshirish turlarini qo'llash mumkin.

1. Og'zaki usulda tekshirish

2. Yozma usulda tekshirish

3. Amaliy ishlar orqali tekshirish

4. Har xil geografik o'yinlar orqali tekshirish

5. Kartalar orqali tekshirish

6. Test usulida tekshirish

7. Sinovlar orqali tekshirish va boshqalar.

Barcha tekshirish usullari yakka va yoppasiga so'rash orqali uyushtirilishi ham mumkin. Yakka va yoppasiga so'rashda qo'llaniladigan barcha turdagi savollar dars reja konspektida oldindan aks etgan bo'lishi kerak. Bilim va ko'nikmalarni yakka usulda tekshirishda qo'yiladigan savollar ko'proq umumiy yo'nalishga bo'lishi lozim. Masalan: O'zbekiston iqlimi mavzusida:

1. Respublikamizning asosiy iqlim hosil qiluvchi omillarni ayting?

2. O'zbekistonning adir yoki tog' mintaqasini tariflang va boshqalar.

Bunda o'qituvchi o'quvchi javobini to'ldirib borishi, xatolarini to'g'irlashga imkon yaratib berishi zarur. Biron ob'ektga oid bo'lgan savollarni turli mazmunda berish ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. M: Sirdaryo qanday to'yinishi tipiga mansub yoki Sirdaryo rejimini tariflang yoki Sirdaryoda qaysi oylarda suvi ko'payadi yoki kamayadi va boshqalar. O'quvchilarni o'z sinfdoshlarining savollarini tahlil qilishga albatta undash kerak.

Geografik bilimlarni yoppasiga, yozma usulda tekshirishda, ularda ko'nikma va malakalar qay darajada shakllanganligi nuqtai nazaridan amalga oshirilishi maqsad muvofiq. O'quvchilar bilimlarini yoppasiga, yozma usulda tekshirish mazmuni quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Karta asosida u yoki bu ob'ektga ta'rif yoza olish. Masalan: Turkiston, Zarafshon tog'iga yoki Toshkent, Samarqand shaxriga tarif yoza olish

2. Geografik ob'ektlarni kontur kartaga tushirish

3. Geografik nomlar, atamalariga tarif yoza olish

4. Har xil jadvalni qiyoslay olish

5. Kartada har xil o'lchash ishlarini bajarish. M: Toshkentdan Shimoliy va Janubiy qutbgacha bo'lgan masofani daraja va km. hisobida toping va boshqalar.

6. Karta, darslik va boshqa manbalar asosida sxema, jadvallar, diagrammalar, grafiklar chiza olish va boshqalar.

7. Statistik materiallarni tahlil qila olish va tuza olish. Yoppasiga boriladigan yozma ishlar bir xil murakkablikda, bir necha variantda bajarilishi mumkin.

Bilim va ko'nikmalarni tekshirishda geografik diktantlar ham katta rol o'ynaydi. Geografik diktantlar yozma bajariladi. Uni darsda 10-15 minut vaqt ichida uyushtirish mumkin. Diktantlarni quyi sinflarda (5-7-sinflar) uyushtirish yaxshi natijalar beradi. Diktant javoblari faqat suralgan ob'ektlarga taalluqli bo'lishi zarur. Geografik diktantlar yirik mavzu va boblar o'tib bo'lingandan keyin uyushtirilishsa samaraliroq bo'ladi. Masalan: Afrika mavzusi utib bulingach quyidagi diktantni uyushtirish mumkin.

1. Afrikaning eng shimoliy chekka nuqtasi

2. Afrikaning eng janubiy chekka nuqtasi

3. Ekvatorni 2 marta kesib okuvchi daryo

4. Afrikadagi eng uzun daryo

5. Afrikadagi eng katta ko'l

6. Afrikani g'arbiy qismidagi eng katta okim

7. Afrikadagi eng katta cho'l

8. Afrikada kurikxonalar ko'p uchraydigan zona ...

9. Afrikaning eng baland nuqtasi

10. Afrikada yog'in ko'p yog'adigan joy

va hokozolar. Diktantga necha foiz qo'yishni o'qituvchi hal qiladi.

Geografik bilim va ko'nikmalarni tekshirishda tarqatma materiallar katta ahamiyatga ega. Tarqatma materiallar quyidagi turlarda bo'lishi mumkin.

Yakka yozma tekshirish uchun tarqatma materiallar. Bunda har bir darsda 5-6ta yozma savollar tayyorlanadi. Har qog'ozda 2-3ta turli murakkablikdagi savollar bo'ladi. Topshiriqlarni

bajarishda kartalardan foydalanishga ruxsat beriladi. Tarqatma materiallar asosida bilim va ko'nikmalarni tekshirish 10-15 minutdan oshmasligi kerak. Barcha tarqatma materiallar alohida konvertlarda, raqamlar bilan belgilanib sistemali saqlanish kerak. O'z ishiga ijodiy yondoshuvchi o'qituvchilar tarqatma materiallar mazmunini doimo boyitib boradilar. Keyingi paytlarda bilim va ko'nikmalarni tekshirishda muammoli savol va topshiriqlar keng qo'llanilmoqda. Muammoli savolning asosiy g'oyasi o'qituvchini ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Muammoli savol albatta muammoli vaziyat hosil qilishi, qo'yilgan muammoning o'quvchilar tomonidan anglanishi, faraz yaratish, farazni tekshirish, umumiy xulosa kabi bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin.

Muammoli savolning eng muhim tomoni shuki, bunda o'qituvchi tomonidan qo'yilgan savol o'quvchini o'ylashga fikrlashga yo'naltirishi kerak. Savolni echish o'quvchida qiyinchilik hosil qilishi, ya'ni ular qandaydir muammoli vaziyatga tushishlari kerak. Aks holda qo'yilgan savol o'quvchida qiyinchilik hosil qilmasa va unga osonlikcha javob topib qo'ysa, bunday topshiriqlar muammoli savol bo'la olmaydi. M: "O'zbekistonni eng baland nuqtasini ayting?" Savol muammoli emas. O'quvchilar bu savolga to'g'ri javobni berib qo'yishi mumkin yoki "Nima sababdan yozda O'zbekistonga yog'in juda kam yog'adi?" Bu savol mazmunan muammoli, o'quvchilar bu savolga birdaniga va bir javob bilan javob bera olmaydi va boshqalar. Ularda muammoli vaziyat hosil bo'ladi.

Barcha fanlar qatori keyingi yillarda geografiya ta'limida o'quvchilar bilimini tekshirishda test savollari asosidagi topshiriqlar keng qo'llanilmokda. Bu savol an'anaviy usullardan farqli o'laroq, o'quvchi javoblarining mutloq to'g'ri yoki ob'ektiv bo'lishini ta'minlash bilan birga, bilimlarni kompyuter orqali tekshirish imkonini ham beradi. Qiska vaqt ichida bir yo'la butun sinf o'quvchilarining javoblarini tekshirish imkoniyati tug'iladi. Ya'ni bu usulda o'rganilgan hamma masalalarning ular tomonidan qanday o'zlashtirilganligini bir yo'la aniqlash mumkin. Oddiy so'rashda esa buning imkoni yo'q. Testning afzalligi shundaki, o'quvchilarning qaysi mavzularni to'liq, qaysi mavzularni qisman, qaysilarini juda zaif o'zlashtirganini aniqlash imkoniyati tug'iladi. Geografiya ta'limida testning o'ziga yarasha salbiy tomonlari ham bor. O'quvchilar javobini karta bilan bog'lay olmaslik kabi salbiy tomonlari ham bor. O'quvchilar javobini karta bilan bog'lash imkoni bo'lmaydi. Ko'nikmalarni egallash darajasini to'liq aniqlash imkoniyati yo'q bo'ladi, o'quvchi bilan bevosita mulokat bo'lmaydi va boshqalar.

Og'zaki uyushtiriladigan imtihonlarda o'quvchilarning nimani bilgani, nimani bilmaganligini aniqlab olish imkoni bor, test bu imkoniyatdan maxrum. Shu tufayli ham testni bilimlarni egallash manbai deb emas, balki o'quvchilar bilimini tekshirishning usul yoki shakillaridan biri deb qarash maqsadga muvofiq. Test so'zi inglizcha bo'lib "test" - sinov yoki "tajriba" ma'nosini bildiradi. Ta'lim soxasida qo'llaniladigan testlar shartli ravishda pedagogik

bilim testlari deb ataladi. O'quvchilarning egallagan bilimlari testning "kaliti" yordamida tekshirilib chiqiladi. Testlar ma'lum extimollik bilan odamdagi mavjud bilim, ko'nikma, shaxsiy tavsiyanomalar va boshqalar rivojlanishning dolzarb darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.

O'qituvchilar ta'lim jarayonida testlarni tuzish qoidalariga rioya qilishlari zarur.

- Testlar faqat dastur asosida tuzilishi

- Test savollari "soddadan murakkabga" tamoyiliga asoslanib tuzilishi zarur. Dastlab osonroq testlarni, keyin murakkabroq testlarni bajarilishi ularni psixologik jihatidan va vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga tayyorlaydi.

- Test savollariga "xa" yoki "yo'q" degan javoblar bo'lmasligi, balki har bir javob ma'lum bir fikrni ifodalashi kerak.

- Test javobida faqat bitta aniq javob bo'lishi kerak. Bitta savolga 2 ta to'g'ri javob bo'lmasligi shart.

Didaktik nuqtai nazardan testlarning quyidagi turlari keng tarqalgan. Ulardan ta'lim mazmuni va yo'nalishiga ko'ra foydalaniladi.

1. Ommaviy standart testlar. Bunday testlar, muayyan fan mutaxassisleri tomonidan tuziladi va maktab o'quvchilari uchun tavsiya etiladi. Ular dastur asosida tuziladi.

2. Rasmiy bo'lmagan testlar. Bu testlar har bir o'qituvchi tomonidan tuzilish mumkin. Ular har bob, mavzu o'tib bo'lingach qo'llaniladi.

3. Ko'p javobli testlar. Bunday testlarda bitta savolga 4-5 ta javob bo'lishi mumkin. M: materik, ikki qit'a, ikki okean, ikki dengiz, ikki davlat, ikki yarim orolni bir-biridan ajratib turuvchi bo'g'ozni ayting.

4. Faqat bitta javobdan iborat bo'lgan testlar. Masalan: eng baland tog', eng uzun daryoni ayting va boshqalar.

5. To'g'ri yoki noto'g'ri bo'lgan savollardan iborat bo'lgan testlar. Masalan: ko'mir, oltin, neft, temir, mis, qo'rg'oshin

6. Tushirib qoldirilgan so'zlarni to'ldirishga mo'ljallangan testlar.

M: O'zbekistonning chekka shimoliy nuqtasi....., chekka janubiy nuqtasi....., yaqinida joylashgan, g'arbiy qismi orqali chegaralanib turadi va boshqalar.

7. Tushirib qoldirilgan harflarni to'ldirishga mo'ljallangan testlar. M: O'zbekistondagi quyidagi tog' tizmalarining nomlarini o'qing. Tirelar o'rniga tegishli harflarni qo'ysangiz ularning nomlari kelib chiqadi. "- - - A - A, - A - A - - - -, O - O -, -O -, - O - O - O - O -, - O - - O - - O -"

8. Berilgan savollar to'g'risida javob yoziladigan tarzda testlar. Masalan, "CHirchiq..... va boshqalar.

9. Rasmiy yoki chizmali testlar. Bunday testlarda bir necha rasm yoki chizma ichida tegishli ob'ektni yoki ular ichidagi to'g'ri javobni topish talab etiladigan testlar. Masalan: quyidagi

konturlar ichidan Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonini yoki Farg‘ona viloyatini toping.

10. Jadval tarzidagi testlar. Bunday testlar odatda 3ta ustundan iborat bo‘ladi. Birinchi ustunda ular joylashgan shahar va ob‘ektlar, ikkinchi ustunda javoblar aralashtirib beriladi. O‘quvchilar ana shu javoblar ichidan to‘g‘ri javobni, uchinchi ustunga raqamlarda aks ettiradi.

Masalan: O‘zbekiston daryolari.

№	Daryolarga xos xususiyatlar	Daryolar	Javob raqami
1.	Oldingi nomi YAKsart bo‘lgan daryo	Amudrae	
2.	Vrevskiy muzligidan boshlanadi	Sirdaryo	
3.	Uzunligi 174 km	Zarafshon	
4.	"Deygish" bo‘lib turadi	Chirchiq	
5.	Quyi qismi 120 kun muzlaydi	Qashqadaryo	
6.	Oqsuv degan irmog‘i bor	Surxondaryo	
7.	Uzunligi 310 km	Ohangaron	
8.	Tog‘li qismi Tojikistonda		
9.	Loyka daryo		
10	Uzunligi 196 km		
11	Mastchoh nomi bilan boshlanadi		
12	Iyul, avgustda to‘lib oqadi		

11. Avval javoblari beriladigan testlar. Bunday testlarda avval javoblar ro‘yxati beriladi, keyin o‘quvchilar o‘sha javoblarga savolni o‘zlari tuzadilar.

M: Eratosfen, Kolumb, Beruniy, Magellan, Al-Xorazmiy, Strabon, Bobur va boshqalar.

1. Birinchi bo‘lib geografiya so‘zini qo‘llagan olim kim?
2. Amerika qit‘asini birinchi bo‘lib kim kashf etgan?
3. Dunyoda birinchi bo‘lib globusni yasagan olim kim?
4. Yerning shar shaklida ekanligini isbotlagan sayyoh kim?
5. O‘rta Osiyo geografiasiga birinchi bo‘lib asos solgan olim.
6. 17 tomli “Geografiya” asarini kim yozgan?

7. Hindiston haqida boy geografik ma’lumotlarni kim yozgan? va boshqalar. Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, “u yoki bu yerda nima o‘sadi”, “u yoki bu shahar aholisi kancha”, “u yoki bu tog‘ning balandligi necha metr” kabi tarzdagi test savollari samarali natijalar bermaydi. Test o‘quvchilarda ma’lum geografik ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam berishi kerak.

Test asosida tekshiriladigan bilim va ko‘nikmalarni mazmuniga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

1. Har xil geografik bilim va ko‘nikmalarni o‘zida mujassamlashtirgan testlar
2. Faktli bilimlarni o‘zida mujassamlashtiradigan testlar
3. Geografik tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan testlar
4. Geografik voqea va hodisalarni, sabab-oqibatlarini tekshirishga mo‘ljallangan testlar.

Tabiiy va iqtisodiy geografiya predmetlarida qo‘llaniladigan testlarni bir-biridan mazmunan,

balki bilim va ko'nikmalarni shakllantirish xususiyatlari bilan ham farq qilishi kerak. Demak, geografiya ta'limida o'quvchilar bilimni aniqlashning shakllari xilma-xil bo'lib, ITT tufayli ular ham doimo rivojlanish va takomillashuvda bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan bilimlarni tekshirishning yangi-yangi zamonaviy usullari paydo bo'laveradi.

10-ma'ruza. Geografik ta'lim jarayoni qismlari

Reja

1. Geografik bilim, tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish.
2. Geografik tushunchalarning turlari.
3. Geografiya ta'limida ko'nikma va malakalar shakllantirish

Tayanch iboralar

Geografik bilim, geografik tushunchalar, dunyoqarash, ko'nikma, malaka, ob'ekt, sabab-oqibat, qonuniyatlar, nazariya, tasavvur, tajriba, fakt, hodisa

1. Geografik bilim tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish

Maktab geografiyasi mazmuni bilimlar, tushuncha, sabab-oqibat aloqadorligi qonuniyatlari, nazariya, tasavvur va faktlar) ko'nikmalar, malakalar, hamda dunyoqarash g'oyalarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari ta'lim mazmunida o'quvchilarning ijodiy faoliyat tajribalari ham katta rol o'ynaydi. Bilim va ko'nikmalar insonning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan to'g'ri ma'lumotlardir. Bilim ijtimoiy mehnat va tafakkur maxsuli bo'lib, mavjud olamning ob'ektiv, qonuniy aloqalarini til vositasi bilan ifoda qiladi. Bilim bilish bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning natijasi va tarkibiy qismidir. Ob'ekt va hodisalar haqidagi bilimlar nisbiy bo'lib, u mutloq emas. U doimo rivojlanib, chuqurlashib boradi. Chunki har bir yangi avlod o'zidan oldingi avlod bilimlarini o'zlashtiradi, yangi-yangi hodisalarni chuqur o'rganib, uni boyitadi, olga siljitadi. Bilim, kundalik tajriba ilmiy kuzatish, nazariyalari orqali to'planadi.

Bilimlar ikki guruhga ajratiladi.

1. Nazariy bilimlar (ilmiy)

2. Empirik bilimlar

Nazariy bilimlarga narsa va hodisalarning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari, ichki aloqadorligi va munosabatlari kiradi. Ilmiy bilimlar umumlashgan bilimlar bo'lib, o'z ichiga nazariya qonun, qonuniyat, sabab-oqibat tushunchalarini oladi. Empirik bilimlar ob'ekt va hodisalarning tashki xususiyatlariga oid bilimlarni aks ettiradi, bularga tasavvur va faktlar kiradi. Maktab geografiyasining ilmiy darajasini oshishi munosabati bilan uning mazmunida empirik bilimlarga nisbatan nazariy bilimlar xajmi ko'paymoqda.

Geografiya kurslarining barchasida asosiy o'rinni umumiy tushunchalar egallaydi. (Rel'ef shakllari, iqlim turlari, iqtisodiy hududlar, HICHM lar va boshqalar), har bir geografiya kursidagi

mavzular bilimlar tarkibi jihatdan ancha murakkab bo'lib, sinfdan-sinfga murakkablashib boradi. Ayniqsa iqtisodiy geografiya kurslarida yaqqol namoyon bo'lgan. Har bir mavzuda o'nlab tushunchalar uchraydi. Bular umumgeografik tushunchalar, faktlarda, iqtisodiy, ekologik, tarixiy statistik va boshqalar tushunchalar tarzida bo'lishi mumkin.

Demak, o'quv materiali xajmi o'quvchilar o'zlashtirishi uchun ancha murakkablik tug'diradi. Shu tufayli bilimlarni puxta egallashlik uchun ularni aniqlashtirish, umumlashtirish induksiya, deduksiya va tahlildan unumli foydalanishni takozo etadi. Har bir geografiya o'qituvchisi bilimlarni egallash jarayonini va uning yo'llarini puxta bilish lozim. Jadvalga karang. Bilimlarni egallash jarayoni tushunchalarni shakllantirish bilan uzviy bog'liq.

2. Geografik tushunchalarning turlari

Inson voqealikni bilish jarayonida narsalarni bir-biri bilan qiyoslaydi, ularni taqqoslaydi, uxshashligi va farqlarini aniqlaydi; tahlil va sintez yo'li bilan narsa va hodisalarning mohiyatini ochadi, fikran ularning belgilarini ajratadi, umumlashtiradi. Natijada vokelikdagi narsa va hodisalar to'g'risida tushuncha hosil bo'ladi.

Tushuncha deb narsa va hodisalarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi fikrga aytiladi. Tushunchalar mohiyati jihatidan aniq va mavxum tushunchalarga ajratiladi. Bir butun narsaga aloqador tushuncha aniq tushuncha dyoyiladi. Masalan, Avstraliya, Antarktida, Ural, Briz, Passat va boshqalar. Moddiy borliqdagi narsalardan fikran ajratib olingan ba'zi xususiyat sifat, holatlarga, shuningdek narsalar o'rtasidagi ichki munosabatlarga, qonuniyatlarga qaratilgan tushunchalar abstrakt (Mavxum) tushuncha deb ataladi. Masalan: kenglik, uzunlik, balandlik, tog'lik, ixtisoslik, bozor va boshqalar.

Geografik tushunchalar qo'llash jihatidan ikki turga bo'linadi.

1. Umumiy tushunchalar

2. Yakka tushunchalar

Umumiy tushunchalar bir jinsga oid bo'lgan ko'p narsa va hodisalarni gavalantiradi. Umumiy tushunchalarga alohida narsa va hodisalar kirmasdan, balki bir xil nom bilan ataluvchi narsa va hodisalar kiradi. Masalan: daryo, iqlim, tabiat zonasi, iqtisodiy rayon va xakozo. Umumiy tushunchalar mazmuni ta'rif berish va ularga xos bo'lgan belgilarni aniqlash jarayonida kelib chiqadi.

Yakka tushunchalar, yakka ob'ekt va hodisa haqidagi geografik nom bilan ataluvchi tushunchadir. Masalan, Oltoy tog'lari, Amudaryo, Pomir, Markaziy Osiyo hududi, Fransiya respublikasi, Afgoniston va xakozo. Yakka tushunchalar o'ziga xos yigma tushunchalardan iborat bo'ladi. Masalan: "Osiyo" yakka tushunchasi o'z ichiga juda ko'p yakka tushunchalarni oladi. "Osiyo tog'lari", "Osiyo iqlimi", "Osiyo daryolari", "Osiyo qo'llari" va xakozo. Yakka tushunchalar mazmuni ularga geografik ta'rif berish orqali ochiladi. Geografik tushunchalarni shakllantirish uzoq

vaqt va murakkab jarayonlarni talab qiladi. Tushunchalarni egallash uning negizida yangi tushunchalarni egallash uchun asos bo'lib xizmat qiladi va tushunchalar o'rtasida to'g'ri aloqadorlik o'rnatishni ta'minlaydi.

Tushunchani egallash deganda: uning mazmunini, hamda u bilan bog'liq bo'lgan tasavvurlarni egallash tushuniladi. Geografiya kursidagi har bir tushuncha o'quvchilar ongida turlicha usullar, yo'llar bilan shakllantiriladi. Bunga sabab har bir narsa, voqea, hodisa mazmunining turlichaligidir. Geografik tushunchalarni egallashning eng asosiy tomoni shundaki, ularga ta'rif bermay turib ularni egallab bo'lmaydi. Bunda uning shakllantirish bosqichlariga e'tibor berish kerak. Tushunchani shakllantirish quyidagi usullarda olib borilishi mumkin.

1. Induktiv: geografik ob'ekt va xodisalarni kuzatish, ularni taqqoslash orqali tushuncha belgilarini ajratish, umumlashtirish, tushunchaga ta'rif berish.

2. Deduktiv: tushunchaning ta'rifini berish, tushunchaga xos bo'lgan belgilarni ajratish va egallash, tushuncha belgilarini ajratish aloqadorligini aniqlash, mashqlar orqali tushuncha belgilarini mustahkamlash, yangicha o'quv vaziyatda tushunchani bajariladigan ishlarda qo'llash, tushuncha haqidagi bilimlarni amalda qo'llash.

Yuqoridagilarga erishish uchun o'quvchilarda bilish faoliyatini tashkil qilish zarur. O'quvchilardagi bu faoliyatini tabiiy, iqtisodiy bilim manbalariga jumladan karta, statistik ma'lumotlar, kuzatish natijalariga tayanmasdan tashkil qilib bo'lmaydi. Geografik tushunchalarni egallashdagi ikkinchi muhim xususiyat ilmiy tushunchalarning bir-biri bilan bog'lanib, tizim sistema hosil qilganligidir. Masalan, maktab tabiiy geografiya kurslari yer tabiati va tizimi, geografik qobiqlar tarkibi va rivojlanishiga oid bo'lgan yagona bilimlar tizimiga ega. SHu tufayli ham tabiiy geografik tushunchalar mantikan va geografik mazmun jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bunga misol tarikasida "tabiiy hududiy kompleks", "geografik qobiq", "tabiat komponentlari" va boshqalarni keltirish mumkin. Geografik tushunchalarni shakllantirish uzoq muddat talab qiladigan jarayon bo'lib, bir necha kurs davomida o'qitiladi. Masalan, ekologiya tushunchasi shakllanishi bunga misol bo'ladi. Bu tushuncha kuyi sinflardan boshlanib, yuqori sinflargacha davom qiladi. Geografik tushunchalarni shakllantirish jarayoni boshqarilish xususiyatiga ega bo'lib, uni o'qituvchi amalga oshiradi. O'qituvchi darslik va dasturlar asosida tushunchalarni ajratadi, ularni egallash, mustax-kamlash va amalda qo'llash bosqichlarini belgilaydi, hamda o'quvchilarning tushuncha mazmunini qandaegallash zarurligini ta'minlaydi.

Geografik tushunchalar ta'lim jarayonida sekin - asta rivojlanadi. Darsda shu narsaga e'tibor berish kerakki, umumiy tushunchalarni shakllantirish yakka tushunchalarga tayanmasdan amalga oshmaydi. Masalan, O'zbekiston iqlimi tushunchasini shu paytda yaxshi shakllantirish mumkinki, kachonki o'quvchilarda iqlim va iqlim hosil qiluvchi omillar haqida bilimlar mavjud bo'lsa. Quyida O'rta Osiyo tabiati tushunchasini shakllantirish jarayonini misol tarkasida keltiramiz. Tahlil va

mavxumiyatdan foydalanib, o'quvchilar xayolan O'rta Osiyoni qismlarga bo'ladilar. O'rta Osiyoning tog'li qismi va ularning elementlarini (rel'efi,iqlimi) bilan tanishish o'quvchilarni O'rta Osiyoning tabiatiga xos belgilar aloqadorligini bilib olishga yordam beradi. O'rta Osiyo tabiatining rel'efi, iqlimi, o'simliklari va boshqa elementlarni boshqa hududlar bilan qiyoslash orqali ularning o'ziga xos bo'lgan belgilarni ajratadilar. O'rta Osiyo va uning qismlari, tabiati elementlarini induktiv yo'l bilan bilish orqali uning tabiatiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni ajratadilar. Keyinchalik esa deduktiv yo'l bilan tabiat elementlari haqidagi umumiy tushunchalarga tayanib ular o'rtasidagi aloqadorlik va bog'liqlikni ajratadilar. O'rta Osiyo tabiatini boshqa hududlar tabiati bilan taqqoslash orqali O'rta Osiyo tabiiy kompleksi haqidagi tushunchani egallaydilar.

Geografik ob'ektlarni ko'rgazmali qurollarsiz va kartasiz o'rganish ularga xos bo'lgan belgilarni ajratishni birmuncha qiyinlashtiradi. Karta va ko'rgazmali qurollar o'rganilayotgan ob'ektga doir muhim belgilarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Yakka tushunchalarni shakllantirish uchun o'quvchilar xayolan shu ob'ektni karta bilan bog'lay olishlari kerak. Shu tufayli ham karta yakka tushunchalarni shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Faqat karta orqaligina istalgan geografik ob'ektning geografik o'rniga xos bo'lgan belgilarni ajratish va shu hududning ichki xususiyatlarini ajratish imkoniyatlari tugiladi.

Taqqoslash geografik tushunchalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilar o'zlariga tanish ob'ektlarni o'rganilayotgan ob'ektlar bilan taqqoslash orqali ularga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarni bilib oladilar. Masalan, Amudaryo va Sirdaryoni taqqoslash da har ikkala daryoning shimolga okishini, uzunligi deyarli tengligini, ularning baland tog'lardan boshlanishini, to'yinishini hamda deyarli bir xil ekanligini aniqlaydilar. Ob'ektlar elementlarini oddiy qiyoslash orqali o'qituvchi murakkabrok taqqoslashga o'tadilar. Masalan: nima uchun ularning shimolga oqishi sabablarini, irmoqlarini, Amudaryo suvining nima sababdan Sirdaryoga nisbatan loyka ekanligini, rejimidagi farqi kabi ko'plab xususiyatlarini ajratadilar. Tushuncha quyidagi hollarda o'quvchilar tomonidan egallangan hisoblanadi.

1. O'quvchi tushunchaga ta'rif bera olsa (agar u umumiy tushuncha bo'lsa);
2. Tushuncha mazmuniga xos bo'lgan belgilarni ajrata olsa va tushuncha belgilari o'rtasidagi aloqadorlik va bog'liqlikni farqlay olsa;
3. O'rganilayotgan geografik ob'ekt yoki hodisa haqida o'quvchi obrazli tasavvurga ega bo'lsa;
4. O'quv vazifalarini bajarishda tushunchani mustaqil qo'llay olsa.

Tushunchaning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi uchun o'quvchilar e'tiborini tushuncha belgilarini tahlil qilishga qaratish kerak. Ishning bunday tashkil qilinishi o'quvchilarni ob'ekt va hodisalardagi eng muhim va ikkinchi darajali belgilarni ajratishlari ularni taqqoslash ga va guruhlashga o'rgatadi. Bunda ekskursiyalar, joyda amaliy ishlar uyush-tirish katta rol o'ynaydi.

O'quvchilarning umumiy tushunchalarini mustakkil qo'llay olish uchun reproduktiv metod va ijodiy va muammoli topshiriqlarni (qisman izlanuvchan va tadqiqot metodlar) bajarishga o'rgatish kerak.

Geografiya ta'limida bilimlarni amalda qo'llash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi mumkin.

- amaliy topshiriqlarni, masalan, yer osti suvlarining harakatini, chuqurligini aniqlash, daryoning suv sarfi, o'rtacha chuqurlikni aniqlash va boshqalarni;

- geografik bilimlarni tabiat hodisalari va voqea larini tushuntirishda (yil fasllarini almashishi yoki siyosiy kartalarni o'zgarishlari) ishlatish mumkin;

- bilimlarning qo'llash ilgari egallangan bilimlarni va yangi bilimlarni egallash jarayonida ham ishlatish mumkin.

Geografiya ta'limida iqtisodiy-geografik tushunchalarini shakllantirish ham o'ziga xos bo'lib, odatda u 3 ta bo'g'indan iborat bo'ladi:

1. Kirish o'quvchilar bu bo'g'inda dastlab mamlakat yoki hududning boshqa mamlakatlar va hududlar o'rtasida to'tgan o'rni, maydoni va aholisi, tabiiy boyliklari mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, xo'jaligidagi ixtisoslashgan tarmoqlarining to'tgan o'rniga oid ma'lumotlar bilan tanishadilar.

2. Mamlakat yoki hududning iqtisodiy-geografik ta'rifiga ega bo'lgan kartalar bilan tanishadilar. Shu bo'g'inda ular to'liq tushunchaga ega bo'lishlari mumkin.

3. Mamlakat yoki rayonni boshqa rayon va mamlakatlarga qiyoslash orqali tushunchani amalda qo'llashga erishadi. Har bir bo'g'in har xil ishlashni talab qiladi.

3. Geografiya ta'limida ko'nikma va malakalar shakllantirish

Geografik ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi bilim egallash, ko'nikma va malakani shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. O'quv ishlari jarayonini bilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Geografiya bo'yicha ilg'or o'qituvchilar va metodistlar o'quvchilar amaliy tayyorgarligiga katta e'tibor beradilar. Maktab geografiyasida shakllantiriladigan ko'nikmalar mazmun jihatdan emas, balki bajarish murakkabligi bo'yicha ham farq qiladi. Masalan dunyo tomonlarini aniqlash oddiy ko'nikma bo'lsa, topografik plani o'qish va uni tuzish esa murakkab ko'nikma hisoblanadi. Geografiya ta'limi metodikasi fani shakllantiriladigan ko'nikma va malakalarning ta'lim tarbiyaviy ahamiyatini to'laligicha ochib bergan va ularni o'quvchilarga yetkazish metodlarini ham ishlab chiqqan desa bo'ladi. Ko'pchilik ko'nikmalar fanlararo bo'lishi mumkin. Faqat geografiya ta'limiga xos bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalar ham mavjud. Bular joyda mo'ljal ola bilish, joy planini tushirish, topografik plan va turli mazmundagi geografik kartalarni o'qish, tabiatda va ishlab chiqarishda kuzatish, kuzatish materiallarini qayta ishlash, statistik va iqtisodiy raqamli materiallar bilan ishlash va boshqalar.

bunga misol bo'lishi mumkin. Ko'nikmalarni shakllantirish uzoq mashakktali mehnat talab qiladi. Ularni shakllantirish bir necha bosqichdan iborat bo'lishi mumkin.

1-jadval. Ko'nikmalarni shakllantirish bosqichlari

B O S Q I C H L A R		
1	2	3
Ko'nikma ahamiyatini tushuntirish: ko'nikma qo'llaniladigan bilim manbalari bilan tanishish	Ko'nikma tarkibi bilan tanishish, ko'nikmani bajarish, namoyish qilish. Ko'nikmani mustahkamlash uchun mashqlar.	Yangi o'quv vaziyatida ko'nikmani qo'llash uchun ijodiy topshiriqlar.

Har bir geografik ko'nikmani shakllantirish murakkab harakat tizimlarini talab qiladi. Odatda ko'nikma va malakalar bir paytning o'zida shakllantiriladi. Chunki amaliy topshiriqlarni bajarishda ularning ayrimlari ongli ravishda, ba'zilar bevosita, ammo ong nazorati ostida bajariladi. Masalan topografik planni o'qish ko'nikmasi o'z ichiga yo'nalishlarini aniqlash, masshtab yordamida plandagi masofalarni o'lchash, topografik belgilarni o'qish, joyda ob'ektlar o'rtasidagi aloqadorlikni urnatish kabilarni oladi. Yuqoridagilar ichida topografik belgilarni ishlatishni bilishgina malaka darajasini ko'rsatadi.

Ob-havoni kuzatish ko'nikmasi deganda termometr, barometr, flyuger bilan ishlashni bulutlar shakli va turlarini, oddiy ko'zda aniqlay olishni, ob-havoning boshqa alomatlarini aniqlashga tushiniladi. SHular ichida faqat ob - havo haroratini aniqlash va barometr bilan ishlash mala-ka darajisigacha ko'tarilish mumkin va boshqalar.

Geografik ko'nikma va malakalar ko'p hollarda bilim sifatini belgilaydi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, agar o'quvchilarda karta bilan ishlash ko'nikmasi shakllantirilsa, ularning javoblari ham karta bilan bog'langan bo'ladi. Karta bilan ishlash ko'nikmasini egallay olmagan o'quvchilardagi bilim quruq, o'qituvchi bayoni yoki kitobdan o'qiganlarning takroridan iborat bo'lib qoladi xolos. Geografik kartalarni o'qiy olishga o'rgatilgan o'quvchilardagi harakat yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Aksariyat o'quvchilar javoblarini kuzatish geografiya fani bo'yicha olimpiadalarda ishtirok qilgan o'quvchilarni bilimlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular kartadan bilim manbai sifatidan foydalana oladilar, ularning bergan javoblari to'liq bo'lib, biron hududning tabiiy sharoiti va xo'jaligini karta asosida atroflicha ochib bera oladilar. Boshqa o'quvchilarda esa bu xislatlar zaif rivojlangan bo'ladi yoki bo'lmasligi ham mumkin.

Ko'nikma va malakalar o'quvchilarni kelgusida amaliy hayotga tayyorlashda, ishlab chiqarishdan, tabiatdan turli xil ilmiy-ommabop adabiyotlardan, kartalardan bilimlarni mustaqil egallashda muhim ahamiyat kasb qiladi. O'quvchilar tomonidan ko'nikmalarning egallanishi boshqa ko'nikmalarning oson o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Masalan: joyda ufq tomonlarini aniqlash ko'nikmasi, kartada mo'ljal olish ko'nikmasini egallashga yordam beradi va boshqalar.

O'quvchilarning zarur ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi ular dunyoqarashini shakllantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilar ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash orqali geografik qonuniyatlarning ob'ektivligiga ishonch hosil qiladilar. Geografiya ta'limi metodikasida geografik ko'nikma va malakalarni shakllantirish usullari to'la ishlab chiqilmagan. Masalan, o'quvchilarning u yoki bu mavzudagi qaysi harakati ko'nikma darajasiga, qaysilarini malaka darajasiga ko'tarish mumkin? O'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qanday yakka tartibda yondashishi kerakligi masalalari geografiya ta'limida atroflicha o'rganilmagan. Eng muhimi geografiya o'qituvchisi ko'nikma hosil qilishidagi harakat usullarini ko'rsatibgina qolmasdan, balki o'quvchilar uchun (ko'nikma egallash uchun) zarur topshiriqlarni ishlab chiqishi ham kerak.

Mashqlar jarayonida oddiy ko'nikmalar sekin-asta malakaga aylanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar shakllantirishning metodik shart-sharoitlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ba'zi ko'nikma va malakalar oz vaqt va ko'p kuch talab qilsa (gerbariylar yig'ish, kompasdan, nivelirdan foydalanish va boshqalar), ba'zilar juda murakkab harakat usullarini va ko'p vaqt talab qiladi. Masalan, geografik kartani o'qish ko'nikmasini hosil qilish, shakllantirish quyidagi murakkab jarayonlarni talab qiladi. Bular mo'ljal olish, graduslar va kilometrlar hisobida aniqlash, punktlar, hududlar o'rtasida fazoviy bog'liqlikni qiyoslash, geografik koordinatalarni aniqlash, kartada ko'rsatilgan ob'ektlar va hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibatlar aloqadorligini o'rnatish, alohida ob'ektlar (daryo, ko'l, suv ombori, botqoqlik)ni ta'riflash, ko'rsatilgan hududni-mamlakat, tuman, shaharning tabiiy geografik va iqtisodiy geografik ta'rifini yozish va boshqalar.

Geografik kartani o'qish ko'nikmasi sekin-asta rivojlantiriladi va u barcha sinflarda davom qiladi (boshlang'ich sinfda ham). O'quvchilar karta bilan ishlash jarayonida turli mazmundagi (umumgeografik, iqlim, tuproq, iqtisodiy) kartalarning shartli belgilari bilan ham tanishadilar va sekin-asta ko'nikmalar hosil qiladilar. Ko'nikma va malakalar shakllanishi ko'pgina sabablarga: o'quv jihozlari va vositalari, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Lekin, bu erda o'qituvchi asosiy siymo hisoblanadi. O'qituvchi rahbarligining mazmuni shundan iboratki, ko'nikma egallash jarayonida u o'quvchilar harakatini tahlil qiladi, ushbu ko'nikma va malakani egallash uchun qanday nazariy bilimlar zarurligini aniqlaydi.

Ko'nikmani shakllantirishdagi muhim omillardan yana biri nazariy materialni amalda qo'llash vaqti va o'rnini hisoblanadi. Masalan, maxalliy kanal, daryo rejimi (oqim tezligi, eni, chuqurligi)ni o'lchash. O'zbekiston ichki suvlari mavzusini o'rgangunga qadar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Ammo atmosfera bosimini barometr yordamida o'lchash ko'nikmasini, mavzuni o'rgangunga qadar singdirish, vaqtni bekor kyetkazish hisoblanadi. Chunki o'quvchilar buni mexanik tarzda o'zlashtirib, uning mohiyatiga tushunmasliklari ham mumkin.

Demak, ko'nikmalarni shakllantirish bevosita mavzuni o'rganish jarayonida bo'lsa uning

sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Ko'nikma va malakalarni shakllantirishda boshqa fan o'qituvchilari bilan hamkorlik qilish ham yaxshi natijalar beradi. Har bir kurs darslarini rejalashtirishda shakllantirishi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar o'z aksini topishi, ko'nikma malakalar maqsadi aniq belgilanishi lozim. SHakllantiriladigan ko'nikmalarni rejalashtirishda uni daryoning qaysi qismida o'tkazilishini aniq belgilash lozim o'tkazilishini aniq belgilash ham muhim ahamiyatga ega.

Darsda shakllantirilayotgan har bir ko'nikmaning amaliy ahamiyati ya'ni uning xalq xo'jaligidagi yoki inson faoliyatidagi roli aniq ochib berilish lozim. SHundagina o'quvchilarda ularni egallashga bo'lgan xavas, qiziqish oshadi. Amaliy mazmundagi ko'nikmalarni shakllantirish uchun avvalo o'quvchilarga u yoki bu asbob, vosita bilan ishlash yo'llari tushuntirilishi va ularni ta'riflash rejasi berilishi lozim. Aksariyat o'qituvchilar ko'nikma va malakalar shakllantirishda ob'ekt va hodisalarni o'rganish rejasini o'quvchilarga tavsiya qiladilar. Masalan, daryoni ta'riflash, iqlimni ta'riflash, tabiat zonasi va TTK ni ta'riflash, biron mamlakat yoki hududni ta'riflash va boshqalar. bunga misol bo'ladi. Rejaning har bir bandi mazmuni jihatidan boyitilib borilsa, ko'nikma yanada mustahkam bo'ladi.

O'qituvchi bu rejalardan qay usulda foydalanishini o'quvchilarga doimo o'rgatib borishi kerak. O'quvchilarda ko'nikma va malakalar hosil qilishda mashqlar tizimi katta ahamiyat kasb etadi. Mashqlar yordamida ko'nikma xosil qilishda o'qituvchi ularni bajarish yo'llarini ko'rsatadi, keyin o'quvchilar ularni mustaqil ravishda, ya'ni o'qituvchi rahbarligida bajaradilar. Masalan, masshtab bo'yicha darsda bir necha mashqlarni bajarish mumkin. Bunga turli masshtab yordamida har xil uzunlikdagi masofalarni o'lchash, maktabdan klubgacha, pochtagacha, uygacha bo'lgan masofalarni aniqlash misol bo'la oladi.

Ko'nikma va malakalar shakllantirishi mazmuniga ko'ra uzoq va qisqa vaqt talab qilishini yuqorida ko'rgan edik. Geografik koordinatalarni aniqlashni o'rganishuzoq vaqt talab qiladigan jarayon bo'lib, u asta-sekin o'rgatilib murakkablashib boradi. Geografik nuqtalarni aniqlashda osondan-qiyinga boruvchi mashqlarni o'quvchilar diqqatiga havola qilish kerak. Bunga dastlab o'quvchilarni paralellar va meridianlarni topishga keyinchalik uzun-likni aniqlashga va uni kartadan ko'rsata olishga, undan keyin esa koor-dinatalarni topishga o'rgatiladi. Eng dastlabki mashqlar avval globusda keyin yarim sharlar kartasida bajarilishi kerak. O'quvchilar kartada kursatgan ob'ektlarning bir-biriga nisbatan necha gradus shimolda yoki janubda joylashganligini mashqlar asosida bajaradilar. Geografik koordinatalar bo'yicha mashqlarni muntazam bajarishi ko'nikmasi sekin-asta malakaga aylanishi mumkin. Yuqori sinflarga kutarilgan sari ko'nikma va malakalar shakllantirishi borasidagi mashqlar tizimi ham takomillashib boradi. Bunda albatta kuyi sinflarda egallangan ko'nikma va malakalarga tayaniladi. Yuqori sinflarda iqtisodiy-geografik kartalarni o'qish ko'nikmasini shakllantirish birmuncha qiyin kechadi. Iqtisodiykartalarni o'qish usullari

tabiiy geografik kartalarga bir-muncha o'xshab ketadi. Ammo u o'quvchidan iqtisodiy bilimlarni ham talab qiladi. Bu yerda reja asosida ta'rif berish yetakchi rolni o'ynaydi. Masalan, sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlariga tavsif berish rejasi, tarmoqlar, shaharlar, davlatlarga ta'rif berish rejalariga misol bo'la oladi va boshqalar.

Iqtisodiy-geografik kartalarni o'qish ko'nikmasini shakllantirishda o'quvchilar iqtisodiy-geografik o'rin tushunchasini qiyinchilik bilan egallaydilar. Bu borada bir necha mashqlarni muntazam ravishda bajarish kartani o'qishni osonlashtiradi. Mamlakatning iqtisodiy geografik o'rni tabiiy sharoit, mamlakat yoki rayon iqtisodiyotini belgilashda katta rol o'ynaydi. SHu tufayli ham iqtisodiy geografiyadan nazariy tayyorgarliksiz o'quvchilar u yoki bu ob'ektning iqtisodiy-geografik tavsifini tuzishda qiynaladilar. Sanoat, qishloq xo'jaligi, transport tarmoqlari joylashishini tushuntira olmaydilar. Iqtisodiy kartalarni o'rgatish ko'nikmasi turli usullar orqali shakllantirilishi mumkin. Masalan, karta orqali shaharlarga iqtisodiy-geografik ta'rif berilganda o'quvchilar uning xom-ashyo va tayyor mahsulotlar olishdagi va chiqarishdagi aloqalarini, kelajakdagi va rivojlanishiga oid ma'lumotlarga oldindan bilishlari kerak. Ammo ko'pchilik geografiya o'qituvchilari bunga masuliyasizlik bilan karaydilar. Karta asosida o'quvchilarning ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun bu ishni muntazam ravishda bajarish lozimligiga kam e'tibor beradilar. Buning uchun sinf jurnalida muddati ko'rsatilmasdan maxsus grafa ochib, unga o'quvchining kartani bilish bo'yicha egallangan ko'nikmalarga baholar qo'yib borilsa, kartalarni o'qish ko'nikmalari ancha takomillashuvi mumkin. O'quvchilarning kartani o'qish borasidagi ko'nikma va malakalarni to'g'ri shakllantirish ularni maktabni tugatgandan keyin ham tabiiy, iqtisodiy va siyosiy kartalardan qiynalмай mo'ljal ola bilishlari uchun zamin tayyorlaydi.

11-ma'ruza: Tarbiya turlari

Reja

1. Tarbiya tushunchasi, uning mazmuni va uning mohiyati.
2. Tarbiya jarayonining tamoyillari
3. Maktab geografiyasi kurslarida o'quvchilarga tarbiya berish masalalari.

Tayanch iboralar

Jismoniy tarbiya, ruhiy tarbiya, axloqiy tarbiya, ma'naviy tarbiya, ekologik tarbiya

1. Tarbiya tushunchasi, uning mazmuni va uning mohiyati.

Tarbiya shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo'lib, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yigindisini o'z ichiga oladi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning

mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda «tarbiya» atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televidenie va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasining ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan etarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy in-tlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izoxdab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiqi tufayli tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli xisobga olinmadi.

Sho'rolar pedagogikasida tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga maxliyo bo'lishdek pedagogik

xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo‘lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo‘nalishga solinishi mumkin bo‘lgan qiyofasiz to‘da, olomon tarzida qarash qaror topdi. Bu hol tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy ob‘ekti bo‘lmish shaxs va uning o‘ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho‘ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqaladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog‘liq jarayonlarga yangi hamda sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g‘ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliylikiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, o‘zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o‘rganilmoqda. Natijada, O‘zbekiston pedagogika fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o‘ziga xos o‘rni borligi tan olina boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo‘ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o‘rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to‘g‘ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to‘g‘ri tayin etish imkonini berdi.

2. Tarbiya jarayonining tamoyillari.

Har bir ishning o‘ziga xos, ma’lum qonun-qoidalari bo‘lganidek, inson tarbiyasining ham o‘ziga xos bir qator muhim tamoyillari, qonun-qoidalari mavjud, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo‘lishini ta’minlaydi:

Tarbiya jarayonining tamoyillari quyidagilar:

- tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning xayot va mehnat bilan bog‘lanishi (O‘zbekistonimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo‘lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog‘lanishi);
- shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
- tarbiyada shaxsni hurmat qilish va unga talabchanlik;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
- tarbiyada shaxsning yoshi va o‘ziga xos xususiyatlarini xisobga olish kabilardir.

Geografik ma’lumotlar, yangi tushuncha va ifodalarni o‘rganish bilan o‘quvchilarning so‘z boyligi ortib boradi, geografik ob‘ekt va hodisalarni tasvirlashga o‘rgana borib, ularning nutqi rivojlanadi. O‘quvchilar geografik nomlar Osiyo xalqlari haqida gapirilganda ular o‘rtasidagi hamkorlik, birodarlik, mehmondo‘stlik, muhtojlarga yordam berish, tarbiyachilarning izzatikromini joyiga qo‘yish kabi qadimiy an‘analarni bolalar ongiga sindirish lozim. Bu an‘analarning ko‘pchiligi axloq tarbiyasiga mos kelganligi uchun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

3. Maktab geografiyasi kurslarida o‘quvchilarga tarbiya berish masalalari.

Maktab geografiyasi o‘quvchilarga estetik tarbiya berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Geografiya ta'limi o'quvchida tabiat manzarasiga va kishilar faoliyatiga chuqur his-tuyg'ular bilan karashga undaydi. Geografiya kurslarida tabiat manzaralari va unda sodir bo'ladigan hodisalarni hamda inson faoliyatini o'rganish bilan ularda estetik tuyg'ular tarbiyalanadi. O'quvchilarga estetik tarbiya berishda tabiatga ekskursiya uyushtirish, turistik yurishlar tashkil etish yaxshi yordam beradi. O'quvchilar tabiat manzaralaridan bahramand bo'ladilar, zavqlanadilar. Binobarin, tabiatdan bahramand bo'lgan kishi uni muhofaza qilishga intiladi.

Bulardan tashqari, badiiy adabiyotlardan, xususan, o'zbek yozuvchilari asarlaridan foydalanish, parchalar o'qib berish, rassomlarning manzarali suratlaridan foydalanish-estetik tarbiyaning ajoyib vositalaridan hisoblanadi. Darsda turli fotorasmlardan, rangli suratlardan, kinofilmlardan foydalanish ham mazkur tarbiya vositalaridan biridir. Geografiya ta'limi estetik did bilan berilishi lozim. Devoriy karta va suratlarining to'g'ri ilinishi, sinf doskasidagi tartibli chizma, chiroyli yozuv va saranjomlik bilan to'ldirilgan kontur karta o'quvchilarni saranjomlikka, didli bo'lishga o'rgatadi.

12-ma'ruza. Ta'limda tadqiqot usullari

Reja

1. Ilmiy tadqiqot uyushtirishni ahamiyati.
2. Tadqiqotda nazariy va eksperimental-empirik metodlar.
3. Geografiya o'qitishda kuzatish va so'rovnoma uyushtirish.

Tayanch iboralar

Ilmiy tadqiqot, kuzatish, matematik-statistik metod, nazariy metod, so'rovnoma, tadqiqot usullari, tarixiy metod, eksperimental-empirik metod.

1. Ilmiy tadqiqot uyushtirishni ahamiyati.

Geografiya o'qitishning mazmuni o'quvchilarga geografik ob'ektlar, hodisalar, voqealar va ularning sabablarini tushuntirishdan iborat. SHu jihatdan olganda o'quvchilarning yuqoridagilarni o'rganishi, ularni bilish yo'llari tadqiqotga o'xshab ketadi. O'quvchilar geografiyani o'rganishda olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tekshirilgan va tahlil qilingan faktlar hamda ilmiy xulosalarga asoslanish bilan birga, ba'zan geografiya manbalarini o'rganish asosida geografik voqea va hodisalardan umumiy xulosalar chiqarishda ham foydalanishlari mumkin. Biroq o'quvchilarning geografiya o'rganishi ilmiy tekshirishdan bir muncha farq qiladi. Aslida o'qitish jarayonida o'quvchilar geografiya fanining ba'zi tadqiqot usullari bilan tanishadilar xolos.

Geografiya o'qituvchisi, o'qitish metodikasiga oid bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Afsuski, aksariyat geografiya o'qituvchilari bu borada etarli tasavvurlarga ega emaslar. Geografiya o'qituvchisi metodika bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish uchun quyidagilarga e'tibor berishi maqsadga muvofiq.

1. Geografiya o'qituvchisida o'z ish tajribasiga tankidiy nuqtai nazardan yondosha olish

xislatlari mavjud bo'lishi.

2. Boshqa o'qituvchilarning, ayniqsa, ilg'or geografiya o'qituvchilarning ish tajribalarini mustaqil o'rganishlari.

3. O'z bilimini tinmay oshirib, geografiya ta'limi bo'yicha ilmiy metodik va tadqiqot ishlariga oid adabiyotlar bilan tanishib borishi.

4. Pedagogika, psixologiya, didaktika fanlari yutuqlaridan, tadqiqotlaridan xabardor bo'lishi kerak.

2. Tadqiqotda nazariy va eksperimental-empirik metodlar.

Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot uyushtirishda boshqa fanlar qatori dialektik metodologiyaga amal qilinadi. Chunki tadqiqot metodlari xilma-xil bo'lsa ilmiy bilish metodologiyasi esa yagonadir. Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha dialektik materializm (bilishning umumiy metodi) asosida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda eksperimental - empirik va nazariy usullariga tayaniladi. Eksperimental - empirik usul, tadqiqotning ilk bosqichlarida, ya'ni tadqiqot muammolari bo'yicha faktlar yig'ish jarayonida keng qo'llaniladi. Bu usul ayniqsa xulosalarni qayta tekshirish va aniqlashda ko'l keladi. Empirik usul o'z navbatida maktablar tajribasini o'rganishva eksperiment usullariga tayangan holda amalga oshiriladi.

Geografiya ta'limi metodikasi fani ilk rivojlanishi davrida eksperimental-empirik metodini ko'proq qo'lladi. Keyingi yillarda nazariy metodlar asosidagi ilmiy tadqiqotlar ancha rivojlandi. Xususan bilimlarni didaktik jihatidan tahlil qilish orqali o'quv predmetini yaratish, o'quv materialini mantiqan tahlil qila olish, o'quv materialidagi geografik, iqtisodiy, ekologik tushunchalarni tahlili nazariy metodlar asosini tashkil qiladi. Ayniqsa o'qituvchi faoliyati bilan o'quvchi faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik masalalari, dars maqsadi bilan mazmuni, ta'lim metodlari bilan tarbiya orasidagi aloqalarni tadqiq qilish nazariy metodlar negizini tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki hozirgi kunda geografiya o'qituvchilari o'z ishlariga tankidiy yondashishi orqali ham ilmiy ishlarni boshlashi mumkin. Bunday ishlar darslarni rejalashtirish jarayonidan boshlanishi zarur.

Geografiya o'qituvchisi har bir darsning vazifasini, maqsadini, mazmunini ularni egallashda qandayta'lim metodlari va vositalari qo'llanishini, o'quvchilarning faoliyati nimalardan tashkil topishini oldindan aniqlab olishi kerak. Eng muhimi darslar o'rtasidagi aloqadorlik va bog'liqligining nimalarda aks etishi dars rejalarida o'z aksini topgan bo'lishi lozim. Darslarda geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha 7-sinf usullari masalalari metodist olimlar A.E.Bibik, M.L.Panchyoshnikova, I.V.Dushina, P.Musaev, O.A.Mo'minov tadqiqotlarida atroflicha umulashtirilgan.

Tadqiqot usullarini tanlash qo'yilgan maqsad va vazifalarga bog'liq. Eng avvalo, qo'yilgan metodik muammo dolzarbligining maqsad va vazifalarini belgilash uchun maxsus adabiyotlarni

nazariy jihatidan tahlil qilish zarur. Agar bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishning samarali usul va vositalarini izlamoqchi bo'lsak, avvalo uni o'quv jarayonini tahlil qilishdan boshlamoq kerak. Buni eksperiment asosida, o'qitish, so'rovnoma yordamida, o'quvchi va o'qituvchilar bilan suhbatlar tarzida uyushtirish mumkin.

Har qanday tadqiqotda nazariya metodi yetakchi o'rinni egallaydi. U o'z navbatida bir qancha usullarni, xususan: adabiyotlar tahlili, statistik-matematik, tarixiy va taqqoslash metodlarini o'z ichiga oladi. Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha tadqiqot olib boruvchilar, eng avvalo geografiya falsafa didaktika, pedagogika, psixologiya, mantiq, bilish nazariyasi kabi fanlarini chuqur o'rganib chiqishlari zarur. Ularda tadqiqot uchun, taqqoslash va qiyoslashga oid bo'lgan ma'lumotlar to'planadi.

GO'M bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda statistik – matematik metodlarning ham roli katta. Bunda tajriba o'tkazilayotgan sinflar va maktablardagi ish natijalarini e'tiborga olish keng qo'llaniladi. Olingan miqdoriy ko'rsatkichlarga tayanib u yoki bu metodning, usulning, vositalarning qanchalik samara berishligini aniqlash imkoniyati tug'iladi. Statistik, matematik metodning eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, ular yordamida, pedagogika va uslubiy hodisalar o'rtasidagi qonuniyatlarni ochish imkoniyatlari yaratiladi. Masalan, tajriba sifatida qo'llanilayotgan ta'lim metodi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, bilish faoliyati faolligiga kay darajada ta'sir qilishini o'rganishga yordam beradi.

Geografiya o'qitishda tarixiylik metodining ham o'rni bor. Ma'lumki, vaqt o'tishi bilan u yoki bu metod yoki vositaning o'zgarishi va rivojlanishiga tarixiy nuqtai nazardan endoshib xulosalar chiqariladi. Masalan, tadqiq etilayotgan muammoning bundan 30 yil oldingi holatini hozirgi kun bilan qiyoslab tankidiy nuqtai nazardan yondashish tarixiylik metodining negizini tashkil qiladi. Taqqoslash metodi ham tadqiqot ishlarida keng qo'llaniladi. Ayniqsa ilg'or tajribalarni qiyoslash, chet ellarda geografiya o'qitishda qo'llanilayotgan metodlarni, bizning vatanimizda qo'llanilayotgan metodlar bilan taqqoslash samarali natijalar beradi. Eksperimental - empirik tadqiqot usullariga ta'lim jarayonini kuzatish, pedagogik faoliyatini o'rganishva umumlashtirish, so'rovnoma o'tkazish, pedagogik eksperiment uyushtirishlar ham kiradi. Bu usullar mavjud o'quv dasturlarini takomillashtirishda, o'qituvchilarni ilmiy uslubiy saviyasini oshirishda katta rol o'ynaydi. Geografiya o'qitish borasidagi ilmiy-metodik ishlarda odatda bir necha tadqiqot metodlari birgalikda qo'llaniladi. Aytaylik, o'quvchilarning bilimi, ko'nikmalari haqida ma'lumotlar to'planayotgan bulsin, bu yerda kuzatish, so'rovnoma o'tkazish, o'quvchilar bilan suhbat, maktab xujjatlarini o'rganishkabi boshqa bir necha usullardan unumli foydalanish takozo etiladi.

3. Geografiya o'qitishda kuzatish va so'rovnoma uyushtirish.

Kuzatishi ilmiy tadqiqot metodlari ichida eng keng tarqalgan metodlardan biri bo'lib, u har

bir tadqiqotchi uchun juda zarurdir. O'qituvchining maxorati, muvaffaqiyati ko'p jihatdan kuzatuvchanlikka bog'liq. Kuzatishga kirishishdan oldin uning dasturini tuzib chiqish kerak. Kuzatish maqsadi puxta va aniq bo'lishi talab etiladi. Geografiya ta'limida kuzatish ob'ektlari sifatida o'quv ish usullari, o'quvchilarning amaliy va mustaqil ishlari, hamda ta'lim vositalarini qo'llash va xakozolar bo'lishi mumkin. Geografik tasavvur va tushunchalarning shakllanish jarayoni ham kuzatish metodini talab qiladi. Kuzatishni yozib borish uchun kundalik yuritish zarur. Kuyida maktablar tajribasini o'rganishda kuzatish dasturidan namunalari keltiramiz.

I. 1. O'quv jarayonida mavzular mazmuniga o'zgarishlar kiritilganmi, yangi materiallar, tushunchalarni boshqacha tarzda o'rganish, ikkinchi darajali materiallarni chiqarib tanlash, tashkil etilishi.

2. Yangi materialni o'rganishda xatoliklar noaniqliklar mavjudmi, metodlar to'g'ri tanlandimi va qo'llanildimi, ular nimalarda o'z aksini topgan.

3. O'qituvchi o'z rejalashtirishida, va dars jarayonida yetakchi tushunchalarni burtirib ko'rsata oladimi;

4. O'quv materiallar qandaymetodlar yordamida ko'rib chiqildi, ularning har biriga taxminan darsning necha foiz vaqti sarflandi:

II. 1. Yakunlovchi amaliy ishlarning barchasi o'tkaziladimi;

2. Qaysi amaliy ishlar o'tkazilmadi, nima uchun?

3. Har bir yakunlovchi amaliy ish uchun qancha vaqt sarflandi;

4. Yakunlovchi amaliy ishlarni bajarishda o'qituvchi va o'quvchilar qandayqiyinchiliklarga duch keldilar, bu qiyinchiliklar nimalardan iborat?

5. O'qituvchi dasturdagi amaliy ishlar mazmuniga va uyushtirish shakliga o'zgartirish kiritadimi, ularni nima bilan isbotlaydi.

6. Dasturdagi boshqa amaliy ishlarga o'qituvchilarning munosabati ularni qandayshaklda o'tkazadi, yakka tartibda, yoppasiga, sinfda, uyda, baholaydimi, qaysi larini o'tkazmaydi, sababi) darsning qancha qismi (foizi) uni bajarishga ketadi?

III. 1. Dasturda ko'rsatilgan fanlararo bog'liqlik uyushtiriladimi:

2. Fanlararo bog'liqlik qandayuyushtiriladi:

(o'qituvchining boshqa fanlarga munosabati og'zakimi, sinfda yoki uyda topshiriqlar bajarish tarzidami, biologiya, fizika, kime darslarida olgan bilimlarini geografiya darslarida qo'llaydimi?)

3. Qaysi mavzuda qandayfanlar bilan bog'liqlik eritilmadi: Darsning qancha qismi (foizi) fanlararo bog'liqlariga sarflandi.

4.O'qituvchi fanlararo bog'liqlik mazmuniga qandayto'ldirish va o'zgaritishlar kiritdi;ular

nimalarda aks etdi?

Geografiya ta'limi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarida so'rovnoma usuli ham keng qo'llaniladi. So'rovnomalar ilmiy tadqiqot mazmuniga muvofiq o'qituvchi, metodistlar, o'quvchilar uchun alohida tuziladi. Bundan maqsad biror metodik muammo bo'yicha ma'lumot to'plashdir. Masalan; tabiiy geografiya fanlari bo'yicha ta'lim metodlarini yanada takomillashtirish maqsadidagi so'rovnomalarda geografiya o'qituvchilarga quyidagi savollar havola etilishi mumkin.

1. O'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilishda qanday metodlardan foydalanasiz:

- a) yangi materialni o'tishda
- b) bilimlarni tekshirishda (reyting tizimida)

2. Darsingizda qandaymetodlar yetakchi.

3. Darslaringizda 6-7-8 sinf o'quvchilarning ishlaridagi farq nimalarda aks etadi.

a) karta bo'yicha

b) darslik bo'yicha

v) o'quv kartinalari, jadvallari bo'yicha

g) ekran qo'llanmalari va eXM lardan foydalanish bo'yicha (har bir sinf uchun alohida)

4. O'quvchilar qobiliyatini qandaymetod va vositalar yordamida oshiriladi ?

5. O'quvchilarning bilish faoliyati qandaytahlil etiladi.

a) bilimlarni tayyor holda berasizmi?

b) materialning faqat bir qismini tushuntirasizmi?

v) barcha materialni o'quvchilar mustaqil o'rganadilarmi (misollar bilan boshqalar.)

O'quvchilar uchun so'rovnoma.

Darsda yangi material kay usulda o'rganilganda yaxshi tushunasiz va eslab kolasiz. (+ ishorasini materialni yaxshi tushuna olganingizda - ishorasini esa o'quv materialini yaxshi tushuna olmaganingizda ko'ying).

№	Yangi materialni o'rganish usullari	+	-
1.	Materialni faqat og'zaki bayon qilganda		
2.	O'qituvchi topshirigiga ko'ra mustaqil ish bajarganda		
3.	O'qituvchi suhbat yordamida (o'qituvchi savoli hamda o'quvchilar javobini umulashtirish tufayli xulosalar chiqara olishi)		
4.	O'qituvchi materialini faqat tayyor holda berganida (ya'ni hamma narsani o'zi tushuntiradi).		
5.	Ayrim topshiriqlarni o'qituvchi topshirigi asosida karta,darslik, diafilmdan mustaqil olganda.		
6.	Sindoshlarning ma'ruza va axborotlarini tinglaganda.O'qituvchi doskaga rasmlar chizib bayon qilganda, hamda mavzularga oid raslarni tahlil qilganda		
7.	Atlas va darsliklardagi kartalar bilan mustaqil ishlaganda		

8.	Kinofilm, diafilm, diapozitivlar bilan ishlaganda		
9.	Sinfda darslik bilan mustaqil shugullanganda		
10.	O'qituvchi rahbarligida amaliy ishlar bajarilganda		
11.	O'z bilimlariga tayangan holda yangi materialni mustaqil o'rganganda		
12.	Turli usullarni birgalikda qo'llash natijasida va boshqalar.		

eslatma: Yuqorida ko'rsatilgan usullardan tashqari yana qaysi usullar qo'llanilganda yangi materialni puxta tushunasiz.

O'quvchilar o'rtasida ham so'rovnomalar o'tkaziladi. Quyida o'quvchilarning sinfda bajarishlari uchun mo'ljallab tuzilgan so'rovnomadan misollar keltiramiz. So'rovnomalardan olingan natijalar respublika yoki viloyat maktablarida har xil natijalar beradi. Bunday so'rovnomalar o'rganilayotgan pedagogik hodisa yoki voqealikning qanchalik to'g'ri qo'yilganligini ko'rsatadi. Chunki har bir maktab turlicha sharoitlarda joylashgan va xilma-xil imkoniyatlarga egadirlar.

Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda pedagogik eksperiment keng qo'llaniladi. Bu metod kuzatish metodining mantiqiy davomidir. eksperiment yangi pedagogik tajribani yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, u quyidagi holatlarida qo'llaniladi.

1. Tadqiqotchi sinab kurmoqchi bo'lgan material o'quvchilar yoshiga va bilim saviyasiga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlashda.

2. Maktab geografiya kurslaridagi biror mavzuni o'rganishda tavsiya etilgan yangi metodlar va ko'rgazmali qo'llanmalarni birgalikda qo'llashning samarasini aniqlash zarurati tugilganda va boshqalar. Boshqacha qilib aytganda, bu eksperiment ta'lim va tarbiya jarayonini ilmiy nuqtai nazardan, tajribalar yordamida sinab ko'rish zaruriyati tugilganda qo'llaniladigan metoddir.

Eksperimentning muvaffaqiyatli o'tishi avvalo uning maqsadi qanchalik puxta rejalashtirilganligiga, tadqiqot faraziga, hamda yangilikni o'zida qanchalik puxta mujassamlashtirganligiga bog'liq. Tadqiqotlarda o'rtaga tashlangan faraz o'z ichiga o'quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni hamda usha bilim va ko'nikmalarni puxta o'zlashtirishga yordam beruvchi usul va vositalarni ham o'z ichiga olishi kerak. Pedagogik eksperiment xilma-xil tarzda kuyilishi mumkin. Uni belgilariga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

1. Vaqtga nisbatan: uzoq va qisqa muddatli

2. O'rganilayotgan hodisalar tarkibiga ko'ra: oddiy va murakkab

3. Tashkil etish jarayoniga ko'ra:

a) laborotoriyada alohida o'quvchilar guruhi bilan o'tkazish

b) tabiiy (butun sinf bo'yicha yoki bir necha maktabning turli sinflari bilan)

v) kompleks tarzda (laborotoriya sharoiti va tabiiy eksperimentlarni o'z ichiga olgan holda)

Eksperiment uyushtirishning muhim shartlaridan yana biri, farazga (gipoteza) muvofiq o'quv uslubiy (o'quv matnlari, topshiriqlar, tarqatma, didaktik) materiallar yaratishdan iborat. Chunki bularsiz eksperiment uyushtirish qiyin. eksperiment uyushtirishning eng keng tarqalgan usullaridan biri eksperiment va nazorat sinflar tashkil qilish hisoblanadi. Bunda eksperiment sinflarda o'quv materiali tadqiqot chi tavsiya etgan yangi metod va usullar yordamida uyushtiriladi. Nazorat sinflarda esa ta'lim an'anaviy usulda olib boriladi. Har ikkala sinflarda o'quvchilar soni, ularning bilim saviyasi o'quvchilarning metodik maxorati deyarli bir xil bo'lishi kerak, aks holda eksperimentdan ko'zlangan natijaga erishish qiyin bo'ladi.

11.1-jadval. Geografiyadan metodik tadqiqot bosqichlari

(Pancheshnikova bo'yicha)

№	BOSQICHLAR	MISOLLAR
1.	Tadqiqotning bosh mu-ammosi (adabiyotlarni va maktab tajribalari)ni o'rganishni belgilash	O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy geografiyasi darslarida darslik bilan ishlash usullari (9-sinf)
2.	Farazni ilgari surish	O'quvchilar bilim va ko'nikmalarning sifati yuqori bo'ladi. Kachonki: a) ular darslik tuzilishi va uslubiy yo'nalishi bilan tanish bo'lsa; b) turli usullarni qo'llash yo'l-yurigini o'zlashtirgan bo'lsa; v) darslik, yangi materialni o'rganishjarayonida, bilimlarni tekshirish va umumlashtirishda keng qo'llanilsa; g) darsda darslikdagi matn,raqamli materiallar, kartalar, rasmlar, savollar va topshiriqlar bilan muntazam ishlab borilsa.
3.	Asosiy muammo va farazni tekshirish uchun tadqiqot vazifalarini aniqlash	Ishning samarali usullarini aniqlash matn bilan ishlash -karta va rasmlar bilan ishlash -darslikdagi savol va topshiriqlar bilan ishlash
4.	Tadqiqot metodlarini tanlash	Darsda kuzatish eksperiment orqali darslikni uslubiy jihatdan qandaytuzilganini tahlil qilish
5.	Eksperiment materiallari	Darslarni rejalashtirish, mustaqil ishlar uchun tarqatma didaktik materiallar, o'quvchilarning amaliy ishlarini bajarishlari uchun ko'rsatmalar tayyorlash
6.	Eksperimentni uyushtirish	Eksperimental sinflarda darslik bilan muntazam ravishda ishlash, nazorat sinflarda esa darslikdan ananaviy usulda foydalaniladi.
7.	Tadqiqot xulosalarini (yakunlash)	Xulosada darslik bilan darsda ishlash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarga qandayta'sir qilganligi, darslik bilan ishlashda qanday usullar eng samarali ekanligi haqida fikr yuritiladi.
8.	Olingan natijalarning amaliy ahamiyatini belgilash	Tadqiqot natijalari geografiya o'qituvchilari uchun darslik bilan ishlashda uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar belgilash va ilgari surish bilan yakunlanadi.

Eksperiment nazariy g'oyalarining qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini isbotlashga yordam beruvchi jarayondir. Demak, eksperiment, shunday tadqiqot usuliki,unda pedagogik

jarayonning ob'ektiv qonuniy aloqalari tadqiq qilinadi. Barcha metodika fanlari qatorigeografiya ta'lim metodikasining kelajakdagi taraqqiyotini ham eksperimentlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Odatda nazariya va empirik tadqiqot birgalikda qo'llaniladi. Chunki tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan barcha usullar tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, umumlashtirish, abstraksiya kabi mantiqiy vositalar yordamida amalga oshiriladi. Uslubiy tadqiq jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Bular professor L.M.Panchenikova tadqiqotlarida atroflicha eritilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat. Bular muammoning kuyilishi, tadqiqot asosi ob'ektini tanlash tadqiqot ning maqsad vaziflarini belgilash, ish farazini ilgari surishdan iborat. Kuzatish va eksperimental ishlar tadqiqot bosqichlarining asosini tashkil qiladi. Tadqiqot yakunida olingan ma'lumot va bilimlar umumlashtiriladi va tadqiqot natijalari tajriba tekshiruvlaridan o'tkaziladi. Geografiyadan metodik tadqiqotlarni quyidagi bosqichlarda tashkil qilish maqsadga muvofiq.

13-ma'ruza. Geografiya maydonchasi va xonasi

Reja

1. Geografik maydonchani o'quv jarayonidagi ahamiyati.
2. Geografik maydonchani loyihalash va qurish, maydonchada asbob va vositalarni joylashtirish.
3. Geografiya xonasining o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati

Tayanch iboralar

Astronomik jihozlar, geografik maydoncha, matematik sektor, topografik sektor, meteorologik sektor, geografiya xonasi

1. Geografik maydonchani o'quv jarayonidagi ahamiyati.

Maktabda astronomik, meteorologik, fenologik va boshqa kuzatishlarni olib borish uchun eng avvalo geografiya maydonchasini tashkil etish lozim. Geografiya maydonchasini "Tabiat laboratoriyasi" deyish mumkin, chunki geografiya maydonchasida o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilar bilimni puxta bo'lishini ta'minlaydi, turli asboblarni bilan ishlashga doir ko'nikmalarni hosil bo'lishiga yordam beradi. O'quvchilar geografiya maydonchasida tabiat hodisalarini kuzatishga, ijtimoiy-foydali mehnat qilishga o'rganadilar. Maydoncha geografiya ta'limida o'quv-tarbiya jarayonining eng muhim ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarni tabiat va unda bo'ladigan hodisalarni muntazam kuzatishga jalb qiladigan muhim vosita hisoblanadi. To'g'ri, bunday kuzatishlarning ayrimlarini har qanday maktab atrofida maydonchasiz ham uyushtirsa bo'laveradi. Ammo bunday kuzatishda bevosita zarur bo'lgan asbob uskunalardan foydalanish imkoniyati juda zaif bo'ladi.

Maktab geografiya maydonchasi ta'limni ko'rgazmali va qiziqarli olib borishda, o'quvchilarga chuqur bilim va tarbiya berishda katta ahamiyatga ega. Maydonchada olib boriladigan ishlar ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi. O'quvchilarning darsda olgan bilimlarini

mustahkamlaydi. Maktabda ayrim dars mavzularini va amaliy ishlarni, masalan, VI sinfda o'tiladigan joyda masofani va balandliklarni o'lchash, ayrim tabiiy jarayon va hodisalarni modellashtirish, astronomik va meteorologik kuzatishlar olib borish, joyda orientir olish va boshqalarni geografiya maydonchasida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Geografiya maydonchasida ishlash o'quvchilarda geografik tushunchalarni shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qiladi, ilmiy tekshirishlarni o'tkazish uslubiyoti bilan tanishtiradi.

Geografiya maydonchasida olib borilgan ishlarning natijasida to'plangan ma'lumotlar o'lkashunoslik ishlarini yaxshilaydi. Ular asosida maktabda geografiya burchagi tashkil qilib, u keyinchalik o'lkashunoslik ko'rgazmasi yoki muzeyiga aylantirilishi mumkin. Geografiya maydonchasini tashkil qilish, uni astronomik, meteorologik va boshqa asboblardan jixozlash, unda turli amaliy ishlar va kuzatishlarni amalga oshirish tabiiy geografiya kurslarining mazmunidan kelib chiquvchi maktab zaruriyatidir.

Maktabda geografiya maydonchasini tashkil qilish uchun eng avvalo joy tanalanadi, so'ngra uning kattaligi va unda joylashtiriladigan jixozlarning miqdori aniqlanadi. Etishmagan ayrim jihozlarni maktabning o'zida o'quvchilar bilan birgalikda tayyorlanishi mumkin. Geografiya maydonchasida o'quv dasturlariga mos holda fazoviy tushunchalar, joyda orientir olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, gidrogeomorfologik hodisalarni tushuntirish, meteorologik va astronomik kuzatishlarni bajarishga imkon beruvchi o'quv jihozlari joylashtiriladi. Ushbu jihozlarni quyidagi 4 ta guruhga ajratish mumkin:

1. O'quvchilarda fazoviy tasavvurlarni shakllantiruvchi jihozlar. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin: yo'lakchali panjara, balandlik o'lchagich, kvadrat metr, kub metr.

2. Joyda orientir olish ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi jihozlar: gnomon, mahalliy meridian va parallel modeli, rumb azimutlar xalqasi, yo'nalishlar doirasi.

3. Meteorologik jihozlar. Bunga quyidagilar kiradi: meteorologik budka, psixrometr, maksimal termometr, minimal termometr, sochli gigrometr, Vild flyugeri, barometr – aneroid, qor o'lchagich reyka.

4. Astronomik jihozlar. Bunga quyidagilar kiradi: qutb yulduzi ko'rsatkichi, vertikal burchak o'lchagich, ekvatorial Quyosh soati, gorizontal Quyosh soati.

Keyingi o'n yilliklarda maktablarda geografiya maydonchasi o'z ahamiyatini deyarli yo'qotib qo'ydi. Shuning bilan bir qatorda, ularning mavjudlaridan ham o'quv tarbiyaviy ishlarida foydalanish samaradorligi nihoyatda pasayib ketdi. Bu o'quvchilarning dastur talab etgan ko'pgina amaliy ko'nikma va malakalarni zaif yoki umuman o'zlashtira olmasligiga sabab bo'lmoqda. Maktabda o'qitiladigan tabiiy geografiya kurslarining aksariyat mashg'ulotlarini geografiya maydonchasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jumladan joyda masofalarni aniqlash, tabiiy hodisa va

jarayonlarni modullashtirish, kuzatishning ayrim turlarini uyushtirish, o'quvchilarda fazoviy tasavvurlar kabi ko'nikma va malakalar hosil qilish maydoncha orqali sifatli shakllantiriladi. Ularni amalga oshirish uchun ochiq havoda tashkil etilgan o'quv laboratoriyasi yaxshi yordam beradi.

Geografiya maydonchasidagi amaliy ishlar o'quvchilarda aniq tasavvur va tushunchalar hosil qilishda, ular egallagan bilimlarni oydinlashtirish va tizimlashda katta ahamiyatga ega. Maydoncha o'quvchilarni ilmiy-tadqiqot metodlari bilan tanishtirishda, cheksiz imkoniyatlar yaratadi. Geografiya maydonchasida olingan natija va materiallardan, o'lkashunoslik ishlarini bajarishda to'garaklar faoliyatida foydalanish mumkin. Bunday materiallardan o'lkashunoslik muzyoyidagi geografik eksponatlarni boyitishda ham qo'llasa bo'ladi. Demak, geografiya maydonchasida bajariladigan ishlar bevosita maktab ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj o'quv jarayonining maqsadi va mazmunini o'zida aks ettiradi.

Maydoncha metodik talablar asosida tashkil qilingandagina yuqori natijalarga erishish mumkinligini hayot isbotlamoqda. Aksariyat ilg'or geografiya o'qituvchilari geografiya maydonchalarini tashkil qilish va undan samarali foydalanish yo'llarni izlash borasida tinimsiz izlanishlar olib bormoqdalar. Buning uchun ular maydonchani nihoyatda optimal variantlarini yaratish, hamda, unda o'quv jihozlari, instrumentlar va boshqa vositalarni ilmiy asosda joylashtirish borasida ham harakatlar qilmoqdalar. Geografiya maydonchasining ahamiyati avvalo mezoni uning o'quv dasturi talab etgan bilimlarni va har xil kuzatishlarni uyushtirishga yaroqliligidadir. Maydoncha nafaqat o'quv dasturida ko'rsatilgan bilimlarni amalda qo'llash, balki sinfdan tashqariishlarni ham amalga oshirishga mo'ljallanganligidadir.

Geografiya maydonchasi uchun zarur o'quv jihozlarining miqdori va ular bilan ishlash yo'llari I.Abdug'aniev, V.Golov, K.Semakin, L.Kuzmin, F.Mo'minov va boshqa uslubchi geograflarning ishlarida yoritilgan. Keyingi yillarda ilg'or o'qituvchilar geografiya maydonchalarini jihozlash bo'yicha xilma-xil variantlarini ilgari surmoqdalar. Shunday variantlardan biri o'quv kompleks maydonchasidir. Bunday maydon o'quvchilarda fazoviy tassavur, ularda xilma-xil ko'nikma va malakalar hosil qilish, meteorologik va astronomik voqea va hodisalarni kuzatish, geologik, rel'ef, suv bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni o'rganish, topografik belgilarni joyning o'zida ko'rish va boshqalar.larni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi variantlarni hal qilish uchun 40 dan ortiq o'quv vositalari: modellar, priborlar, moslamalar, natural ob'ektlar zarur bo'ladi. Ba'zi tadqiqot chilar maydonchada qo'yiladigan vositalar 80 tadan kam bo'lmasligini tavsiya qiladilar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda o'quv kompleks maydoncha quyidagi sektorlardan tashkil topishi mumkin.

A. Matematik sektor. Bu sektor xududi tekis yuzadan iborat bo'lib, unda 10 ta ustun-stollar qo'yiladi. Ularga ko'chirib qo'yiladigan vositalar joylashtiriladi. Maydonchaning bu qismi astronomiya, geografiya, matematika fanlaridan frontal amaliy mashg'ulotlar uyushtirishda keng

ishlatiladi. Ayniqsa masofalarni va maydonlar hajmini aniqlash, burchaklarni o'lchash, berilgan masshtabdagi masofalarni aniqlash kabi ko'pdan-ko'p topshiriqlarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

B. Topografik sektor. Maydonchani bu qismida tog'lar va botiqlar xilma-xil botiqlar shakllari yasab qo'yiladi. Bu yerda joyda ko'z bilan chamalab va topografik plan olish kabi vazifalarni bajarish ham mumkin. Eng muhimi o'quvchilarni yer yuzasining asosiy shakllari bilan ham tanishtiriladi. Matematik va topografik sektorlar o'quvchilarni dalaga olib chiqish imkoniyati bo'lmagan shahar maktablari o'quvchilari uchun nihoyatda zarur. Bu sektor nafaqat shahar balki, qishloq maktablari uchun ham juda foydalidir.

S. Astronomik sektor. Bu sektorda ochik maydonda teleskop o'rnatish uchun ustun-stollar bo'ladi. Quyosh yorug'ligini kuzatish, uning energiyasini o'lchash kabi vazifalar bajariladi. Maydonchani bu qismi osmon jismlarini vizual va fotografik kuzatish uchun zarur.

Matematik geografiya va amaliy astronomiya sektori. Bu sektorda tabiat, tabiiy geografiya va astronomiya fanlaridan amaliy mashg'ulotlar uyushtiriladi. Ustun-stollarga zarur priborlar o'rnatiladi, toki o'quvchilar ulardan mustaqil foydalana olsinlar.

Meteorologik sektor. O'qituvchi rahbarligida kundalik ob-havoni muntazam kuzatish uchun tashkil etiladi. Ob-havoni kuzatishda barcha o'quvchilar navbatma-navbat qatnashishlari kerak. Kuzatish dasturining mazmuni tabiatshunoslik, geografiya, fizika o'qituvchilari tomonidan tuziladi.

Yer magnetizmi va elektr holatini kuzatish sektori. Bu sektor fizika fani uchun ko'proq zarur bo'lib, unda asosan fizika to'garagi a'zolari ish olib boradilar.

Yuqoridagi o'quv kompleks maydonchasida geografiya, matematika, tabiatshunoslik, biologiya, fizika fanlari o'qituvchilari ham har xil kuzatishlarni o'tkazishlari mumkin.

Ayrim maktablarda o'quv-ishlab chiqarish maydonchalarini ham tashkil qilish tajribalari mavjud. Bunday maydonchada agrometeorologik xizmat, atrof muhitga oid o'lchov kuzatuv ishlari olib boriladi. Ularning bergan ma'lumotlari ishlab chiqarish uchun zarur ma'lumotlar sifatida qo'llanilishi ham mumkin. Geografiya fani dasturlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu fan bo'yicha geografiya maydonchasida olib boriladigan majburiy kuzatuv va boshqa ishlar hajmi unchalik katta emas.

Geografiya ta'limi bo'yicha maydonchada olib boriladigan ishlar quyidagilardan iborat.
Bular:

- Ob-havoni kuzatish va o'lchashga oid ishlar
- Mahalliy meridian yo'nalishni aniqlash
- Quyosh vaqtini va ufq tomonlarini aniqlash
- Quyoshning tushki va boshqa paytlardagi ufqdan balandligini aniqlash

- Har xil rel'ef shakllarini amalda bajarish, ya'ni ular modellarni yasash
- Hidrologik ob'ektlar va hodisalar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni aks ettirish va boshqalar.

Maydonchada toshlar, qumlar, tuproq uyumlarining bo'lishi har xil ob'ekt va hodisalarni bir zumda ular modellarini yasab berish imkoniyatini yaratadi. Geografik maydonchada minimum o'quv jihozlari bo'lishi zarur. Maydoncha o'quvchilarda joyning o'zida fazoviy tasavvur, tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur. Maktabni bitirib chiqayotgan o'quvchi joyda orientirovka (mo'ljal) olish, oddiy meteorologik va astronomik kuzatuvlarni bajara olishlari maqsadga muvofiq. Geografik maydoncha tashkil qilish imkoniyati yo'q bo'lgan maktablarda, kichkina joyda meteobudka, shamol o'lchagich (flyuger) bo'lishi shart. Quyida geografiya maydonchasida o'rnatiladigan ba'zi moslamalarning qisqacha to'xtaymiz.

Fazoviy tasavvurlarni shakllantiradigan moslamalar. Bunday moslamalar quyidagilardan iborat. Yo'lakchasi bo'lgan to'siq o'lchagich-bu vosita orqali qadam uzunligi, ko'z bilan chamalab o'lchash, masofalarni har xil usularda o'lchash kabi ishlarni bajarish mumkin. Maydonchani o'rab turgan to'siqning balandligi 1,2 m, 1,5 m bo'lish zarur. Uni balandligiga ko'ra ikki xil qora va oq ranga bo'yalishi maqsadga muvofiq. Eni 100 sm bo'lgan yo'lakcha maydoncha tashqarisida uning atrofini o'rab turishi va yo'lakcha qiyaligi 1 - 2 gradusni tashkil qilsa yanada yaxshi. Yo'lakcha qum yoki mayda g'ishtlar, toshlar bilan qoplasa yog'ingarchilik paytlarida ham u ozoda va tartibli bo'lib turadi. Ustun - stolba -(balandligi 10 metr) u ham har metrdan oq va qora ranga bo'yaladi. Ustun stolba tepasiga flyuger o'rnatiladi.

Kvadrat metr - bu vosita yog'och yoki temirdan yasaladi. Ular haqiqiy kattaligini aks ettirilishi va qora ranga bo'yalib erga qoqilgan qoziq ustiga o'rnatilishi zarur. Maydonchani biron burchagiga to'siq bo'ylab bir biriga perpendikular holatda 10 va 100 m masofalar belgilanadi va ularga 10 va 100 m degan yozuvlar qo'yiladi. Bu etalon masofalar 1 ark va 1 ga maydonni aks ettiradi.

Kub metr - YOg'och taxtadan yasilib faner yoki temir list bilan qoplanadi. U qora ranga bo'yalib, yerga qoqilgan qoziq ustiga o'rnatiladi. Fazoviy tasavvurlarni shakllantiradigan vositalar geografiya, tabiat, matematika fanlarida va sinfdan tashqari paytlarida keng qo'llaniladi. Ko'nikma va malakalar shakllantirish uchun makonda orientirovka olishda qo'llaniladigan asboblardan ham foydalaniladi.

Gnomon-haqiqiy meridianni aniqlash uchun qo'llaniladi. U 40 x 30 x 30 m kattalikdagi taxtachadan yasaladi va oq ranga bo'yaladi. Taxtaning qisqa tomoniga shimol va janub tomonlar belgilanadi. Taxtaning janubiy tomonining qoq o'rtasiga balandligi 8 sm metall sterjen o'rnatiladi. Janubiy sektoriga (sterjen o'rtada qoladi) esa 1sm masofada yarim doirachalar tushiriladi (chiziladi). Gnomon balandligi 120 sm bo'lgan ustunga o'rnatiladi. Bu vosita quyoshning sutkalik ko'lminatsion eng yuqori balandligini, tush chizigini, haqiqiy meridianning

yoʻnalishini, ufqning asosiy va oraliq tomonlarini aniqlashda qoʻllaniladi. Gnomondan darsni oʻtish jarayonida ham foydalanish mumkin.

Mahalliy meridian va kenglik modeli. Uni gnomonga shunday oʻrnatish kerakki, bunda meridian yoʻnalishi tush chizigi yoʻnalishi bilan toʻgʻri kelishi kerak va parallel meridianning oʻrtasidan toʻgʻri burchak shaklida kesib oʻtishi kerak. Model loyihasini yasash juda oddiy boʻlib, uni yasash unchalik murakkablikni talab qilmaydi.

Maydonchada gnomon oʻrnatilgan joyda diametri 200 sm boʻlgan aylana chiziladi. Aylanaga ufqning 4 ta asosiy tomoni nuqtalar bilan belgilanadi. Bu nuqtalarga balandligi 200 sm (diametri 15 sm) boʻlgan stolbalar oʻrnatiladi. Stolbalarga SH, G, J, SHk tomonlar yozilgan kichkina taxtachalar mahkamlanadi. SH va J, Gʻ va SHq 2 - 3 mm diametrdagi sim bilan bir biriga perpendikular qilib birlashtiriladi. Bu simlar geografik kartadagi parallel va meridianlarni bildiradi. Tortilgan simlarga mahalliy uzunlik va kengliklar yozib quyilishi ham mumkin. Model 5-sinfda mahalliy meridian va parllesslarni koʻrsatishda qoʻllaniladi.

Rumbsimon doira. Ufq tomonlarini oʻrganishda qoʻllaniladi. Taxtacha yoki fanerdan diametri 25 sm boʻlgan doira yasaladi va u oq ranga buyaladi. Uning yuza tomoniga dyuralyumindan yasalgan aylanuvchi moslama mahkamlanadi. Unga ufq tomonlari 16 ta yoʻnalishni koʻrsatuvchi rasmlar chiziladi. Ularning oraliklariga esa SH, SH.SHk, SHk, J.SHk, J, JGʻ, Gʻ, SHGʻ yoʻnalishlar tushiriladi. Rumbsimon doira diametri 150 mm va balandligi 120 sm boʻlgan ustunga oʻrnatiladi.

Astrolyabiya. Bu asbob shtativga mahkamlanadi. Markazda kompas turadi. Azimut tushunchasini shakllantirishda plan olish va joyda moʻljol olishda qoʻllaniladi.

Astronomik jihozlar. Kutb yulduzi koʻrsatkichi. Undan shimoliy geografik qutbning oʻrnini aniqlashda foydalaniladi. Bu asbobni tayyorlash uchun erga balandligi 1,4 m, diametri 3 sm boʻlgan ustuncha oʻrnatiladi. Yuqori qismiga transportir va uzun tayoqcha – koʻrsatkich qoʻyiladi. Kechki payt koʻrsatkich Qutb yulduziga toʻgʻrilanadi va mustahkamlab qoʻyiladi. Bu asbob orqali gorizont tomonlarini, shimoliy qutbga boʻlgan yoʻnalishni va joyning geografik kengligini aniqlash mumkin. Qutb yulduzining burchak balandligi shu joyning geografik kengligiga tengdir, yaʼni transportirning markaziga oʻrnatilgan va uchiga shovun osilgan ipning holati shu joyning geografik kengligini burchak miqdorini koʻrsatib turadi. Uni maydonchanning III sektori janubiga joylashtiriladi.

Vertikal burchak oʻlchagich yoki eklimetr. Bu asbob yordamida vertikal joylashgan obʻektlarning burchagini, hamda quyoshning tush paytida ufqdan balandligini oʻlchashda qoʻllaniladi. Undan darsda va sinfdan tashqari paytlarda foydalaniladi. Maydonchada u ustunga oʻrnatiladi asbobdagi truba (teshikcha) quyoshga yoʻnaltirilgan boʻladi. Quyoshning tush paytidagi ufqdan balandligi ana shu teshikchani quyoshga yoʻnaltirish orqali topiladi.

Ekvatorial quyosh soati - Bu asbob yordamida haqiqiy vaqt aniqlanadi. Bu soatni yasash uchun bir xil kattalikdagi (400 x 400 mm) 2 ta faner tayyorlanadi. Ular bir biriga mahkamlanadi. Taxtachalar oq ranga bo'yaladi. Ustki taxtachaga doiracha yasalib u 8 ta qismga bo'linadi. Doira markazida balandligi 10 sm.lik moslama o'rnatiladi. Doiraga 0 dan 21 gacha belgilar qo'yiladi. Taxtalar bir biriga nisbatan 90 burchak ostida-(minus joy kengligi) qilib o'rnatiladi. Bu soat 100 - 120 sm balandlikdagi ustunga o'rnatiladi. Pastki taxtacha gorizontal holatda qo'yiladi. Bunda markazda 10sm balandlikda o'rnatilgan sterjendan tush paytida tushadigan soya soat siferblatidagi 12 raqamiga to'g'ri kelishi kerak. Bu asbob mahalliy vaqtni 21 martdan 23 sentyabrgacha bo'lgan davr oraligida ko'rsatib turadi. Boshqa oylarda undan foydalanib bo'lmaydi, chunki bu vaqtda soat o'qining soyasi siferblatga pastki tomondan tushadi. Ekvatorial Quyosh soati geografiya maydonchasining shimoli-sharqiga joylashtiriladi.

Gorizontal quyosh soati. - Juda oddiy vosita bo'lib, maktab sharoitida ham tayyorlanishi mumkin. Undan yil davomida mahalliy vaqtni aniqlashda foydalaniladi. Bu asboblarni yasash uchun kattaligi 400 x 200 mm bo'lgan yog'och taxta olinib, oq bo'yoqqa bo'yaladi va uning o'rtasidan chiziq tortiladi. Taxtaning chekkasidan 5 sm masofada, o'rtasidan o'tkazilgan chiziqqa asosi taxtaning kengligini $\frac{1}{4}$ qismidan katta bo'lmagan uchburchak o'rnatiladi. Uchburchakning janubga qaragan o'tkir burchagi joyning geografik kengligiga teng bo'ladi. Uchburchakning uchi markaz qilib olinib, taxtachaga yarmini doira chiziladi va unga siferblat yoziladi. Uchburchakning asosidan yarim doiraga o'tkazilgan to'g'ri chiziqqa 12 raqami yoziladi. Bu chiziqqa uchburchak asosidan perpendikulyar qilib o'tkazilgan chiziqni doira bilan kesishgan nuqtalariga 6 va 18 raqamlari yoziladi. Boshqa soat raqamlari esa quyidagicha topiladi: mahalliy vaqtni aniq ko'rsatuvchi oddiy soat bo'yicha har soatda (ertalabki 6^{00} dan boshlab) asbob uchburchagining siferblatga tushgan soyasi chizilib, unga soat raqami yoziladi. Soat raqamlarining chiziqlarini burchak miqdorlarini tayyor jadvallardan ham olish mumkin. Gorizontal Quyosh soati balandligi 1,2 m bo'lgan ustunchaga soat 12 raqamini ko'rsatuvchi chizig'i tush chizig'i yo'nalishiga moslashtirilgan holatda o'rnatiladi. Ekvatorial va gorizontal Quyosh soatlari haqiqiy Quyosh vaqtini ko'rsatadi. Biz foydalanadigan doimiy soatlar esa o'rtacha vaqtni ko'rsatadi. Shuning uchun Quyosh soatlarining ko'rsatishi bilan biz foydalanadigan soatlar o'rtasida ma'lum farqlar bo'ladi.

Meteorologik jihozlar: Meteorologik budka. Asboblarni joylashtiradigan vosita bo'lib, u sanoat asosida va qo'lda yasalishi mumkin. Budka loyihasi 50 x 50x70 sm kattalikda tayyorlanadi. Uning ichki qismiga asboblarni o'rnatadigan shtativ qo'yiladi. Budkaning yon tomonlaridagi taxtachalar o'ziga xos ravishda joylashtiriladi va jelyuz shaklida bo'ladi. Meteobudka yer yuzasidan 2 m balandlikda o'rnatiladi. Budka ichkarisiga Barometr-aneroid BR-52, soch tolasi gigrometri MV-1, termometr (maksimal va minimal) joylashtiriladi. Yuqoridagi asboblar geografiya ta'limida qo'llanilish majburiy bo'lgan ta'lim vositalari hisoblanadi. Asboblarning aniq ishlashini ta'minlash

uchun ularga quyosh tushmasligi va uning eshikchasi albatta shimolga qarab ochilishi zarur. Budka tashkarisi oq rangga buyalishi shart. Unga daraxt, binolar va boshqa ob'ektlarning soyalari tushmasligi kerak.



1-rasm. Metereologik budka

Maksimal termometr – simobli bo‘lib havoning eng yuqori haroratini o‘lchash uchun ishlatiladi. Uzunligi 35 sm, shkalasining har bir bo‘limi $0,5^0$ ga teng. Undan hisob olib bo‘lingach, qo‘lga olib, 2-3 marta silkitib, yana gorizontol holatda joyiga qo‘yiladi.



2-rasm. Maksimal termometr TM-1


Flyuger. Shamol yo‘nalishi va tezligini o‘lchaydigan asbob. Maktablarda Vilda flyugeri keng qo‘llaniladi. Bunday flyuger 8 - 10 m balandlikdagi ustunga mahkamlanadi. Flyuger maydonchanning qoq o‘rtasiga o‘rnatilishi kerak. Bu yerda ufq tomonlari ochiq ko‘rinib turishi zarur. Flyugerda shamol paytida ko‘tarilib va pasayib turuvchi taxtacha bo‘ladi. U shamol kuchini ko‘rsatadi. 90 gradusli eyda 8 ta tishdan iborat bo‘lgan shtift mavjud. Har bir shtift shamol tezligi necha ball ekanligini ko‘rsatadi.



3-rasm. Termograf


Termograf – havo haroratini uzluksiz holatda – sutka yoki hafta davomida lentaga yozib borish uchun qo‘llaniladigan asbob. Lentaga qayd qilingan chiziqlardan haroratni o‘zgarishi aniqlanadi.

Sochli gigrometr – havoning nisbiy namligini o‘lchash uchun ishlatiladi. Unda tabiiy soch tolasidan foydalaniladi. Soch tolasi har xil yog‘ va kirlardan tozalangandan so‘ng, u havodagi namning o‘zgarishi natijasida, ya‘ni nam ko‘paysa uzayadi, nam kamaysa qisqaradi. Asbobni psixrometrik budkaga dastlab o‘rnatishda strelkasi psixrometr yordamida aniqlangan, nisbiy namlik miqdori bo‘yicha shkalada to‘g‘rilab qo‘yiladi. Keyingi vaqtlarda asbobning ko‘rsatishi bilan to‘g‘rilab boriladi. Bizning sharoitimizda gigrometrdan asosan qish oylarida foydalanish maqsadga muvofiq.




4-rasm. Sochli gigrometr

Gigrograf – havodagi nisbiy namlikni sutka yoki hafta davomida uzluksiz yozib borish uchun ishlatiladigan asbob. Korpusining orqa tomoniga soch tolasidan iborat kronshteyn o‘rnatilgan. Soch tolasining bir uchi strelkaga, ikkinchi uch esa kronshteynga o‘rnatilgan. Havoning namligi o‘zgarganda soch toalsi uzayadi yoki qisqaradi. Natijada strelka uchidagi siyohli pero lentaga chiziqlar chizadi. Asbob strelkasining holati dastlab psixrometr ko‘rsatishi bo‘yicha aniqlanadi.




5-rasm. Gigrograf

Vild flyugeri – shamolning yo‘nalishi va tezligini aniqlashda foydalaniladigan asbob. U maydonchanning janubi-g‘arbiy sektorining o‘rtasida, gorizont tomonlari yaxshi ko‘rinadigan va shamol to‘silmaydigan ochiq joyda 8-10 m balandlikda o‘rnatiladi. Uning ustunidan balandlik o‘lchagich sifatida fodalaniadi. Flyugerni o‘rnatishda uning gorizont tomonlari ko‘rsatkichini gorizont tomonlariga moslashtirish kerak.



6-rasm. Vild flyugeri

Yog‘in o‘lchagich (osadkomer) – yog‘inlarning miqdorini o‘lchash uchun xizmat qiladigan asbob. U ikki dona paqircha, metall plastinkalardan tuzilgan to‘siq va o‘lchov stakanidan iborat. Paqirchanning yuqori qirrasini yer yuzasiga nisbatan 2 m balandlikda bo‘lishi kerak. Unda jo‘mrak va voronka mavjud. Yog‘in o‘lchagich imoratlar va daraxtlardan uzoqroqda bo‘lgan ochiq joyda joylashtiriladi. Yog‘in miqdori sutkada ikki marta: ertalab soat 7⁰⁰ va kech soat 19⁰⁰ da o‘lchanadi.



7-rasm. Tretyakov yog‘in o‘lchagichi

Nefoskop xalqasi – bulutlik miqdori va bulutlarning yo‘nalishini aniqlashda foydalaniladigan asbob. Uni yasash uchun velosiped g‘ildiragining gardishi olinib, to‘rt tomonidan sim o‘tkaziladi va simlarni 2 m balandlikdagi ustunlarga tortiladi. Xalqaning sim o‘tkazilgan joylari gorizont tomonlariga moslashtiriladi. O‘quvchi xalqa ostida turib, bulutlilik darajasi va bulutlarning harakatini kuzatadi.



8-rasm. Nefoskop xalqasi

Qor o‘lchagich (snegomer) – qor qoplaminig zichligi va undagi suv zaxirasini aniqlash uchun ishlatiladi. U quyidagi qismlardan iborat: hajmi 8 l bo‘lgan polietilen paqircha, 0 sm dan 50 sm gacha bo‘laklarga bo‘lingan qor o‘lchagich silindr, qor qoplaminig qalinligini o‘lchashda ishlatiladigan balandligi 160 sm li metall lineyka. Qor o‘lchagich yordamida qorning zichligi, so‘ngra qor suv zaxirasi anilanadi.

Barometr-aneroid havo bosimi o'zgarishini mm yoki mb hisobida o'lchashda foydalaniladigan asbob. Uning yordamida o'lchangan bosimni miqdori hisobida bo'lsa, uni mb yoki 2 Pa ga aylantirish mumkin. Masalan, bosim 1000 mb bo'lsa, uni mm ga aylantirish uchun 0,75 ga ko'paytiriladi: $1000 \times 0,75 = 750 \text{ mm}$.




9-rasm. Barometr-aneroid

Barograf – atmosfera bosimini o'zgarishini sutka yoki hafta davomida uzluksiz yozib borish uchun ishlatiladi.



10-rasm. Barograf

Minimal termometr – biror vaqt ichida eng past haroratni o'lchash uchun ishlatiladi. U spirtli bo'lib, kapillyar naycha ichida qora rangli shtiv (shisha cho'p) bo'ladi. Uzunligi – 30 sm, shkalasi 21° dan 71° gacha bo'ladi. Hisobga olib bo'lgach, shtivni pastga tushirib yuboriladi va gorizontal holatda joylashtiriladi.



11-rasm. Minimal termometr TM-2

Chashkasimon anemometr - (fussa) SHamol tegirmoniga o'xshash bo'lib, shu prinsipda ishlaydi. Chashkalar (yarim sharlar) vertikal o'z atrofida aylanadi. Aylanish oborati tezligi o'lchagich bilan aniqlanadi. Anemometr shamolga qo'yiladi va u doimiy essa uning o'lchagichi ochiladi. Shamol tezligi asbobga ilova qilib berilgan jadval bilan aniqlanadi.

2. Geografiya maydonchasini loyihalash va qurish, maydonchada asbob va vositalarni joylashtirish.

Geografiya maydonchasida jihozlarni joylashtirish ko'p jihatdan uning kattaligiga bog'liq. Maydonchanning kattaligi bo'yicha har xil fikrlar mavjud. Metodist N.K.Semakin maktab joylashgan sharoitga ko'ra maydonchanning 3 ta variantini taklif qiladi (25x15, 15x15, 12x12). Maydoncha loyihasi texnika taraqqiyoti va fan mazmuni yangilanishi bilan o'zgarib turadi. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi kunda barcha maktablar uchun yagona bo'lgan maydonchanning tipovoy loyihasi mavjud emas. Maydonchani barpo etishda har bir o'qituvchi unga ijodiy yondoshgan holda bajarmoqda.

Maydonchanning kattaligi, maksimum o'quv vositalari va asboblarini joylashtirish imkoniyatini berishi kerak. U juda kattalashib ketmasligi va haddan tashqari kichkina ham bo'lib qolmasligi ham kerak. Maydonchani tashkil qilishda predmetlararo aloqalar va maktabning ichki imkoniyatlari ham e'tiborga olinishi zarur. Maydonchani tashkil qilishda quyidagi talablarga rioya qilinishi zarur.

1. Maydoncha kattaligi bir paytda butun sinf o'quvchilari bilan mashg'ulot o'tkazishga imkoniyat berishi;

2. Kuzatuv nuqtalari orasidagi masofa o'quvchilarning vazifalarni bajarishi vaqtida bir biriga halaqit bermaydigan darajada bo'lishi;

3. Jihozlarni joylashtirishda asboblar va o'lchov asboblarining sifatli ishlashlari ta'minlanishi kerak;

Maydoncha kattaligining eng maqbul varianti metodist olim N.K.Semakin taklif qilgan (12x12) holatda barpo etish maqsadga muvofiqroq. Bunday kattalikdagi maydoncha geografiya dasturi talab qilgan barcha asbob va vositalarni joylashtirish imkoniyatini beradi. eng muhimi maydoncha o'quvchilarning asboblar bilan ishlash imkoniyatlarining minimum natijasini yaratishi zarur. Geografiya maydonchasida jihozlarni joylashtirish tasodifiy bulmay balki, bir necha kichik guruhlarining unumli ishlashi uchun ham imkoniyat yaratishi kerak. Jihozlar va vositalardan bir-biriga o'tilganda, kuzatuvchilar bir birga halaqit bermasliklari ham kerak. Geografiya maydonchasida quyidagi asboblar va vositalar joylashtiriladi.

1. To'siq o'lchagich. 2. O'lchamli yo'lakcha. 3. Mahalliy tuproqlardan namunalar. 4. Maxalliy tog' jinslaridan namunalar. 5. Kvadrat metr. 6. Kub metr. 7. Reper. 8. Flyuger, stolba, rostomer. 9. Nefoskop. 10. Meteorologik budka. 11. Osadkomer. 12. Qor o'lchagich. 13. Astrolyabiya. 14. Eklimetr. 15. Qutb yulduzi. 16. GorizontaL quyosh soati. 17. Ekvatorial quyosh soati. 18. RumbSimon doira. 19. Gnomon. 20. Paraller va meridianlar modeli. 21. Qum yashik. 22. O'quvchilar o'tiradigan joy. 23. Sinf doskasi. 24. O'qituvchi ish joyi.

Fazoviy tasavvurlarni shakllantirishga mo'ljallangan asbob uskunalar maydonchanning

shimoliy-g'arbiy qismida joylashtirilishi kerak. Bunda flyugerni shunday joylash kerakki, shamol tezligini o'lchash paytida uning hamma tomonidan o'tish imkoniyati bo'lsin.

Meteorologik asboblari. Juda ixcham joylashtirilishi zarur, toki o'quvchilar ularni kuzatishga qisqa vaqt sarflasinlar. Meteobudka maydonchani janub qismida joylashtirilishi va ular eshiklari shimol tomonga ochilishi e'tiborga olinishi zarur. Quyoshning ufqdan balandligini aniqlaydigan asboblari, mahalliy meridianning tush paytidagi chizigini aniqlashga oid jihozlari soyada qolib ketmasligiga e'tibor berish zarur. Maydonchada mashg'ulotlarning samarali bo'lishini ta'minlash uchun albatta o'quvchi va o'qituvchi uchun o'rindiklari bo'lishi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Maktab geografiya maydonchasini tashkil etishda 3ta ketma-ketlikdagi bosqichni ajratish mumkin.

1. Tayyorgarlik bosqichi
2. Tashkiliy bosqich
3. Asosiy qurilish bosqichi

Tayyorgarlik bosqichida maydonchada qo'yiladigan jihozlari tarkibi aniqlanishi, yasaladiganlari yasalishi, sotib olinadiganlarining esa ruyxati va harajatlar smetasi tuzilishi kerak. Tayyorgarlik bosqichidagi ishlarning deyarli barchasi o'qituvchi zimmasiga tushadi. Tashkiliy bosqichda maydonchani jihozlash uchun maktab ma'muriyati, ota-ona yordami, u yoki bu ishlarni bajaruvchilar ro'yxati tuziladi. Barcha ishlar qat'iy grafik asosida bajarilmaydigan maydonchani barpo etishda talay qiyinchiliklari vujudga kelishi mumkin.

Tayyorgarlik va tashkiliy ishlar amalga oshirilgach qurilish ishlari boshlab yuboriladi. Bunda quyidagi ishlar bajariladi.

1. Maydoncha uchun joy tanlash, chegaralarni belgilash, joyni nivelirlash, tanlangan joy baland binolardan uzoqda havo va shamol yo'nalishlari erkin o'tib turadigan joyda va eng muhimi shimol va janub yunalishi ochik bo'lishiga e'tibor qaratish zarur. Maydonchadan ufq tomonlari ham aniq ham ko'rinib turishi shart. Maydonchani tekis joyda ko'rish maqsadga muvofiq.

2. Jihozlari va asboblarni o'rnatish uchun joy tanlash.
3. Ko'chirib yuriladigan asbob va vositalarni o'rnatish.
4. Maydonchani obodonlashtirish.

Maydoncha atrofi balandligi 120 - 150sm bo'lgan to'siq bilan o'ralishi kerak. Maydonchaga kirish eshigi albatta qulflanadigan bo'lishi zarur. To'siq oq rangga bo'yalishi maqsadga muvofiq. Geografiya maydonchasining asosiy vazifasi o'quvchilarni dastur talab etgan amaliy ishlar va kuzatishlarni o'z vaqtida o'tkazish va bajarilishini ta'minlashdan iborat.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, geografiya maydonchasidan samarali foydalanish avvalo unda bajariladigan ishlarning aniq va puxta tashkil etilishiga bog'liq.

3. Geografiya xonasining o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati

O'quv jarayonida geografiya ta'limi vositalaridan samarali foydalanish bevosita geografiya xonasi orqali amalga oshiriladi. Geografiya xonasi deganda-ta'lim vositalari, mebel, texnika, kompyuter va har xil jihozlarni maxsus xonada samarali joylashtirish va ulardan ta'lim jarayonida oqilona foydalanishga tushuniladi. Geografiya ta'limida xona avvalo dars va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va uyushtirishning moddiy bazasi hisoblanadi.

Xonaning zarurligi aksariyat didakt va geograf - metodist olimlar tomonidan tan olingan. V.P.Budanov, A.A.Bazarov, A.S.Barkov, N.N.Baranskiy, V.A.Korinskaya, O.A.Mo'minov, P.G.Musaev va boshqalarning asarlarida geografiya ta'limida xonaning o'rni va roli atroflicha ochib berilgan. Geografiya xonasini jihozlash bo'yicha boy tajribalar to'plangan. Ijodiy ishlovchi geografiya o'qituvchilari, metodika xonasini jihozlashning xilma - xil variantlarini yaratganlar. Metodik adabiyotlarda geografiya xonasini jihozlash, tashkil qilish va undan foydalanishning ilmiy asoslangan taklif, mulohazalari yoritilgan. Ular geografiya xonasi, xilma-xil ta'lim vositalari o'quvchi va o'qituvchi o'rinlari, o'quv jihozlarini saqlash, texnika vositalarini harakatga keltirish, o'quv adabiyotlarini tartibli saqlash imkoniyatini beradigan murakkab sistema deb tan olingan. Ko'pgina geografiya o'qituvchilari xonalarni tashkil etishda talaygina xatolarga ham yo'l qo'yadilar. Ular quyidagilardan iborat.

1. Xonani jihozlashda ilmiy va metodik tavsiyalarga yetibor bermaslik;
2. Xonani texnika vositalari bilan to'la jihozlamaslik;
3. O'qituvchi va o'quvchining ish o'rinlarini jihozlashda gigiena, ergo-nomika va texnika qoidalariga rioya qilmaslik;
4. Ta'lim vositalarini noto'g'ri joylashtirish, xona fondidan samarali foydalanishni ta'minlashga yordam beradigan kartatekalarning yo'qligi;
5. Darsga tayyorlanishda kabinet imkoniyatlarini e'tiborga olmaslik va uni jihozlashda o'quvchilar imkoniyatlaridan foydalana olmaslik;
6. O'quv dasturlarini e'tiborga olmagan holda ta'lim vositalarini joylashtirish;
7. Kabinetni jihozlashda iqtisodiy hisob - kitoblarni e'tiborga olmaslik ta'lim vositalaridan pala-partish foydalanish va boshqalar. Eng muhimi geografiya xonasi mo'zeyga o'xshab kolmasligi, uning devorlariga har-xil rasmlar, sxemalar, kolleksiyalar osilib tashlanavermasligi zarur.

Ta'lim vositalari faqat darslardagina namoyish qilinishi kerak. Aks holda ular o'quvchi diqqatini buzadi va ularning darsga bo'lgan qiziqishlari so'ndiradi. Xonani jihozlashda maktab xonalarini jihozlash qoidalariga va yagona metodik tavsiyalarga bo'ysunilishi kerak. eng muhimi uni jihozlashda fanning o'ziga xos xususiyati, uning mazmuni, o'quv-tarbiyaviy vazifalari, o'quv moddiy bazasi albatta e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq.

Geografiya xonasini uch qismga bo'lishimiz mumkin:

- a) o'quvchilarni joyi
- b) o'qituvchini joyi;
- v) jixozlar.

O'quvchilarni ish joyi. Geografiya xonasida o'quvchilarni ish joyi ikki o'rindiqli stol va stuldir. Bu yerda asosiy antrolmetrik talab stol va stullarning balandligi o'quvchilar bo'yiga mos kelishi lozim. O'quvchilar stollarini joylashtirayotganda umumiy gegenik talablarga amal qilish lozim. Stol va stullarni uch qator qilib joylashtirgan ma'qul. Ular sinf taxtasidan 2 m uzoqlikda joylashishi zarur. Deraza va stollar hamda stullar qatori oralig'idagi masofa 60 sm dan kam bo'lmasligi lozim. Oxirgi qatoragi stullar bilan shkaflar orasida o'tish uchum masofa bo'lmog'i lozim. O'quvchilar stollarda bo'yiga qarab o'tirishi lozim.

Geografiya xonasida o'qituvchilarni ish joyi. O'qituvchi odatda o'rta qatorni boshida joylashadi. Uning ish joyi o'quv vositalarini namoyish qiladigan joy xisoblanadi. O'qituvchi o'tirgan joydan sinfni hamma tomoni va sinfdagi barcha o'quvchilar ko'rinib turishi lozim. O'qituvchini ish joyi quyidagi talablarga javob bermlg'i lozim.

1. Sinfni barcha tomoni hamda barcha o'quvchi nazaridan chetda qolmasligi lozim.
2. O'qituvchini stoli yonida o'quv vositalarini namoiy qiladigan yoki ulardan foydalaniladigan moslamalar bo'lmog'i lozim;
3. Geografiya darslarida ko'p xollarda asosiy o'quv vositasi sifatida haritadan foydalanilganligi uchun kartografik vositalarni namoyish qiladigan moslamalar bo'lishi e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

O'quv vositalarini namoyish qiladigan stolni balandligi 90 sm dan oshmasligi lozim, uning yuzasi esa 120x75 bo'lishi zarur. Namoyish stolida proeksiion apparatlarni, deraza pardalarini, haritalarni tushuntirib va ko'taradigan boshqaruv pultini joylashtirish mumkin. Namoyish stoli bilan birga o'qituvchi stoli ham bo'lmog'i lozim. Unda o'qituvchini kitoblari, daftarlari, darsgo oid materiallar va sinf jurnali joylashadi. Mazkur joyda o'qituvchi o'tirib ishlaydi. Stolning balandligi 75 sm, yuzasi 75x76 sm bo'lmog'i lozim. Geografiya xonasidagi sinf taxtasi o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan turli maqsadlarda foydalaniladi, ularni quyidagi guruxlarga bo'lishimiz mumkin:

- yozish uchun;
- chizish uchun;
- chizmalarni, diagrammalarni, xomaki haritalarni chizish uchun;
- jadvallarni, rasmlarni joylashtirish uchun;
- ekranli qo'llanmalarni joylashtirish uchun;
- o'qituvchi tomonidan topshiriqlar yozish;
- o'qituvchi tomonidan dars mavzusi rejasini yozish uchun.

Sinf taxtalarining o'lchamlari quyidagicha bo'lmog'i lozim: 180x1105xsm jadvallar va rasmlarni saqlash uchun yasalgan sandiqlarni o'qituvchi yaqin joylashtirilgani maqul.

Geografiya xonasida o'quv vositalarini joylash o'quv dasturi bo'limlari va va sinflar bo'yicha bo'lishi lozim. Buning uchun bo'limli shkaflardan foydalaniladi. Mazkur shkaflar olinadigan va qo'yiladigan tokchalardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari priborlarni saqlash uchun ham sandiqlar bo'lishi lozim. Shkaflarda kitoblar, jurnallar, audio vidio qo'llanmalar saqlanadi. Geografiya o'qitishni texnika vositalarini saqlash va ulardan foydalanish uchun moslamalar bo'lmog'i lozim. Masalan, diaproektorlar, kinoproektorlar, grofoproektorlar(plyonkalar bilan ishlash uchun).

Geografiya xonasida turli xil yo'nalishdagi kartotekalar albatta bo'lmog'i lozim. Ularni quyidagi guruxlarga bo'lishimiz mumkin:

-o'qituvchilarni darsga tayyorgarlik kartotekasi. Unda dars mavzusi, o'qitish metodlari va usullarini, vositalari, dars rejasi yozilgan bo'ladi;

-o'quv jarayoni kartotekasi;

--mavzular bo'yicha masala va mashqlar kartotekasi;

- yozma ishlar kartotekasi;

-mavzuli kartotekalar;

-qo'shimcha adabiyotlar kartotekasi;

-jurnallar va gazetalar kartotekasi;

-davlatlar kartotekasi va h.k.

Hozirga kunda faoliyat ko'rsatayotgan ko'pchilik maktablar loyihasida maxsus geografiya uchun xona mo'ljallanmagan. SHu tufayli ko'pchilik xollarda maktab sharoitidan kelib chiqqan xolda xona ajratiladi. Misol tariqasida ikkita variantdagi geografiya xonasi loyixasini ko'rib chiqamiz.

1. Laboratoriyaga ega bo'lmagan geografiya xonasi. Bunday xona oddiy sinf xonasidan iborat bo'lib, uning maydoni 50 kv.metrni tashkil etadi. Bu tipdagi xonaning oldingi qismida sinf doskasi turadi. Unga kartalarni namoyish qiluvchi moslama-yig'ma ekran osilgan bo'ladi. Xonaning orqa devorlaridan seksiyaga bo'lingan shkaflarda o'quv jihozlari saqlanadi. YOn devorlarida derazaga qarama-qarshi tomondan ekspozitsiya materiallari, buyuk geograf-sayyohlar, geograf-tadqiqot chilarning rasmlari qo'yiladi.

Geografiya xonasining taxminiy plani

1. O'quvchilar uchun stollar

2. O'quvchilar uchun stollar

3,4. O'qituvchining maxsus stol va stuli

5. Texnik vositalar (televizor, kompyuter, proektr) uchun moslama

6. Texnika vositalari qo'yiladigan moslama

7. Grafoproektor uchun joy

8. Universal sinf doskasi

9. Yig'iladigan ekran

10. Kartalar uchun kronshteyn

11. Yig'ma seksiyali shkaflar

12. Derazalarni avtomatik qorong'ilovchi pardalar, deraza tashqarisida meteobudka. Hozirgi zamon geografiya xonalari maydoni 60 - 66 kv.m.ni tashkil qiladi. Sinf doskasidan o'quvchining birinchi partasigacha 2500 - 2600 mm bo'lishi kerak. O'qituvchi stolidan o'quvchi stoligacha bo'lgan masofa esa 95-100smni tashkil qilishi lozim.

14-ma'ruza: Geografiya ta'limi vositalari

Reja

1. Ta'lim vositalari haqida tushuncha.
2. O'qitish vositalarining turlari.
3. Geografiya darsligi va u bilan ishlash texnologiyasi.
4. Geografiya darsligining tuzilishi.
5. Darslik bilan ishlash texnologiyasi.
6. Natural vositalardan foydalanish texnologiyasi.

Tayanch iboralar

Ta'lim vositalari, ta'limning texnik vositalari, yordamchi ta'lim vositalari, o'quv - uslubiy materiallar

1. Ta'lim vositalari haqida tushuncha.

Ta'lim vositalari o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi. Ta'lim vositalari 3 guruhga ajratiladi:

1. Ta'limning texnik vositalari (TTV) - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; o'quvchilarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.

2. Yordamchi ta'lim vositalari (YOTV) – geografik kartalar, grafiklar, chizmalar, namunalar va boshqalar.

3. O'quv - uslubiy materiallar (O'UM) - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlashga va o'quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi.

O'qituvchining asosiy vazifasi xonadagi mavjud ta'lim vositalaridan kompleks foydalanishni tashkil qilishdan iborat. Shuni ta'kidlash kerakki, qachonki ta'lim vositalaridan

kompleks foydalanilsa, xonadan foydalanish samaradorligi yuqori bo'ladi. Ta'lim vositalaridan kompleks foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Aniq tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi. (audovizual vositalar natural ob'ektlar, ko'rgazmali qo'llanmalar).

2. Geografik tushunchalarning shakllanish darajasini mustahkamlaydi. (kartalar, sxemalar, diagrammalar, har xil modellar va xakazo.)

3. Egallangan bilimlarni amalda qo'llash samaradorligini oshiradi. (turli ma'lumotnomalar bilan ishlash, tarqatma materiallar, kontur kartalardan foydalanish va hakozi.)

Ta'lim vositalaridan kompleks foydalanish darsning turli bosqichlarida, ya'ni yangi materialni o'rganishda, mustahkamlashda, takrorlashda qo'llanilishi mumkin. Mamlaktimizda mustaqillik yillarida talaygina o'quv vositalari yaratildi. Ma'lumki, geografiyani kartasiz tasavvur qilib bulmaydi. Ayniqsa umumiy o'rta ta'lim maktablarida kartasiz darslarni olib borish mumkin emas. Respublikamizda o'quv kartalarini tashkil etish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirildi. O'tish davrining qiyinchiliklariga karamasdan, O'rta Osiyo va Qozog'istonning tabiiy, O'zbekiston Respublikasining tabiiy, iqtisodiy, iqlim, ekologik aholi zichligi, dunyoning siyosiy ma'muriy va boshqa kartalarini nashr etish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirildi. 1999 yilda Prezident farmoyishi bilan O'zbekiston geografiya atlasini chop qilindi. 5-6-7-8-9 sinflar uchun geografiya atlaslari va konturli kartalar nashr etildi. Ammo dunyoning turli mazmundagi kartalari, globuslar va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalari nashr etishda sustkashlikka, yo'l qo'yildi. Yuqori saviyadagi geografiya darsliklari, o'quv metodik adabiyotlari-ni, atlas kartalar ta'lim vositalarini yaratish uchun muntazam ravishda tanlovlar e'lon qilib turish maqsadga muvofiq.

2. O'qitish vositalarining turlari

O'qitish vositalari-bu bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida o'quv jarayonini tarbiyaga kiritilgan turli xil bilim manbalaridir. O'quv dasturi bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali turli manbalardan olinadi. Ushbu bilimlar o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi va o'zlashtirishi uchun aniq bir pedagogik va metodik sharoitlar bo'lmog'i lozim. Mazkur maqdadni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quvchilarni bilish faoliyatini tashkil qilmog'i lozim. O'quvchilar bilim faoliyatini tashkil qilishga quyidagilar kiradi:

-eshitish;

-eshitgan geografik ma'lumotlarni belgilash;

-eshitgan geografik ma'lumotlarni eslab qolish;

-nashriy manbalardan ma'lumotlarni qabul qilish;

-kuzatish va h.k.

Umumta'lim maktablarida ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni echish maqsadida o'quv jarayoni tarkibiy vazifalarini echish maqsadida o'quv jarayoni tarkibiga kiritilgan bilim manbalari o'qitish

yoki o'quv vositalariga aylanadi. Masalan, tig' jinslari ochilmasi o'quvchilar tomonidan o'rganilgan taqdiridagina o'qitish vositalariga aylanadi.

O'qitish vositalari tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlarni shakillantirishda katta ahamiyatga ega. O'qitish vositalarining asosiy vazifasi bilim olish jarayonida ko'rgazmalilikni ta'minlashdir. Geografiya voqea va hodisalarni tasvirlash usuliga ko'ra o'qitish vositalari to'rt turga bo'linadi (I.S. Maratov, L.M. Pangeshnikova): a) natural obektlar; b) geografik borliq, voqea va hodisalarni tasvirlash; v) predmet va hodisalarni tasvirlash; g) tabiat xodisalarini tiklash va taxlil qilish uchun priborlar.

Natural, ya'ni tabiiy obektlarga quyidagilar kiradi:

-sinf sharoitida o'rganiladigan tabiat obektlari va inson xo'jalik faoliyati predmetlari (namunalar, gerbariyalar, sanoat va qishloq xo'jaligi maxsulotlari nmunalari);

-bevosita o'quv sayoxati jarayonida o'rganiladigan tabiiy obektlar va xo'jalik faoliyati maxsulotlari: bevosita tabiiy sharoitda o'rganiladigan obektlarga geografik ochilmalar; daryolavr, soylar, ko'llar, tuproqlar, o'simliklar va xayvonot dunyosi kiradi. Xo'jalik faoliyati maxsulotlariga ekinzorlar, polizlar, bog'lar, uzimzorlar va boshqalar kiradi;

Natural o'quv vositalari yordamida o'rganilgan predmet va xodisalar haqida bevosita tasavvurlar xosil qilinadi. Geografik voqea va hodisalarning tasviri quyidagi guruxlarga bo'linadi:

-tabiiy va xo'jalik obektlarining modellari. Ularga rel'ef shakillari, daryo vodiylari, botiqlar, tekisliklar, muzliklar, g'orlar, suv omborlari va boshqa xo'jalik obektlarining modellari kiradi;

- yassi ko'gazmaga qo'llanmalar. Mazkur vositalarga qo'yidagilar kiradi: devoriy rasmlar, portretlar, dialozitivlar, diafilmlar, kinofilmlar; kinolavhalar; vidiotasmalar va h.k.

Shartli belgilar yordamida geografik predmet va xodisalarni bayoni va tasviri (so'zli, belgili, sonli). Mazkur vositalar o'uyidagi guruxlarga bo'ligadi:

-verbal vositalar. Darsliklar, ma'lumotnomalar, matn jadvallari;

-kartografik vositalar: kartalar, atamalar, karta-spermalar, chiziqli kartalar, devoriy kartalar;

-chizmalik sxematik qo'llanmalar. Ularga o'uyidagilar kiradi; tarkibiy sxemalar masalan gedrosferaning tuzilishi, xalq xo'jaligini tuzilishi, xalq xo'jaligini tuzilishi; sinflashtirish sxemalari (tog'jinslari, landshaftlar va h.k); tabiiy va iqtisodiy voqea va xodisalarning o'zaro aloqalari va o'zaro tasviri;

-chizmalik statistik qo'llanmalar; chizmalar diagrammalar, jadvallar.

Mazkur o'quv vositalari geografik voqea va hodisalarni fozoviy joylashishini va ularning tuzilishi va mexnati haqida tasavvurlarni shakillantiradi. Tabiiy xodisani sodir bo'lish jarayonini tiklash va taxlil qilish uchun zarur bo'lgan vositalarga quyidagilar kiradi:

-joyda o'lchash ishlari olib borish uchun zarur bo'lgan priborlar (ruletka, kompas, nivelir. taedolit);

-tabiiy hodisalarni miqdoriy va sifat ko'rsatgichlarini aniqlaydigan priborlar (termometr, barometr);

-kartometrik ishlari olib borish uchun ishlatiladigan priborlar (kurvametr, linyka, transportir va h.k.);

-yerni sutkalik va yillik harakatini ko'rsatadigan priborlar.

3. Geografiya darsligi va u bilan ishlash texnologiyasi

Geografiya ta'limida darsliklar asosiy bilim olish manbai bo'lib hisoblanadi, shuning uchun ular asosiy o'qitish vositalaridir. Geografiya darsliklari yuqori ilmsiy darajaga ega bo'lishi, metodik apparati pedagogik jihatdan asoslangan bo'lishi lozim. Darslikning metodik tuzilishi o'quvchilarni o'qishga o'rgatishga yo'naltirilgan. Darslik juda ko'p ta'limiy vazifalarni bajaradi. Darslik bilan ishlaganda o'quvchilar quyidagi ishlarni bajarishadi: matn bilan ishlash usullari ; kartografik ma'lumotlar bilan ishlash usullari; statistik ma'lumotlar bilan ishlash usullari; chizmalar, rasmlar, fitografialar bilan ishlash usullari; matndagi jadvallar bilan ishlash usullari; matndant tashqaridagi materiallar bilan ishlash usullari; darslikdagi ilovalar bilan ishlash usullari va x. k.

Geografiya o'qituvchisi darslikning mazmuni bilan yaxshi tanishgan va o'zlashtirgan taqdirdagin darslik bilan ishlash ishlarini yaxshi tashkil qilish mumkin. Geografiya darsliklari ikkita yirik qismga bo'linadi:

a) darslikning o'quv matni

b) matndan tashqaridagi materiallar. Mazkur qismlarning har biri yana o'z navbatda alohida – alohida qismlarga bo'linib ketadi. Darslikning asosini uning matni tashkil qiladi. Matnda o'quvchilar uchun yangi ma'lumotlar beriladi. Darslikning matnida ma'lum bir mavzuning bayoni berilgan va u quyidagi qismlardan iborat: nazariyalar, tushunchalar, tavsiflar va metodologiya. Nazariyalar ilmiy tushunchalar, qonunyalari, tamoyillari, dunyoqarash g'oyalar va yakuniy xulosalar iborat. Darsliklarda ko'p xollarda tushunchalarni ifodalaydigan atamalar shriftlar bilan ajratiladi. Izohli material geografik aloqa va bog'liqliklarni.

Darslikning matnida tabiiy va iqtisodiy geografik komplekslar orasidagi o'zaro aloqalarini ochib beradi, ishlab chiqarish tarmoqlarni joylanish tamoyillarini, u yoki bu tabiiy voqea va hodisalarni sababini tushuntirib beradi. Ayrim xollarda matndagi tushunchalar muammoli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin, bu esa o'quvchilarni ijodiy tafakkurrini rivojlanishga va bilim faoliyatini faollashuvga imkon beradi.

Geografik matnlarning asosiy xususiyatlaridan biri voqea va hodisalarni bayoniga bag'ishlangandir. Masalan, sharoit tavsifi, iqtisodiy geografik tavsif, va h.k. Darslikning matnida ilmiy belgilarni olish usullari hamda fanning metodlari bilan tanishishga katta ahamiyat berilgan. Masalan, kartografik usul, landshaft usul, aerometodlar, kosmik usul va h.k. Darslik matnida o'quv metodlarini bayonida juda ko'p mantiqiy aloqalar uchraydi. Masalan, shuning uchun, shunday qilib,

demak, agar, shundan kelib chiqqan holda va h.k. matn bayoni davomida ayrim xollarda topshiriqlar uchrab qolishi mumkin. Masalan, tushuntirib bering nima uchun shimoliy yarim sharda daryolar o'ng qirg'og'ini emiradi; aytinchchi daryolarning nishabi ular tezligiga qanday ta'sir qiladi; o'ylab ko'ring nima uchun Afrikada qaloq davlatlar ko'p va h.k. shunday qilib matnni tuzilishini o'zi o'quvchilarni o'quv materialini tushunishga yo'naltiriladi, yangi bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Darslik matnini o'quvchilar tomonidan tushuntirishi va o'zlashtirilishi murakkab jarayon xisoblanadi. U quyidagi omillarga bo'liq: a) o'quvchilarda zarur bilimlarni bor yoki yo'qligi; b) matndagi tanish va notanish so'zlarning nisbatiga; v) matnni o'qish ko'nikmasini shakillanish darajasiga. Matndan tashqaridagi ma'lumotlar o'qitish va nazorat vazifalarini bajaradi. Matndan tashqaridagi ma'lumotlarga o'uyidagilar kiradi: a) savol va topshiriqlar; b) mundarija, shriftlar, sanali belgilar; v) ko'rgazma metodlar.

Har bir darslik juda ko'p savol va topshiriqlar tizimi berilgan. Ular tushunchalarni o'zlashtirishga, geografik voqea va xodisalar orasidagi aloqalarni aniqlashga, ko'nikmalarni qo'llash yo'naltirilgan. Savol va topshiriqlar darslikni turli joylarida uchraydi: yangi mavzuni oldida; matnni ichida; matnni oxirida. Darslik matnini oldida joylashgan savol va topshiriqlar o'quvchilar tomonidan ilgari olingan bilimlarni faollashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, biror xududni iqlimini o'rganishdan oldin iqlim hosil qiluvchi omillar haqidagi bilimlarini faollashtirish. Matnni ichidagi savol va topshiriqlar o'quvchilarini fikrlash faoliyatini yangi o'quv materialini o'zlashtirishga yo'naltiradi. Matnni so'ngida berilgan savol va topshiriqlar esa olingan bilim va ko'nikmalarni qo'llashga yo'naltiradi. Masalan, daryolar mavzusini o'tganda, daryo nima, o'zan nima, daryo vodiysi, daryoni to'yinishi haqida olingan bilimlarni qo'llash mumkin.

Yirik bo'limlar so'ngida berilgan savol va topshiriqlar umumalashgan xususiyatga ega, bilimlarni tartibga undaydi, o'quvchilarni umumiy dunyoqarash xulosalar qilishga olib keladi. Matndagi ko'rgazmali materiallarga quyidagilar kiradi: matndagi haritalar : muqovadagi haritalar ; diogrammlar, chizmalar va jadvallar; rasmlar va fotagrafiyalar; turli xil kesmalar; orgrafik chizmalar. Ko'rgazmalar faqat matnni mazmunini boyitibgina qolmasdan alohida bilim manbaii bo'lib ham hisoblanadi. Geografiya darsliklarining oxirida berilgan atama va tushunchalar lug'atda mazkur kursda berilgan tushunchalar tizimining ro'yxati beriladi.

4. Darslik bilan ishlash texnologiyasi

Darslik bilan ishlash geografiya ta'limida muntazam olib boriladi. Darslik bilan ishlash texnologiyasi qo'yidagi qismlardan iborat: darslik bilan tanishish va u bilan ishlash qoidalarini o'rgatish; darslik matni bilan ishlash; darslikdagi haritalar bilan ishlash; matndagi tizmalar bilan ishlash; matndagi rasmlar bilan ishlash; matndagi jadvallar bilan ishlash; darslik ilovalari bilan ishlash; darslik bilan ishlashni tashkil qilish; har bir sinf darsligi bilan ishlashni o'ziga xos

xususiyatlari.

O'quv yilini boshida o'qituvchi o'quvchilarni darslik bilan tanishtiradi. Darslik bilan tanishtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Dastlab darslikni nomi, mualliflari, qaysi nashriyotda va qachon chop etilgani o'quvchilarga tushuntiradi. Shundan so'ng darslikning tarkibiy tuzulishi ochib beriladi. (Kirish, necha qism, necha bob, ilovani bor yo'qligi) Masalan, 7-sinf darsligini oladigan bo'lsak, darslik O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi deb nomlanadi, darslikni mualliflari P.G'ulomov, X.Vaxobov, P.Baratov. M.Mamatqulov hisoblanadi, darslik "O'qituvchi" nashriyotida 2003 yil chop etilgan.

Darslik kirish, ikkita bo'lim, 9-qism va ilovadan iborat. Darslikning birinchi bo'limi O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi bag'ishlangan, ikkinchi bo'limi esa O'zbekiston tabiiy geografiyasi bayoniga bag'ishlangan. Darslikning ilova qismi 7-ta jadvaldan iborat (tog' cho'qqilari, chuqur botiqlari, yirik daryolar, ko'llar, suv omborlar, qo'riqxonalar). Darslikning umumiy hajmi 174 bet. Darslikdagi 59 ta rasm berilgan. Rasmlar haritalardan, diogrammalardan, chizmalardan iborat. Shundan so'ng darslikdan foydalanish qoidalari tushuntiriladi (toza tutish, darslik sahifalariga turli xil so'zlarni yozmaslik, buzmaslik, yirtmaslik va h.k). Darslikning matni bilan ishlash. Darslikni matni bilan ishlash quyidagi qismlardan iborat: izohli o'qish; matni asosida reja tuzish; matni ma'lum bir qismini o'qib so'ngra so'zlab berish.

Izohli o'qish o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bundan matn qismlarga bo'linib o'qiladi so'ng o'qilgan matnga izoh beriladi. Masalan, 7-sinf darsligining birinchi bo'limini 14-§ da quyidagi jumlaning keltirishimiz tekisliklar O'rta Osiyoning markaziy, g'arbiy va shimoliy qismlarda joylashgan. O'rta Osiyoning anchagina qismlarida Turon tekisligi egallagan. Bu tekislikda O'rta Osiyoning yirik cho'llari – Qoraqum va Qizilqum joylashgan (41 bet). Mazkur jurnalni o'qigandan so'ng o'qituvchi unga izoh beradi. Izoh deganda u tekisliklar, ularning turlari, kelib chiqishi haqida so'zlab. O'rta Osiyodagi eng yirik bo'lgan Turon tekisligini haritadan ko'rsatib, uning asosiy xususiyatlarini gapirib beradi. Matinni ayrim qisimlariga reja tuzilishi. Bunda matn ma'lum bir qismlarga bo'linib o'quvchilarga bo'lib beriladi va ulardan matnning ushbu qismiga reja tuzish vazifasi beriladi. Masalan, O'rta Osiyo xududining rivojlanish tarixi va foydali qazilmalari mavzusini matnini quyidagi qismlarga bo'lish mumkin:

-paleozoy erasida xududning rivojlanishi:

-mezozoy erasida xududning rivojlanishi:

-kaynazoy erasida xududning rivojlanishi:

-kaynazoy erasida xududning rivojlanishi:

-zil-zilalar:

-foydali qazilmalar:

Shulardan foydali qazilmalar qimsiga quyidagicha reja tuzish mumkin: yoqiolg'i foydali

qazilmalari: (ko‘mir, neft, gaz), qora metall konlari: rangli metallar konlari: meniral o‘g‘itlar konlari: qurilish xom ashyosi konlari (marmar, oxak, qum, granat). Darslikdagi haritalar bilan ishlash. Xar bir sinf geografiya darsligining matnidagi mavzusiga oid turli xil haritalari bilan. Haritavlar 6,7,8 va 9-sinf darsliklarida ko‘proq matndagi haritalar asosan mustaqil ishlarni bajarishda ko‘proq ishlatiladi. Masalan, 7-sinf darsligining 7-chi sahifasida Yevrosiyaning tabiiy geografik o‘lkalari haritasi berilgan. Ushbu harita bo‘yicha quyidagi topshiriqlarni o‘quvchilarga berish mumkin:

-Janubiy Osiyoda joylashgan Yevrosiyo tabiiy geografik o‘lkalarni aniqlang va ularning geografik joylanishiga baxo bering:

-Eronda joylashgan tabiiy geografik o‘lkalarni aniqlang:

-O‘rta Osiyo tabiiy geografik o‘lkasi qaysi o‘lkalar orasida joylashgan:

-Shimoliy Osiyo qanday tabiiy geografik o‘lkalardan iborat va x.k.

Shunday taxlitda xar bir mavzuli harita bo‘yicha o‘quvchilarga mustaqil ish uchun vazifa berish mumkin.

Darsliklarda juda ko‘p rasmlar ham berilgan. Mazkur rasmlar tabiiy va iqtisodiy geografik obektlarini tasviriga bag‘ishlangan. Shuning uchun kartadagi rasmlar bo‘yicha ham o‘quvchilarga mustaqil ishlar berish mumkin. Geografiya darslaridagi rasmlarni quyidagi guruxlarga bo‘lish mumkin: buyuk olim va shayxlarning rasmlari : tabiiy landshaftlar manzarasini tasvirlaydigan rasmlar (tog‘lar, tekisliklar, vodiylar chuqurlar va h.k) tabiiy geografik jarayonlarning oqibatlari va ko‘rinishlari tasvirlaydigan rasmlar (nurash, sho‘rxok, vulqon, zil-zila va h.k) : iqtisodiy geografik obektlarni tasvirlaydigan rasmlar (zavod, fabrika, suv ombolari, qishloq xo‘jalik ekinlari, yo‘llar, kanallar va h.k). Chizmalar haritalarga o‘xshab darslikdagi juda ko‘p uchraydi. Ular geografik aloqalar va qonuniyatlarni ifodalaydi, ular orqali mavzugam tegishli qonuniyatlarni o‘quvchilarga oson tushuntirish mumkin. Masalan, yerga quyoshdan keladigan issiqlikni uni tushish burchagiga bog‘liqligini ko‘rsatuvchi chizmalar.

Darsliklarda berilgan chizmalarni quyidagi guruxlarga bo‘lish mumkin:

-boshlang‘ich tabiiy geografiya kurslarida berilgan chizmalar (litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera, yer va olam mavzulavrida):

-materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi hamda O‘rta Osiy va O‘zbekiston tabiiy geografiya kurslari bhyicha berilgan chizmalar:

-iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida berilgan chizmalar. Mazkur chizmalar asosan diagrammalardan iborat. Ular xalq xo‘jalik tarmog‘ini ma‘lum bir qismlarini ko‘rsatgichlarini tasvirlaydi.

Umumta‘lim maktablari geografiya darslarida jadvallardan foydalanilgan. Tabiiy geografiya darslarida jadvallar asosan ilovalarda berilgan. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

darslarida matindagi jadvallar ko‘proq o‘rin olgan jadvallarda ko‘proq iqtisodiy ko‘rsatkichlar berilgan. Ular orasida ma’lum bir iqtisodiy tarmoqni o‘shish dinamikasini ochib berish mumkin. Iqtisodiy va ijtimoiy geografik darslardagi jadvallarni quyidagi guruxlarga bo‘lishimiz mumkin: siyosiy geografik: demografik: tabiiy resurslar: sanoat: qishloq xo‘jaligi: transport va xalqaro iqtisodiy aloqalar regional iqtisodiy geografik sharoitni tasvirlaydigan jadvallar.

Jadvallarni taxlili bo‘yicha o‘quvchilarga juda ko‘p mustaqil ishlar berish mumkin.

Har bir sinfda darslik bilan ishlash o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Beshinchi sinfda boshlang‘ich tabiiy geografiya kursini o‘rganishda izoxli o‘qish, matindagi savollarga javob berish, matining rejasini tuzish, matindagi asosiy fikrli aniqlash muxim o‘rin tutadi. VI sinfda “Materiklar va okeanlar” tabiiy geografiyasini o‘rganishda quyidagi xolatlarga katta e’tibor berish lozim: qiyoslash: matnning mazmuni bo‘yicha chizmalar: rasmlar va jadvallar tuzish, matindan ma’lumotlarni ko‘chirib olish: geografik obektlar ro‘yxatini tuzish: matni kengaytirilgan rejasini tuzish. 7-sinfda O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasini o‘rganishda ishlar bir oz murakkablashadi. Mazkur kurs bo‘yicha quyidagi topshiriqlarni berish mumkin: matnga kengaytirilgan reja tuzish, chizmalar chizish, turli xil aloqalar va bog‘diqliklarni ko‘rsatadigan jadvallar tuzish (tabiiy geografik o‘lkalar) jadvalini tuzish, iqlimiy jadvallar tuzish va h.k). VIII- sinfda “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” kurs o‘tiladi. Mazkur kurs darsligi bo‘yicha quyidagi ishlarni bajarish mumkin: matnga reja tuzish; turli xil haritalar bilan ishlash (foydali qazilmalar, ma’muriy, iqtisodiy, transport va h.k. % jadvallar bilan ishlash (aholi, mineral resurslari, tarmoqlar bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlar); chizmalar (diogrammalari bilan ishlash) va h.k. IX- sinfda “jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursida o‘tiladi. Mazkur kursni o‘rganishda o‘quvchilarga murakkabroq topshiriqlar beriladi: matni o‘qib xulosalar tayyorlash; iqtisodiy geografik haritalarni tahlil qilib ma’lum bir davlatni iqtisodiy geografik tavsifini tuzish, yoki bo‘lsa sanoat va qishloq xo‘jaligi rivojlangan xududlarni aniqlash, jadvallarini tahlili asosida turli xil chizmalar va diogrammalar tuzish va h.k.

5. Natural vositalardan foydalanish texnologiyasi.

Geografiya darslarida o‘qitishning samarali o‘quvchilarini tabiat va xo‘jalik haqida bevosita olgan tasavvurlariga tayanadi. Shuning uchun geografik bilimlarni o‘zlashtirishda natural vositalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Natural geografik vositalar ikkita katta guruhga bo‘linadi:

- bevosita tabiiy sharoitda o‘rganiladigan natural vositalar;
- sinf sharoitida o‘rganiladigan natural vositalar.

Bevosita tabiiy sharoitda o‘rganiladigan natural vositalarga geologik ochilmalar, rel’ef shakllari, tuproqlar, o‘simliklar, soylar, ko‘llar qishloq xo‘jaligi ekinlari, sanoat korxonalarini kiradi. Mazkur natural vositalar o‘quv sayohatlari davomida o‘rganiladi. Tabiiy va ishlab chiqarish

obektlarini tabiiy sharoitda bevosita o'rganish yoki kuzatish boshqa o'quv vositalarini o'rganish uchun asos bo'lib hisoblanadi (namunalar, gerbariyalar va x.k.). Tabiiy sharoitni va jarayonlarni kuzatish murakkab jarayon hisoblanadi. Kuzatish davomida o'qituvchilarga ma'lum vazifalar topshiradi va ularni bajarilishini nazorat qilib turadi kuzatish natijalari qiyoslab beriladi. O'quvchilar kuzatgan voqea va hodisalarini qayd qilib borishlari lozim.

Mazkur kuzatish natijalaridan dars jarayonida foydalanish mumkin. Tabiiy xolda voqea va hodisalarni kuzatish ko'nikmalari dars jarayonida mashq qilish va rasmlarni kuzatish hamda statistik ekranli qo'llanmalarni kuzatish asosida shakllantiriladi. Masalan, "Cho'l tabiati tasvirlari" dipozitivini ko'rsatayotib o'qituvchi o'quvchilariga qo'yidagicha savol berishi mumkin "Cho'l rel'ef shakllarini hosil bo'lishini sababi nimada?. Cho'l rel'ef shakllarining asosiy belgilari nimadan iborat". O'quv sayohatlari davomida geografik obektlarni kuzatish juda murakkab muammo hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi avval tashkiliy ishlarni amalga oshirmog'i lozim. Rasmlardan foydalanishning asosiy talablari quyidagilardan iborat:

-rasm dars mavzusi mazmunniga mos tushishi lozim;

-rasmda geografik obekt, voqea va hodisalarni eng muxim xususiyatlari tasvirlangan bo'lmog'i lozim;

-rasm aniq va ravshan ko'rinmog'i lozim.

Misol uchun O'zbekiston xalq rassomi Chingiz Axmarovni tabiat manzaralariga bag'ishlangan rasmlaridan O'zbekiston va O'rta Osiyo tvabiiy geografiyasini o'rganishda keng foydalanish mumkin. Mazkur rasmlarni taxlil qilish asosida o'quvchilar rasmlar yordamida umumiy tushunchalar oson va tez shakllantiriladi. Masalan, yassi va to'lqinsimon tekisliklar, burmali, palaxsali va qoldikli tog'lar tropiko'rmonlar , Antarktida muz qoplami, cho'llar, tog'lar va h.k.

6. Statistik ma'lumotlar bilan ishlash

Statistik ma'lumotlar geografiya ta'limida ikki xil maqsadda ishlatiladi:

-aniq geografik ma'lumot sifatida. Bularga matirik va okeanlarning maydoni, quruqlikning eng baland va past nuqtasi, materiklarning chekka nuqtalari, davlatlarning maydoni, yirik dengiz, ko'llarning maydoni va chuqurligi, yirik daryolarning uzunligi va h.k. lar kiradi. Mazkur statistik ko'rsatgichlarni o'quvchilar yodlab olishlari lozim;

-geografik bilimlar manbai sifatida.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida juda ko'p statistik ma'lumotlar jadval diagramma va grafik sifatida berilgan. Ulardan o'quvchilar bilim olish maqsadida foydalanishlari mumkin. Mazkur ma'lumotlarni taxlil qilish asosida o'quvchilar turli xulosalar chiqarishlari mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarni statistik ma'lumotlar bilan ishlashga o'rgatishlari va tegishli ko'nikmalarni xosil qilishga erishishlari lozim. Geografiya ta'limida qo'llaniladigan

statistik ma'lumotlarni shartli ravishda uch guruxga bo'lishimiz mumkin:

-yakka xoldagi guruxlashtirilgan sonli ma'lumotlar;

-chizmalarda ifodalangan sonli ma'lumotlar (diagramma , grafik, kartogramma, kartodiogramma);

-jadvallarda ifodalanegan sonli ma'lumotlar.

Yakka xoldagi statistik ma'lumotlardan foydalanish. Mazkur guruxdagi sonli ma'lumotlar guruxlashtirilmagan bo'ladi. Ularni hir biri bilan ishlaganda fikrlash talab qilinadi ayrimlari bilani ishlaganda ularni esda saqlab qolish talab qilinadi. Sonlarni esda saqlab qolish va ular haqida fikr yuritishda ular butun son xoliga keltiriladi, ya'ni kasr son butur sonlarga aylantiriladi. Ayniqsa yodda saqlab qtsolinadigan sonlar albatta yaxlitlanishi lozim. O'quvchilar o'z jadvallarida yaxlitlangan sonlarni aytishlari lozim. Masalan, Afrikaning maydoni 30 Mln. km, O'zbekiston maydonini diyarli 0,5 mln km² va h.k.

Dars jarayonida ishlatiladigan xar bir son izzoxlanishi lozim. Masalan, daryoning uzunligini so'rayotganda uni kema qancha vaqtda bosib o'tishini, davlatlarni maydonini tushuntirayotganda uni g'arbdan sharqqa tomon, shimoldan janubga tomon qancha masofaga cho'zilgandigi va ushbu masofalarni poezdga , yoki avtomobilda qancha vaqtda bosib o'tishini tushuntirilsa, o'quvchilarda maydon tushunchasi tez va oson shakillanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatgichlar jon boshiga xisoblanadi. Masalan, jon boshiga bug'doy yetishtirish, jon boshiga sanoat maxsulotlari yetishtirish va h.k.

Statistik ma'lumotlar bilan ishlashning muxum usullaridan biri qiyoslash xisoblanadi. Bunda sonlarni yodlab qolish shart emas. Masalan Turkmanistonni maydoni O'zbekistonni maydoni bilan diyarli bir xil, yoki bo'lmasa Balxash va Ladoga ko'llarning maydoni diyarli bir xil va h.k. Bundan tashqari o'quvchilargav sonlarni qiyoslash bo'yicha topshiriqlar ham berish mumkin. Masalan, O'zbekistonni axolisi Osiyodagi qaysi davlatlar axolisidan ko'p , yoki O'zbekistonning maydoni Osiyodagi qaysi davlatlar maydoni bilan diyarli bir xil.

Geografiya darslarda diagramma va grafiklardan foydalanish. Geografiya ta'limida diagramma va grafiklardan keng foydalaniladi. Diagramma va grafiklar orqali bir geografik obektni boshqasiga nisbatan katta yoki kichkina ekanligi, bir tarmoqlarni iqtisodiy ko'rsatgichidan yuqori yoki pastligini ko'rsatish mumkin. Diagramma va chizmalarni o'qish, o'rganish va taxlil qilish metodikasi umumiy xususiyatlarga ega. Diagramma va chizmalar bilan ishlash texnologiyasi quyidagi qismlardan iborat:

-o'quvchilar deagramma va chizmalarni ahamiyatini tushuntirish;

-o'quvchilarga diagramma va chizmalarni ahamiyatini tushuntirish;

-diagramma va chizmalarni tuzishni o'rganish;

-geografik ko'rsatgichlarni diagramma va chizmalarda tasvirlash bo'yicha o'quvchilarga topshiriqlar berish. Masalan, 5-sinf o'quvchilari havo xaroratini chizmasini, bulutsiz va bulutli

kunlar diagrammasini tuzishlari mumkin;

-diagramma va chizmalarni o'qishga va taxlil qilishga o'rgatish. Avval diagramma va chizmada nima tasvirlanganligini tushuntiriladi. So'ngra diagramma va chizmada tasvirlangan sonlarni o'qishga va taxlil qilishga o'rgatiladi. Diagramma yoki chizmada ko'rsatilgan geografik ko'rsatgichlarni yillar bo'yicha o'zgarishini taxlil qilib ma'lum bir ko'rsatgichni o'sish yoki o'zgarish qonuniyatlarini aniqlanadi;

-diagramma va chizmalarni taxlili asosida xulosalar qilishni o'rgatish. Masalan, havo xarorati chizmasini taxlil qilganda oylik va yillik o'rtacha xarorat, eng yuqori va eng past xarorat haqida xulosalar qilinadi. Yoki bo'lmasa ma'lum mamlakatlarda ishlab chiqilgan yalpi miqdorni taqqoslab yalpii maxsulot miqdori bo'yicha mamlakatlar jadvalini tuzish mumkin.

Statistik jadvallar bilan ishlash texnologiyasi. Jadvallar maktab geografiyasida keng qo'llaniladi, ayniqsa iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida. Shu munosabat bilan maktab geografiya darsliklarida keltirilgan jadvallarni quyidagi yirik ikki guruxga bo'lishimiz mumkin: tabiiy geografiya kurslarida keltirilgan javoblar iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida keltirilgan jadvallar. Tabiiy geografiya kurslarida jadvallar ko'proq ilova shaklida beriladi. Masalan. 7-sinf geografiya darsligining ilova qismida quyidagi jadvallar berilgan: O'rta Osiyodagi eng baland cho'qqilar; O'rta Osiyodagi eng chuqur botiqlar: yirik daryoyolar; ko'llar; suv ombirlari; qo'riqxonalar; yirik konlar.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida jadvallar juda keng qo'llaniladi, shuning uchun ularda matinda va ilovada ham jadvalda berilgan. Statistik jadvallar bilan ishlash quyidagi tartibda olib boriladi:

- jadvalni nomi o'qish;
- jadvaldagi ko'rsatgichlarni o'lchov birliklarini tushuntirish;
- jadvallarni qatorlarini va ustunlarini nomlarini o'qish;
- qator va ustunlardagi raqamli ko'rsatgichlarni solishtirish;
- jadvalda berilgan ma'lumot haqida xulosa qilish.

Jadvallarni o'qishga o'rgatish quyidagi qismlardan iborat:

-o'qituvchi ijtimoiy iqtisodiy geografiya kurslarida jadvallarni ahamiyatini tushuntiradi va jadvallarni ahamiyatini tushuntiradi va jadvallarni tuzish haqida ma'lumotlar beradi;

-jadvalni o'lchov birliklari haqida ma'lumot beradi. O'lchov birliklarini natural va nisbiy ekanligi tushuntiriladi;

-shundan so'ng o'qituvchi jadvalni o'qish usullari bilan tanishtiradi. Qaysi hollarda ustundagi, qaysi ollarda qatordagi raqamlarni o'qish tushuntiriladi. Jadvalni qatordagi raqamlarini unda mamlakatlarning maydoni berilganda o'qiladi;

-o'quvchilarga jadvallar bilan ishlash bo'yicha mustaqil ishlar berish.

Bundan tashqari o'qituvchilar iqtisodiy xisoblar olib borish ko'nikmalarini ham shakllantirish lozim. Masalan, maydon birligiga to'g'ri keladigana'oli soni, jon boshiga maxsulot ishlab chiqarish, o'rtacha yillik harorat va h.k.

15-ma'ruza. Geografiya o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Reja

1. Ta'lim soxasini axborotlashtirish: atama va tushunchalar.
2. Geografiya ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Tayanch iboralar

Axborotlashtirish, kompyuterlashtirish, axborot texnologiyalari, informatsion texnologiyalar, elektron darslik

1. Ta'lim soxasini axborotlashtirish: atama va tushunchalar.

Ta'lim soxasini axborotlashtirish natijasida qator atama va tushunchalar vujudga keladi. Ammo maktablarda kompyuterlarni paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan tushuncha va atamalar bir tekisda va mazmunda emas. Bunda so'z "Kompyuterlashtirish" va "Axborotlashtirish" tushunchalari haqida boradi. Ba'zi hollarda ikkala atamadan u yoki buni ishlatiladi.

"Kompyuterlashtirish" yoki "Axborotlashtirish" deganda o'quv yurtlarini, kompyuterlar bilan ta'minlash hamda turli ma'lumotlarni o'zlashtirish va olish tushuniladi. XX asrning 80-yillaridan boshlab har bir maktabda kompyuter xonalari tashkil qilina boshlandi. Kompyuter xonalarini 10dan ortiq kompyuterlar bo'lgan, ammo ularni sifati ya'ni ko'rsatgichlari past bo'lgan. Ammo olib borilgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki umumta'lim maktablarini kompyuterlashtirish natijasida ta'lim-tarbiya jarayonida keskin o'zgarishlar sodir bo'lmadi. Mazkur hol quyidagi xolatlarda nomoyon bo'lgan:

- a) o'qitish va mustaqil o'quv faoliyatini texnologiyasini motivatsiyasi o'zgarmadi;
- b) o'qituvchi faoliyatini motivatsiyasi o'zgarmadi;
- v) o'quv jarayonini boshqarish texnologiyasi o'zgarmadi;
- g) bu yerda gap XX asrning 80-yillaridagi ommaviy maktablar haqida ketmoqda.

Chuqurlashtirilgan maxsus maktablarda esa ta'lim jarayonida katta o'zgarishlar sodir bo'lgan. Keyinchalik amaliy pedagogikada kompyuterlarni qo'llash bo'yicha ustivor yo'nalishlar shakllandi. Ular quyidagilarda namoyon bo'ldi:

-informatika va hisoblash texnikasi asoslarini o'rganish;

- ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash;

-axborot texnologiyalari yordamida ta'lim muassalarini va mintaqaviy ta'lim tizimlarini boshqarish.

Bu esa axborot texnologiyalarini qo'llashni biinchi darajali ishlar qatoriga qo'shishga imkon beradi.

Ushbu soxada olingan samaralar umum ta'lim maktablarini kompyuterlashtirisha ketgan xarajatlarini qoplashi mumkin.

Ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishda yangi ta'lim texnologiyalari katta ahamiyatga ega. yangi ta'lim texnologiyalari quyidagilarga imkon beradi:

1) har bir maktab o'quvchisida o'zining shaxsiy ta'lim yo'nalishini rivojlantiradi;

2) o'quv jarayonini tubdan o'zgartirishga va uni tizimli tafakkurlash tomoniga loyihalashga imkon beradi;

3) o'quvchilarni bilish faoliyatini samarali tashkil qilishga imkon beradi. Bunday yondoshish kompyuterni bilish vositasiga aylantiradi. Maktablarda kompyuterlarni o'rni qanday bo'lishi kerak degan savol ta'limni kompyuterlashtirishni dastlabki bosqichlaridayoq qo'yilgan edi. Ammo kompyuterlarni o'rganishdan undan foydalanishga o'tish juda qiyinchilik bilan amalga oshirilmoqda. Ko'p hollarda geografiya va boshqa fanlardan ishlab chiqilgan kompyuter texnologiyalari talabsiz qolib ketadi. Buning asosiy sabablaridan biri ularni odatiy darslarni davomi bo'lib qolishidir. Elektron darsliklar ko'p hollarda darsliklarni bir nusxasiga (kopiyasiga) aylanib qolmoqda. Shuning uchun ularga talab kamroq bo'lib qolmoqda. Ularni samaradorligi tajribali o'qituvchi samaradorligidan yuqori bo'lmayapti.

Elektron darsliklarni yoki kompyuter texnologiyasidan foydalanishga talabni kamayib borishining asosiy sabablaridan biri o'quvchilarni zamonaviy ta'lim ta'lablari va zamonaviy tamoiillar bilan shaxsga yo'naltirilgan yondoshish va sinf-dars tizimida foydalanishga yo'naltirilgan dasturlarni bir biriga mos kelmasligidir. Kompyuterlarni yangi avlodini yaratish bilan yangi texnologiyalar ishlab chiqiladi, shu bilan birga ta'lim texnologiyalari ham ishlab chiqiladi. Kompyuterda matn, chizma, audio va video ma'lumotlarni birlashtirish o'quv ma'lumotlari sifatini keskin oshirib yuboradi. Kompyuterlar industriyasini rivojlangtirish pedagogik jarayonda inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Uning asosida esa o'quvchini individual faoliyatini ta'minlaydigan texnologiyalarga o'tish yotadi. Bunday texnologiyalarga o'tish dasturiy vositalarni yaratishi bilan bog'liq.

Yaxlit kompyuterlashtirilgan predmetli kurslarda odatiy dasturiy asosnomalarning ayrim qismlari saqlab qolinadi ular esa maktab darsliklarini turli darajalarda qaytarishadi. Shuning uchun mazkur kurslar quyidagilarga yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim: a) ixcham (kompakt) predmeti mavjud bo'lishi, u o'quvchilarni mustaqillini yuqori darajada ta'minlashi lozim b) turli soxalarda bilimlarni yuqori darajadagi integratsiyasi mavjud bo'lgan predmetlarni o'rganishda; maktablarda o'qituvchilarni qisman yoki to'la kompyuterlar bilan almashtirish; v) sinf-dars tizimiga asoslanmagan eksperemental ta'limiy teznologiyalarni yaratish; g) o'quv jarayonida kompyuterlardan foydalanishni yangi yondoshuvlarini ishlab chiqish; d)shaxsga yo'naltirilgan dasturiy asoslarni ishlavb chiqish.

2. Geografiya ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Ta'lim muassalarida kompyuterlardan samarali foydalanish qator tashkiliy pedagogik izlanishlarni

echish bilan bog'liq. O'qituvchilarni kompyuterli maktablarda ishlashga tayyorlash muxim muammo bo'lib xisoblanadi kompyuter texnologiyalarini maktablarda dastlabki davrlarda kam talab etilishi oliy ta'limda ushbu soxa bo'yicha etarli bilim berilmasligidir. Elektron pochta imkoniyatlaridan foydalanishni dars va darsdan tashqari vaqtlarda jahon kommunikatsion tarmog'idan foydalanish maxsus metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Maktablarni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Geografiya fani va geografiya ta'limida informatsion texnologiyalardan keng qo'llanilmoqda.

Geografiya ta'limida informatsion texnologiyalardan foydalanishni quyidagi shart-sharoitlarini ta'kidlab o'tish lozim:

-geografiya o'qituvchisi informatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi shart;

-maktab o'quvchilari kompyuterlardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi shart;

-maktabda kompyuterlar sinfi bo'lishi shart.

Geografiya ta'limida informatsion texnologiyalarni qo'llash quyidagi sohalarda olib borilmoqda: elektron darsliklardan foydalanish; elektron haritalardan foydalanish; internet imkoniyatlaridan foydalanish; video filmlardan foydalanish; masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish.

Hozirgi davrda juda ko'p darsliklarning elektron versiyalari yaratilmoqda. SHu munosabat bilan o'quvchilar berilgan mavzuni elektron darslikdan topib uni o'quvchi yordamida, yoki mustaqil o'rganishi mumkin. Darsni o'qituvchi boshqarib turish mumkin. Bunda o'qituvchi matnni o'rganishda izoxlar berib boradi. Matndagi chizmalar, rasmlar, haritalar, jadvallar aloxida tushuntiriladi. Darsni oxirida o'qituvchi kompyuter orqali o'quvchilarga savollar berishi mumkin. O'quvchilar esa kompyuter orqali javob berishadi. Ularning bergan javoblari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Geografiya ta'limida haritalar asosiy o'quv vositasitalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun haritalar bilan mustaqil ish bajarayotganida elektron haritalardan foydalanish mumkin. Elektron haritalar orqali quyidagi ishlarni bajarishi mumkin:

-elektron harita orqali tabiiy geografik va iqtisodiy geografik tavsiflar tuzish. Masalan, iqlim haritalardan foydalanib ma'lum bir materik yoki hudud iqlimi tavsifini tuzish yoki bo'lmasa iqtisodiy geografik haritalavrdan foydalanib ayrim mamlakatlar yoki hududlarga iqtisodiy ta'rif berish va h.k;

-internet imkoniyatlaridan foydalanib geografiyaning turli soxalari bo'yicha yangi ma'lumotlar olish mumkin. Masalan, kundalik iqlim haqida, mamlakatlar haqida, axoli haqida, xo'jaligi va geosiyosiy sharoit haqida va h.k;

-geografiya ta'limida vidiofilmlar juda katta ahamiyaitga ega. vidio filmlardan quyidagi

soxalar bo'yicha foydalanish mumkin:

- a) boshlang'ich tabiiy geografiya kursida;
- b) materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida;
- c) O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganishda;
- d) O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'rganishda;
- e) jaxon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursini o'rganishda;
- j) fakultativ mashg'ulotlarda;
- z) geografik to'garaklarda va h.k.;

- masofaviy o'qitish geografiya ta'limida endi rivojlanib kelmoqda. Masofaviy o'qitish usulidan malaka oshirish kurslarida keng foydalanish mumkin. Informatsion texnologiyalardan foydalanish geografiya ta'limida katta imkoniyatlarga ega. Geografiya ta'limini axborotlashtirishni to'xtovsiz takomillashtirib bormoq zarur.

16 -ma'ruza. Talabani mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari

Reja

1. Mustaqil ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari.
2. Mustaqil ishlarning turlari.
3. Maktab geografiya kurslarida mustaqil ishlarni tashkil etish.

Tayanch iboralar

Mustaqil ish, amaliy ish, dars bosqichlari, illyustratsiyalar, mustaqil ishlar xususiy – didaktik maqsadi, sxemalar

1. Mustaqil ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari.

Geografiya ta'limida darslik bilan ishlashga o'rgatib borish o'quvchilar faoliyatini faollashtirishda katta ahamiyatga ega. Har bir geografiya kursini o'rganishda darslik va uning uslubiy apparatlari (darslik matni, ilova qilingan kartalarga, illyustratsiyalar, sxemalar, jadvallar, savol va topshiriqlar) bilan tanishtirib, ulardan foydalanish yo'llarini ko'rsatib borish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar faoliyatini faollashtirish ularning mustaqil ishlariga alohida e'tibor berishni talab etadi. Chunki o'quvchilar bilimlarni puxta o'zlashtirishining asosiy vositasi **mustaqil ishlardir**.

Ta'lim tizimini tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari va ular asosida ishlab chiqilgan takomillashtirilgan maktab geografiya dasturlari o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish, ta'limning texnik vositalaridan bilim manbai tarzida foydalanish va o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llashni nazarda tutadi. Geografiya ta'limining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarning yangi bilimlarni mustaqil o'rganish va olgan bilimlarini amalda tadbqiq eta olishga o'rgatishdan iboratdir. O'qituvchi va uslubiyotchilar o'rtasida mustaqil ishlarning mazmuni haqida yagona fikr yo'q. Ayrim uslubiyotchilar va maktab o'qituvchilari **“mustaqil ish”** bilan **“amaliy**

ish” tushunchalarini bir xil tasavvur etadilar. Ko‘pchilik geograf-uslubiyotchilarning fikricha, o‘quvchilarning **amaliy va mustaqil ishlari** bir-biridan tafovut qiladi.

Amaliy ishlar – tabiat hodisalarini kuzatish, kuzatish asboblari bilan ishlash, tajriba o‘tkazish, joyda plan olish, tepalik balandligini o‘lchash, daryoning eni, chuqurligi va oqim tezligini o‘lchash kabi ishlarni o‘z ichiga oladi. Bu ishlar o‘quvchilarni geografiya fani tadqiqot uslublari bilan tanishtirish hamda ularda tegishli ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga qaratilgan.

Mustaqil ishlar deb nimaga aytiladi? – degan savolning vujudga kelishi tabiiy. Ayrim uslubiyotchilar o‘qituvchining bevosita yordamisiz sodir bo‘ladigan o‘quvchilarning faoliyatini (o‘quvchining o‘qishi, tinglashi, biror masalani hal etishi, savolga javob berishi) **mustaqil ish** deb hisoblaydilar. Buni mustaqil ishlarga berilgan to‘liq ta’rif deb bo‘lmaydi.

Ko‘pchilik geograf-uslubiyotchilar o‘qituvchining topshirig‘i asosida, muayyan ajratilgan vaqt mobaynida bajariladigan aqliy faoliyat talab etadigan ishlarni mustaqil ish deb biladilar. Yuqoridagi fikrlarni nazarda tutib, **bilim va ko‘nikmalarni ijodiy tadbiiq yetib, yangi bilimlarni egallashga harakat qilinadigan ta’limni mustaqil ish** deb tushunish mumkin. (Mo‘minov O. 1990). Amaliy ishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad – nazariy bilimlarni amalda tadbiiq etish, o‘rganilgan materialni chuqurroq, puxtarroq tushunib etish, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallashda o‘quvchilarga yordam berishdan iborat. Amaliy ishlar ommaviy tarzda ham, o‘qituvchining ishtirokida ham bajarilishi mumkin. Shuning uchun hamma amaliy ishlarni mustaqil ish deb bo‘lmaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ishlar deganda shunday o‘quv faoliyati tushunilib, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko‘nikmalarni shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi ta’minlanadi. Mustaqil ishlar o‘quvchilar faoliyatini amaliy ishlarga nisbatan ko‘proq qamrab oladi. Geografiya ta’limidagi mustaqil ishlar – yangi materialni o‘rganish, darslik va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash, kartografik va ko‘rsatmali qo‘llanmalar, kolma’ruza va gerbariyalar bilan ishlash, raqamli va statistik ma’lumotlar bilan ishlash, o‘quv ma’ruzalari tayyorlash kabilarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar mustaqil ish bajarayotganlarida biron-bir masalani hal etish uchun ilgari olgan bilim va ko‘nikmalariga tayanadilar. Mustaqil ish **dars** jarayonining barcha **bosqichlarida** – yangi bilim, ma’lumotlarni o‘rganishda, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlashda, o‘rganilgan yangi materialni takrorlash va mustahkamlashda tadbiiq etilishi mumkin.

Ta’lim jarayonida bajariladigan mustaqil ishlar o‘qituvchining rahbarlik rolini susaytirmaydi, balki undan yanada ko‘proq mahorat va mehnat talab qiladi. Shuningdek, ta’limning xilma-xil uslub va vositalarini tadbiiq etish, o‘quvchilarning tayyorgarliklarini hisobga olib yangi topshiriqlar ishlab chiqish, o‘quvchilarda **mustaqillik, faollik** va **tashabbuskorlik** kabi xususiyatlarni rivojlantirishni taqozo etadi. O‘quvchilar mustaqil ish topshiriqlarini yaxshi tushunib etgan, bajariladigan ish bosqichlarini tushunib etgan, ularni qaysi usullar bilan bajarishni va

ma'lumotlarni qaerdan olishni bilgan, ish natijasini tasavvur etgan taqdirdagina belgilangan vazifalar muvaffaqiyat bilan bajarilishi mumkin. Mustaqil ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun o'quvchi nazariy bilim va ko'nikmalarni egallagan bo'lish bilan birga, bir qancha ish usullarini o'zlashtirgan bo'lishi va uni amalda tadbiriq eta olishi lozim.

Mustaqil ishlarning yaxshi samara berishi, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish va masalalarni mustaqil bajarishga o'rgatish uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Kurs oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda, u asosiy tushuncha va ko'nikmalarni qamrab olishi, tabiat komponentlarining bir-biriga bog'liqligini ochib berishi lozim.
2. Bilimlarning tarkibiy qismlari (faktlar, umumiy va xususiy tushunchalar, geografik qonuniyatlar, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar)ni qamrab olishi lozim.
3. Turli bilim manbalari (kartalar, darsliklar, raqamli iateriallar va boshqalar) bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim.
4. O'quvchilarning bilish qobiliyatlarini, mustaqilligini va tafakkurini rivojlantirishga qaratilishi lozim.
5. O'quvchilarning geografiya faniga bo'lgan qiziqishini orttirishi lozim.

Xususiy-didaktik maqsadlarga bog'liq ravishda to'rtta mustaqil ish tipi ajratiladi:

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining **birinchi tipi** – bu sirdan qaraganda, faoliyatning algoritmi ma'lumotlari va vazifalari sharoitidan iborat. YA'ni, dastlabki bilimlarning (bilimlarning birinchi bosqichi) shakllanishi omillari asosida o'quvchilarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlashdir.

Mustaqil ishlar xususiy – didaktik maqsadining **ikkinchi tipi**. Bunda o'zlashtirilgan axborotlar xotirada qayta ishlashga va tipik vazifalarni, ya'ni bilimlarning ikkinchi bosqichini bajarishga qaratilgan bilimlar shakllanadi. Bu maqsadga idrok qilinadigan masalalalarni echish chog'ida o'quvchilardan tanlab olingan faktlarni tavsiflash asosida ob'ektlar va hodisalarni aniq bayon qilish yoki o'rganilayotgan ob'ekt va hodisalaridagi o'zgarishlarning sababini asoslash hamda uni ifodalash orqali etish mumkin. Ushbu ikkala holatda ham o'quvchilar avval egallagan, shakllangan bilimlar tizimini to'g'ri jalb qila olishi va faollashtira olishi asosida bajarishi lozim. O'quvchilarning bilish faoliyati avval o'zlashtirilgan o'quv axborotining mazmuni, tuzilmasini qayta ishlash, qisman qayta loyihalash va yangilashdan iborat bo'ladi. Bunday qayta loyihalash va yangilash tavsif qilinayotgan ob'ektni tahlil qilish, vazifani turli yo'llar bilan bajarish, ulardan eng to'g'ri yoki mantiqiy izchilligini topish kabi echish usullarini tanlash zarurligini keltirib chiqaradi.

Mustaqil ishlarning ikkinchi tipi barcha turlarining umumiy tavsifnomasi shundaki, bunday ishlarda vazifalarning hal qilinish g'oyasi (tamoyili) e'lon qilinadi. O'quvchilardan ushbu g'oyaning rivojlantirib, muayyan sharoitga tadbiriq etish uslub va usullari talab qilinadi. Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining **uchinchi tipi** o'quvchilarda uchinchi bosqich - tipik

bo‘lmagan vazifalarni bajarish chog‘ida shakllanadigan bilimlardan iborat. Bu maqsadga o‘quvchilardan o‘rganilayotgan ob‘ektdagi o‘zgarishlar sabablarining algoritm asoslarini tuzishni talab qiladigan bilish (idrok qilish) masalalarini echish jarayonida erishish mumkin.

Mustaqil ishlarning uchinchi tipini bajarishdagi bilish faoliyati umuman olganda, bilim, ko‘nikma va malakalarni ko‘chirishni amalga oshirish yo‘li bilan avval o‘zlashtirilgan va qolipga tushgan tajriba asosida yangi faoliyat tajribasini to‘plash hamda namoyon qilishdan iborat bo‘ladi. Bu tipdagi ishlar vazifasining mohiyati izlanish, echimlar g‘oyasini ifoda qilish, amalga oshirishdan iborat. Bu qolipga tushgan tajribalar doirasidan doimo chetga chiqadi va fikrlashning jonli jarayonida o‘quvchilardan topshiriqlarni avval o‘zlashtirilgan o‘quv axborotlari, ularga yangi nuqtai nazardan yondoshish (muayyan topshiriqlar talablari nuqtai nazaridan) asosida turlanadi.

4. Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining **to‘rtinchi tipi** ijodiy faoliyatga omillar yaratishdir. Bunday ishlarni bajarishdagi o‘quvchilar bilish faolligi shundan iboratki, bunda o‘quvchilar muhokama qilinayotgan ob‘ekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradi, zarur bo‘lgan yangi, oldindan noma‘lum bo‘lgan g‘oyalarni topish va yangi axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan yangi aloqalar, munosabatlarni o‘rnatadi. Bunda o‘quvchi vazifalarni bajarishni har bir bosqichida o‘zi yaratishi lozim bo‘lgan, uning uchun yangi bo‘lgan harakatlar mohiyati, u yoki bu axborot xarakteri ustida bosh qotirishga majbur bo‘ladi.

Maktab geografiya ta‘limida mustaqil ishlarni tashkil etishning asosiy maqsadi o‘quvchilarni mustaqilligini rivojlantirish, ularni mustaqil bilim olishga, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ayni vaqtda yoshlarni hayotga tayyorlashdan iborat. Demak, mustaqil ishni yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash, egallangan bilim va tajribalarni takomillashtirish yo‘li deyish mumkin. Mustaqil ishlar bir necha elementlardan iborat bo‘lib, ular bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan. Mustaqil ishlarni tashkil etganda, ularning bir-biri bilan aloqadorligini nazarda to‘tishni taqozo etiladi. O‘quvchilarga **tayyor bilim berish** amalda keng tarqalgan ta‘lim tarzidir. Ta‘limning bunday tarzi o‘quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantira olmaydi. Psixologlarning ta‘kidlashicha, **“bunday bilim keraksiz yuk bo‘lib qoladi”**.

O‘quvchi qanday bilim olayotganini, qanday bilayotganini, bilish usullarini qanday egallayotganini tushunib etsa, uni mustaqil ta‘lim olish deyish mumkin. Demak, geografiya ta‘limidagi mustaqil ishlarning didaktik vazifasi – o‘quv ishlarining o‘ziga xos usullarini egallash, binobarin, fanning tadqiqot uslublarini egallashni ta‘minlashdan iborat. Geografiya darsida mustaqil ish turli didaktik maqsadlarni nazarda to‘tishi mumkin. Mustaqil ish asosan yangi materiallarni o‘rganish jarayonida va mustahkamlashda, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish maqsadida tashkil etilishi kerak.

O‘quvchilarning **mustaqil ishlari** ta‘lim jarayonida quyidagi **vazifalarni** hal etishga yordam berishi mumkin:

- o‘quvchilarning ongliligi va o‘zlashtirilgan bilimni sifatini oshirishga;
- o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni hayotda, ishlab chiqarishda tadbiiq eta olishga;
- ularda dastur talab etgan o‘quv ish usullariga (shu jumladan, bilim manbalari bilan mustaqil ishlashga) oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga;
- o‘quvchilarning bilish qobiliyatlari (kuzatuvchilik, sinchkovlik, mantiqiy tafakkur, ijodiy faollik, bilimlarni tadbiiq etish)ni rivojlantirishga;
- aqliy, jismoniy mehnat madaniyatiga, mustaqil ishlashga, oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishga odatlantirishga;
- o‘quvchilarni kelgusida samarali va mustaqil hayotga tayyorlashga imkoniyatlar yaratadi.

2. Mustaqil ish turlari.

Pedagogikaga oid ilmiy adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi **turlari** qayd etiladi:

- namunalar bo‘yicha mustaqil ishlar;
- rekonstruktiv-variantiv mustaqil ishlar;
- evristik (qisman ijodiy) mustaqil ishlar;
- tadqiqiy mustaqil ishlar;
- ijodiy tadqiqot ishlari.

Namunalar bo‘yicha mustaqil ishlar tipik vazifalarni, turli maqlarni namuna asosida echishdir. ular materiallarni o‘zlashtirishga omil bo‘lib xizmat qiladi, lekin o‘quvchilarning ijodiy faolligini o‘stirmaydi.

Rekonstruktiv-variantiv mustaqil ishlar nafaqt bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlab chiqishni, masala yoki muammoni echishda ilgari o‘zlashtirilgan bilimlarni jalb qilishni ko‘zda to‘tadi.

Evristik (qisman ijodiy) mustaqil ishlar ma‘ruza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar, seminar mashg‘ulotlarida o‘rtaga tashlangan ayrim muammo va masalalarni hal qilish bilan bog‘liq.


Tadqiqiy mustaqil ishlarda tadqiqot muammosini ko‘ra olish malakasini, uni musatqil ifodalay olish, farazni belgilab olish, muammoning hal qilinishi rejasini ishlab chiqish va uni hal etishni ko‘zda tutiladi.

Ijodiy tadqiqot ishlari. Bunday ishlarda vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini taqozo qiladigan sharoit yaratishdan iborat bo‘ladi. O‘qitishning hozirgi jarayoni tahlili psixolog va pedagoglarning fikricha, muammoli vaziyat, kutilmagan, hayrat va mahliyo bo‘lishdan boshlanadi. O‘qitish sharoitida insonning psixik, emotsional va xissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanishi uchun o‘ziga xos turtki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan

o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. U bilishning maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilimlar va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Yangi bilimlar o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. O'quvchi o'z faoliyatida tayyor namunalardan ozod bo'lgan holda masalani hal qilinish yo'llarini qidiradi, tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment qo'yish, jihozlar, maketlar va boshqalarni loyhalash bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

5.1-rasm. Mustaqil ishlarning ta'lim jarayonidagi vazifalari.



Shunday qilib, mustaqil ishlar o'qitishning eng muhim uslubi bo'lib, unda o'quvchilar mashg'ulotlarga tayyorlanish, olingan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash jarayonida ularning individual faolligi oshadi. Geografiya ta'limida mustaqil ishlar tizimini **mustaqil ish turlari** bo'yicha ishlab chiqish yaxshi samara beradi. Maktab geografiya ta'limida tashkil etiladigan mustaqil ishlar tizimini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

I. Maktab geografiya kurslari bo'yicha:

1. Tabiatshunoslik kurslari;
2. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi;
3. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi;
4. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi;
5. O'zbekiston tabiiy geografiyasi;
6. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi
7. Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi
8. Amaliy geografiya

Bunda har bir geografiya kursidagi mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlar dasturda berilgan mavzular bo'yicha ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

II. Bilim tarkibi (komponentlari) bo'yicha:

1. Umumiy tushunchalarni shakllantirish;
2. Xususiy tushunchalarni shakllantirish;
3. Geografik bilimlarni shakllantirish;
4. Geografik ko'nikmalarni shakllantirish;
5. Geografik faktlar bilan ishlashga o'rgatish;
6. Sabab-oqibat bog'lanishlarni aniqlashga o'rgatish.
7. Geografik qonuniyatlarni shakllantirish;
8. O'quv faoliyati (ish) usullarini shakllantirish.

III. Didaktik maqsadlar bo'yicha:

1. Tayanch bilim va ko'nikmalarni tiklash;
2. O'rganilgan o'quv materillarini mustahkamlash;
3. Yangi bilim va ko'nikmalarni egallash;
4. Bilim va ko'nikmalarni tizimga solish.

IV. Bilim manbalari bo'yicha:

1. Darslik bilan ishlash;
2. Geografik kartalar bilan ishlash
3. Kontur kartalar bilan ishlash;
4. Ta'limning texnika vositalari (kompyuter, kinofilm) bilan ishlash;
5. Tarqatma didaktik materiallar (foydali qazilma namunalari) bilan ishlash;
6. Qo'shimcha adabiyotlar (ilmiy ommabop ktoblar, lug'at va spravochniklar) bilan ishlash;
7. Vaqtli matbuot materiallari (gazeta, jurnal, internet ma'lumotlari) bilan ishlash;
8. Statistika ma'lumotlar va raqamli materiallar (jadval, diagrammalar) bilan ishlash;
9. Illyustratsiyalar bilan ishlash;
10. Tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatish materiallarini ishlab chiqish

3. Maktab geografiya kurslarida mustaqil ishlarni tashkil etish.

Ko'p yillik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, geografiya kurslari materiallarini o'rganish jarayonida bajariladigan mustaqil ishlar o'quvchilarga geografik qonuniyatlarni, yangi tushuncha, bilim va ko'nikmalarni puxta o'zlashtirish, mustaqil bilim olishga oid zarur malakalarni takomillashtirish imkoniyatini beradi. Mustaqil ish ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirishda, yangi materiallarni o'rganishda va mustahkamlashda, takrorlashda, shuningdek, ekskursiyada tadbiq etilishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maktab geografiya kurslaridagi mustaqil ishlar quyi sinflardan yuqori sinflarga

tomon asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Tabiiy geografiya kurslari tizimi maktabda V sinfdan boshlanadi. V sinfdan VII sinfga qadar o'quvchilarda maktab tabiiy geografiya kurslari mazmunini tashkil etuvchi umumiy va regional tushunchalar, ko'nikma va malakalar tizimi tarkib topishi lozim.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi tabiatshunoslik kursidan olingan bilimlarni kengaytiradi. Bu kursda umumiy yer bilimiga oid ma'lumotlar beriladi, o'quvchilar tabiat komponentlari o'rtasidagi aloqalarni tushunib oladilar. Bu esa navbatdagi geografiya kurslarini o'rganish uchun zamin bo'ladi. Chunki o'quvchilar "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi", "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi", "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" kurslarida o'rganiladigan ma'lumotlarni ongli o'zlashtirilishi uchun zarur bo'lgan geografik tushuncha, atama va nomlar, tabiatda ro'y beradigan hodisa va jarayonlar bilan aynan tabiiy geografiya boshlang'ich kursida tanishtiriladi. Bu kursda o'quvchilarga o'z joyining geografik xususiyatlari, globus va kartalarda Yer sharining tasvirlanishi to'g'risida, jahon aholisi, dunyo siyosiy kartasida O'zbekiston va ayrim davlatlarning to'tgan o'rni to'g'risida kartografik tasavvurlar ham beriladi.

O'quvchilar tabiiy geografiya boshlang'ich kursida tevarak-atrofdagi landshaft, narsa va hodisalarning mohiyatini aniqlaydilar, tabiatda ro'y beradigan hodisa va qonuniyatlarni o'rganadilar. Geografiyani o'lka materiallari asosida o'rganish va geografiya faniga hissa qo'shgan vatandosh geograflar faoliyati bilan tanishish o'quvchilarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi o'quvchilarning boshqa o'quv fanlarini ongli ravishda o'rganishga tayyorlashda ham katta rol o'ynaydi. Kursning ushbu vazifalarini samarali amalga oshirilishida mustaqil ishlarning o'rni beqiyosdir. Bu kursni o'rganish jarayonida o'quvchilar tabiatdagi ayrim hodisa va jarayonlarni mustaqil kuzatishni boshlaydilar. Kuzatish o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, egallangan bilimlarni aniq va mustahkam bo'lishiga yordam beradi. Muntazam kuzatish natijasida o'quvchilar mustaqil xulosa chiqarishga o'rganadilar. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida umumiy tushunchalar asosiy o'rinni egallaydi. Umumiy tushunchadan predmet va hodisalarning asosiy qismi (yer yuzasining turli shakllari, daryo, ariq, yer osti suvlari, nurash, atmosfera hodisalari kabilar) maktab atrofidagi tabiatda uchraydi. Mazkur kursda o'quvchilar tabiat ob'ektlari va hodisalarini kuzatishga oid muayyan amaliy ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Geografiya asoslarini o'rganishda eng zarur astronomik, meteorologik, geomorfologik, gidrologik, fenologik va majmuaviy kuzatishlarga katta e'tibor qaratilishi lozim.

Quyida **Tabiiy geografiya boshlang'ich kursidagi** ayrim mavzular bo'yicha **mustaqil ish** topshiriqlarini ko'rib chiqamiz:

1-mavzu: Kirish. Geografiya nimani o'rganadi? (1-dars).

1-Topshiriq. Ob-havoning o'zgarishini mustaqil kuzatib boring. Buning uchun "2018 yil ob-havoni kuzatish daftari"ni yurgizing. Daftarning 1-betiga darsligingizni 7-betidagi "Ob-havo

hodisalarini shartli belgilari”ni chizib oling. Darslikda berilgan ob-havo ma’lumotlari jadvalini to’ldirib boring.

5.1-jadval. Ob-havo ma’lumotlarini kuzatish jadvali

2018 yil sentyabr oyi uchun

Kun sana	soat	Havo harorati °S Kuzatilgan	o‘rtacha	Havo bosimi	Shamol Yo‘na Lishi	kuchi	Bulutli lik	Bulut turi	Yog‘in turi	Tabiat dagi boshqa hodisalar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11

Izoh: Kuzatilgan xar oylik ob-havo natijalari ishlab chiqiladi. O‘quvchilarni yanada murakkabroq kuzatishga tayyorlash maqsadida “Oyning qaysi kunda harorat eng past bo‘ldi? SHamol ko‘proq qaysi tomonga esdi? Bulutli va bulutsiz kunlarning nisbati qanday? YOG‘inning aysi turlari yog‘di?” kabi savollarni berib borish maqsadga muvofiq.

2-Topshiriq. O‘simlik va hayvonlardagi mavsumiy (fenologik) o‘zgarishlarni mustaqil kuzating. Kuzatish natijalarini kuzatish olib borilgan sana bilan birgalikda quyidagi jadvalga yozib boring.

Izoh: Tabiatda (masalan, ekskursiyada), qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida, maktab o‘quv-tajriba maydonida, geografiya maydonchasida fenologik kuzatishlar olib boriladi. Bu kuzatishlar ob-havoni kuzatish bilan bevosita bog‘liq. Jonli tabiatning mavsumiy rivojlanish qonuniyatlarini mustaqil kuzatish bo‘yicha o‘quvchilar yuqoridagi mustaqil ishni yil davomida bajarib borishlari maqsadga muvofiq.

17-ma’ruza: O‘qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash

Reja

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mohiyati
2. Interfaol ta’limning umumiy tavsifi
3. Interfaol metodlar va ularning qo‘llanilishi
4. Muammoli ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish.
5. Geografiya ta’limida muammoli metodlardan foydalanish usullari.
6. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining metodlari
7. Didaktik o‘yinlarning turlari va tashkil etish usullari
8. O‘quvchilarning geografik bilim va malakalarini rivojlantirishda o‘yinlarning tutgan o‘rni va ahamiyati

Tayanch iboralar

Texnologiya, pedagogik texnologiya, ta’lim texnologiyasi, interfaol ta’lim, an’anaviy ta’lim texnologiyasi, noan’anaviy ta’lim texnologiyasi, muammoli ta’lim, muammoli vaziyat

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mohiyati

Pedagogik texnologiya - barcha boshqariluvchi tashkiliy qismlar va ularning bog‘liqligini tahlil qilish, tanlash, loyihalash va nazorat qilish yo‘li bilan pedagogik samaradorlikni yuqori darajaga ko‘tarish hamda bu borada tizimli yondashuvni joriy etishni ifodalaydi. Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida XXI asrda davlatimiz ta‘lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o‘qituvchi faoliyati yangilanadi, talabalarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muxabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari tizimli ravishda shakllanadi.

Texnologiya tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga XX asrning 2-yarmida kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan-*texnos* (technt)- san‘at, hunar, mahorat va *logos* (logos) - fan, ta‘limot so‘zlaridan tashkil topib, hunar fani ma‘nosini anglatadi. «Pedagogik texnologiya» iborasi fanga birinchi marta 1970 yilda yapon olimi T.Sakamoto tomonidan kiritilgan. Olimning fikricha, pedagogik texnologiya o‘qitishning maqbulligini ta‘minlovchi yo‘l-yo‘riqlar tizimi bilan bog‘liq bilimlar sohasidir. Professor N.F.Talizina pedagogik texnologiyani belgilangan o‘quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat deb hisoblaydi.

Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda, amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda to‘tadi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, texnologik jarayon bu mehnat qurollari bilan mehnat ob‘ektlariga bosqichma-bosqich ta‘sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchining faoliyatidir. “Pedagogik texnologiya” so‘z birligi esa inglizcha “**an educational technology**” – “**ta‘lim texnologiyasi**” iborasining aniq bo‘lmagan tarjimai bo‘lib, ta‘lim (o‘qitish) jarayonini yuksak mahorat, san‘at darajasida tashkil etish borasida ma‘lumotlar beruvchi ta‘limot ma‘nosini anglatadi.

Ta‘lim texnologiyasining juda ko‘p ta‘riflari mavjud. Shulardan eng maqbuli va jahon pedagoglari tomonidan e‘tirof etilgani YUNESKO tomonidan quyidagicha berilgan ta‘rifdir:

“Ta‘lim texnologiyasi”-ta‘lim olish shakllarini maqbullashtirishni o‘z vazifalari deb qo‘yuvchi, ya‘ni butun ta‘lim berish jarayonini hamda texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda, bilimlarni o‘zlashtirish, ularning o‘zaro harakatini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli usulidir”. Pedagogik texnologiya esa – bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida talaba-o‘quvchilarga muayyan sharoitda ta‘sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.


Yangi texnologiyalarni loyihalash va ulardan ta‘lim-tarbiya jarayonida foydalanish ma‘lum qonuniyatlarga asoslanadi. Bu asoslar pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlarini ifoda etadi va metodikadan farqli tomonlarini ko‘rsatib beradi. Boshqacha aytganda, ularni pedagogik texnologiya tamoyillari (tamoyillari) deb atash mumkin. Tamoyil yoki prinsip – yunoncha - "princip" so‘zidan olingan bo‘lib, “*asos, dastlabki holat, boshqaruvchi g‘oya, umumlashgan talab*” kabi ma‘nolarni anglatadi. **Yangi pedagogik texnologiyaning**

asosiy tamoyillari: yaxlitlik tamoyili, o‘qitishning tugallanganlik tamoyili? yakuniy natijaning kafolatlanishi tamoyili? oldindan loyihalash tamoyili. Hozirgi kunda mamlakatimiz ta’lim muassasalarida keng qo‘llanilib kelinayotgan ta’lim texnologiyalariga didaktik o‘yinlar, interfaol ta’lim, modulli ta’lim, loyihali ta’lim, muammoli ta’lim kabilarni kiritish mumkin.

2. Interfaol ta’limning umumiy tavsifi

Interfaol ta’lim – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’limdir. **“Interfaol”** tushunchasi ingliz tilida “interact”(rus tilida “interaktiv”) ifodalanib, lug‘aviy nuqtai nazardan “inter” – o‘zaro, ikki taraflama, “act” – harakat qilmoq, ish ko‘rmoq kabi ma’nolarni anglatadi. Interfaollik ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarida namoyon bo‘ladi.

17.1-rasm



Interfaol o‘qitish “ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quvchilar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilarni tavsiflanadi”.

Interfaol ta’lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mashg‘ulot – ma’ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.

2. Guruhning tajribasi o'qituvchi (pedagog)ning tajribasidan ko'p.
3. O'quvchilar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.
4. Har bir o'quvchi o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg'ulotda fikr tanqid qilinishi mumkin, lekin o'quvchi shaxsi tanqid qilinmaydi.
6. Bildirilgan g'oyalar o'quvchilarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi.

interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Ularga "ajurli arra" (fransuzcha "ajour" – bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq), "asalari galasi", "aqliy hujum", "baliq skeleti", "bahs-munozara", "BBB", "blits-so'rov", "venn diagrammasi", "debat" va boshqa metodlarni kiritish mumkin. O'qituvchi muammoli darsning loyihasini ishlab chiqishda quyidagi topshiriqlarni ketma-ket bir butunlikda amalga oshirishi kerak.

1-bosqich: O'qituvchi dastur, darslik, metodik qo'llanma va sinf o'quvchilarining umumiy tavsifi bilan tanishib chiqishi lozim.

2-bosqich: Darsning asosiy vazifalari majmuasini: o'qitish, ta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad va rivojlantiruvchi maqsadlarni va vazifalarini belgilash.

3-bosqich: Darsning asosiy bosqichlarini to'g'ri, aniq va izchillikda joylashtirish.

4-bosqich: Darsning har bir bosqichi mazmunidagi asosiy o'rinli ajratib olish.

5-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o'qitish metodlarini, vositalarini, texnologiyalarni tanlash.

6-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o'qitishning yetakchi; umumsinfiy, kichik guruh va individual shaklini tanlab olish.

7-bosqich: Bo'sh o'zlashtiruvchi va tayyorgarligi kuchli bo'lgan o'quvchilar uchun tafovutlangan mashq va vazifalarni tanlash.

8-bosqich: Tegishli sinf o'quvchilari uchun vaqt me'yorlariga muvofiq uy vazifasining maqbul hajmini tanlash.

Interfaol ta'lim jarayonida o'quvchi (talaba)lar:

- guruh yoki jamoa bilan ishlash;
- tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash;
- o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;

- turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqish ko'nikmalarini o'zlashtirish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi

3. Interfaol metodlar va ularning qo'llanilishi

“Ajurli arra” metodi

“Ajurli arra” (fransuzcha “ajour” – bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq) metodi o'quvchi (talaba)larga yaxlit muayyan mavzuni bir nechta qismlarga ajratish orqali mohiyatini yoritish imkoniyatini yaratadi. Ushbu metod qo'llanilganda o'quvchi (talaba)lar tayyor matnlar bilan ishlaydi.

Mashg'ulotda metodni qo'llash quyidagi taxlitda amalga oshiriladi:

1. O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni metod mohiyati bilan tanishtiradi
2. Ularni guruhlariga ajratadi
3. O'zlashtiriladigan materiallar matni bir nechta qismlarga

ajratilgan holda alohida qog'ozlarda qayd qilinadi

4. Matnli materiallar joylashtirilgan paket guruhlariga tarqatiladi
5. Guruhlar matnli materiallardan foydalanib, topshiriqni bajaradi
6. Topshiriq bajarilgach, har bir guruhdan matnni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi (talaba) ajratib olinib, ulardan ekspert guruhi shakllantiriladi
7. Ekspert guruhi a'zolari o'zlari o'zlashtirgan material mazmunini boshqalarga yetkazish rejasini tuzadi
8. Ekspert guruhi a'zolari o'zlari o'zlashtirgan material mazmunini boshqa guruhlariga ham o'rgatadi

Metodni qo'llashda o'quvchi (talaba)larning mavzuni puxta o'zlashtirganliklari, o'zlari ega bo'lgan bilimlarni boshqalarga yetkazib berish layoqatiga ega bo'lishlari muhim sanaladi.

“Akvarium” texnologiyasi

Ta'lim jarayonida ushbu texnologiyani qo'llashdan maqsad o'quvchi (talaba)ni ma'lum muammo bo'yicha fikrlash, o'z fikrini bayon etish, muammoni sherik (suhbatdosh) bilan birgalikda muhokama qilishga o'rgatishdan iborat. Metodni qo'llashda quyidagi tashkiliy harakatlar tashkil etiladi: O'quv xonasida stullardan iborat ikkita doira tashkil etiladi. 1-doirada stullar tashqariga, 2-doirada esa ichkariga qarab joylashtiriladi. O'quvchilar ikki guruhga bo'linib, 1-guruh stullar tashqariga qaratib qo'yilgan doiradan, 2-guruh esa stullar ichkariga qaratib qo'yilgan doiradan joy oladi. 1-guruh (tashqi doira)dagilar “Tahlilchilar”, 2-guruh (ichki stullar)dagilar “Kuzatuvchilar” rolini bajarishadi.

Metodni qo'llash tartibi quyidagicha: Tashqi doiradagi o'quvchilarga muhokama qilish uchun savol beriladi. O'quvchilar o'yab olganlaridan so'ng savolni chap tomonida o'tirgan sherigi bilan 1-2 daqiqa muhokama qiladi. O'qituvchining ishorasi bilan “Tahlilchilar” (tashqi doiradagilar)

bir o‘rin chapga surilib, o‘sha savolni yangi sherigi bilan muhokama qilishadi. “Tahlilchilar” o‘rin almashtirishda 1-sheriklariga yaqinlashgunlaricha yoki yangi sheriklar bo‘lgunga qadar savolni muhokama qilishni davom ettiradi. “Tahlilchilar”ning asosiy vazifasi savol yuzasidan muhokamani tashkil etish, “Kuzatuvchilar”ning asosiy vazifasi esa 1-guruh (“Tahlilchilar”) faoliyatini kuzatib baholashdan iborat.


“Beshinchisi (oltinchisi, ettinchisi, ...) ortiqcha” metodi

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ko‘rsata va asoslay olish o‘quvchi (talaba)larda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini dalillash tengdoshlarning fikrlari va shaxsiy g‘oyalarni o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantirishga imkon beradi.

“Asalari galasi” metodi

“Asalari galasi” metodi o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha tanlangan muammoning auditoriyada umumiy yoki kichik guruhlarda alohida tahlil qilinishiga yordam beradi. Metodni qo‘llashda kichik guruhlarga beriladigan topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo‘lishi mumkin. Guruhlarga berilgan topshiriq muayyan muddat ichida muhokama qilinib, natija barchaga ma‘lum qilinadi. Mashg‘ulot yakunida masalaning eng maqbul echimi tanlab olinadi.

Mashg‘ulot jarayonida metodni qo‘llashda quyidagicha yo‘l tutiladi:



O‘quvchi (talaba)larning mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1) o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan tushunchalar tizimini shakllantirish;

2) hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;

3) o‘quvchi (talaba)larga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

4) o‘quvchi (talaba)larni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tish, ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslash talab qilinadi)

“Jadval” metodi

Mashg‘ulotda metodni qo‘llash bo‘yicha o‘quvchi (talaba)larga quyidagi jadval namunasini taqdim etish mumkin:

Mohiyati	Ijtimoiy tarbiya turlari				
	Ma’naviy-axloqiy tarbiya	Aqliy tarbiya	Jismoniy tarbiya	Estetik tarbiya	Mehnat tarbiyasi
Maqsadi					
Vazifalari					
O‘ziga xos jihatlari					

Metod o‘quvchi (talaba)larda o‘rganilayotgan mavzu, muhokama etilayotgan masala yoki muammoning nazariy mohiyatini jadval yordamida aks ettirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llashda o‘quvchi (talaba)lar mavzu (masala, muammo) mohiyatini og‘zaki bayon yoki yozma matn ko‘rinishida emas, balki asosiy g‘oya, tayanch tushuncha, muhim jihatlarni jadvalda aniq, qisqa ifodalash ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi. Muammoli o‘qitish texnologiyasi o‘rganilayotgan mavzudagi asosiy muammoni ajratib olish va muammoni o‘quvchilar tomonidan mustaqil hal etilishini ta’minlashga xizmat qiluvchi ta’lim texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Bunda muammoning turi, muammoning sabablari va ko‘rinishlari, muammoni hal etish uchun harakatlar belgilanadi.

4. Muammoli ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish.

Muammoli ta’lim bu – o‘quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo‘l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o‘qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta’lim darsda bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi harakati bo‘lib, u o‘quvchi shaxsidagi muhim belgi – ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. N.G.Dayri aytganidek, darsda o‘rganiladigan mavzuning murakkab qismini o‘zlashtirishda o‘qituvchining faoliyati qanday bo‘lsa, o‘quvchi faoliyatini ham shu darajaga yetkazish muammoli ta’limning asosiy maqsadidir.

Muammoli ta'lim o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'zining fikrini erkin bayon qila olishga va fikrini yanada rivojlantirishga o'rgatadi. Bunda o'quvchi diqqat bilan tinglashi, mustaqil va yolg'iz fikrlashi, jamoa bo'lib fikrlashi, tahlil qilishi, ko'pchilik bo'lib muhokama qilishi va to'plangan fikrlarni bayon qila olishi kerak. Agar o'qituvchi yangi mavzuni ta'sirli bayon qilib, ko'rgazmalardan unumli foydalansa, bayon nihoyasida ayrim o'quvchilar bilan ish olib borsa, o'quv jarayoni samarali bo'ldi yoki faol bo'ldi, deb hisoblash mumkin. Ammo bu ta'lim usuli an'anaviy ta'lim berishdir. Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkur – muammoli vaziyatdan boshlanadi"- degan g'oya yotadi va muammoli vaziyatda bilish faoliyatining ketma-ketligi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

- muammoli vaziyat;
- muammoni echish yo'llarini izlash;
- muammoning echimi.

An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi va darslik bilimning asosiy manbai bo'lsa, muammoli o'qitishning falsafasi va metodologiyasida o'qituvchi o'quvchilarning izlanish–tadqiqotchilik faoliyatining tashkilotchisi, mutasaddi maslahatchisi va yordamchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bu rol an'anaviy o'qitishdagi roldan ancha murakkab bo'lib, u o'qituvchidan chuqur bilim va pedagogik mahoratni talab qiladi.

Muammoli o'qitish konsepsiyasida muammoli vaziyatning birinchi sharti o'qituvchi o'zi echishi lozim bo'lgan ziddlikni ko'rishidan iborat ekanligini ta'kidlanadi. Muammoli o'qitish texnologiyasi asosida amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog J. Dyui g'oyalari yotadi. U 1894 yilda Chikago shahrida o'qitish asosini o'quv rejasi emas, balki o'yinlar va mehnat faoliyati tashkil etgan tajriba maktabini tashkil qilgan. O'qish, hisoblash, yozish bo'yicha mashg'ulotlar bolalarning fiziologik balog'atiga qarab, o'z – o'zidan paydo bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq o'tkazilgan. J.Dyui o'qish uchun to'rt ehtiyojni ajratgan: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifoda, tadqiqiy. Bilish manbalari sifatida bolalarga quyidagilar taqdim etilgan: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar. J.Dyui g'oyalari bo'yicha, bola bilishda insoniyat yo'lini qaytaradi, bilimlarni o'zlashtirish boshqarilmaydigan jarayon bo'lib, bola o'zida hosil bo'lgan ehtiyojni qondirishi natijasi sifatida materialni o'zlashtiradi. J.Dyuining fikricha, o'qitish samaradorligining shartlari hamda o'quv materialini muammolashtirish o'quvchi faolligi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Muammoli o'qitish – o'quvchining muammoli taqdim etilgan ta'lim mazmuni bilan faol o'zaro bog'lanishni tashkil etadi. Bu jarayonda o'quvchi ilmiy bilimning ob'ektiv ziddliklari va ularning echimlariga yaqinlashadi, fikrlash, bilimlarni ijodiy o'zlashtirishga o'rganadi. Muammoli ta'limning asosiy omillari quyidagilardan iborat: Muammoli o'qitishning yakuniy maqsadi – o'quvchilarni muammolarni ko'rish va echishga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu faqat fikrlash faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

Muammoli ta'limga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi unda qo'llaniladigan metodlarni asoslab berishni talab qiladi. Muammoli ta'lim metodlari o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishish, o'quvchilarning fikrini bayon etishga imkoniyat yaratuvchi innovatsion metodlar qatoriga kiradi (3-sxema).

Ijodiy metod o'quvchilarning ijodiy mustaqilligini to'la amalga oshiradi. Bunda o'quvchi o'qituvchining bergan vazifasini bajaradi, ayni vaqtda o'zlari ham o'quv muammosini shakllantiradi, mustaqil ravishda gipotezani echishga harakat qiladi. Izlanishni amalga oshiradi va pirovard natijaga erishadi. SHu tariqa ijodiy metodni qo'llash bilan o'quvchilar faoliyati olimlarning ilmiy – tadqiqot faoliyatiga yaqinlashadi. O'qituvchi faqat talabalarning ilmiy izlanishlariga umumiy rahbarlik qiladi. Vazifalar esa ularning mustaqil o'quv – bilish xatti-harakatlarining to'la davriyligini ko'zda tutadi yoki tahlilgacha axborotlar yig'iladi yoki echilishiga qadar o'quv muammosi qo'yiladi hamda echimlar tekshirib ko'riladi va yangi bilimlar joriy qilinadi.

Ijodiy metoddan o'rganilayotgan kursning umumiy asoslarini qamrab olgan eng muhim mavzularni o'tishda foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa boshqa barcha materiallarning tobora ongli o'zlashtirilishiga olib kelishi lozim. Shuningdek, bunday metodda mashg'ulot o'tkazish uchun o'qituvchi tanlagan bo'lim yoki mavzu o'quvchilarning idrok qilishlariga qulay bo'lishini nazarda tutishi lozim. Bu metod ta'lim oluvchidan uzoq vaqtni va maxsus sharoit yaratilishini talab etadi.

O'quvchilarning ijodiy ishlari shakliy jihatdan rang – barang bo'lishi mumkin. Masalan, ma'ruza matnini tayyorlash, seminarga tayyorgarlik ko'rish, u yoki bu masalaning nazariy holatini o'rganish, ya'ni, adabiyotlar bilan ishlash, hujjatlarini o'rganish, internet ma'lumotlari to'plash, gazeta va jurnal ma'lumotlari to'plash, ko'rgazmali qurollar tayyorlash, didaktik maeriallar tayyorlash va boshqalar.

Evristik yoki qisman ijodiy metod murakkab muammoni bo'laklarga ajratib, uning qulay masalalarini bosqichma-bosqich aniqlab olishda qo'llaniladi va unda hal qilingan har bir bosqich (qadam) masalaning keyingi bosqichini echishda asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda o'quvchilar o'quv muammosining qo'yilishida, gipotezani tahmin qilish va isbotlashda faol qatnashadilar. Ularning faoliyati reproduktiv va ijodiy unsurlarni o'zida qamrab oladi. Bunda o'qitishning qidiruv (izlanish) suhbat o'quvchilarning javoblari va to'ldirishlariga qo'shimcha qilgan holda o'qituvchining bayoni, faktlarni kuzatish va umumlashtirish usullari qo'llaniladi. Bu hollarda o'quvchilarning reproduktiv va qidiruv faoliyatining muvofiqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ular biror bosqichdagi o'quv muammosining mustaqil hal qilinishidan, to ularidan aksariyati echilgunga qadar kuchli o'zgarib turishi mumkin.

Mashg'ulotlarda ijodiy suhbatni qo'llash maqsadga muvofiq. O'quvchilar bunday suhbat jarayonida o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan bilimlari, ijodiy faoliyati tajribasiga asoslangan

holda, o'qituvchi rahbarligida muammoni izlaydi va mustaqil ravishda uning echimini topadi. O'quvchilar o'z tashabbuslari bilan savollarga javob beradilar yoki o'z chiqishlarida turli mulohazalarni bildiradilar. Bunda ular muammoning echilishidagi o'z variantlarini ilgari suradilar, hodisalar o'rtasidagi rang-barang aloqalarni qayd qiladilar, bahslashadilar, boshqalarning fikriga tanqidiy munosabat bildiradilar. Bu jarayonda o'qituvchining o'quvchilarga yordam berish darajasi ularning mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ijodiy suhbatga tayyorlashda o'qituvchining unga o'ta mas'uliyat bilan yondoshishi talab qilinadi. O'qituvchi bunday suhbatga oldindan jiddiy tayyorgarlik ko'rish lozim. U avvaldan shunday savollar o'ylab topishi kerakki, ular o'quvchining u yoki bu hodisaning mohiyatini o'ylashga majbur etsin. Bunda o'qituvchi suhbat yo'nalishi va gipotezaning ehtimol ko'rilgan variantlari va uning echilish yo'llarini bashorat qila olishi lozim. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarning darsga muammoni echish uchun umuman tayyorgarlik ko'rib kelmasligini ham ko'zda tutishi va bunday vaqtda sodda va murakkablashtirib boruvchi qo'shimcha savollarni tayyorlab qo'yishi lozim. Bunday savollar orqali o'quvchilar ijodiy hal qilishi shart bo'lgan vazifalarni qismlarga ajratish ham zarur bo'ladi, ya'ni muammo kichik muammolarga bo'linadi va muammoli vazifa echiladi. O'qituvchi bunday vaziyatda talabalarga tezroq yordam berish, kamchiligini tuzatish va yanglish fikr bildirganlarga tanbeh berishga shoshilmasligi, balki qo'shimcha savollar bilan o'zlarining xatosini anglashga va to'g'ri qaror qabul qilishlariga erishish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy suhbat davomida kamroq tayyorgarlik ko'rgan, jonli fikr olishuvlarda, shuningdek, indamaslikni xush ko'radigan o'quvchilarga alohida ahamiyat berish lozim. Bunday o'quvchilarning xulqlarini ko'zda tutgan holda ulardan ham fikr-mulohaza chiqishiga erishish maqsadida ular uchun ham avvaldan savollar tayyorlab qo'yish kerak bo'ladi. Ijodiy xarakterdagi suhbat o'quv-tadqiqot ishlarining zaruriy bosqichi hisoblanadi. Unda talabalarning o'zida tadqiqot ishlari unsurlari mavjud bo'lgan qisman ijodiy faoliyatning bajarilishini talab qiladigan muammoli xarakterdagi mantiqiy masalalar diqqatni jalb qiladi.

Materialni muammoli bayon qilish metodi. Bunda tashabbus o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va tobora faollashtirilib boriladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilishda uning echilishini o'zi ta'minlaydi. Bunda o'qituvchi ziddiyatlarni ta'kidlaydi, uni barchaga eshittirib muhokama qiladi, o'z mulohazalarini bildiradi, haqiqatni faktlar, mantiqiy isbotlar tizimi yordamida asoslaydi. O'qituvchi bu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshira olsa, o'quvchilar uning fikrlari borishiga, muammolarning echilish oqimiga diqqat bilan qo'shib boradi, birga fikr yuritadi, shu tariqa mashg'ulotning qatnashchisiga aylanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchining bilish jarayonini savollar berish, savolga savol berish yo'li bilan boshqaradi va shu bilan sinfdagi o'rganilayotgan materiallar bo'yicha ziddiyatlarga diqqatni jalb qiladi. Shu orqali o'quvchilarni o'ylab fikr

yuritishga majbur qiladi.

Materialni muammoli bayon qilish axborotni bayon qilishdan tubdan farq qiladi, chunki unda u yoki bu hodisaning belgilari, xossalari, tushunchalari, qoidalari shunchaki tasvirlab beriladi, tayyor xulosalar bayon qilinadi. O'quv axbortlarining muammoli bayoni metodidan foydalanishning boshqa varianti, fan taraqqiyoti tarixidagi u yoki bu qonunning olimlar tomonidan kashf etilishi yo'lini yoritib berishi ham mumkin. O'quv jarayoning keng tarqalgan metodlardan biri – o'quv axborotlari bayonini muammoli boshlash metodidir. Bu metod materialni muammoli bayon qilish metodidan muammoli vaziyat faqat materialni boshidagina yaratilishi bilan farq qiladi.

Fanda muammoli o'qitish bilan aloqador ikkita tushuncha ishlatiladi: "muammo" va "muammoli vaziyat" tushunchalari. Ayrim hollarda ular sinonimdek tushunilsada, lekin bu atamalar bilan belgilangan ob'ektlar o'z hajmi bilan farqlanadi. Muammo - muammoli masalalar ketma-ketligiga ajraladi. Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: Ma'lum (berilgan vazifa asosida); noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi); avvalgi bilimlar (o'quvchilar tajribasi). Avvalo, o'quvchiga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi noma'lum bo'ladi. Lekin o'quvchilar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib, kutilgan natija yoki echilish yo'lini izlashga tushadi.

Shunday qilib, o'quvchilar biladigan vazifa va uni mustaqil hal qilinish usuli o'quv muammosi bo'la olmaydi, ikkinchidan biron vazifani echilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi. O'quv muammosini muhim belgilari quyidagilardan iborat: Yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma'lumning qo'yilishi; o'quvchilarda noma'lumni topish yo'lida izlanishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muayyan bilim zahirasi bo'lishi.

O'quv muammosini echish jarayonida o'quvchilar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning echilish usulini o'ylab topish yoki gipoteza qo'yish hamda uni asoslashdir. O'quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirilib boriladi va bunda har bir savol uning hal qilinishida bir bosqich bo'lib xizmat qiladi. Muammoning tarkibiy qismlari, ma'lum va noma'lumning o'zaro munosabati xarakteri bilimga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va faol bilishga bo'lgan izlanishga undaydi. Ta'kidlash joizki, muammoli o'qitishning zaruriy sharti o'quvchilarda haqiqatni va uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatni vujudga keltirish hisoblanadi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. SHunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat "shunchaki fikr yo'lidagi kutilmagan to'siq" bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilingan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish

uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lavermasligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. Shunday qilib, muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u o'quvchi tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir

Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u o'quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va ularni izlanishga, fikrlashga o'rgatadi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, o'quvchining muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob'ekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish va bilimga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi. Muammoli ta'lim nazariyasida muammoli vaziyatning ikki turi mavjud: psixologik muammoli vaziyatlar va pedagogik muammoli vaziyatlar.

Dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish o'qituvchining mahoratiga, bilimi va pedagogik vaziyatlarni to'g'ri baholay olish malakasiga bog'liq. Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, eng avvalo, mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlarni yaratish, o'quvchilar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchilar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat.

Ma'lumki, o'qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda ob'ektiv qonuniyatlar didaktik tamoyil – muammolikka tayanadi. Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o'qituvchi uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi hech qachon o'quvchilarga tayyor haqiqatni (echimni) berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatida zarur bo'lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagilarni hal qilishi kerak:

-O'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini aniqlash;

-Mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar va topshiriqlarni aniqlashda didaktikaning ketma-ketlik, izchillik tamoyillariga amal qilish;

-O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va

usullarni aniqlash, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilash.

Muammoli ta'lim o'qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir minutini hisobga olishni, ushbu vaqtda kerakli samara hosil bo'lishi uchun o'zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o'qituvchining bo'lajak o'quv mashg'ulotiga tayyorgarligidir. Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta'limning barcha ko'rinishlarini hisobga olish va uning metodini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta'limga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar.

Ana shunday qiyinchiliklardan birinchisi darsni muammoli tashkil qilish va muammoni o'rganish metodini tanlashdadir. Chunki tanlangan usul faqat o'quv materialini o'zlashtirishni ta'minlabgina qolmay, balki o'quvchilar faoliyatida mustaqillikni ham ta'minlashi zarur. Ikkinchi qiyinchilik esa muammoli ta'limning ko'rinishini aniqlashda yuzaga keladi, ya'ni o'qituvchi muammoni echishga sinfdagi barcha o'quvchilarni jalb qiladimi yoki vazifani ayrim guruh o'quvchilariga bajartiradimi? Bu qiyinchilik o'qituvchida muammoli vaziyat va muammoning bayoni haqidagi tasavvurlarning etishmasligidan kelib chiqadi. Uchinchi qiyinchilik esa darsda o'quvlarning qiziqishini uyg'otish va uni uzluksiz rivojlantirib borishda ko'rinadi. Chunki o'quvchilar diqqatini bir nuqtaga muntazam to'plashga o'qituvchining tajribasi va mahorati etishmasligi mumkin.

5. Geografiya ta'limida muammoli metodlardan foydalanish usullari.

Muammoli o'qitishni ta'lim jarayoniga tatbiq etishda o'qituvchi ilmiy muammolar va o'quv muammolari orasidagi umumiylikni va farqni ajratishi lozim. Ularning umumiyligi – har ikkalasida ham ob'ektiv zidliklar mavjudligi bo'lsa, ilmiy va o'quv muammolarini farqi shuki, ilmiy muammoda qo'yilgan masala hali echilmagan, o'quv muammosida esa masala echilgan, uni echish yo'li va natijasi ma'lum. Faqat bu yo'llar va natijalarni o'quvchilar izlab topishi kerak. Muammoli o'qitishni amalga oshirish uchun qism (ayrim bo'lim, mavzu, band) larni ajratib olish lozim. Bunda o'quv materialining mantiqiy-didaktik tahlili, muammolarni qo'yish imkoniyatlari, o'qitish maqsadlariga erishishda ularning samarasini aniqlash talab etiladi. Muammoli darsni tashkil etishda ko'p narsa u yoki bu sinfdagi ishlashning aniq sharoitlariga bog'liq. Bundan tashqari, maktab darsliklaridagi o'quv materialini kamdan kam hollarda muammoli o'qitishga moslashtirilgan.

Dars jarayonini loyihalashda o'qitish metodlarini to'g'ri tanlash, ya'ni metodlarni darsning vazifalari va mazmuniga mosligi, o'qituvchining imkoniyatlariga hamda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga muvofiq bo'lishi talab etiladi. O'qituvchi muammoli darsning loyihasi ishlab chiqishda quyidagi topshiriqlarni ketma-ket bir butunlikda amalga oshirishi kerak.

1-bosqich: O'qituvchi dastur, darslik, metodik qo'llanma va sinf o'quvchilarining umumiy tavsifi bilan tanishib chiqishi lozim.

2-bosqich: Darsning asosiy vazifalari majmuasini: o'qitish, ta'limiy maqsad, tarbiyaviy

maqsad va rivojlantiruvchi maqsadlarni va vazifalarini belgilash.

3-bosqich: Darsning asosiy bosqichlarini to'g'ri, aniq va izchillikda joylashtirish.

4-bosqich: Darsning har bir bosqichi mazmunidagi asosiy o'rinli ajratib olish.

5-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o'qitish metodlarini, vositalarini, texnologiyalarni tanlash.

6-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o'qitishning yetakchi; umumsinfiy, kichik guruh va individual shaklini tanlab olish.

7-bosqich: Bo'sh o'zlashtiruvchi va tayyorgarligi kuchli bo'lgan o'quvchilar uchun tafovutlangan mashq va vazifalarni tanlash.

8-bosqich: Tegishli sinf o'quvchilari uchun vaqt me'yorlariga muvofiq uy vazifasining maqbul hajmini tanlash.

Geografiya darsida metod va usullardan foydalanish quyidagilarga bog'liq: didaktik maqsadga, o'rganilayotgan materialning mazmuniga, ta'lim vositalariga, o'quvchilarning tayyorgarligiga, o'qituvchining faoliyati va bilim darajasiga.

Darsda hamma vaqt bir xil metod va usuldan foydalanaverish o'quvchilarni zeriktiradi va toliqtiradi, ularni darsga qiziqishini kamaytiradi, shuning uchun ta'lim metodlari va usullaridan o'z o'rnini va me'yorida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Muammoli bayon qilish metodi - biror muammoni, masalani dalillar bilan hal etish namunasini o'quvchilarga ko'rsatish, sabablarini aniqlashga harakat qiluvchi murakkab yo'lni ochib berishni nazarda tutadi. Geografiya ta'limida mazkur metoddan foydalanganda o'qituvchi biror muammoni o'rtaga tashlaydi va uni o'zi hal etadi, ayni vaqtda o'quvchilarga tushunarli tarzda muammoni hal etishning yo'larini ham ko'rsatadi.

Tabiiy geografiya kurslarida tabiatni biror komponentining yoki tabiiy hududiy majmuani hosil bo'lishidagi murakkab jarayonini o'rganishda, tushuntirishda muammoli bayon metodidan foydalanish mumkin. Masalan, O'zbekiston rel'efini xarakterlashda o'qituvchi "O'zbekiston rel'efini ichki va tashqi omillarning o'zaro ta'siri natijasida tarkib topgan", degan muammoni bayon etadi, so'ngra o'qituvchi O'zbekistondagi hozirgi rel'efni hosil bo'lishida ro'y bergan endogen (tektonik) va ekzogen jarayonlar, ularning bir-biriga ta'sirini tushuntiradi, asoslaydi.

Amaldagi darslarda, ko'pincha, o'qituvchi bilim beradi, o'quvchilar esa tinglaydi. Bunda o'qituvchi faoliyati aktiv, o'quvchi faoliyati esa passiv bo'ladi. Geografiya darslarini shunday tashkil etish kerakki, unda o'qituvchi faqat materialni ifodalovchi, tushuntiruvchi, o'quvchi esa faqat tinglovchi bo'lib qolmasligi lozim. Zamonaviy dars jarayonida o'quvchilarning mustaqilligini oshirish, ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun ta'limni muammoli tarzda tashkil etish lozim. O'quvchilarning zehni uyi otadigan, faolashtiradigan metodiy tadbirlar joriy etilishi maqsadga muvofiq. Hozirgi geografiya darsi maksimal ma'lumotlar, ko'plab raqamlar, geografik nomlar

berishgagina emas, balki o'quvchilarning axborot manbalari bilan ishlab, mustaqil bilim olish yo'llarini o'rgatishga qaratilmog'i kerak.

Demak, yangi mavzuni o'rganish, tushuntirish yangi bilimni bayon etishdangina iborat bo'lmay, balki materiallarni mustaqil o'rganish yo'llari va usullarini o'rgatish bilan birga olib borilishi kerak. O'quvchi o'quv materiallarining muayyan qismini mustaqil o'rganishi zarur. Biron masala yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish, biron muammoni hal etish, o'quvchilar tafakkurini ishga solish lozim. O'quvchining o'zi biron masalani hal etsa, albatta mamnun bo'ladi, kelgusi mashg'ulotlarda ham boshqa masalalarni hal etishga, yangi ma'lumotlar topishga intiladi.

Muayyan materiallarni mustaqil o'rganish o'quvchilardan muntazam fikrlashni, nimanidir hal etishni talab qiladi. Ayrim masalalarni mustaqil hal etish uchun faktlarni qiyoslash, ilgari o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni, qonuniyatlarni qayta tiklashni talab etadi, binobarin, bilimlarni ongli ravishda o'rganishga olib keladi.

Hozirgi davr ta'lim tizimining zarur elementi bu muammoli ta'limdir. Pedagogika fanlari doktori, professor L.M.Pancheshnikova ta'kidlaganidek, "Muammoli ta'lim avvalo o'quvchilar uchun yangi hisoblangan muammolarni dalillar bilan hal etish jarayoniga o'quvchilarning o'qituvchi bilan hamkorlikda kirishishi bilan xarakterlanadi".

Muammoli ta'limni sharhlashda olimlar, mutaxassislar va metodistlar o'rtasida yagona fikr shakllanganicha yo'q. Shunisi aniqki, muammoli ta'lim o'qituvchining "hikoya qilish, tushuntirish, bilimni aniqlash" faoliyati, o'quvchining "e'tibor berish – yodda saqlash - takrorlash" faoliyati sxemasini tan olmaydi. Bu sxema muammoli ta'lim talabini qanoatlantirmaydi. Mazkur sxema o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantira olmaydi. Muammoli ta'limning mohiyati va uni amalga oshirish yo'llari haqida asosan ikki yo'nalish mavjud. Birinchi yo'nalish tarafdorlari agar o'quv materialining muayyan qismini o'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib, mustaqil o'rgansalar, geografik ma'lumotlarni bilish (egallash) uchun zilsalar, buni muammoli ta'lim deb hisoblaydilar.

Ular qiyoslash, tabiat komponentlari orasidagi o'zaro aloqadorlik sabablarini aniqlash maqsadida evristik (savol-javob) suhbat uchun an'anaviy savollarni muammoli deb hisoblaydilar. Masalan, "Materikning qit'adan farqi nima?" yoki "Nima uchun Antarktida juda sovuq materik?" yoki "Meksika iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanishiga sabab nima?" kabilar. Bunday savollar ilgari ham "muammoli" deyilmasada, o'quvchilarga topshiriq sifatida berilgan. Hozir bu topshiriqlarni mustaqil va ijodiy bajarilishiga e'tibor berila boshlandi.

Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari muammoli ta'limni geografiya fani metodlari va fan tarixini maktab geografiya kurslarida aks etishi deb tushunadilar. Fan tarixi deganda yirik ilmiy kashfiyotlar xronologiyasi, olimlar, metodist – geograflarning nomlari muhimi – geografiya fanida vujudga kelgan muammolar va ilgari surilgan gipotezalar, ularni tadqiq etish va nazariyaga "aylantirish"

yo‘llarini bilish nazarda tutiladi.

O‘quvchilarni bilimlarni mustaqil o‘rganishga, egallashga, izlanishga tayyorlash uchun katta hajmda ko‘p bilim berishni o‘zi kifoya qilmaydi, ko‘p bilim, material berish bilan ularning mustaqil izlanishlarini rivojlantirib bo‘lmaydi. O‘quvchilar mustaqilligini rivojlantirish uchun ular fan mazmunini egallash bilan birga, uni tadqiq etish va rivojlantirish usullarini ham tushunib etishlari – bilib olishlari lozim.

Ilmiy muammo – bu hal etish usullari (yo‘llari) aniqlanmagan soha. Uning echimiga ega bo‘lish (hal etish) uchun echish yo‘llarini topish kerak. Shuning uchun ilmiy muammolarni ta’lim jarayonida hal etish qiyin. O‘quvchilarni faqat muammolarni hal etish yo‘llari bilan tanishtirish mumkin. Ularga ilgari surilgan gipotezalar va ularni tekshirib ko‘rish metodlari, olimlar tomonidan tavsiya etilgan gipotezalar, nazariyalar haqida ma’lumot berish mumkin. Gipoteza tasdiqlangach, uni tekshirish metodlari tasvirlangach, gipoteza nazariya bo‘lib qoladi. SHu nazariya asosida amaliy muammolar yoki ilmiy vazifalar hal etila boshlaydi.

Binobarin, ilmiy vazifalar endi echimga, hal etish usullariga ega bo‘ladi. Masalan, hududiy ixtisoslashish koeffitsentini hisoblash qoidasi nazariy jihatdan aniqlangach, vazifa mazkur rayonning ixtisoslashish tarmoqlarini aniqlashdan iborat bo‘ladi. YOki biror hududga tabiiy geografik tavsif berish rejasini ishlab chiqish ilmiy muammo bo‘lsa, biron hududga tabiiy geografik tavsif berish – ilmiy vazifa bo‘lishi mumkin. Huddi shunga o‘xshash o‘quvchilarning geografik bilimlarni tushunib etishi –anglab olishi yoki geografik bilimlar olishi usullarini mustaqil izlashdagi pedagogik vaziyatda o‘quv muammosi vujudga keladi. Masalan, o‘quvchilar avval orientrlash usullarini o‘zlashtirib oladilar, so‘ngra planshetni orientrlay olishni va o‘z turgan joyini aniqlash kabi vazifalarni bajarishlari mumkin.

Umuman, geografiya fani hal etadigan muammo va vazifalarning mazmunini ko‘rib chiqish bilangina muammoli ta’lim g‘oyalarini to‘liq amalga oshirib bo‘lmaydi. Agar geografik ob’ekt va hodisalar haqidagi ilmiy bilimlar va ularning vujudga kelish usullarini ko‘rsatish “yangi bilim qanday vujudga kelganligi” haqida muntazam savollar berib borish bilan qo‘shib o‘rganilsa, bunday ta’limni muammoli ta’lim deb hisoblash mumkin.

Muammoli ta’limning amalga oshirilishi, saviyasi, samarasi – geografiya o‘qituvchilarining pedagogik mahoratiga, ta’limga ijodiy yondoshishiga, pedagogika fanining so‘nggi yutuqlarini va ta’lim metodlarini qay darajada egallaganliklariga bog‘liq. Muammoli topshiriqlar uni bajarish sharoiti, turi (savol, topshiriq, matn), o‘quvchi o‘quv faoliyatining shakli (mustaqil yoki yo‘q) bilan emas, balki bilish funksiyasi bilan boshqa topshiriqlardan farq qiladi. Geografiya o‘qituvchilari hamma vaqt ham o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga intilib kelganliklarini ta’kidlash lozim. Ammo bu faollashtirish asosan geografik ob’ekt va jaarayonlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Odatda, o‘quvchilarga “Biron hududning iqlim tipini aniqlang”, yoki “Biron hududning iqlim xususiyatini tushuntiring” kabi topshiriq beriladida iqlim tipini qanday aniqlash kerak, buni tabiiy kartadan hal qilish mumkinmi yoki yo‘qligi, iqlim sharoiti sabablarini iqlim kartasining o‘zidagina aniqlash mumkinmi yoki yo‘qligi kamdan kam o‘quvchidan so‘raladi. YOki “Biror hududning tabiat resurslarini aniqlang va imkoniyatlarini baholang” degan topshiriq beriladi. Ammo buning uchun qanday ma’lumotlardan foydalanish kerakligi va baholash nima uchun zarurligiga e’tibor berilmaydi.

Yuqoridagi kabi topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar turli mazmundagi karta, sxema, jadval va tegishli matnlar bilan ishlaydilar. Biroq, masalani hal etuvchi harakatlar – faoliyatlar, o‘quvchilarning bilimlarni puxta o‘zlashtirishlari uchun asos bo‘la olmaydi. Ko‘p yillik pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar faktlarni nisbatan biladilar, ammo geografik aloqadorlikni – tabiat komponentlari orasidagi bog‘lanishlarni aniqlashda qiynaladilar, ilgari egallaganlar bilimlarni tadbiiq etishni bilmaydilar. Buning asosiy sababi o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirishga yo‘naltirilmaganligidadir. O‘quvchilar odatda geografiyaga oid ma’lumotlarni nisbatan biladilar, ammo egallagan bilimlardan amalda foydalanishni hamma o‘quvchi ham bilavermaydi.

16.1-jadval.

№	O‘qituvchining faoliyati	№	O‘quvchining faoliyati
1	O‘quvchilarga savol, tajriba tarzida muammoli topshiriqlar beradi.	1	Vazifalarni idrok yetib, uni hal etish yo‘llari haqida fikr yuritadilar.
2	O‘quvchilarning ularga berilgan vazifalar haqida fikr yuritishini tashkil etadi.	2	Vazifalarni hal etish variantlari haqida o‘z fikr – mulohazalarini bildiradilar.
3	Vazifani hal etish uchun taklif etilgan variantning to‘g‘rilini isbotlashni talab etadi.	3	Vazifani hal etish variantidan birining maqsadga muvofiqligini isbotlaydilar.
4	Agar o‘quvchilarning farazlari to‘g‘ri bo‘lsa, undan egallangan yangi bilimlar haqida xulosalar chiqarishni talab qiladi.	4	Egallangan yangi bilimlar haqida xulosalar chiqaradilar va yakunlaydilar.
5	Xulosalarda xatolar uchrasa, xatolarni topishni talab etadi, o‘quvchilarga aniqlovchi topshiriqlar beradi va uni aniqlashtiradi.	5	Topshiriqlarni to‘g‘ri hal etish yo‘llarini izlaydilar.
6	Muammoli mulohazalar jarayonini takomillashtirish maqsadida o‘quvchilar hal etgan vazifalarni umumlashtiradi, erishilgan muvaffaqiyatlarni rag‘batlantiradi yoki kamchiliklarni ko‘rsatadi.	6	Mavzuga oid asosiy xulosalarni o‘zlashtiradilar.
7	Yangi bilimlarni mustahkamlash maqsadida savollar beradi.	7	Takrorlash, xulosalar chiqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan egallangan bilimlari mustahkamlaydilar.
8	O‘quvchilarga bilimlarni amalda tadbiiq etishga oid mashqlar beradi.	8	Egallangan bilimlarni amalda tadbiiq etishga oid mashq va topshiriqlar bajaradilar.

Muammoli ta’limni amalga oshirishda, xususan, tadqiqot natijalari va geografiya fani metodlari haqida bilim berishda illyustratsiyali tushuntirish metodidan foydalanish mumkin. bu ayni vaqtda o‘quvchilarni mustaqil ishga tayyorlaydi. O‘quvchilar faoliyatining samarasi – muayyan tayyorgarlik va ish ko‘nikmalarini qay darajada egallaganliklariga bog‘liq. Muammoli ta’limni amalga oshirishda qisman ijodiy va tadqiqot metodlaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Bunda o'qituvchi o'quvchilarga tushuntirishni, izohlashni, asoslashni, dalillar ko'rsatishni talab etuvchi topshiriqlar beradi va ijrosini talab qiladi. O'quvchilar bilish qobiliyatini talab etuvchi, rivojlantiruvchi topshiriqlarni bajarish orqali ular yangi bilimlarni egallaydilar. Topshiriq o'quvchilarni bilim olishning yangi usullarni izlashga yo'naltira olsagina bu bilish qobiliyatini rivojlantiruvchi muammo xarakteridagi topshiriq bo'la oladi.

Demak, geografiya darslarida muammoli ta'limni amalga oshirish uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir (1-jadval). Geografiya fani tarixi va uning metodlarini qamragan muammoli ta'limni amalga oshirish murakkab jarayon bo'lib, muallimdan o'ziga xos pedagogik mahorat, izlanishni talab etadi. Muammoli ta'limni joriy etish uchun o'quv materialini aniq xulosalar, gipoteza va qonuniyat tarzidagi mulohazalar bilan o'rganish maqsadga muvofiqdir. Masalan, "Yer shari iqlim mintaqalaridan subtropik iqlim mintaqasini o'rganishda" materiklardagi subtropik iqlim mintaqalarining g'arbiy okean sohillarida – o'rta dengiz iqlim tipi, sharqiy okean sohillarida esa nam musson iqlim tipi joylashgan degan xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir. Bu xulosadan materiklar va okeanlar geografiyasi kursini o'rganishda qonuniyat sifatida foydalanish mumkin. Mazkur xulosa materiklar va okeanlar geografiyasi kursi uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

6. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining metodlari

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishiga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarni nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qishni o'rganish hamdir. Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bo'lgan. Mazkur texnologiya Buyuk Britaniya, Kanada, G'arbiy Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llaniladi. Hamkorlikda o'qitish g'oyasini ishlab chiqqan olimlar Kaliforniya universiteti professori J.Aronson (1978), Minnesot universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson (1987), Isroildagi Tel-Aviv universiteti professori SH.Sharan (1988) Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori R.Slavin (1990) hisoblanadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi quyidagi metodlarni o'z ichiga oladi:

Komandada o'qitish (R.Slavin)

Mazkur metodda o'quvchilar teng sonli ikkita komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda to'tilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishiga e'tiborni qaratadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish bo'yicha ko'rsatma berilishi etarli

emas. O‘quvchilar o‘rtasida tom ma‘nodagi hamkorlik, har bir o‘quvchining qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o‘quvchining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. SHundagina o‘quvchilar o‘zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda ma‘suliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirishga intiladi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish (R.Slavin 1986).

Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish (R.Slavin 1986). Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma‘lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a‘zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test topshiriqlari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O‘quvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

Hamkorlikda o‘qitishning zig-zag yoki arra metodi. (E.Aronson 1978).

Pedagogik amaliyotda bu metod qisqacha “arra” metodi deb nomlanadi. Mazkur metodda kichik guruhlar 6-8 ta o‘quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o‘rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qism (blok yoki modul)larga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o‘quvchilar bajarishi lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlar tuziladi. Har bir o‘quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo‘yicha “mutaxassis”ga aylanadi. So‘ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) “mutaxassisi” bo‘lishi shart, mazkur “mutaxassis”lar o‘zlari egallagan bilimlarni xuddi “arra” tishlari ketma-ket kelganidek, navbat bilan o‘rtoqlariga bayon qiladi. Mazkur guruhlarda o‘quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi. Shuni qayd etish kerakki, ushbu darsda o‘quvchilar ikki marta guruhlarga ajratiladi.

Birinchi guruh “mutaxassislar” tayyorlash guruhi.

Ikkinchi guruh “mutaxassislar” uchrashuvi guruhi.

“Birgalikda o‘qiyamiz” metodi

Hamkorlikda o‘qitishning “Birgalikda o‘qiyamiz” metodi 1987 yili Minnesota universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sinf o‘quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqning ma‘lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarni to‘liq bajarishi natijasida o‘quv materialining yaxlit o‘zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy prinsiplari - komandani taqdirlash, o‘quvchilarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni

vujudga keltirish.

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi

Bu metod 1976 yili Tel-Aviv universiteti professori SH.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko'proq o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar alohida individual yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqsimlanadi. SHunday qilib, har bir o'quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z hissasini qo'shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinf o'quvchilari o'rtasida o'z ijodiy izlanish natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatning natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasidagi har bir o'quvchining, muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarining, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo'llab, yangi bilimlarni o'zlashtirilishiga zamin tayyorlaydi.

Geografiya o'qituvchisi o'quv jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanishda quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

- qaysi mavzularni hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib, o'rganish mumkinligini aniqlashi va mazkur darslarni taqvim-rejada belgilashi;

- tanlagan mavzu bo'yicha o'quvchilarga tavsiya etiladigan o'quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalarni tayyorlashi;

- hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib, o'tiladigan dars turi, dars tuzilishi va borishini loyihalashi;

- o'tgan va yangi mavzular yuzasidan o'quvchilar bilimni nazorat qilish uchun test topshiriqlarini tuzishi kerak. Mazkur metodlardan foydalanganda shuni nazarda to'tish kerakki, o'quvchilar o'z sheriklari bilan hamkorlikda o'quv topshiriqlarni to'g'ri bajarishlari barobarida guruh a'zolarining faolligi, hamkorlikning vujudga kelishi hisobga olinadi.

O'qituvchi dars jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanishi uchun ushbu texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni, o'quvchilarning mustaqil ishlari, o'quv bahsi va munozaralarni samarali tashkil etish yo'llarini egallagan, o'quvchilarda esa darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o'z fikrini qisqa va aniq bayon etish, fikrlarni asoslash va dalillash, mantiqiy fikr yuritish, o'quv bahsi va munozaralarda faol qatnashish ko'nikmalari shakllangan va ongli intizom vujudga kelgan bo'lishi lozim.

7. Didaktik o'yinlarning turlari va tashkil etish usullari

Didaktik o'yin oddiy o'yindan farqli o'laroq, muhim xususiyatga ega bo'lib, o'yinning **aniq maqsadi** va shunga mos **bilishga yo'naltirilgan pedagogik natijalarga** egaligidir. Shuningdek, didaktik o'yinda barcha o'quvchilarning ishtirok etishi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Didaktik o'yinlarning qoidalari, mazmuni, o'tkazish usullari shunday ishlab chiqiladiki, ayrim, fanga qiziqishi yo'q o'quvchilar uchun didaktik o'yinlar bu qiziqish rivojlanishining boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Dars jarayonida o'yinli holatlarni yaratish fanga qiziqishni oshiradi, o'quvchiga xilma-xillik va hayajonli yorqinlikni olib kiradi, charchoqni bartaraf yetib, diqqatni, zehnni, musobaqa xissini, o'zaro yordamni rivojlantiradi. O'quv materialini o'rganishning turli bosqichlarida didaktik o'yinni muntazam qo'llash, maktab o'quvchilarining bilish faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning samarali vositasidir. U o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari sifatini oshirishga, aqliy faoliyatini shakllantirishga ijobiy ta'sir etadi. Didaktik o'yinlar maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalashning an'anaviy shakllarini to'ldiradi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchining ikki ijod turi - o'qish va o'yinni birlashtirish mumkin. O'quvchi o'zini maktabda yaxshi tutishi uchun u o'zining o'qishiga to'g'ri baho berishi, boshqalardan yomon emasligiga ishonishi kerak. Agar o'quvchi bilimlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelsa, unda maktabga, o'qishga nisbatan sovuqlik paydo bo'ladi. Darslarda ijodiy o'yinlardan foydalanish dars jarayonini qiziqarli qiladi, ta'lim jarayonida individuallikning hayotiy bo'lishida yordam beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda didaktik o'yinlarning ahamiyati cheksizdir.

O'quv jarayonida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlanadi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: *intellektual (aqliy)* va *harakatli* hamda *aralash*

o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta’lim olish motivlarini, ularning turli yo‘nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Quyida didaktik o‘yin texnologiyalari amalga oshiriladigan ayrim noana’naviy dars shakllarini keltirib o‘tamiz.

Ishbilarmonlik o‘yini darsi — dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish mumkin. Bunda o‘quvchilar tomonidan ishlab chiqarishda uchraydigan turli holatlarda imitatsiyalangan vaziyatlar yuzasidan qarorlar qabul qilinishiga asoslangan usuldir. O‘quv jarayonida *ishbilarmonlik* (biznes) o‘yinlarning ko‘p turlari ishlatiladi: imitatsion, operatsion, rolli o‘yin, biznes teatr, psixodramma va sotsiodramma.

Rolli o‘yin darsi — dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma’lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi bo‘lib, o‘qitishning vazifalarini harakat orqali amalga oshiruvchi o‘quv jarayonidir. *Rolli o‘yinlarda* konkret shaxsning hatti-harakati, taktikasi, vazifani bajarishi ko‘rsatiladi va ustida ish olib boriladi. Avval masala shakllantiriladi, so‘ngra o‘ynaladi, keyin esa muhokama qilinadi.

Rolli o‘yinlarning mohiyati – qo‘yilgan masalaning echilishida tinglovchilar bevosita ishtirok etadilar. Ayrim ishtirokchilar bajaruvchi, ayrimlari esa kuzatuvchi vazifasini bajaradi. Rolli o‘yinlar kishilarga o‘z hissiyotlarini qadriyatlarga munosabatlarini aniqlashga etaklaydi. Samarali rolli o‘yinlar guruhning ishtirokini nazarda tutadi. O‘qituvchi rolli o‘yinni faqat yo‘naltirishi kerak, ammo u ushbu o‘yinning 8 ta bosqichini bilishi lozim. Rolli o‘yinlarning ishtirokchilari 2,5, 6,7, 8 bosqichlarida faol ishtirok etadilar.

1-bosqich: Masala bilan tanishish, uning mohiyati, hissiyot, fikr va hulqni namoyish etish uchun muhit yaratish. Namuna sifatida real hayot, televidenie, kitoblardan va boshqa misollar keltiriladi.

- Masalaning mohiyatini belgilab shakllantirish.
- Masalani batafsil tushuntirish.
- Rolli vaziyatni tavsiflab berish.
- Rolli o‘yinning mohiyatini o‘qitishning strategiyasi sifatida tushuntirib berish.

2-bosqich: *Rollar va ijrochilarni tanlash.* Ushbu o‘yinda yaratilgan vaziyatga muayyan aloqasi bo‘lgan yoki u bilan qiziqqan ishtirokchilar ixtiyoriy ravishda ishtirok etishi mumkin. O‘qituvchining o‘zi o‘yinga kim ko‘proq loyiq ekanligini sezsa, ushbu ishtirokchilarni jalb etishi mumkin.

- Rollarni tahlil eting.

- Bajaruvchilarni tanlashga yordam bering.

3-bosqich: *Dekoratsiyalarni tayyorlash.* Ishtirokchilar o'zini qulay sezishlari uchun dekoratsiyalar imkon qadar oddiy bo'lishi kerak. Rollarni takrorlang va mashg'ulotni nimadan boshlashingizni aniqlang.

4-bosqich: *Rolli o'yinning natijalarini samarali baholash uchun kuzatuvchilarga tavsiyalar berish.*

5-bosqich: *Rolli o'yin.* O'yin qisqa bo'lishi kerak. Taklif etilgan rol hamda obraz ochib ko'rsatilmagunga qadar tomosha biror-bir fikrni bildirmaydi.

- Rolli o'yinni boshlang.

- O'yin kechishini qo'llab-quvvatlang.

- Rolli o'yinni to'xtating.

6-bosqich: *Rolli o'yinning qisqacha tavsifi.* Namoyish etilgan harakatlarning motivatsiyasi va oqibatlari muhim rol o'ynaydi.

- Bajarilgan rolli o'yinning kechishini ko'zdan kechiring.

- Rolli o'yinning asosiy yo'nalishlarini muhokama qiling.

- Rolli o'yinning navbatdagi bosqichini ishlab chiqing.

7-bosqich: *Rolli o'yinni davom ettiring.*

- rolli o'yinni bildirgan taklif va mulohazalariga e'tibor bergan holda o'tkazing. Ishtirokchilar hulqida o'zgarishlar sodir etilishiga undang.

- Zarurat tug'ilganda ishtirokchilarni almashtiring.

8-bosqich: *Tajriba almashish va xulosa qilish.*

- Taklif etilgan vaziyatni hayotiy vaziyat bilan solishtiring.

Rolli o'yin davomida ishtirokchilar o'zini tutishning tamoyillarini o'rganib chiqing.

Imitatsion o'yinlar – Mashg'ulotda biror-bir korxonada, muassasa faoliyati imitatsiya qilinadi. Imitatsion o'yin ssenariysi voqea syujetdan tashqari imitatsiya qilinayotgan jarayon va ob'ektlarni ta'rifini ham o'z ichiga oladi.

Operatsion o'yinlar – maxsus operatsiyalarni bajarish malakalarini oshiradi. Ushbu o'yin sharoitlari real sharoitga maksimal yaqinlashtirilgan bo'ladi.

«Mo'jizalar maydoni» darsi — o'quvchilar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yin bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida turli javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali o'quvchilarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi. Geografik o'yinlarni o'tkazish jarayonida o'quvchilar o'lka materiallaridan keng foydalanib, mavjud muammolar, jumladan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni ochish, ularni bartaraf qilish yo'llarini qidirib topishni o'rganadilar. Bu esa o'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini

shakllantiradi, jahonda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan yangiliklar, ekologik hamda iqtisodiy-ijtimoiy muammolar bilan tanishtiradi, turli kasblar haqida tasavvur hosil qilib, mehnat ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quv jarayonida o'yinlarni qo'llash o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga, o'quv materiallarining mazmuniga, o'yin qoidalariga rioya qilish va to'g'ri tashkil etilishiga, foydalaniladigan tarqatma materiallarning tayyorlanishi va boshqa omillarga bog'liqdir. L.V.Zankov fikricha, "ijodiy mehnat qiladigan o'qituvchi ma'lum darajada ta'lim va tarbiyaning ob'ektiv qonunlariga muvofiq ish ko'radi. Bunda u qisman allaqachon ma'lum bo'lgan nazariy qoidalarga tayanadi, qisman intuktiv yo'l bilan qay yo'sinda bo'lsada, hali ochilmagan qonunlarni sinab ko'radi".

Geografiya ta'limida foydalaniladigan o'yinlar juda xilma xil bo'lib, ularni mazmuni va foydalanish maqsadi bo'yicha quyidagi turlarga ajratiladi (2.1-sxema)

Informativ o'yinlarning asosiy maqsadi ta'lim mazmunini o'quvchilar tomonidan eslab qolinishiga yordam berishdir. Bu o'yinlardan asosan yangi dars mavzusini o'rganishda foydalaniladi.

Mashqli o'yinlari o'quvchilarning malaka va ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Mustahkamlash o'yinlari o'tilgan mavzularni takrorlash, o'quvchilar olgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga, takrorlash darslarini qiziqarli bo'lishiga imkon beradi.

Nazorat o'yinlaridan asosan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholashda foydalaniladi. Bu o'yinlar nazorat usullarini xilma-xil qilishga, egallangan bilim va malakalarni qisqa vaqt ichida tekshirish hamda baholashga imkon yaratadi.

Savol-javob o'yinlari o'quvchilar o'rtasida musobaqa tarzida o'tkaziladi. Bunda sinfni bir nechta kichik guruhlariga bo'lish va o'yin og'zaki, yozma, konkurs kabi shakllarda o'tkazilishi mumkin. Savollar viktorinalar, topshiriqlar, jumboqlar yoki krossvord, chaynvord, rebuslar tarzida bo'ladi.

Stol ustiga qo'yib o'tkaziladigan o'yinlar geografik loto, geografik domino, karta bo'laklari, kubiklar va boshqalar yordamida o'tkaziladi.

Vaziyatli-rolli o'yinlarni o'tkazishda o'quvchilar oldiga ma'lum vazifa yoki muammo qo'yiladi. Bu muammoni hal qilishda o'quvchilar, injener, olim, tibbiyot xodimlari, davlat rahbarlari yoki xo'jalikning turli tarmoqlar vakillari rolini bajarib, o'zaro munozara qiladilar.

Faraz qilish o'yinlarida o'quvchilar geografik karta bo'yicha "xayoliy sayohat"ga chiqib, belgilangan marshrut bo'ylab "ko'rgan" narsa va hodisalarni tasvirlab beradilar. Geografik loto, domino, chaynvordlarni **magnitli doska yordamida o'tkazilganda** muammoni hamma uchun ko'rinadigan tarzda echish imkoni tug'iladi. Bu o'quvchilar uchun juda qiziqarli o'yin hisoblanadi.

Test savollari yordamida o'tkaziladigan o'yinlarda asosan turli shakl va mazmunga ega bo'lgan testlardan foydalaniladi. "Test" so'zi inglizcha bo'lib, "tekshirish", o'rganish", "sinov", "imtihon" degan ma'noni bildiradi. O'yinlarning yuqorida ko'rsatilgan turlarini tanlash darsning qaysi qismida va qanday maqsad uchun foydalanilishiga bog'liqdir. O'qituvchi dars jarayonida yoki sinfdan tashqari ishlarda o'yinlardan foydalanishda o'yin turlarini to'g'ri tanlashga e'tibor berishi zarur. To'g'ri tanlangan o'yin turining samarasi yuqori bo'ladi. Shuningdek, geografik o'yin darsini tashkil qilishda o'qituvchi avvalo mavzuga oid o'yinlardan foydalanish texnologiyasini o'rganishi, o'yinlarning ssenariysini tayyorlab olishi maqsadga muvofiq.

8. O'quvchilarning geografik bilim va malakalarini rivojlantirishda o'yinlarning tutgan o'rni va ahamiyati

Hozirgi kunda mamlakatimiz umumta'lim maktablarida keng qo'llanilayotgan geografik o'yinlarni quyidagi guruhlariga bo'lishimiz mumkin:

1. Mashqli geografik o'yinlar – topishmoqlar, chaynvordlar, krossvordlar, rebuslar, viktorina, loto, domino va boshqalar. Mashq – o'quvchining dars jarayonidagi amaliy ko'nikmalarini shakllantiruvchi faoliyat turi. Bu faoliyat o'quvchini nazariy ma'lumotning tub mazmun-mohiyatini o'zlashtirish o'zidan o'tkazish, qaror qabul qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash hissiyotlarni boshqara olish kabi madaniyatini rivojlantiradi. Interfaol mashqlar o'qituvchi–o'quvchi, o'quvchi–o'quvchi hamkorligiga asoslangan bo'ladi. Bunda o'quvchi bilim olishga o'z xohish, istak va qiziqishlari orqali jalb qilinadi, yangi bilimlarni maqsadli o'zlashtirish yo'llarini o'rganadi. Amalda sinovdan o'tkazadi. O'quv materialini puxta bilib olishning oson yo'lidan boradi. SHu o'rinda "Ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlik" mashqining o'tkazish bosqichlarini o'qituvchilarga dars jarayonida qo'llashlari uchun tavsiya qilamiz.

1- qadam. O'qituvchi o'quvchilarga uyga vazifa sifatida keyingi darsga gazeta yoki jurnal olib kelish topshirig'ini beradi.

2- qadam. Geografiya darsida o'quvchilar ushbu gazeta yoki jurnaldagi o'zlari uchun yangilik bo'lgan voqealar aks ettirilgan informatsiyalarni ajratib olishlari mumkinligi aytiladi. Bajarish uchun 2 daqiqa vaqt beriladi.

3- qadam. O'quvchilar kichik guruhlarda ishlash uchun o'qituvchi yordamida alohida etti kishidan iborat guruhlariga ajratiladi va har bir guruh alohida stolda joylashadi.

4- qadam. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar o'tirgan guruhlar stoliga dunyo haritasi yopishtirilgan filipchart qog'ozi qo'yiladi.

5- qadam. Kichik guruhlarda ishlash uchun ishtirokchilarga qiziqarli bo'lgan yangi ma'lumot va axborotlar saralanishi lozimligi aytiladi. Saralab olingan ma'lumotlar 5 daqiqa ichida kesib olinadi.

6- qadam. Amalga oshirilgan ish ya'ni ma'lumotlar sodir bo'lganligiga qarab dunyo

haritasidagi mamlakatlarning o'ziga mos bo'lgan hududda joylashtiriladi.

7- qadam. Keyingi bosqichda o'zaro hamkorlikda amalga oshirilgan ishlardagi yangiliklar guruhlanadi. Masalan: Mavzularga oid: iqtisodiyotga, siyosatga va fan taraqqiyotiga, sport va madaniyatga, o'simliklar dunyosiga va boshqa yo'nalishlarga.

8- qadamda eng faol ishtirok etgan mamlakatlar haqidagi ma'lumotlar ajratib ko'rsatiladi va bu faollikning o'ziga xos xususiyatlari haqida guruhda fikrlar muhokama qilinadi.

9- qadam. Kichik guruhdagi ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqliklar bizning davlatimiz bilan nechog'liq hamkorlikda amalga oshirilishiga qarab rangli markerlar orqali uzviy bog'liqligi aniqlanadi.

10- qadam. Guruh tomonidan amalga oshirilgan ish bir ishtirokchi tomonidan taqdimot qilinadi. Shuningdek, barcha guruhlar faoliyati taqdimot qilinadi. Taqdimot savol-javoblar orqali to'ldirilishi mumkin. Darsni olib boruvchi o'qituvchi mashq yakunida o'quvchilarga o'quv sikli bo'yicha quyidagi savollarni beradi:

1. Mashq sizga yoqdimi?

2. Siz ushbu mashqni bajarish jarayonida nimalarga e'tibor berdingiz?

3. Guruhda ishlash jarayonida qaysi o'rtog'ingizning faoliyati yoqdi? Aksincha siz mashqni amalga oshirish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?

4. So'ngra umumlashtiruvchi savol sifatida ushbu mashq sizga nima berdi, Siz qanday yangi informatsiya yoki ma'lumotlar bilan tanishdingiz kabi savollar bilan o'quvchilarning o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini tahlil qiladi va baholaydi. Ushbu mashqni 9-sinf geografiya darslarida foydalanish ijobiy natija beradi. SHunga o'xshash vaziyatlar orqali o'tkazilgan mashqlar darsning sifat va samaradorligini oshirishda jiddiy ta'sir etuvchi omildir. Interfaol mashqlarni o'tkazish uchun o'qituvchi tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik amaliy-didaktik jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rishi kerak.

2. **Karta bo'ylab sayohat o'yinlari** – berilgan ma'lum yo'nalish, alohida region bo'yicha kartalar asosida sayohat yoki "Ekspeditsiya" tariqasida olib boriladi. Geografiya ta'limida kartani o'quvchilarga o'rgatishning ahamiyati katta. Bu to'g'rida N.N.Baranskiy «Karta – geografiyaning boshlanishi va oxiri» deb baho bergan edi. Haqiqatdan ham qaysi o'quvchi geografik kartani bilsa va uni o'qiy olsa, dars materialini to'g'ri o'zlashtiradi va geografiyaga qiziqishi ortadi. Geografik kartani o'rganmasdan turib o'quvchilarga geografik bilimlarni chuqur va keng singdirib bo'lmaydi.

3. **Musobaqa o'yinlari** – sinf o'quvchilari kichik guruhlariga bo'linib, ma'lum topshiriqlar asosida o'zaro musobaqalashadilar, topshiriqlarni tez va aniq topilishi g'olibni aniqlab beradi;

4. **Rolli o'yinlar** – o'quvchilar ma'lum muammoni hal qilishda qatnashadilar.

Sinfdan tashqari vaqtlarda geografik o'yinlardan keng foydalanish imkoniyatlari mavjud. Harkatli geografik o'yinlar, viktorinalar, rebus, krossvord, loto, domino va boshqalardan fan

kechalarida foydalaniladi. Darsning ma'lum qismlarida 10-15 minut darsni mustahkamlash uchun topishmoqlar, karta bo'ylab sayohatlar, topshiriqlarni tez va aniq bajarish bo'yicha musobaqalar tashkil qilinadi. O'yin darslari darsning hammasini yoki ikki darsni qamragan holda bo'lib, o'quvchilar ma'lum rollarni bajaradilar. O'quvchilar tegishli manbalar asosida mutaxassis olim, raxbarlik rollarini bajarib, muammolarni hal qilishda qatnashadilar.

Mutaxassislar sifatida yangi korxonalarini qurish, xo'jalik hisobiga o'tish kabi jarayonlarda iqtisodchi, quruvchi olim va shu kabi mutaxassislar bozor iqtisodi sharoitida xo'jalik yuritishning yangi shakllari bilan tanishadilar. Topshirilgan rolni bajarish yangi pozitsiyani egallash, yangi jamoat faoliyatida shaxsiy faollik o'quvchilarni mustaqil ishlashga undaydi. Shuning uchun o'quvchilar ayniqsa, bosh yoki rahbarlik rollarini berishlarini so'raydilar. Rolli o'yinlar mazmunini, asosini real muammolar, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy yoki ularning kompleks xususiyatlari tashkil qilishi mumkin. Shuni aytish kerakki fantastik, adabiy syujetlar ruhi darsni yanada qiziqarli bo'lishiga xizmat qiladi. Insoniyat oldida turgan dolzarb muammolarga, ularni bosqichma-bosqich hal qilishga o'quvchilar qatnashtiriladi. Shuni hisobga olish kerakki, tayyorgarlik ko'rish uchun darslik bilan ishlash, kartalardan foydalanish, qo'llanma materiallar, ilmiy-ommabop adabiyotlar tahlil qilish, taqqoslash, xulosalash, muhokama qilish, qarama-qarshi fikrlarga yakun yasash, o'z fikrini isbotlash mas'uliyati mavjud.

«Kartografik loto» o'yini.

O'zbekiston Respublikasi kontur kartasida 4 qator ajratiladi:

1. 37° – 39° shim. kengliklar;
2. 39° – 41° shim. kengliklar;
3. 41° – 43° shim. kengliklar;
4. 43° – 45° shim. kengliklar.

Har bir qatorda besh geografik ob'ektga savol alomati qo'yiladi. Karta bo'yicha jami 20 ta ob'ektga savol alomati qo'yilgan bo'ladi. Shunday tartibda har xil variantlarda kontur karta tayyorlanadi. 2x1 sm kattalikda qog'oz qirgilib, unga savol alomati qo'yilgan ob'ektlarning nomi va nomeri yozib qo'yiladi. O'yin vaqtida o'qituvchi yoki boshqaruvchi xaltachadan qog'ozchalarni olib undagi ob'ektlarning nomlarini o'qiydi. O'quvchilar esa aytilgan geografik nomni kontur kartadan savol alomati qo'yilgan ob'ektlar bo'yicha topib, uni nomer yozilgan qog'ozcha bilan yopadilar. Kim birinchi bo'lib so'roq alomati qo'yilgan ob'ektlarni to'g'ri topsa, yani to'g'ri «yopsa» o'yin g'olibi hisoblanadi.

«Zoogeografik domino» o'yini.

O'yinni o'tkazish uchun 30 ta kartochka tayyorlanadi. Kartochkaga biror hayvonning rasmi chiziladi yoki yopishtiriladi. Har bir rasmning tagiga tabiat zonalaridan birining nomi yoziladi. Ulardagi yozuvlarning ko'plari rasmga mos kelmaydi. O'yin paytida kartochkalar o'quvchilarga

tarqatiladi. O'quvchilarning vazifasi rasm bilan yozuvni mos kelishi va kelmasligini aniqlashdir. Qaysi o'quvchi o'ziga berilgan kartochkalarni tez va to'g'ri ajratsa, g'olib xisoblanadi. Bu o'yin o'quvchilarning hayvonot dunyosini va ularni tabiat zonalar bo'yicha tarqalishini bilib olishlarida yordam beradi. Bu o'yinning "geobotanik domino", "topografik domino", "geografik domino" shakllarida ham o'tkazilishi mumkin.

«Geografik karta bo'yicha hayoliy sayohat» o'yini.

Sinf bir necha guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga karta bo'yicha o'tkaziladigan «hayoliy sayohat» marshruti belgilab beriladi. Har bir guruh turli adabiyotlardan foydalangan holda, karta bo'yicha qilingan «hayoliy sayohat» marshrutida uchragan ob'ektlarga qisqacha tavsif yozadi. «Sayohatlar» ma'lum bosqichlar bo'yicha ham o'tkazilishi mumkin. Masalan, agar shu hafta ichida guruh azolari qoniqarli baho olishsa va tartib-intizomni buzishmasa o'z marshrutlari bo'yicha «sayohatni» davom ettirishlariga ruxsat beriladi. «Sayohatni» turli «transport» turlaridan foydalanib o'tkazilishi mumkin. Har chorak oxirida «sayohatlar»ning «hisobotlari» tahlil qilinib, o'yin davomida sayohatni o'z vaqtida tugatgan va «hisobotlari» yuqori baholangan guruh g'olib bo'ladi. «Sayohatlar» o'yini hamma sinflarda o'tkazilishi, sinfda o'zlashtirishni va intizomni yaxshilashda yaxshi samara berishi mumkin.

«Shartli belgilar» pochta o'yini.

100x700 sm kattalikdagi ramka yasaladi va unga konvert xaltachari yopishtiriladi. Har bir konvert xaltachalariga turli shartli (geografik, topografik, meteorologik) belgilar chiziladi yoki chizilgan qog'ozcha yopishtiriladi. Konvert xaltachalari kattaligiga mos keluvchi va ularning iichiga solib qo'yiladigan kartochkalar olib qo'yiladi. So'ngra chaqarilgan o'quvchiga kartochkalardan bir nechta, masalan beshtasi beriladi. O'quvchi kartochkaga yozilgan shartli belgi nomini ovoz chiqarib o'qiydi va uni mos keluvchi shartli belgili konvert xaltachaga soladi. Bu ishni qanday bajarilishini sinf o'quvchilari kuzatib turadilar. Agar o'quvchi xato qilsa, boshqa o'quvchi uni tuzatishi mumkin. Kartochkada yozilgan nom konvert xaltachasiga chizilgan shartli belgiga mos bo'lishi lozim. O'yin paytida kim to'g'ri va ko'p ball to'plasa g'olib hisoblanadi. O'rtog'ining hatosini to'g'rilagan o'quvchiga qo'shimcha ball beriladi.

«O'lkashunoslar» o'yini.

O'yin ishtirokchilariga quyidagilar yozilgan kartochkalar tarqatiladi: 1.Tog'. 2.Tekislik. 3.Daryo. 4.Ko'l. 5.O'simlik. 6.Hayvonot. 7.Tuproq. 8.Foydali qazilma. 9.Sanoat tarmoqlari. 10.Asosiy ekinlari. 11.Transport turlari. 12.Millatlar. 13.SHaharlari. O'qituvchi tomonidan aytilgan biror mamlakat yoki o'lka bo'yicha 8 minut ichida darslik va kartalardan foydalanmasdan javob yoziladi. Biror o'quvchi: «Men tayyor bo'ldim», - deyishi bilan o'yin tugatiladi. Yozuvlar tekshiriladi. Har yuir to'g'ri va to'liq javob uchun 2 ochko beriladi. Ko'p ochko olgan o'quvchi g'olib xisoblanadi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Geografiya o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. Bilimlar hajmini belgilashda geografiya o'qitish metodikasining roli

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Geografiya o'qitish nazariyasi va metodikasining o'rganish ob'ekti, maqsadi va vazifalari, rivojlanish tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlari va ta'limdagi o'rni haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

№	Bajariladigan topshiriqlar	Amaliy mashg'ulot natijasi
1	“B.B.B” jadvalining 1-2 ustunlarini to'ldiring	“B.B.B.” jadvali
2	Pedagogika fani qaysi tarmoqlarga bo'linadi? 1-ilovada berilgan matndan foydalanib, savolga javob bering va pedagogika fani tarmoqlarini sxemasini chizing.	Sxema
3	2-ilovada berilgan matndan foydalanib, geografiya o'qitish metodikasi bo'limlarini o'rganing quyidagi jadvalni to'ldiring.	1-jadval
4	Geografiya ta'limining maqsad, mazmuni va vazifalarini tahlil qiling	Yozma tavsif
5	Blits-so'rov savollariga javob bering.	
6	O'qitish maqsadining maktab geografiyasini mazmuni, tuzilishi, o'qitish usullari va yo'nalishini belgilashdagi ahamiyatini tushuntiring. Matnning tagiga chizib ko'rsatilgan qismini o'qing. Siz qanday xulosaga keldingiz?	4-ilova Yozma tavsif

“B.B.B.” jadvali

№	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1	2	3	4	5
2	Metod			
3	Metodika			
4	Pedagogika			
5	Geografiya o'qitish metodikasining o'rganish ob'ekti			
6	Didaktika			
7	Ko'nikma			
8	Malaka			
9	Bilim			

Uslubiy ko'rsatmalar

1-ilova.

Geografiya o'qitish metodikasi pedagogika fanlari tarkibiga kiradi. Bu fan maktablarda tabiiy va iqtisodiy geografiya asoslarini o'qitish jarayonini o'rganadi. U umumiy didaktika bilan bog'langan.

Didaktika-ta'limning mazmunini, o'quv jarayonini va tarbiyaning asosiy qonuniyatlarini o'rganadigan nazariy fandır. Ammo u aloqida fanlarni o'qitish jarayoni

bilan shug'ullanmaydi. Alohida fanlarning o'qitish metodikasi bilan maxsus pedagogika fanlari shug'ullanadi. Pedagogika inson tarbiyasi haqidagi fandır. Tarbiya mohiyatini, maqsadlarini, vazifalarini va qonuniyatlarini, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini aniqlab beradi. Pedagogika tarbiya nazariyasini, didaktika va maktabshunoslikni o'z ichiga oladi.

Pedagogika fani quyidagi **tarmoqlarga** bo'linadi: a) maktabgacha yoshdagilar pedagogikasi; b) maktab pedagogikasi; v) hunar-texnika ta'limi pedagogikasi; g) oliy ta'lim pedagogikasi; d) harbiy pedagogika; j) pedagogika tarixi.

2-ilova

Geografiya o'qitish metodikasi umumiy va xususiy bo'limlardan iborat. Umumiy metodika o'z navbatida tabiiy va iqtisodiy geografiyani o'qitish metodikasiga bo'linadi. Xususiy metodika asosan maktab geografiyasining alohida kurslarini o'qitish usullari bilan shug'ullanadi.

Umumiy metodika - bu geografiyaning didaktikasidir, ya'ni uning umumiy nazariy qismi bo'lib, geografiya o'qitish jarayonini umumiy masalalari bilan shug'ullanadi. Umumiy metodika nazariy va metodologik muammolarni o'rganadi-ya'ni predmetning o'zini, logikasini va ilmiy tekshirish usullarini o'rganadi, asosiy e'tiborni o'quv-tarbiya muammolarini ishlab chiqishga qaratadi.

Xususiy metodika-alohida kurslarni o'qitish metodikasi bilan shug'ullanadi, umumiy nazariy usullarni alohida kurslarni o'qitish jarayonida qo'llash muammolari bilan shug'ullanadi. Xususiy metodika asosan alohida kurslar bo'yicha o'quv-tarbiya jarayonlarini o'rganadi, alohida kurslarni mazmuni va tuzilishini ishlab chiqadi.

1-jadval. Geografiya o'qitish metodikasining bo'limlari

№	Geografiya o'qitish metodikasi	
	Umumiy metodika	Xususiy metodika
1		
2		
3		
4		

3-ilova

Geografiya ta'limining asosiy maqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Maktab geografiyasini qayta qurishning ilmiy-uslubiy konsepsiyasi»da quyidagicha belgilab berilgan:

- dunyoni yaxlit idrok etishni, geografik qamrovda mushohada yuritishni, bir so'z bilan aytganda, geografik madaniyatni tarbiyalash;
- tevarak-atrofnı idrok qilishning muhim vositasi va uslubi bo'lgan haritadan mohirona foydalana bilishni o'rgatish;
- har qanday shaxs, tabiat va jamiyat bilan munosabatning eng oqil me'yorlariga amal qilishni, buni muhim sharti esa, ularga kompleks yondashish zarurligini anglatmoq;
- har bir fuqoroning o'zi yashab turgan ijtimoiy muhitda samarali faoliyat ko'rsatishiga zarur bo'lgan bilim va malaka berish bilan ruyobga chiqishi va rivojlanishini ta'minlash.

Geografiya talimining mazmuni quyidagilardan iborat: Geografiya ta'limi umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning ajralmas va uzviy bog'langan tarkibiy qismi sifatida mazkur ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan umumiy maqsadlarga muvofiq barkamol o'quvchi shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, geografiya ta'limi o'quvchilarda Yer to'g'risidagi ilmiy dunyoqarashlarni shakllantiradi, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni tarkib toptiradi, dunyo davlatlari va turli regionlarda jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi, geografik ob'ekt, jarayon va hodisalar haqidagi bilim va tushunchalar bilan qurollantiradi, umuminsoniy madaniyatni tarkibiy qismi bo'lgan geografik madaniyatni tarbiyalaydi.

Geografiya o'qitish metodikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- xar bir maktab geografiya kursining sinflar bo'yicha maqsadi, mazmuni va ahamiyatini belgilash, ular mazmunini takomillashtirish;
- o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zlashtirishga imkon beradigan ta'lim yo'llarini aniqlash;
- o'quvchilarga amaliy ko'nikma va malakalarini singdirish imkoniyatlarini aniqlash;
- ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatini oshiradigan va mustaqilligini ta'minlaydigan samarali usullarini aniqlash;
- geografiya fanining umumiy va politexnik ta'lim tizimidagi, o'quvchilarni mehnatga o'rgatish, ularga axloqiy, estetik tarbiya berish vazifalarini ochib borish;
- ta'limning tashkil etish turlarini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- sinalgan usullarni takomillashtirish;
- darslik va boshqa o'quv qo'llanmalariga quyiladigan talablarni ishlab chiqish;
- kurslar bo'yicha o'quv qurollariga bo'lgan talablarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish metodikasini yaratish;
- fakul'tativ kurslar dasturlarini yaratish;

4-ilova

O'qitish maqsadlarini aniqlash didaktika va GO'Mning eng muhim muammosidir. O'qitish maqsadi geografiya nima uchun o'qitiladi, degan savol bilan chambarchas bog'liq. O'qitish maqsadi maktab geografiasining mazmunini, tuzilishini, o'qitish usullari va yo'nalishini belgilashda katta ahamiyatga ega. Barcha fanlar uchun o'qitish maqsadlarini aniqlash uchun avvalo didaktik tadqiqotlar amalga oshiriladi. "Ta'lim haqida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida» va boshqa qonunlarda o'qitish maqsadini aniq belgilashga katta e'tibor berilgan. O'qitish maqsadini aniqlashda milliy qadriyatlar va o'ziga xos jamiyatning xususiyatlari, qiziqishi albatta e'tiborga olinadi, ya'ni o'quvchilar o'zi yashayotgan jamiyat uchun kurashadigan va qayg'uradigan bo'lishi zarur. Maktab o'quvchilarni mehnatni sevadigan, vatanparvar, zamonaviy fan-texnika, texnologiyaga oid ko'nikma va malakalarga ega qilib tarbiyalashi kerak. Har bir mamlakat uchun geografiyani o'rganish katta ahamiyatga ega. Uning tabiiy boyliklarini, chet mamlakatlar bilan qiyoslash, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy hamda geografik munosabatlarimizni aniqlashda ahamiyati katta.

SHu tufayli umumgeografik ta'limga o'quvchilar tarbiyasi va rivojlanishiga ta'sir qilishi nuqtai nazardan qarash kerak. Hozirgi zamon ishlab chiqarish tarmoqlari yirik sanoat, transport, agrosanoat komplekslari tarmoqlaridan iborat, ular tabiat kompleksi va uning komponentlarga keskin ta'sir qilib qolmasdan, balki atrof muhitning ifloslanishiga, tabiatdagi ekologik aloqalarning buzilishiga olib keladi. Ayniqsa hozirgi kunda Orol inkirozi davom etayotgan bir vaqtda tabiat va uning boyliklariga oqilona yondashish muammolari ko'ndalang bo'lib qoldi.

Vaqt o'tishi bilan maktablarda geografiya o'qitish maqsadlari ham o'zgarib turadi. Kelajakda bunday o'zgarishlar yanada kuchayadi. Ilmiy texnika taraqqiyotining rivojlanishi geografiya fanining sifat o'zgarishlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

ta'limda islohotlarning amalga oshirilishi, geografiya o'qitish jarayoniga ham ta'sir kilmadan qolmaydi. Natijada geografiya bo'yicha o'quv dasturlari, o'quv rejalari tubdan o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Demak geografiya fani mazmunining o'zgarishi geografiya o'qitish maqsadlariga ham ta'sir kilmadan qolmaydi.

Ta'lim maqsadi geografiya fani mazmuni bilan chambarchas bog'liq. Demak, ta'lim maqsadini yuqori pogonaga kutarish uchun, geografiya ta'limi ilmiy jihatdan rivojlanishda bo'lishi kerak. Ta'lim maqsadlari aniq ilmiy siyosiy yo'nalishga ega bo'lishi bilan birga u hayot bilan uzviy, ekologik, iqtisodiy, kasbiy, nafosat, bilimlarni ham mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Geografiya ta'limi maqsadlari dasturlar, darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ta'lim vositalari va ta'limni tashkil etish shakllari bilan ham chambarchas bog'liq.

2-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Mustaqillik yillarida geografiya ta'limi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Geografiya o'qitish metodikasining shakllanishi va

rivojlanish tarixi, mustaqillik yillarida mamlakatimiz geografiya ta'limidagi o'zgarishlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

№	Bajariladigan topshiriqlar	Amaliy mashg'ulot natijasi
1	Quyida berilgan matndan foydalanib, O'zbekistonda geografiya ta'limining 1917-1991 yillardagi rivojlanish bosqichlarini sxemada ko'rsating.	sxema tuzish
2	O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarni tahlil qiling.	Yozma tahlil
3	Tarqatma materiallar asosida O'zbekistonda mustaqillik yillarida geografiya fani bo'yicha yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxatini tuzing va 1-jadvalga yozing.	1-jadval
4	O'zbekistonda 1991 yilgacha va mustaqillik yillarida umumta'lim maktablarida foydalanilgan geografiya darsliklarini solishtirish, T-sxema tuzing	sxema

Uslubiy ko'rsatmalar

O'zbekiston maktablarida geografiya ta'limi (darsliklar va dasturlari mazmuni, o'qitish metodlari, o'quv moddiy bazasi, kadrlar tayyorlash va boshqa xususiyatlariga ko'ra)ning rivojlanishini 4 ta bosqichga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich – 1918-1934 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr o'zbek maktablarida geografiya o'qitishni yo'lga qo'yish bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda yangi tipdagi maktablar bilan eski tipdagi maktab geografiyasiga asos solinadi. 1922-1923 yillarda o'qitishning "kompleks dasturlari" ishlab chiqildi. Bu dasturlar turli variantlarda bo'lib, bir necha marta o'zgardi va 10 yil mobaynida qo'llanib kelindi. Geografik ma'lumotlar kompleks mavzular orasiga singib ketdi. 1925-1926 yillarda maktablarning yuqori sinfida geografiya fan sifatida o'quv rejasidan umuman chiqarib tashlanadi. Geografiya tabiiy, fizika, ijtimoiy fanlar tarkibiga kiritildi. Yuqoridagi fanlar geografiyani o'qitish vazifalarini mutloqo bajara olmadilar. Kompleks metod aslida predmetsiz o'qitish yo'li edi. Birinchi bosqich geografiya fani uchun og'ir sinov yillari bo'ldi.

Oktabr to'ntarishidan keyin dastlab maxsus qarorlar asosida 9 yillik yagona mehnat maktablari tashkil etildi. Bu maktab ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich 1-5 sinflar, 2-bosqich 6-9 sinflarni o'z ichiga olgan. 1918-1922 yillarda geografiyaga rasmiy namunaviy dasturlar paydo bo'ldi. Bunda ayrim landshaftlarning xususiyatlarini o'rganishga ko'proq e'tibor berildi. O'sha davrlar "landshaft dasturlari" bilan mashhurdir. Masalan "Ovchilar landshafti", "Ko'chmanchilar landshafti" va boshqalar.

Lekin landshaft dasturlari o'zini oqlamadi. 1921 yilda geograf D N.Anuchin rahbarligida umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan geografiya dasturi loyixasi ishlab chiqildi. Ungacha ayrim hududlar xatto ayrim maktablar xuddi landshaftlar dasturiga uxshash bo'lgan dasturlarni o'zlari tuzar edilar. Anuchin dasturi oktabr tuntarishiga kadar bo'lgan geografiya ta'limining eng yaxshi tomonlarini qisman bo'lsa ham o'zida aks ettirgan bo'lib, unda geografiyani o'qitish sinflar bo'yicha taksimlangan edi.

Anuchin dasturiga muvofiq, 3- sinfda o'z kishlog'i, shahari, guberniyasi o'rganildi u bu to'rni «mamlakatshunoslik» deb atadi. O'quvchilar geografik nomlar, tushunchalar, geografiyaga oid rasmlar bilan tanishtirilar edi. 4-sinfda mamlakatlar, turli mintaqalarning tabiati, insonlar hayotini aks ettiruvchi rasmlar namoyish qilinadi. 5-sinfda mamlakatshunoslikka oid bo'lgan ma'lumotlar va "qit'alar" geografiyasi o'rganiladi. 6 va 7-sinflarda Rossiya geografiyasi, 8- sinfda iqtisodiy geografiya, 9-sinfda astronomiya va astrologiya o'qitilar edi. Mazkur dastur o'quvchilarning geografiyaga oid bilimlarni oshirishda katta rol o'ynaydi.Unda geografiyaga ajratilgan soatlar miqdori ancha ko'p edi.Ammo bu dastur asosida darsliklar yaratilmagan edi.

1924 yildan boshlab maktab geografiyasi yangi dasturlar asosida ishlashga o'tdi, ammo bu

darsliklar bo'yicha, geografiya bo'yicha alohida predmetlar yo'q edi. Unda geografiyadan tizimli bilim berilmas edi. 1-4 sinflarda alohida geografiya kurslari o'rnini kompleks mavzular egalladi. Bu mavzular mazmuniga qisqacha geografik savollar kiritilar edi. Masalan 1-sinfda yil fasllari, 2-sinfda maxalliy tabiat va xo'jalik bilimlari berilar, 4-sinfda Rossiya geografiyasi va boshqalar o'rgatilar edi.

Ikkinchi bosqich sinflarida geografiya biologiya, tarix, jamiyatshunoslik fanlari tarkibiga singib ketgan edi. Tabiiy geografiya va mamlakatshunoslik haqidagi bilimlar nochor ahvolga tushib qoldi. Xullas kompleks dasturlarning qabul qilinishi geografiyani mustaqil fan sifatida barham topishiga olib keldi. Faqat 1927 yilda avval 1-bosqich maktablarda, keyinroq 2-bosqich sinflarda geografiya fan sifatida qayta tiklandi.

O'zbekistonda 1920-1930 yillar oralig'ida geografiya darsliklari rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilindi. G.I.Ivanovning "Boshlang'ich jo'g'rofiya" darsligi geografiya darsliklarining to'ng'ichi edi. Bu darslik 1927 yilda N.L.Korjenevskiy yordamida P.Arxengelskiy tomonidan o'zgartirib nashr qilindi. G.I.Ivanov, G.G.Ivanovlarning, Baxtiyorov va Makarov bilan hamkorlikda birmuncha o'zgartirib nashr qilingan "Jo'g'rofiya hamda o'lkani o'rganish" darsligi ham o'zbek tilidagi dastlabki darsliklardan edi. Bu davrda Balashovning "O'zbekiston hamda unga qo'shni jumhuriyatlar va viloyatlar" P.Arxengelskiyning "Jo'g'rofiya" (o'lkani o'rganish darsligi), A.Obidovning "O'zbekiston sotsialistik sho'rolar jumhuriyat jo'g'rofiyasi" darsliklari geografiya ta'limida katta ahamiyatga ega bo'ldi. A.Obidovning "O'zbekiston jo'g'rofiyasi" darsligi O'zbekistonda geografiya ta'limida o'z respublikasini o'rganishda birinchi xaqiqiy asar edi. Ammo bu darsliklar yagona dastur asosida yozilmagan edi. 1930 yilda o'zbek tilida dastlabki geografiya o'qitish metodikasi paydo bo'ldi. Uning muallifi N.Leonov edi. Bu metodika suxbatlar usulida yozilgan bo'lib, u talay kamchiliklarga ega edi. Unda kartalar bilan ishlash metodlari yoritilmagan edi.

O'zbekiston maktablarida geografiya o'qitish samaradorligini oshirishda 1925 yildan boshlab chop etilgan "Maorif va o'qituvchi" jurnalining roli katta bo'ldi. Jumladan ushbu jurnalning 1925 yil 5-6 sonlarida "Jo'g'rofiyaning foydasi", "Lug'at va atamalar", "Samarqand", "Maktabda o'lkani o'rganishning ahamiyati", "Muz davrining oxirlarida Ovroqada qanday irklar yashadilar", "Saxroi kabir" va boshqa o'nlab geografiyaga oid maqolalar elon qilindi. Bu jurnal geografiya o'qituvchilariga ilmiy va metodik jihatdan yaqindan yordam bergan. 1931 yil 4 iyuldan "Madaniy inqilob" (keyinchalik "O'qituvchilar gazetasi", hozirda "Ma'rifat") gazetasi chiqa boshladi. Unda yuzlab ilmiy, uslubiy maqolalar e'lon qilinadi. Geografiya ta'limida kadrlar yetishtirish masalasi sekin asta yo'lga qo'yildi. 1927 yilda Samarqand oliy pedagogika instituti ochildi. 1930 yil-lar oxirlariga kelib oliy ma'lumotli geografiya o'qituvchilari yetishib chiqa boshladi. Bular N.Ibadov, G.Nazarov, I Mirzaboev, A Axrorov va boshqalar edilar. 1930 yillarning o'rtalarida Toshkent, Buxoro, Samarqand, keyinchalik Nukus, Urganch, Qo'qon, Andijon shaharlarida pedagogika institutlari ochildi. Ilg'or o'qituvchilarda oliy va o'quv yurtlari o'qituvchilari geografiyadan darslik va boshqa qo'llanmalar yaratishga jalb etildi. Darslarda o'quvchilarning mustaqil va amliy ishlariga e'tibor kuchaydi.

Ikkinchi bosqich 1934-1955 yillarni o'z ichiga oladi. O'zbek maktablarida geografiya o'qitishning muayyan bir tartibga tushish bosqichi bo'lib, bu davrda yagona dastur asosida muayyan darsliklar yaratiladi. O'quvchi va o'qituvchilar uchun o'zbek tilida o'quv qo'llanmalari nashr etila boshlandi. Maktab geografiyasiga xissa qo'sha oladigan metodistlar, geografiya o'qituvchilari yetishib chiqa boshladi. Ko'plab metodik kitoblar rus tilidan o'zbek tiliga o'girildi. 1935 yilda O'rta Osiyo universitetida - geografiya - geologiya fakulteti tashkil etildi. 1935-1940 yillar mobaynida O'zbekistonda pedagogika institutlarining aksariyatida geografiya mutaxassisligi ochildi. 1943 yilgacha Respublikada 10ga yaqin o'qituvchilar institutlari ochildi. Ularda geografiya o'qituvchilari ham tayyorlangan. Geografiya o'qituvchilarining ta'lim sohasidagi ehtiyojlari e'tiborga olinib, ularga metodik yordamni kuchaytirish maqsadida o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari, ular bazasida esa geografiya kabinetlari (kafedralari) tashkil etiladi.

Geografiya ta'limi har tomonlama rivojlanishida buyuk iqtisodiy-geograf N.N.Baranskiyning xizmatlari katta bo'lgan. U mualliflik qilgan iqtisodiy geografiya darsligi 20 yil

maboynida muntazam ravishda nashr yetib turildi. N.N.Baranskiy "o'qituvchi-ta'lim jarayonida markaziy figura" deb takidlagan edi. U geografiya ta'limida yetakchi o'rinni karta va ko'rsatmalilik egallashi zarur deb "karta-geografiyaning ikkinchi tilidir", Karta-geografiyaning alfasi va omegasi,"Birgina karta bir necha varaq matnning o'rniga o'tadi" degan o'lmas fikr va g'oyalarini o'rta tashladi.

2-jahon urushi geografiya ta'limiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi.Ko'pgina geografiya o'qituvchilari frontga jo'nab ketdilar. Oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash izdan chiqdi. O'quv qo'llanmalar umuman etishmay qoldi. Urushdan keyingi yillarda dastlab 4 yillik, keyin 7 va 8 yillik majburiy to'liq o'rta ta'limga bosqichma-bosqich o'tilishi, ta'lim mazmunini tubdan qayta qurishga yordam berdi. Bu davrda geografiya o'qituvchilari diqqati ko'proq o'quv jarayonini amaliyot bilan bog'lashga qaratildi. Geografiya ta'limini hayot bilan bog'lash borasida tabiiy sharoitning xalq xo'jaligidagi ahamiyatiga katta e'tibor berildi. O'z o'lkasi geografiyasini o'rganish va o'z joyini kartasini chizish, ob-havoni kuzatish, o'z joyidagi barcha tabiiy kompleks-komponentlarini o'rganish geografiyani turmush bilan bog'lashga qaratildi. Maktabni turmush bilan bog'lash haqidagi qaror asosida o'quvchilarning mustaqil ishlariga katta e'tibor berildi. O'zbekiston geografiyasini o'rganishga bir muncha e'tibor kuchaydi. Sinfdan tashqari ishlar faoliyati kuchaydi. 1953-1954 o'qish yillaridan boshlab amaliy mashg'ulotlarni uyutirish majburiy tarzda maktab geografiya dasturlariga kiritildi. O'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishga, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashga e'tibor kuchaydi.

Uchinchi bosqich - 1956-1966 yillar. Bu davrni maktab geografiyasini turmush bilan bog'lash bosqichi desa bo'ladi. Bu davrda maktab geografiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O'qitishning samarali xillari toboro kengroq joriy qilina boshlandi. Maxalliy milliy kadrlar, yirik geograf va metodistlar yetishib chiqdi.O'quvchi va o'qituvchilar uchun ilmiy ommobop va metodik adabiyotlar tarjima qilindi. Geografik atama va nomlar ma'lum bir tizimga tusha bordi.

1958 yil 24 dekabrda Oliy Sovetning maktab haqidagi qonuni geografiyaning takomillashuvida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qonun boshqa fanlar qatori geografiya ta'limini ishlab chiqarish mehnati bilan yaqinlashtirishga e'tiborni kuchaytirdi. Geografiya ta'limida o'z o'lkasini chuqurroq o'rganishga bo'lgan talab oshdi. O'zbekistonda geografiya ta'limini takomillashtirishda bir qancha ilmiy maskanlar va oliy o'quv yurtlari qatori Pedagogika fanlari ilmiy tekshirish institutidagi geografiya laboratoriyasining xizmatlari katta bo'ldi. Bu institut geografiya laboratoriyasida P.Musaev rahbarligidagi metodist geograf olimlar maktabda geografiya o'qitishni takomillashtirish bo'yicha qator izlanishlar olib bordi. P.Musaev o'sha mustamlaka yillarida ham xech narsadan xadiksiramadan milliy maktab muammolari bo'yicha g'oyat dadil fikrlarini ilgari suradi.

1960 yildan boshlab geografiya ta'limi metodikasiga oid maxsus qo'llanma va darsliklar nashr etila boshlandi. O'sha davrlarda O'zbekistonda geografiya fanini takomillashtirishda A.Obidov, O.Saidrasulov, X.Xasanov, N.Dolimov, Z.Akramov, O.Muminov, M.Nabixanov, I.Mirzaboev va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. Umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlari uchun geografik adabiyotlar, darslik va metodik qo'llanmalarni tarjima qilish keng tus oldi. Bunda X.Xasanov, P.Sultonov, M.Koriev, P.G'ulomov, R.Raximbekovlar unumli mehnat qildilar. Jumladan N.F.Kurazovning "Geografiya o'qitish metodikasi" (1962) P.Budanovning "Tabiiy geografiya metodikasi" (1950) A.V.Darinskiyning "Geografiya o'qitish metodikasi"(1964) N.Dolimovning "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" yangi darsliklari bosmadan chiqdi.

To'rtinchi bosqich - 1967-1990 yillar. Bu davrda ta'lim sohasida turli o'zgarishlar paydo bo'ldi. O'quv ko'rgazmali qo'llanmalar chop qilindi. Ta'limni isloh qilish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Muayyan darsliklar tizimi va yangi o'quv kartalari paydo bo'ldi. O'lkashunoslikka e'tibor birmuncha kuchaydi.Ammo O'zbekiston geografiyasini o'rganish bo'yicha soatlar xajmi 20% dan oshmadi. 1960 yillardan boshlab, O'zbekistonda geografiya ta'limi metodikasining turli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O.Muminov "O'zbek maktablariida tabiiy geografiya o'qitish masalalari" (1967), T.Abdullaeva "Tabiiy geografiya o'qitishda O'zbekiston tabiati haqida o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish" (1967) M.Nabixanov "SSSR geografiyasida badIIy ko'rsatmalik vositalarining roli va qo'llanishi" (1969)

P.Musaev "O'zbekiston iqtisodiy geografiasini o'qitish xususiyatlari" (1968), M.Juraboev "O'zbekiston maktablarida geografiya o'qitishda predmetlararo aloqalarni joriy etish" (1969), M.Asanov "Topografik tushunchalarni shakllantirish" (1970), M.Yunusova "Geografiya ta'limida natural qo'llanmalardan foydalanish" (1985), R.Qurbonniyozov "Geografiyadan fakultativ mashg'ulotlarda o'quvchilarni mehnatga yo'naltirish" (1986) mavzulari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. O'rta va Oliy maktablarda Geografiya o'qitish metodikasini rivojlantirishda X.Xasanovning xizmatlari katta bo'ldi. Professor Xasanov o'quvchilar va geografiya o'qituvchilari uchun o'nlab ilmiy maqolalar ilmiy ommabop adabiyotlarni o'quvchilar diqqatiga havola etdi va nashr ettirdi. Bular: "Geografiya terminlari lug'ati" (1964) "Sayyoh geograflar" (1965) "Yer tili" (1967) "Maxmud Qoshg'ariy" (1965), "Geografik nomlar imlosi" (1962) va boshqalar bunga misoldir. X.Xasanov geografiya metodikasiga oid ishlarida o'quvchi va talabalarning mustaqil ishlari, metodlari, bilimlarni nazorat qilishning o'ziga xos tomonlarini ishlab chiqdi, rivojlantirdi, takomillashtirdi.

1960-1970 yillar oralig'ida geografiya o'qitish metodikasiga oid ko'plab o'quv qo'llanmalari chop etildi va tarjima qilindi. Bular: M.Qorievning "O'rta Osiyo tabiiy geografiasini" (1964, 1968 yillarda) O.Mo'minov, E.Belskaya 2-3-4 sinflar uchun "Tabiatshunoslik", M.Qoriev, N.Dolimov, O.Mo'minov "O'zbekiston tabiiy geografiasini" (7 sinf), Z.Akramov, P.Musaev "O'zbekiston iqtisodiy geografiasini" (8 sinf), M.Nabixanov, E.Safarov, G.Asanovlarning "O'zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy geografiasini" (oliy o'quv yurtlari uchun) P.Musaev "O'zbekiston SSR iqtisodiy geografiasini o'qitish" (1977) O.Muminov "Geografiya ta'limi metodikasi" (1978) P.Musaev, R.Qurbonniyozovning "Geografik o'yinlar" (1978-1990), I.Abdug'aniev "Geografiya darslarida ta'limning texnikalaridan foydalanish" (1990), ko'plab darslik o'quv va metodik qo'llanmalar chop qilindi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu davrlarda geografiya metodikasi erishgan yutuqlar bevosita o'qituvchilar amaliyoti bilan muntazam bog'langan edi. Bu avvalo geografiya ta'limi metodlari bo'yicha mahalliy sharoitni e'tiborga oladigan nazariyalar paydo bo'ldi. Geografiya fanini o'qitishda kartalarning o'rni nihoyatda katta. Mamlakatimizda geografik va topografik kartalarni vujudga kelishi, maktab geografiasining mazmunini ancha boyitdi. Bu sohada samarali ilmiy izlanishlar olib borildi. T.Mirzaliev, A.Egamberdiev va boshqalar tomonidan talaygina o'quv qo'llanmalar, kartalar chop qilindi. Bevosita uning rahbarligida geografiya o'qituvchilari uchun geografik kartalar va ulardan foydalanish (1978) "Kartografiya" (1982), "Geografik tadqiqotlarda aerokosmik metodlar" (1981), "Kosmos xalq xo'jaligida" (1985) va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbekistonda 1969-1970 o'quv yilida geografiyadan yangi dasturlar joriy etildi va u 1980-81 o'quv yiligacha amal qildi. Bu dastur bir muncha takomillashtirildi. Har bir geografiya kursi uchun zarur amaliy ishlar uyushtirish qat'iy qilib qo'yildi. Birinchi marta dasturda mavzular bo'yicha fanlararo aloqalar, o'quvchilar bilimi va bajara olishi zarur bo'lgan bilimlar alohida ko'rsatildi. Umumta'lim maktablarni takomillashtirish va rivojlantirishda maktabni isloh qilishga tayyorgarlik ishlari ko'rib chiqildi. Isloh geografiya ta'limi mazmuniga ham ta'sir qilmasdan qolmadi. Maktab geografiasini kurslari tarkibida ham bazi o'zgarishlar paydo bo'ldi. Ta'limning 9-yillik tizimga o'tishi bilan geografiani o'qitishda ham mehnat ta'limi, kasb tanlash, politexnik ta'lim elementlari, iqtisodiy bilimlar kiritildi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishgach, respublika xo'jaligining barcha sohalarida bo'lganidek ta'limda ham tub islohatlar davri boshlandi. 1992 yilda ilk bor O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonuni qabul qilindi. Uning 3- moddasida "Ta'lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv" zarurligi ta'kidlangan. Bu qonunga asosan mamlakatimizda geografiya ta'limida ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangi mazmundagi o'quv dasturlar va rejaları ishlab chiqildi. Dasturlar asosida darsliklar, o'quv qo'llanmalari metodik adabiyotlari yaratishga kirishildi. Sobik SSSR tabiiy va iqtisodiy geografialari o'rniga o'z respublikamizni shu sohadagi geografiasini atroflicha o'rganishga o'tildi. Ta'lim muassasalarini ilmiy maktab uchun zarur bo'lgan didaktik vositalar bilan ta'minlashga, o'quv muassasalarini atestatsiya va ankreditatsiyadan o'tkazish tizimiga kirishildi va amalga oshirildi. Asta-sekin milliy ta'lim tizimi shakllana boshladi. Metodist olim P.Musaev rahbarligida geografiya o'qitishga oid

milliy ta'lim kontsepsiyasi ishlab chiqildi. Milliy maktablarda geografiya o'qitish mazmunan va deyarlik o'zgardi. Xorijiy mamlakatlar bilan ta'lim sohasi bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi. Ulardagi ilg'or pedagogik texnologiya tankidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqildi. Mamlakatimizda tashkil qilingan "Ustoz" jamg'armasi orqali ko'pgina geograflar xorijiy mamlakatlarda bo'lib, ularning tajribalarini o'rganib qaytdilar. Amalga oshirilgan tadbirlar tufayli mamlakatimizning o'ziga xos milliy ta'lim tizimi shakllanib, ta'limning moddiy bazasi mustahkamlanib bordi.

Mamlakatimizda yangi turdagi o'quv muassasalari, litseylar, gimnaziyalar, kollejlilar tashkil qilindi. Ularda ta'lim tizimi deyarli yangidan uyushtirildi. Barcha o'quv muassasalari kompyuter texnikasi bilan ta'minlana boshlandi. O'quvchilarni tabaqalab o'qitish joriy etildi. Ammo bu tadbirlarning barchasi mafkuraga sodiq xodimlarni tayyorlashga da'vat etilgan sobiq ta'lim tizimini yangilash borasidagi dastlabki qadamlar edi.

Endilikda mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq maqsad, mazmun, vazifalar, boshqarish, tashkil etish va xalqimizning milliy-madaniy an'alariga mos keladigan hamda demografik va milliy mafkuraga aynan to'g'ri keladigan tamoman yangicha "ta'limiy xizmat"ni shakllantirishga kirishildi. Uning pedagogik asosini esa har bir shaxsning qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish takomillashtirish orqali jamiyatning ta'limga bo'lgan extiyojini qondirish tashkil qiladi. Ana shunday kantsepsual g'oyalari asosida faoliyat ko'rsatuvchi maktabni, shaxs va jamiyatni rivojlantirishga, ta'limning milliy va mintaqaviy xususiyatlarni e'tiborga olib demokratiya hamda insonparvarlik tamoyillari asosida boshqarishga undaydigan mexanizm sifatida boshqa fanlar qatori geografiya ta'limida ham tayanch o'quv turi vujudga keldi.

Bu mexanizm jamiyatning geografiya ta'limiga bo'lgan ijtimoiy buyurtmasi davlat talabi bilan bolaning shaxsiy imkoniyati o'rtasidagi tafovutni muvozanatlovchi vositadir. Yuqoridagi g'oya va fikrlar hamda kontsetssiyalar asosida mamlakatimizda geografiya ta'limining mazmuni va tuzilishi quyidagi tizimda barpo etildi.

Umum ta'lim maktablarida geografiya o'qitish

5-sinf – tabiiyot (1999-2000 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich tabiiy geografiya),

6-sinf – Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi,

7-sinf – O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi (1-yarmida),

7-sinf – O'zbekiston tabiiy geografiyasi (2-yarmida),

8-sinf – O'zbekiston iqtisodiyva ijtimoiy geografiyasi,

9-sinf – Jahonning iqtisodiyva ijtimoiy geografiyasi.

Akademik litseylarda:

1-bosqichda - Ekologiya asoslari,

2-bosqichda - Amaliy geografiya,

3-bosqichda - Iqtisodiy geografiya.

Kasb-hunar kollejlilarida esa dastlab amaliy geografiya, keyingi kursda iqtisodiy geografiya asoslari o'qitiladigan bo'ldi.

Mustaqillik yillarda geografiya ta'limi mazmuni va maqsadi o'zgarishi munosabati bilan dastlabki paytlarda geografiya o'qituvchilari talaygina qiyinchiliklarga duch keldilar. Bular avvalo o'quv qo'llanmalari va vositalarining etishmasligi, bilim berishda faqat o'qituvchining yetakchilik qilishi, o'quvchilarning esa oddiy ishtirokchi bo'lishi xukm surdi. Aksariyat o'quvchilarning egallagan bilimlarini amalda qo'llay olmasliklari ma'lum bo'lib qoldi. O'qituvchilar o'z ish faoliyatlarida muammoli metodlardan, kompyuter texnikasidan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llarini bilmasliklari ayon bo'ldi.

O'tish davridagi maktab darsliklari jahon standartlari talabalariga javob bermasdan qoldi. Bularning barchasi maktablar uchun yangi o'quv dasturlari ishlab chiqishni taqozo etdi. Mirzo Ulug'bek nomidagi ToshDU geografiya fakulteti olimlari tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun ishlab chiqarilgan dasturlari hozirgi davr talabalariga birmuncha javob berishi bilan ajralib turadi. Ammo o'rta maktablar uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturlari oliy ta'limda aks etgan bilimlar tizimidan bir muncha ajralib qolgan. Ayniqsa boshlang'ich tabiiy geografiya, materiklar va okeanlar geografiyasi, Turkiston tabiiy geografiyasi, O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi dastur va darsliklari talablar darajasida emasligi tajribalarda ayon bo'ldi. Bu muammoni xalq etish uchun

respublikamizdagi barcha geografiya olimlari, metodistlari faollik etishlari zarur bo'ldi. SHu tufayli ularni zamon talablarida yozish uchun tajribali olimlar taklif etila boshlandi. Muqobil darsliklar yozish masalalari ilgari surildi.

Mustaqillik yillarida o'nlab ilmiy ommabop, o'quv-metodik adabiyotlar yaratildi va geografik mazmundagi adabiyotlarni yozishga kirishildi.

5-sinfda tabiiyot kursi (P.G'ulomov, P.Musaev, A.Baxromov), 6-sinf uchun Boshlang'ich tabiiy geografiya va materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi (P.Musaev, A.Baxromov, R.Qurbonniyozov, T.Mahammadiyeva), 7-sinf uchun "Turkiston tabiiy geografiyasi" (P.G'ulomov, X.Vaxobov, A.Xasanov) O'zbekiston tabiiy geografiyasi esa (A.Muminov, P.Baratov, M.Mamatko'lov, R.Raximbekov). 8-sinf uchun O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi (Z.M.Akramov, P.Musaev) darsliklari chop etildi.

Geografiya darsliklaridan tashqari, o'qituvchilar uchun o'nlab metodik adabiyotlar chop etildi. Bular R.Qurbonniyozov "Geografiya ta'limi metodikasi" (1992), P.G'ulomov, "Inson va tabiat" (1992), R.Qurbonniyozov, M.Xolikovlarning oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun "Geografiya" ma'lumotnomasi (1993), R.Qurbonniyozov "O'zbekiston geografiyasi", (qiziqarli savol va topshiriqlar (1997), R.Qurbonniyozov "Umumiy tabiiy geografiya" (1999), P.Baratov "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" (1996), G.Asanov, M.Nabixanov, N.Safarov "O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi" (1993), P.Baratov, M.Mamatkulov, A.Rafikov «O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi» (2002), I.Kayumov, I.Safarov, M.Tillaboeva «Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» (2002) darsliklari yaratildi. Aksariyat viloyatlarning tabiiy va iqtisodiy geografiyalari nashr etildi. Bular Farg'ona (I.Abdug'aniev), Surxondaryo (A.Ro'ziev), Buxoro (I.Nazarov), Xorazm (R.Qurbonniyozov) muallifliklarida amalga oshirildi.

Ilmiy va metodik adabiyotlarning chop etilishi geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha chuqur tadqiqotlarning amalga oshirilishi hamda ta'limning birmuncha takomillashuvi tufayli geografiya o'qitishni tashkil qilish borasida talaygina yangilik vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Mustaqillik yillarida test sinovlariga bag'ishlangan metodik adabiyotlar ko'plab nashr qilindi. 1992 yildan respublikamizning barcha oliy o'quv yurtlarida kirish imtixonlarining test usulida amalga oshira boshlanishi katta samarali natijalarga olib keldi.

Ma'lumki geografiyani kartasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa umumiy o'rta ta'lim maktablarida kartasiz darslarni olib borish mumkin emas. Respublikamizda o'quv kartalarini tashkil etish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirildi. O'tish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan, O'rta Osiyo va Qozog'istonning tabiiy kartasi, O'zbekiston Respublikasining tabiiy, iqtisodiy, iqlim, ekologik, aholi zichligi kartalari, dunyoning siyosiy ma'muriy va boshqa kartalarini nashr etish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirildi. 1999 yilda Prezident farmoyishi bilan O'zbekiston geografiya atlaslari chop qilindi. 5-6-7-8-9 sinflar uchun geografiya atlaslari va konturli kartalar nashr etildi. Ammo dunyoning turli mazmundagi kartalari, globuslar va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalar nashr etishda sustkashlikka, yo'l qo'yildi.

1-jadval

№	Darslik nomi	Muallif(lar)	Nashr etilgan yili

3-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Xorijdagi ilg'or tajribalarni o'rganish va umumlashtirish.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarda xorijiy mamlakatlarda geografiya o'qitishning

yo'lga qo'yilishi to'g'risidagi bilimlarni rivojlantirish.

№	Bajariladigan topshiriqlar	Amaliy mashg'ulot natijasi
1	Uslubiy ko'rsatmalardan foydalanib, jahon mamlakatlarida geografiya o'qitishning asosiy yo'nalishlari va bu yo'nalishlar uchun xos bo'lgan mamlakatlarni tahlil qiling	Yozma tahlil
2	Jahon mamlakatlarida geografiya o'qitishning asosiy yo'nalishlarini sxemada tasvirlang	sxema
3	Mavzu bo'yicha T-sxema tuzing	T-sxema
4	Uslubiy ko'rsatmalardan foydalanib, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim samaradorligi taraqqiyotini ta'minlovchi omillarni doiraviy diagrammada ko'rsating.	doiraviy diagramma
5	Bolon Deklaratsiyasining maqsadi va vazifalarini tahlil qiling	Yozma tavsif

Uslubiy ko'rsatmalar

Ta'limdagi samaradorlik mezoni uning xalqaro standartlar talablariga javob berishi bilan belgilanadi. Buning uchun jahon pedagogikasidagi, xususan geografiya ta'limidagi o'ziga xos jihatlarni keng o'qituvchilar ommasiga yetkazish katta ahamiyatga ega.

Rivojlangan mamlakatlardagi ta'lim tizimini atroflicha tahlil qilish, mamlakatimizda xalq ma'orifini jahon standartlari darajasiga olib chiqishda cheksiz imkoniyatlar yaratadi. Keyingi o'n yilliklarda xalqaro miqyosda pedagogika fani katta yutuqlarga erishdi. Jahonda aholi savodxonligi darajasi birmuncha oshdi. Geografiya o'qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi ancha takomillashdi. Hozirgi kunda geografiya ta'limi jahonning ko'pgina mamlakatlarida 3 ta yo'nalish bo'yicha olib borilmokda.

1. Geografiya fani yagona o'quv rejasi va dasturi asosida o'qitiladigan mamlakatlar. Bular - Sharqiy Yevropa va MDX davlatlari. **Birinchi guruhga** kiruvchi mamlakatlarda geografiya ta'limi asosan tabiiy ekologik va iqtisodiy geografiya kurslaridan tashkil topgan. SHahar va qishloq joylardagi barcha maktablarda geografiya yagona o'quv rejasi asosida o'qitiladi.

2. Bir necha asosiy fanlar qatorida ayrim kurslarni fakultativ tarzda o'rganish (AQSH Buyuk Britaniya, Kanada, Yevropaning aksariyat mamlakatlarida). **Ikkinchi guruh** mamlakatlarida geografiya bilimlari maxsus fanlar tarzida emas, balki integratsiya (birikma) tarzida bo'lib, geografik bilimlar boshqa fanlar, kurslar tarkibiga kushilib ketgan. Bu mamlakatlarda geografiyani chuqur o'rganishni xoxlovchilar maxsus fakultativ mashg'ulotlar orqali gina o'z bilimlarini oshirishlari mumkin. SHu tufayli hambu guruhdagi davlatlarda geografiya ta'limi bo'yicha yagona davlat dasturi yo'q. Har bir o'qituvchi maktab joylashgan sharoit nuqtai nazaridan kelib chiqqan xolda geografiyadan o'quv dasto'rini tuzishlari va shu asosda faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Masalan: AQSHda 1700 dan ortiq maktab okruglari mavjud bo'lib, ularning barchasida o'ziga xos bo'lgan geografiya dasturlari va ta'limi mavjud va okruglar bir-biriga uxshamaydigan dasturlar asosida ishlaydilar

3. Geografiyani barcha o'quvchilar o'rganishi majburiy qilib qo'yilgan fanlar qatorida qo'shimcha fakultativ mashg'ulotlar (Filippin, Frantsiya, Germaniya, YAponiya va ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda). **Uchinchi guruh** mamlakatlarda geografiya majburiy o'rganiladigan fanlar qatoriga kirmaydi va uni fakultativlar orqali o'rganish asosiy o'rinni egallaydi. Umuman olganda Yevropa va Amerikaning rivojlangan mamlakatlarida barcha o'quvchilar uchun majburiy bo'lgan fanlar qatorida, xilma-xil murakkablikdagi fakultativ kurslar turi keng tarqalgan.

Yuqoridagi mamlakatlarning ko'pchiligidagi geografik bilimlar mazmuni va ta'lim jarayoni bir-biridan keskin farq qiladi. Turli mamlakatlarda geografiya ta'limining bunday tashkil qilinishiga

asosiy sabab ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va boshqa xususiyatlarning ta'siridir.

Jahon tajribasida 3 bosqichli ta'lim tizimi asosiy hisoblanadi, ya'ni boshlang'ich maktab (1-4sinf) o'rta bosqich (5-9 sinf) yuqori bosqich (9-12 sinf) Ko'pchilik davlatlarda har bir bosqichdagi ta'limda o'qish yili o'zgarib turadi. Boshlang'ich maktabda 6-9 yosh, o'rta bosqichda 10-14 yosh, yuqori sinfda 14-16 yoshni tashkil qiladi. Har bir bosqichda geografiya ta'limi o'ziga xos maqsadga ega. Masalan, birinchi bosqich maktabda geografiya ta'limining asosiy maqsadi (mikromaqsad) yaqin atrof muhitini o'rganish, o'quvchilarni moddiy va ma'naviy boyliklarga nisbatan mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdan iborat. Ikkinchi bosqichda (myozomaqsad) o'z malakatining xo'jalik hayotini o'rganish zarur kasblar haqida ma'lumotlar berish, ta'limiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Uchinchi bosqichdagi maktablarda (makromaqsad) insoniyatning global ekologik va iqtisodiy muammolarini va jahon xo'jaligini o'rganishdan iborat.

Demak, jahon tajribasida geografiya o'qitishning axvoli xilma - xil ekan. SHu tufayli bo'lsa kerak bu fanni o'quvchilarga o'rgatishda ikki yo'nalish tarafdorlari mavjud. Birinchi yo'nalish tarafdorlari geografiyani mustaqil fan sifatida muntazam o'qitish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish tarafdorlari uni boshqa fanlari bilan integratsiya (birikma) tarzida qo'shib o'tishni isbotlab berishga urinadilar. O'quv fanlarini integratsiya tarzida o'tish bo'yicha AQSH jahonda yetakchi. Bu mamlakatda 40 - 50 yillardagi ta'lim islohotida ko'pgina fanlar qatori geografiya ham majburiy o'qitiladigan fanlar qatoridan chiqarib tashlandi. Geografik bilimlar tarix, jamiyatshunoslik va boshqa fanlar tarkibiga kiritib yuborildi. Ma'lumki geografiyani bunday o'qitish o'qituvchilarga talay qiyinchiliklar tug'diradi. Eng muhimi geografiya ta'limining sifati juda pasayib, o'quvchilar zarur ko'nikma va malakalarga ega bo'lmay qoladilar. Masalan: Michigan universitetining geografiya fakultetiga o'qishga kirish uchun ariza bergan 400 o'quvchining yarmi geografiyani faqat boshlang'ich maktabda o'rganganligi ma'lum bo'ldi. Aksariyat aholi o'z mamlakati geografiyasini bilmaydi. Ularning ko'pchiligi kartalarni zaif biladi. SHu tufayli ham hozirgi kunda AQSH da geografiyani mustaqil fan sifatida tiklash uchun kurashlar ketyapti.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida fan predmetlarini o'rganish ixtiyoriy bo'lib, ular o'quvchilarning xohish-istaklari asosida amalga oshiriladi. Bu guruhga kiruvchi mamlakatlarda majburiy fanlar soni 7-8 dan oshmaydi. Masalan: Finlyandiya va SHvetsiyada fin va shved tili, iqtisod va sotsiologiya, biologiya, ximiya, ingliz tili, din va sport majburiy fanlar tarzida o'rganiladi. SHvetsiya maktablarida 9 yillik majburiy ta'limdan keyin sinfsiz gimnaziyalar keng tarqalgan. Gimnaziyalarda ta'lim 2-4 yil davom qiladi. Bunday gimnaziyalarda o'quvchilar tuzgan o'quv rejalari asosida ta'lim tashkil etiladi. Bu rejalarda kurs rahbari va ma'muriyat tomonidan tasdiqlanadi, xolos.

Fin-gimnaziyasida o'quv yili 6 davrga bo'lingan. Har bir davr 6 haftadan iborat bo'lib, kurslar 32 soatdan tashkil topadi. Har bir kursda bitta fan kuniga 4-7 soat o'qitiladi. Sport darslari asosiy mashg'ulotlardan ya'ni tushlikdan keyin yoki dam olishda o'tkaziladi. Har davr yakunida o'quvchilar bilimi baholanadi. Agar o'quvchi qoniqarsiz baho olsa, shu kursni qaytadan tanlaydi va h.k.

Ko'pchilik mamlakatlar geografiya ta'limi bevosita davlatning ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy tizimi bilan bog'liq. Tabiiy va iqtisodiy geografiyani o'rganish asos qilib olingan, MDX va SHarkiy Yevropa mamlakatlarida tabiat va xo'jalikning rivojlanish qonuniyatlari jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar, atrof-muhit muammolari geografiya ta'limining asosini tashkil qiladi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda geografik bilimlarning mazmuni ekologizatsiyalashgan bo'lib, o'quvchilarda ma'lum ko'nikmalar shakllantirishga qaratilgan, bu davlatlarda geografiya ta'limi muammolarini turli nazariya va qonunlarni, kategoriyalarini o'rganishtarzida bo'lib, ular o'quvchilarni o'zlashtirishida birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Rivojlangan mamlakatlar geografiya ta'limida ta'limning ruhiy jabxalari (psixologik tomoni) asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchi ruhiyati va uning bilish faoliyatini o'rganishga katta e'tibor beriladi. Geografiya ta'limida turli matnlar, o'yinlar, imitatsiya keng qo'llaniladi. Ular xatto ta'lim metodlari sifatida ham keng qo'llaniladi. Masalan: o'quvchi o'zini kompaniya prezidenti sifatida fikrlaydi ish yuritadi, biron muammoni xal qiladi, o'zi xulosalar chiqaradi. Umuman bunday ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarni kelgusi hayotga, ya'ni ishbilarmonlikka tayyorlashdan iborat.

Turli mamlakatlarning geografiya o'quv darsliklari va qo'llanmalarni tahlil qilish shuni ko'pchilik hollarda ular qiziqarli ma'lumotlarga boy bo'lib, axborot xususiyatiga ega. Bunday qo'llanmalarda matn 20-40 foizni, rasmlar 20 foizni, statistik ma'lumotlar 20 foizni, savol va topshiriqlar 20 foizni tashkil etadi. Kitoblardagi illyustrativ materiallar nihoyatda sifatli va chiroyli qilib beriladi.

Qo'yi sinflarning qo'llanmalarida karta deyarli yo'q bo'lib, ular o'rnini kartaxemalar egallagan. Matnda raqamli sonlar ko'p uchramaydi, mavjudlari ham taqqoslash xarakteriga ega bo'lib, ular eng past, eng kichik, eng baland, eng uzun, eng yuqori kabi tarzlarda beriladi. Mavzu yoki bo'limdan keyin qo'yiladigan savol va topshiriqlar mavzu mazmunini to'liq aks ettirmasligi ham mumkin. Qo'yiladigan savollarlarning aksariyati muammoli topshiriqlar, munozara savollari, amaliy o'yinlar tarzida beriladi. O'quvchilar uchun chiqarilgan geografiya darsliklarida kompyutrlar bilan ishlash uchun maxsus savollar, qiziqarli topshiriqlar, matematik statistika usullari, turli o'yinlar, testlar tarzida geografik bilimlarni egallashga keng o'rin berilgan. O'quvchilar ularni mustaqil bajarish jarayonida tadqiqotchi rolini o'ynaydilar. Geografiya darsligi rivojlangan mamlakatlar geografiya ta'limida eng yetakchi o'rinni egallaydi.

Angliya geografiyasi ta'limi metodikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning kuchli tomonlari quyidagilardan iborat: a) ta'limning nazariy tomonlarini kuchaytirish ya'ni unda hozirgi zamon geografik tadqiqot metodlarini ko'proq o'rganish, b) geografiya ta'limi jarayonida psixologik - pedagogik tadqiqotlar o'tkazish. v) ta'lim jarenda tadqiqot metodlaridan unumli foydalanish va o'quvchilarni gipotezlar (farazlar)tuzishga o'rgatish g) darslarda turli mazmundagi eksperimentlar uyushtirish, ya'ni tasavvur, tushuncha va turli xil karashlarni shakllantirish metodlariga keng o'rin berilgan. Ammo ta'limni uyushtirish shakllari ancha zaif bo'lib, ular o'quvchini unchalik koniktirmaydi.

Rivojlangan mamlakatlardagi geografiya ta'limi ko'p jihatdan o'sha jamiyat va davlat ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Masalan, Buyuk Britaniya maktablarida geografiyadan imtixon biletlarida o'quvchilarga tavsifa etiladigan ayrim savollar namunalari quyidagicha bo'ladi.

1. G'arbiy Yevropaning transport geografiyasida suv va quruqlik yo'llarining (Britaniya, Norvegiya, Shvetsiyadan tashqari) bir-biriga nisbatan ahamiyatini baholang.

2. Tabiiy geografiya va insonlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qanday omillar Frantsiya va Niderlandiya qishloq xo'jaligi geografiyasini o'rganishga yordam beradi?

3. SHimoliy - G'arbiy Yevropaning istalgan ikkita yirik porti geografiyasini qiyoslang.

4. Daniya iqlimining qaysi xususiyatlari sut chorvachiligining rivojlanishiga yoki rivojlanmasligiga sababchi bo'ladi.

AQSH maktablarida o'quvchilar bilimni baholash ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Qo'yida ana shu savollardan namunalar keltiramiz. 1. Ko'p variantni savoldan kerakli javobni topish (eng keng tarqalgan usul) Masalan: Angliya import qiladigan neftning asosiy qismi quyidagi davlatlarning qaysi laridan keltiriladi. 1) A. Venesuela. B. AQSH. V. Yaqin Sharq davlatlari G. SHimoliy dengiz xavzasi D. Jazoir. 2) Tug'ri yoki noto'g'ri tarzidagi savollar, masalan quyidagilarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang. Maranon, Madeyra, Rio-negru daryolarining qaysilari Braziliya hududidan tashkarida boshlanadi?

3. Umumlashtirishga oid savollar, masalan, quyidagi shaharlarning rufarasiga shu shaharga xos bo'lgan sanoat tarmoqlarini yozing. Masalan, ximiya sanoati, tukimachilik sanoati, ichki port, sovun ishlab chiqarish, kand sanoati, neftni qayta ishlash va x.k

4. So'zlari tushirib qoldirilgan tarzidagi savollar, Masalan: Hudud er yuza-sining katta qismlari..... davrda hosilbo'lgan mo'z qoldiklari bilan koplangan va xakoza

5. Iqtisodiy hisob-kitob talab qiladigan tarzidagi savollar, masalan, firma egasi ishlab chiqarayotgan sanoat mahsulotining 60%ni mamlakat ichida, 40 foizini esa chet el firmalariga sotish kerak. Sanoat va savdo ministriligi unga mahsulot ishlab chiqarish uchun quyidagi byoshta hududdan bittasiga korxonaga kurishga ruxsat berdi. Har bittasidan yer uchastkasining bahosi bir-xil. Korxonaga kurish uchun quyidagi joylarning birini tanlagan maqul.

a) Milford-xeyven b) Dandi v) Sautgempton g) Liverpul d) Glazgo.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham keyingi yillarda ta'limga katta e'tibor berilmokda. Masalan, Osiyoning ko'pgina mamlakatlarida 1985 yilgacha xalq ta'limi uchun ajratilgan mablag'lar 20 barobardan ortiq o'sdi. Ayniqsa, Malayziya, Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Tailand, Suriya, Hindiston, Pokiston, kabi mamlakatlarda xalq moarifi rivojlanishi ancha yuqori bo'ldi. Osiyodagi ko'pchilik mamlakatlarda bolalar 5-7 yoshdan boshlab maktabga bora boshlaydilar. Bangladyosh, Birma, Livan, Pokiston, SHri-Lankada maktabga 5 yoshdan boradilar Osiyodagi ko'pchilik mamlakatlarda majburiy ta'lim 5 yildan 10 yilgacha, o'rta maktabda o'qishni davom ettirish esa 4 yildan 8 yilgacha qilib belgilangan.

Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda geografiya o'quv dasturlari mamlakatning tabiiy va iqtisodiygeografiyasini o'rganishga deyarli uxshash bo'lib, alohida e'tibor berilgan. Ular utmishda mustamlaka bo'lgan davrlarda o'z geografiyasiga nisbatan ko'proq mustamlakachi davlat geografiyasini puxta o'rganar edilar. Hozirgi kunda hamko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda mustamlakachilik ananalari o'qitish mazmuni va metodlari saklanib qolgan yoki juda kam o'zgargan.

Faqat oxirgi o'n yilliklarda rivojlanayotgan mamlakatlarda o'quv dasturlari, geografiya darsliklari mamlakat xo'jaligi ehtiyojlarini e'tiborga olgan xolda tuzilishga e'tibor berilmokda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xorijiy davlatlar geografiya ta'limida ijobiy siljishlar kuzatilmokda. Jumladan, ta'lim mazmuni va o'qitish metodlarida yangi metodlar va texnologiyalar qo'llanila boshladi. Xorijiy mamlakatlarda evristik metod ko'proq qo'llaniladi. Bunda o'quvchi ko'proq mustaqil bilim olishga, kichik tadqiqotlar qilishga yo'naltiriladi. Har xil didaktik materiallar, turli xil hujjatlar, vositalar asosida muammoli savollar o'quvchilar diqqatiga havola etiladi. Bir-biriga bog'langan savollar asosida evristik suxbatlar o'tkazish keng tarqalgan. Ishlab chiqarish jarayoni, ekologik muammolar turli o'yinlar tarzida o'rganiladi. Bunda o'quvchilar o'zlarini turli kompaniyalar prezidenti biznesmenlar o'rniga qo'yib "ish" bajaradilar. Bunday usul ko'proq AQSH, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida keng qo'llaniladi. Tarqatma kartochkalar usulida turli chizma jadvallar, kartalar o'quvchilar diqqatiga turlicha xatoliklarga yo'l qo'yib tuziladi va tarqatiladi, o'quvchilar yo'l qo'yilgan o'sha xatoliklarni mustaqil topishlari talab qilinadi. Turli xil misol va masalalar echish ham o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi nuqtai nazaridan kelib chiqadi.

O'quvchilarda ishbilarmonlik, uddaburonlik xislatlarini shakllan-tirish uchun ham ko'proq misol va masalalarda aks etadi. Tayyor mahsulotni qayerlarda sotish, transport harajatlarini aniqlash, mehnat resurslardan oqilona va unumli foydalanish kabilar geografiya ta'limi mazmunini tashkil etadi.

Matnlar, ya'ni javoblar to'g'ri yoki noto'g'ri tarzda aralashtirib berilishi shulardan to'g'rilarni raqamlar bilan belgilab ajratish kabi jadvallar keng tarqalgan usullardan hisoblanadi.

Statistik manbalar bilan ishlash, kartografik qo'llanmalardan foydalanish, matematik modullashtirish keng tarqalgan o'qitish metodlari hisoblanadi. Ayniqsa diskussiya, debat (tortishuv) rivojlangan mamlakatlar geografiya ta'limida ustun turadi va h.k.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim samaradorligi taraqqiyotining 16- foizi moddiy-texnika bazaga, 20 foizi - resurslarga, 64 foizi – inson omiliga bog'liq. "Oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimini isloh qilishning jahonda tan olingan, tajribada isbotlangan 4 ta modeli mavjud. Bular AQSH, Fransiya, Germaniya va YAponiya mamlakatlarining modellaridir. Ular, garchi, umumiy qoida va yo'nalishlar bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lsa-da, lekin mavjud mamlakatlarning hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy holati, milliy xususiyatlari hamda fuqarolarning yashash sharoitidan kelib chiqib, farq qiladi.

Insoniyat sivilizatsiyasi barcha sohalarda, jumladan ta'lim tizimida ham global o'zaro bog'liqlik darajasigacha erishdi. Hozirgi kunda bitta davlat yoki millatning muammosi butun jahon rivojiga katta ta'sir etishi mumkin. YUzaga kelgan ekologik, iqtisodiy, siyosiy muammolar va inqirozlarning echimi faqatgina insoniyatdan kelajakda aqliy va ma'naviy rivojlanishni talab etadi. Bunga esa faqatgina to'g'ri va sifatli ta'lim tizimini yo'lga qo'yish orqaligina erishish mumkin. Bugungi kunda dunyoda yuzaga kelayotgan barcha muammolar ildizi ta'lim-tarbiya tizimidagi sifat nuqsonlari natijasi desak xato bo'lmaydi. Buning echimi ta'lim-tarbiyaga e'tiborni yanada oshirish,

bu sohaga yanada ko‘proq mablag‘ ajratish orqali ta‘lim sifatini yuksaltirish bilan hal etilishi mumkin.

Bolon Deklaratsiyasi. Bolon jarayoni – oliy ta‘limda yagona Yevropa tizimini vujudga keltirish maqsadida Yevropa davlatlari ta‘lim tizimini bir-biriga yaqinlashuvi va moslashish jarayonidir. Bolon jarayonining rasmiy boshlanish vaqti 1999 yil 19 iyunda Yevropaning 29 davlati tomonidan Bolon deklaratsiyasini qabul qilinishi hisoblanadi. Bolon jarayonining boshlanish tarixi 1970 yillarda Yevropa Ittifoqi vazirlar Kengashining ta‘lim sohasidagi birinchi rezolyusiyasini qabul qilinishi bilan belgilanadi. 1998 yilda Yevropaning 4ta davlati (Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Italiya) ta‘lim vazirlari Parij universitetining 800 yilligini nishonlash vaqtida, oliy ta‘limdagi turli tizimlar Yevropada fan va ta‘limni rivojlanishiga to‘siq bo‘layotganligi to‘g‘risida bir fikrga kelishdi va Sorbon deklaratsiyasini imzolashdi. Deklaratsiyaning maqsadi Yevropada oliy ta‘lim tizimini standartlashtirish maqsadida umumiy qoidalar ishlab chiqishdan iborat edi. Sorbon deklaratsiyasi maqsadi 1999 yilda Bolon deklaratsiyasini imzolash bilan o‘z tasdig‘ini topdi va Yevropaning 29 davlati o‘z xohishi bilan, ixtiyoriy ravishda ushbu deklaratsiyani imzoladilar. Hozirgi kunda Yevropa Ittifoqiga a‘zo 49 davlatdan quyidagi 47 tasi (Monako va San-Marinodan tashqari) va Yevropa Komissiyasi ushbu jarayon ishtirokchisi hisoblanadi.

Bolon jarayonining asosiy maqsadi: Yevropada yagona oliy ta‘lim tizimini vujudga keltirish, jahonda Yevropa oliy ta‘lim tizimini faollashtirish; Yevropaning barcha oliy ta‘lim muassasalariga kirishga keng yo‘l ochish; Yevropa oliy ta‘lim tizimining sifati va mavqeini yanada oshirish; o‘qituvchilar va talabalar mobilligini rivojlantirish; Bolon deklaratsiyasiga a‘zo davlatlar oliy ta‘lim tizimida barcha akademik darajalar va boshqa ixtisosliklarni mehnat bozori talablari asosida bir xil shakllantirish hisobiga bitiruvchilarni muvaffaqiyatli ish bilan ta‘minlashni yo‘lga qo‘yish.

Deklaratsiya quyidagi 7 ta asosiy tamoyillarni o‘z ichiga olgan:

1. Bir xil akademik darajava diplom ilovasini berish orqari Yevropa fuqarolarini ish bilan ta‘minlash imkoniyatlarini oshirish, Yevropa oliy ta‘lim tizimini xalqaro raqobatbardoshligini ta‘minlash.

2. Oliy ta‘limda ikki pog‘onali (siklli) o‘qitishni yo‘lga qo‘yish: tayanch (dastlabki) oliy ta‘lim (undergraduate) va bitiruvchi (graduate). Birinchi sikl kamida 3 yil davom etishi ko‘zda tutilgan va bakalavr darajasini beradi. Ikkinchi sikl magistr darajasini olish bilan yakunlanadi.

3. Talabalarning kata hajmda mobilligini ta‘minlash maqsadida zaxet birliklarini yagona Yevropacha tizimini tadbiiq etish.

4. Talabalarning mobilligini rivojlantirish. Transmilliy ta‘lim standartini o‘rnatish.

5. Taqqoslanadigan mezonlar va uslubiyotlarni ishlab chiqish maqsadida sifadni ta‘minlash uchun Yevropa hamjamiyatiga ko‘maklashish.

6. Ta‘lim sifatining ichki nazorat tizimini tadbiiq etish va OTM faoliyatini tashqi baholashga talabalar hamda ish beruvchilarni jalb etish.

7. O‘quv rejalarini, institutlararo hamkorlik, mobillik va hamkorlik o‘quv dasturlari, amaliy tayyorlov va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni rivojlantirish orqali oliy ta‘limda Yevropacha an‘analarni yuzaga kelishiga ko‘maklashish.

Darsga yakun yasaymiz: Chiqish haritasi

Siz uchun eng muhimi nima bo‘ldi? (darsning uchta asosiy g‘oyasini ayting).	Nima tushunarsizligicha qoldi?	Darsning qaysi bosqichi sizda qiyinchilik tug‘dirdi?

4-amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Germaniya va Fransiyada geografiya ta‘limi.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarda xorijiy mamlakatlarda geografiya o‘qitishning yo‘lga qo‘yilishi to‘g‘risidagi bilimlarni rivojlantirish.

№	Bajariladigan topshiriqlar	Amaliy mashg'ulot natijasi
1	Germaniya maktablarida geografiya ta'limining asosiy xususiyatlarini tahlil qiling.	Yozma tahlil
2	Fransiya maktablarida geografiya ta'limining asosiy xususiyatlarini tahlil qiling.	Yozma tahlil
3	Uslubiy ko'rsatmalar asosida Germaniya va Fransiya maktablarida geografiya ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini T-sxemada ko'rsating	T-sxema
4	Finlandiya maktablarida geografiya ta'limining asosiy xususiyatlarini tahlil qiling.	

Uslubiy ko'rsatmalar

Germaniya maktablarida geografiya ta'limi bo'yicha yagona dastur yo'q. Har bir (Yer-land) o'lka o'z dasturi va darsliklariga ega. Germaniyada turli tipdagi maktablar mavjud. Ularda boshlang'ich, asosiy (5-10 sinflar) va gimnaziya (11-13, 13-sinf abituriyentlar uchun) birinchi guruh maktab barcha uchun majburiy hisoblanadi. O'quvchilar 10 sinfni tugatganlaridan keyin, gimnaziya, xunar texnika maktablari va oliy o'quv yurtlariga kirish uchun tayyorgarlik ko'radilar. (xususiy maktablar 2%dan oshmaydi)

Germaniya maktablarida dastlabki geografik bilimlar bilan tanishish 3-4 sinfdan boshlanadi. Bu sinflarda mamlakatshunoslik fanlari o'rganiladi. Bundan tashqari, geografik bilimlar qisman biologiya va tarix fanlari orqali ham beriladi. Germaniya maktablarida geografiya fan sifatida 5 - sinfdan boshlanadi. Bu sinfda asosan o'lka geografiyasi o'qitiladi. Vatanga oid bo'lgan bilimlar to 8 - sinfgacha beriladi. 5-8 sinflarda geografiyadan haftalik o'quv soati 2 soatni tashkil etadi. Bu sinflarda asosan Yevropa va Yevropadan tashqari mamlakatlar geografiyasi o'rganiladi. Topografiya va kartografiya asoslari bo'yicha ham bilimlar beriladi. O'qituvchilar diqqatiga bir necha variantdagi darsliklar va o'quv qo'llanmalari tavsiya etiladi. Bular quyidagi ko'rinishlarida aks etadi. "Mamlakatlar va xalqlar", "Yer va inson", "Yangi geografiya", "Yer bilimi" va xokazo. 9-10 sinflarda geografiya mustaqil fan sifatida o'rganilmaydi, desa ham bo'ladi. Faqat mamlakatning ayrim "Yer-"Land"lardagina" qiziquvchi o'quvchilar bilan Yevropa va Germaniya geografiyasi chuqur o'rganiladi. Bu kurslarda mamlakatlar iqtisodi, ekologiyasi, siyosiy va davlat tuzumiga oid bilimlar yetakchi o'rinni egallaydi.

Darslarda o'quvchilarga beriladigan topshiriqlar ham birmuncha murakkab, dasturda o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar tizimi keltirilgan, masalan:

1. Karta va darsda olingan bilimlar asosida u yoki bu hududda qanday ishlab chiqarishni joylashtirish mumkin?

2. U yoki bu hududning (so'rovnoma, kuzatish, statistika materiallar va geografik adabiyotlar bilan ishlash usullari orqali) tabiatni qo'riqlash, tabiiy resurslardan foydalanishdagi muammolarni va kelajakdagi ahvolini yoritish.

Germaniyada maktab geografiyasi o'quvchilarda quyidagi xislatlarni shakllantirishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'ygan: Geografiya tili bilan tanishish, kuzatish, tahlil qilish, umumlashtirish, tanqidiy qarash, taqqoslash, aloqalarni o'rgatish, axborotlarga nisbatan faol qarash, insonga nisbatan mehr - muhabbat, fikrlash va amaliy faoliyatda mustaqil bo'lish kabi ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat va h.k.

Fransiya maktablarida geografiya ta'limi birmuncha yaxshi yo'lga qo'yilgan. Geografiya o'qitishning maqsad va vazifalari juda aniq qilib belgilab berilgan. 2-bosqich, 2-1 va bitiruvchi (15-17 yosh) sinflardan iborat. Geografiya ta'limi 6-sinfdan boshlanadi, bunda "Umumiy geografiya" va Afrika materigi o'rganiladi, 5-sinfdan Amerika, Osiyo, Avstraliya, Antarktida, 4-sinfdan Yevropa

(Frantsiyadan tashqari), 3-sinfda Frantsiya geografiyasi o'qitiladi. Litseyda o'qishni davom ettirish 2-1 va bitiruvchi sinflarga to'g'ri keladi. 2 sinf geografiya dasturida 6, 5, 4, 3-sinflarda olgan bilim va ko'nikmalar chuqurlashtiriladi. Asosiy maqsad o'quvchilarni xujjatlar va birinchi manbalar bilan ishlashga o'rgatishdan iborat.

Litseyning birinchi sinfida Frantsiya geografiyasi bo'yicha o'quvchilar 2-bosqich maktabda olgan bilimlari mustahkamlanadi va chuqurlashtiriladi. Bitiruvchi sinflarda to'rtta yirik davlat - AQSH, Rossiya, Xitoy, Yaponiya geografiyasi chuqur o'rganiladi. Frantsiya maktablarida tabiiy va iqtisodiy geografiya bilimlari deyarli bir xil nisbatda beriladi. Iqtisodiy geografiyada aholi geografiyasiga oid bilim va ma'lumotlar atroflicha o'rganiladi. Xo'jalik tarmoqlari dastlab qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, tarkibida o'rganiladi yoki birlamchi (xom ashyo), ikkilamchi (qayta ishlovchi), uchlamchi (maishiy xizmat) tarzida ham o'rganilishini kuzatish mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlar geografiyasi o'rganilganda, Yevropaliklarning bu mamlakatlar uchun ko'rsatgan g'amxo'rliklari bo'rttirib ko'rsatilgan. Masalan: Frantsuzlar o'z mustamlakalariga mustaqillik bergach, ular madaniyati, tabiatini yaxshilash, tabiiy boyliklarini o'zlashtirishlariga, yangi yo'llar qurib berganliklariga o'quvchilar e'tiborini alohida qaratadilar. Frantsiya geografiyasi darsliklarining ustun tomoni shundaki, ular muammoli qilib yozilgan bo'lib, barcha muammolar "Inson tabiat" mazmunidan kelib chiqadigan matnlardan iborat.

Finlandiya maktablarida ham geografiya ta'limi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, geografiya o'qitilishi rivojlangan mamlakatlar ichida bir muncha yuqori pog'onada turadi deyish mumkin. Mamlakatda ta'lim 2 bosqichdan iborat: Birinchi bosqich 9 yillik majburiy umumta'lim xalq maktabi, ikkinchi bosqich gimnaziyalardan iborat. Birinchi bosqich maktabda geografiya ta'limi uchinchi sinfdan boshlanadi va to'qqizinchi sinfda tugaydi. 3-4 sinflarda o'z mamlakatini va qo'shni shimoliy davlatlarning tabiati va xo'jaligiga oid ma'lumotlar haqida ma'lumotlar beriladi. 3-sinfda o'lkashunoslik asosida dars o'tish ustun turadi. O'zi yashab turgan joyning haritasi: ob-havo va iqlimi, birgalikda ishlangan rel'ef kartalarini namoyish qiladi. 3-sinfdagi geografiya 4-sinfda ham davom qiladi va o'qish metodlari bo'yicha deyarli farq qilmaydi. O'quvchilar 5-sinfda Yevropa mamlakatlari tabiati, aholisi, madaniyati, urf-odatlarini, an'analari, dini, aholisining xo'jalik faoliyati bilan tanishadilar. 6-7-8 sinflarda Osiyo, Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika o'rganiladi. 8-sinf yakunida umumiy geografiya asoslari bo'yicha bilimlar beriladi. 9-sinfda Finlandiya va Shimoliy mamlakatlar geografiyasi quyidagi reja asosida o'quvchilar diqqatiga havola etiladi:

1) tabiati, 2) iqtisodiy hayoti, 3) aholisi, 4) tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiatni qo'riqlash. 5) davlat tuzumi.

2 – bosqich ta'lim gimnaziyalarda o'qish 3 yil bo'lib, tabiiy va iqtisodiy geografiya bir-biridan keskin ajratilmagan xolda o'rganiladi. Gimnaziya dasturlari ko'proq nazariy bilimlar berish bilan ajralib turadi. Bunda geografiya fannining hozirgi davrdagi taraqqiyoti uning boshqa fanlar bilan munosabati, geografiyaning o'quvchilar aqliy faoliyatini ochib berishdagi ahamiyatiga ko'proq e'tibor beriladi. Masalan:

1. Yer shari harakatdagi tizimdir. Tabiatdagi barcha narsalar bir-biri bilan bog'liq. Inson harakatdagi tizimning bir qismi, ekanligi va h.k.

2. Inson va uni urab turgan muhit, insonning muhitga, muhitning insonga ta'siri ostida o'rganiladi. Gimnaziyaning birinchi yilida geografiya majburiy fan sifatida o'rganiladi. Geografiyani o'quvchilar o'z xoxishiga ko'ra ham maxsus kurs sifatida o'rganishlari mumkin. Finlandiyada o'quv rejalari tez-tez almashinib turadi.

Vengriya maktablarida geografiya ta'limi 7 yil davom qiladi. 4 yil asosiy (5-8 sinf) va 3 yil (9-10-11-gimnaziyada). Darslar haftada 2 soatdan davom etadi. Geografiya ta'limi jarayonida 65 foiz vaqt yangi mavzuni baen qilishga, 3 foiz ekskursiyaga, 29 foiz amaliy mashg'ulotlar va umumlashtiruvchi takrorlashlarga ajratiladi.

5-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Geografiya darsliklari tahlili

O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida foydalanilayotgan

darsliklarni tahlil qilishni o'rganish

	Bajariladigan topshiriqlar	Mashg'ulot natijasi
1	Tabiiy geografiya kurslari bo'yicha ixtiyoriy darslikni quyidagi reja asosida tahlil qiling.	Darslik tahlili
2	Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslari bo'yicha ixtiyoriy darslikni quyidagi reja asosida tahlil qiling.	Darslik tahlili

Darslik nomi _____

Darslik muallif (lar)i _____

Nashr etilgan yili _____

№	Bo'lim va mavzular	betlar	Savol va topshiriqlar	Rasm va kartaxemalar	Jadval va diagrammalar

6-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Geografiya darslarida ma'naviy, ekologik, iqtisodiy tarbiya

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Geografiya ta'limida tarbiya turlari - ilmiy dunyoqarash, ekologik, estetik, ahloq-odob, vatanparvarlik, mehnat, iqtisodiy tarbiya haqidagi ma'ruzada egallangan bilimlarni mustahkamlash.

№	Bajariladigan topshiriqlar	Amaliy mashg'ulot natijasi
1	1-ilova bilan tanishing, tarbiya jarayonining tamoyillarini sxemada tasvirlang.	Sxema
2	2-ilova bilan tanishing. Geografiya ta'limida estetik, ahloq-odob, vatanparvarlik, mehnat tarbiyasini amalga oshirishda o'qituvchi nimalarga e'tibor qaratishi lozim? Javobingizni izohlang.	Yozma tavsif
3	Ekologik ta'lim - tarbiya tushunchasi, mazmuni, mohiyati maqsad va vazifalari, geografiya o'qitishda ekologik ta'lim – tarbiya berishning ahamiyatini tushuntiring.	Yozma tavsif
4	Mazkur darslarni o'tish orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, ekologik, estetik, ahloq-odob, vatanparvarlik, mehnat, iqtisodiy tarbiyani qanday shakllantirish mumkin. Javobingizni izohlang	Yozma tavsif

Uslubiy ko'rsatmalar

1-ilova.

Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalari bo'lganidek, inson tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim tamoyillari, qonun-qoidalari mavjud, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini tahminlaydi:

Tarbiya jarayonining tamoyillari quyidagilar:

- tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning xayot va mehnat bilan bog'lanishi (O'zbekistonimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo'lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog'lanishi);
- shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;

- tarbiyada shaxsni hurmat qilish va unga talabchanlik;
- tarbiyaviy ishlarining izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
- tarbiyada shaxsning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olish kabilardir.

2-ilova.

Geografik ma'lumotlar, yangi tushuncha va ifodalarni o'rganish bilan o'quvchilarning so'z boyligi ortib boradi, geografik ob'ekt va hodisalarni tasvirlashga o'rgana borib, ularning nutqi rivojlanadi. O'quvchilar geografik nomlar Osiyo xalqlari haqida gapirilganda ular o'rtasidagi hamkorlik, birodarlik, mehmondo'stlik, muhtojlarga yordam berish, tarbiyachilarning izzatikromini joyiga qo'yish kabi qadimiy an'analarni bolalar ongiga sindirish lozim. Bu an'analarning ko'pchiligi axloq tarbiyasiga mos kelganligi uchun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Maktab geografiyasi o'quvchilarga estetik tarbiya berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Geografiya ta'limi o'quvchida tabiat manzarasiga va kishilar faoliyatiga chuqur his-tuyg'ular bilan qarashga undaydi. Geografiya kurslarida tabiat manzaralari va unda sodir bo'ladigan hodisalarni hamda inson faoliyatini o'rganish bilan ularda estetik tuyg'ular tarbiyalanadi. O'quvchilarga estetik tarbiya berishda tabiatga ekskursiya uyushtirish, turistik yurishlar tashkil etish yaxshi yordam beradi. O'quvchilar tabiat manzaralaridan bahramand bo'ladilar, zavqlanadilar. Binobarin, tabiatdan bahramand bo'lgan kishi uni muhofaza qilishga intiladi.

Bulardan tashqari, badiiy adabiyotlardan, xususan, o'zbek yozuvchilari asarlaridan foydalanish, parchalar o'qib berish, rassomlarning manzarali suratlaridan foydalanish-estetik tarbiyaning ajoyib vositalaridan hisoblanadi. Darsda turli fotorasmlardan, rangli suratlardan, kinofilmlardan foydalanish ham mazkur tarbiya vositalaridan biridir. Geografiya ta'limi estetik did bilan berilishi lozim. Devoriy karta va suratlarining to'g'ri ilinishi, sinf doskasidagi tartibli chizma, chiroyli yozuv va saranjomlik bilan to'ldirilgan kontur karta o'quvchilarni saranjomlikka, didli bo'lishga o'rgatadi.

Ekologik ta'lim-tarbiya haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo "ta'lim" va "tarbiya" o'zi nima – degan savolgan javob berishga harakat qilaylik. Garchand ta'lim so'zini kuniga juda bo'lmaganda bir marotaba tilga olsakda, lekin uning umume'tirof etilgan tushunchasiga o'z e'tiborimizni doimo ham qaratmaymiz. Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi, ya'ni tizimidir.

Ekologiya tushunchasi jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqadorligida turli darajada-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy bilimlarning yaxlit tizimini tashkil etadi. Uning asosiy vazifasi tabiatdagi o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini ochib berishdan iboratdir. Ekologiyaning bosh masalasi esa tabiatda ro'y beradigan voqea-hodisalarga inson faoliyati ta'siri oqibatlarini oldindan ko'ra bilish va tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishdan iboratdir. Tabiat bilan jamiyatning o'zaro aloqasini izchil tadqiq etish o'quvchilarning atrof-olaning yaxlitligi, harakat-dinamikasi bo'yicha dunyoqarashini boyitadi va mustahkamlaydi.

O'quvchilarning fuqarolik hamda vatanparvarlik tuyg'ulari va e'tiqodlarini shakllantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning hissasi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda jamiyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatning buzilishi tabiiy holatga putur yetkazmoqda. Bunga sabab kishilarda atrof-muhit muhofazasi haqidagi bilimlarining yetishmasligi hamda tabiatning kelajakdagi ekologik holatini ko'ra bilmasliklaridir. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatni sevish, undan to'g'ri va ongli ravishda foydalana bilishga o'rgatish ekologik ta'lim-tarbiyaning asosi bo'lib, kishilarda tabiat oldida mas'uliyatni anglash malakasini hosil qiladi.

Ekologik ta'lim va tarbiya, BMT, YUNESKO va YUNEPning diqqat markazidagi masaladir. Ekologik ta'lim-tarbiya jarayoni uzluksiz va uzviy aloqadorlikda bo'lib, uzoq davom etuvchi ijtimoiy jarayondir. Uning uzluksizligi oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, maktabdan tashqari ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish institutlari, keng jamoatchilik tashkilotlari ishtirokida amalga oshirilsa, samarali natijaga erishiladi.

Ekologik tarbiyaning maktab bosqichi o'ta muhim davr hisoblanadi. Professor E. Turdiqulov o'rta maktabda ekologik ta'lim-tarbiyani sinflarga qarab quyidagicha taqsimlashni taklif qiladi:

1) 1-3 sinflarda o'quvchilarning maktabgacha ta'limda boshlagan ekologik tarbiya va bilimlari rivojlantiriladi.

2) 4-5 sinflarda tabiatshunoslik va umumiy tabiiy geografiya darslarida o'quvchilarga ekologik ta'lim bilimlari beriladi. Bu davrda biologiya, geografiya, fizika, kimyo fanlarining keng elementar bilimlari o'quvchilarga yetkaziladi. Shuni hisobga olib, tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabat qanday bo'lishi, tabiiy boyliklardan foydalanish qoidalari haqida eng oddiy bilimlar va tarbiya tizimi ularga yetkazilishi lozim.

3) 6-sinf o'quvchisining dunyoqarashi inson tomonidan tabiatga yetkazilayotgan ijobiy va salbiy ta'sirlarni o'zicha mulohaza qila oladigan, ko'z oldiga keltira oladigan, atrof-muhitda inson ta'sirida bo'layotgan turli o'zgarishlarni idrok qila oladigan darajaga etadi. Bu sinfda "Materiklar va okeanlar geografiyasi" kursi o'qitilishi o'quvchini dunyo miqiyosida fikr yuritishiga undaydi.

4) 7-9-sinflarda o'quvchilar "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi", "O'zbekiston tabiiy geografiyasi", "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" hamda "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" kurslarini o'qiydilar. Binobarin, o'quvchilarga ekologik ta'lim berish fanlararo bog'lanish asosida rivojlantiriladi. Bunda asosiy maqsad o'quvchilarni tabiiy boyliklardan foydalanganda, atrof-muhitga chiqarilayotgan turli chiqindilarning tarkibi, ularning yig'ilish makonlari, keltirib chiqaradigan zararli oqibatlari, chiqindilarning kamroq ajralib chiqishini ta'minlash to'g'risida mulohaza yurita oladigan qilib tarbiyalashdan iborat.

7-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Geografik tushunchalarni shakllantirish (THK, geografik qobiq tushunchalari misolida).

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Geografiya ta'limida tabiiy geografik tushunchalarni shakllantirish haqidagi ma'ruzada egallangan bilimlarni mustahkamlash.

№	Topshiriqlar	Amaliy mashg'ulot natijasi
1	Matn bilan tanishing. "Geografik bilim", "geografik tushuncha", "geografik ko'nikma" va "geografik malaka" atamalarigi ta'rif bering	yozma tavsif
2	Tabiiy geografiya kurslari bo'yicha ixtiyoriy mavzuga dars ishlanmasi tayyorlang	Dars ishlanma

Maktab geografiyasi mazmuni bilimlar, tushuncha, sabab-oqibat aloqadorligi qonuniyatlari, nazariya, tasavvur va faktlar) ko'nikmalar, malakalar, hamda dunyoqarash g'oyalarini o'z ichiga oladi. Bilim va ko'nikmalar insonning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan to'g'ri ma'lumotlardir. Bilim ijtimoiy mehnat va tafakkur maxsuli bo'lib, mavjud olamning ob'ektiv, qonuniy aloqalarini til vositasi bilan ifoda qiladi. Bilim bilish bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning natijasi va tarkibiy qismidir. Ob'ekt va hodisalar haqidagi bilimlar nisbiy bo'lib, u mutloq emas. U doimo rivojlanib, chuqurlashib boradi. Bilim, kundalik tajriba ilmiy kuzatish, nazariyalari orqali to'planadi.

Bilimlar ikki guruhga ajratiladi.

1. Nazariy bilimlar (ilmiy)

2. Empirik bilimlar

Nazariy bilimlarga narsa va hodisalarning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari, ichki aloqadorligi va munosabatlari kiradi. Ilmiy bilimlar umumlashgan bilimlar bo'lib, o'z ichiga nazariya qonun, qonuniyat, sabab-oqibat tushunchalarini oladi.

Empirik bilimlar ob'ekt va hodisalarning tashki xususiyatlariga oid bilimlarni aks ettiradi, bularga tasavvur va faktlar kiradi. Maktab geografiyasining ilmiy darajasini oshishi munosabati bilan uning mazmunida empirik bilimlarga nisbatan nazariy bilimlar xajmi ko'paymoqda.

Inson voqelikni bilish jarayonida narsalarni bir-biri bilan qiyoslaydi, ularni taqqoslaydi,

uxshashligi va farqlarini aniqlaydi; tahlil va sintez yo'li bilan narsa va hodisalarning mohiyatini ochadi, fikran ularning belgilarini ajratadi, umumlashtiradi. Natijada vokelikdagi narsa va hodisalar to'g'risida tushuncha hosil bo'ladi.

Tushuncha deb narsa va hodisalarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi fikrga aytiladi. Tushunchalar mohiyati jihatidan aniq va mavxum tushunchalarga ajratiladi. Bir butun narsaga aloqador tushuncha aniq tushuncha dyoyiladi. Masalan, Avstraliya, Antarktida, Ural, Briz, Passat va boshqalar. Moddiy borliqdagi narsalardan fikran ajratib olingan ba'zi xususiyat sifat, holatlarga, shuningdek narsalar o'rtasidagi ichki munosabatlarga, qonuniyatlarga qaratilgan tushunchalar abstrakt (Mavxum) tushuncha deb ataladi. Masalan: kenglik, uzunlik, balandlik, tog'lik, ixtisoslik, bozor va boshqalar.

Geografik tushunchalar qo'llash jihatidan ikki turga bo'linadi.

1. Umumiy tushunchalar

2. Yakka tushunchalar

Umumiy tushunchalar bir jinsga oid bo'lgan ko'p narsa va hodisalarni gavalantiradi. Umumiy tushunchalarga alohida narsa va hodisalar kirmasdan, balki bir xil nom bilan ataluvchi narsa va hodisalar kiradi. Masalan: daryo, iqlim, tabiat zonasi, iqtisodiy rayon va xakozo. Umumiy tushunchalar mazmuni ta'rif berish va ularga xos bo'lgan belgilarni aniqlash jarayonida kelib chiqadi. Yakka tushunchalar, yakka ob'ekt va hodisa haqidagi geografik nom bilan ataluvchi tushunchadir. Masalan, Oltoy tog'lari, Amudaryo, Pomir, Markaziy Osiyo hududi, Fransiya respublikasi, Afgoniston va xakozo. Yakka tushunchalar o'ziga xos yigma tushunchalardan iborat bo'ladi. Masalan: "Osiyo" yakka tushunchasi o'z ichiga juda ko'p yakka tushunchalarni oladi. "Osiyo tog'lari", "Osiyo iqlimi", "Osiyo daryolari", "Osiyo qo'llari" va xakozo. Yakka tushunchalar mazmuni ularga geografik ta'rif berish orqali ochiladi. Geografik tushunchalarni shakllantirish uzoq vaqt va murakkab jarayonlarni talab qiladi. Tushunchalarni egallash uning negizida yangi tushunchalarni egallash uchun asos bo'lib xizmat qiladi va tushunchalar o'rtasida to'g'ri aloqadorlik o'rnatishni ta'minlaydi.

Tushunchani egallash deganda: uning mazmunini, hamda u bilan bog'liq bo'lgan tasavvurlarni egallash tushuniladi. Geografiya kursidagi har bir tushuncha o'quvchilar ongida turlicha usullar, yo'llar bilan shakllantiriladi. Bunga sabab har bir narsa, voqea, hodisa mazmunining turlichaligidir. Geografik tushunchalarni egallashning eng asosiy tomoni shundaki, ularga ta'rif bermay turib ularni egallab bo'lmaydi. Bunda uning shakllantirish bosqichlariga e'tibor berish kerak.

Geografik tushunchalar ta'lim jarayonida sekin - asta rivojlanadi. Darsda shu narsaga e'tibor berish kerakki, umumiy tushunchalarni shakllantirish yakka tushunchalarga tayanmasdan amalga oshmaydi. Masalan, O'zbekiston iqlimi tushunchasini shu paytda yaxshi shakllantirish mumkinki, qachonki o'quvchilarda iqlim va iqlim hosil qiluvchi omillar haqida bilimlar mavjud bo'lsa. Quyida O'rta Osiyo tabiati tushunchasini shakllantirish jarayonini misol tarkasida keltiramiz. Tahlil va mavxumiyatdan foydalanib, o'quvchilar xayolan O'rta Osiyoni qismlarga bo'ladilar. O'rta Osiyoning tog'li qismi va ularning elementlarini (rel'efi, iqlimi) bilan tanishish o'quvchilarni O'rta Osiyoning tabiatiga xos belgilar aloqadoligini bilib olishga yordam beradi. O'rta Osiyo tabiatining rel'efi, iqlimi, o'simliklari va boshqa elementlarni boshqa hududlar bilan qiyoslash orqali ularning o'ziga xos bo'lgan belgilarni ajratadilar. O'rta Osiyo va uning qismlari, tabiati elementlarini induktiv yo'l bilan bilish orqali uning tabiatiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni ajratadilar. Keyinchalik esa deduktiv yo'l bilan tabiat elementlari haqidagi umumiy tushunchalarga tayanib ular o'rtasidagi aloqadorlik va bog'liqlikni ajratadilar. O'rta Osiyo tabiatini boshqa hududlar tabiati bilan taqqoslash orqali O'rta Osiyo tabiiy kompleksi haqidagi tushunchani egallaydilar.

Geografik ob'ektlarni ko'rgazmali qurollarsiz va kartasiz o'rganish ularga xos bo'lgan belgilarni ajratishni birmuncha qiyinlashtiradi. Karta va ko'rgazmali qurollar o'rganilayotgan ob'ektga doir muhim belgilarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Yakka tushunchalarni shakllantirish uchun o'quvchilar xayolan shu ob'ektni karta bilan bog'lay olishlari kerak. SHu tufayli ham karta yakka tushunchalarni shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Faqat karta orqaligina istalgan geografik ob'ektning geografik o'rniga xos bo'lgan belgilarni ajratish va shu

hududning ichki xususiyatlarini ajratish imkoniyatlari tugiladi.

Taqqoslash geografik tushunchalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilar o'zlariga tanish ob'ektlarni o'rganilayotgan ob'ektlar bilan taqqoslash orqali ularga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarni bilib oladilar. Masalan, Amudaryo va Sirdaryoni taqqoslash da har ikkala daryoning shimolga okishini, uzunligi deyarli tengligini, ularning baland tog'lardan boshlanishini, to'yinishini hamda deyarli bir xil ekanligini aniqlaydilar. Ob'ektlar elementlarini oddiy qiyoslash orqali o'qituvchi murakkabroq taqqoslashga o'tadilar. Masalan: nima uchun ularning shimolga oqishi sabablarini, irmoqlarini, Amudaryo suvining nima sababdan Sirdaryoga nisbatan loyka ekanligini, rejimidagi farqi kabi ko'plab xususiyatlarini ajratadilar. Tushuncha quyidagi hollarda o'quvchilar tomonidan egallangan hisoblanadi.

1. O'quvchi tushunchaga ta'rif bera olsa (agar u umumiy tushuncha bo'lsa);
2. Tushuncha mazmuniga xos bo'lgan belgilarni ajrata olsa va tushuncha belgilari o'rtasidagi aloqadorlik va bog'liqlikni farqlay olsa;
3. O'rganilayotgan geografik ob'ekt yoki hodisa haqida o'quvchi obrazli tasavvurga ega bo'lsa;
4. O'quv vazifalarini bajarishda tushunchani mustaqil qo'llay olsa.

Tushunchaning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi uchun o'quvchilar e'tiborini tushuncha belgilarini tahlil qilishga qaratish kerak. Ishning bunday tashkil qilinishi o'quvchilarni ob'ekt va hodisalardagi eng muhim va ikkinchi darajali belgilarni ajratishlari ularni taqqoslash ga va guruhlashga o'rgatadi. Bunda ekskursiyalar, joyda amaliy ishlar uyush-tirish katta rol o'ynaydi. O'quvchilarning umumiy tushunchalarini mustakkil qo'llay olish uchun reproduktiv metod va ijodiy va muammoli topshiriqlarni (qisman izlanuvchan va tadqiqot metodlar) bajarishga o'rgatish kerak.

Geografik ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi bilim egallash, ko'nikma va malakani shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. O'quv ishlari jarayonini bilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Geografiya bo'yicha ilg'or o'qituvchilar va metodistlar o'quvchilar amaliy tayyorgarligiga katta e'tibor beradilar. Maktab geografiyasida shakllantiriladigan ko'nikmalar mazmun jihatdan emas, balki bajarish murakkabligi bo'yicha ham farq qiladi. Masalan dunyo tomonlarini aniqlash oddiy ko'nikma bo'lsa, topografik planni o'qish va uni tuzish esa murakkab ko'nikma hisoblanadi. Geografiya ta'limi metodikasi fani shakllantiriladigan ko'nikma va malakalarning ta'lim tarbiyaviy ahamiyatini to'laligicha ochib bergan va ularni o'quvchilarga yetkazish metodlarini ham ishlab chiqqan desa bo'ladi. Ko'pchilik ko'nikmalar fanlararo bo'lishi mumkin. Faqat geografiya ta'limiga xos bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalar ham mavjud. Bular joyda mo'ljal ola bilish, joy planini tushirish, topografik plan va turli mazmundagi geografik kartalarni o'qish, tabiatda va ishlab chiqarishda kuzatish, kuzatish materiallarini qayta ishlash, statistik va iqtisodiy raqamli materiallar bilan ishlash va boshqalar. bunga misol bo'lishi mumkin. Ko'nikmalarni shakllantirish uzoq mashakkatli mehnat talab qiladi. Ularni shakllantirish bir necha bosqichdan iborat bo'lishi mumkin.

Har bir geografik ko'nikmani shakllantirish murakkab harakat tizimlarini talab qiladi. Odatda ko'nikma va malakalar bir paytning o'zida shakllantiriladi. Chunki amaliy topshiriqlarni bajarishda ularning ayrimlari ongli ravishda, ba'zilar bevosita, ammo ong nazorati ostida bajariladi. Masalan topografik planni o'qish ko'nikmasi o'z ichiga yo'nalishlarini aniqlash, masshtab yordamida plandagi masofalarni o'lchash, topografik belgilarni o'qish, joyda ob'ektlar o'rtasidagi aloqadorlikni urnatish kabilarni oladi. Yuqoridagilar ichida topografik belgilarni ishlatishni bilishgina malaka darajasini ko'rsatadi.

Ob-havoni kuzatish ko'nikmasi deganda termometr, barometr, flyuger bilan ishlashni bulutlar shakli va turlarini, oddiy ko'zda aniqlay olishni, ob-havoning boshqa alomatlarini aniqlashga tushiniladi. SHular ichida faqat ob - havo haroratini aniqlash va barometr bilan ishlash mala-ka darajisigacha ko'tarilish mumkin va boshqalar.

Geografik ko'nikma va malakalar ko'p hollarda bilim sifatini belgilaydi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, agar o'quvchilarda karta bilan ishlash ko'nikmasi shakllantirilsa, ularning javoblari ham karta bilan bog'langan bo'ladi. Karta bilan ishlash ko'nikmasini egallay olmagan o'quvchilardagi bilim quruq, o'qituvchi bayoni yoki kitobdan o'qiganlarning takroridan iborat

bo'lib qoladi xolos. Geografik kartalarni o'qiy olishga o'rgatilgan o'quvchilardagi harakat yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Aksariyat o'quvchilar javoblarini kuzatish geografiya fani bo'yicha olimpiadalarda ishtirok qilgan o'quvchilarni bilimlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular kartadan bilim manbai sifatidan foydalana oladilar, ularning bergan javoblari to'liq bo'lib, biron hududning tabiiy sharoiti va xo'jaligini karta asosida atroflicha ochib bera oladilar. Boshqa o'quvchilarda esa bu xislatlar zaif rivojlangan bo'ladi yoki bo'lmasligi ham mumkin.

Ko'nikma va malakalar o'quvchilarni kelgusida amaliy hayotga tayyorlashda, ishlab chiqarishdan, tabiatdan turli xil ilmiy-ommabop adabiyotlardan, kartalardan bilimlarni mustaqil egallashda muhim ahamiyat kasb qiladi. O'quvchilar tomonidan ko'nikmalarning egallanishi boshqa ko'nikmalarning oson o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Masalan: joyda ufq tomonlarini aniqlash ko'nikmasi, kartada mo'ljal olish ko'nikmasini egallashga yordam beradi va boshqalar. O'quvchilarning zarur ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi ular dunyoqarashini shakllantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilar ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash orqali geografik qonuniyatlarning ob'ektivligiga ishonch hosil qiladilar. Geografiya ta'limi metodikasida geografik ko'nikma va malakalarni shakllantirish usullari to'la ishlab chiqilmagan. Masalan, o'quvchilarning u yoki bu mavzudagi qaysi harakati ko'nikma darajasiga, qaysilarini malaka darajasiga ko'tarish mumkin? O'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qanday yakka tartibda yondashishi kerakligi masalalari geografiya ta'limida atroflicha o'rganilmagan. Eng muhimi geografiya o'qituvchisi ko'nikma hosil qilishidagi harakat usullarini ko'rsatibgina qolmasdan, balki o'quvchilar uchun (ko'nikma egallash uchun) zarur topshiriqlarni ishlab chiqishi ham kerak.

Mashqlar jarayonida oddiy ko'nikmalar sekin-asta malakaga aylanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar shakllantirishning metodik shart-sharoitlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ba'zi ko'nikma va malakalar oz vaqt va ko'p kuch talab qilsa (gerbariyalar yig'ish, kompasdan, nivelirdan foydalanish va boshqalar), ba'zilari juda murakkab harakat usullarini va ko'p vaqt talab qiladi. Masalan, geografik kartani o'qish ko'nikmasini hosil qilish, shakllantirish quyidagi murakkab jarayonlarni talab qiladi. Bular mo'ljal olish, graduslar va kilometrlar hisobida aniqlash, punktlar, hududlar o'rtasida fazoviy bog'liqlikni qiyoslash, geografik koordinatalarni aniqlash, kartada ko'rsatilgan ob'ektlar va hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibatlar aloqadorligini o'rnatish, alohida ob'ektlar (daryo, ko'l, suv ombori, botqoqlik)ni ta'riflash, ko'rsatilgan hududni-mamlakat, tuman, shaharning tabiiy geografik va iqtisodiy geografik ta'rifini yozish va boshqalar.

Geografik kartani o'qish ko'nikmasi sekin-asta rivojlantiriladi va u barcha sinflarda davom qiladi (boshlang'ich sinfda ham). O'quvchilar karta bilan ishlash jarayonida turli mazmundagi (umumgeografik, iqlim, tuproq, iqtisodiy) kartalarning shartli belgilari bilan ham tanishadilar va sekin-asta ko'nikmalar hosil qiladilar. Ko'nikma va malakalar shakllanishi ko'pgina sabablarga: o'quv jihozlari va vositalari, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Lekin, bu erda o'qituvchi asosiy siymo hisoblanadi. O'qituvchi rahbarligining mazmuni shundan iboratki, ko'nikma egallash jarayonida u o'quvchilar harakatini tahlil qiladi, ushbu ko'nikma va malakani egallash uchun qanday nazariy bilimlar zarurligini aniqlaydi.

Ko'nikmani shakllantirishdagi muhim omillardan yana biri nazariy materialni amalda qo'llash vaqti va o'rni hisoblanadi. Masalan, maxalliy kanal, daryo rejimi (oqim tezligi, eni, chuqurligi)ni o'lchash. O'zbekiston ichki suvlari mavzusini o'rgangunga qadar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Ammo atmosfera bosimini barometr yordamida o'lchash ko'nikmasini, mavzuni o'rgangunga qadar singdirish, vaqtni bekor kyetkazish hisoblanadi. Chunki o'quvchilar buni mexanik tarzda o'zlashtirib, uning moxiyatiga tushunmasliklari ham mumkin.

Ko'nikma va malakalar shakllantirilishi mazmuniga ko'ra uzoq va qisqa vaqt talab qilishini yuqorida ko'rgan edik. Geografik koordinatalarni aniqlashni o'rganishuzoq vaqt talab qiladigan jarayon bo'lib, u asta-sekin o'rgatilib murakkablashib boradi. Geografik nuqtalarni aniqlashda osondan-qiyinga boruvchi mashqlarni o'quvchilar diqqatiga havola qilish kerak. Bunga dastlab o'quvchilarni paralellar va meridianlarni topishga keyinchalik uzun-likni aniqlashga va uni kartadan ko'rsata olishga, undan keyin esa koor-dinatalarni topishga o'rgatiladi. Eng dastlabki mashqlar avval globusda keyin yarim sharlar kartasida bajarilishi kerak. O'quvchilar kartada kursatgan

ob'ektlarning bir-biriga nisbatan necha gradus shimolda yoki janubda joylashganligini mashqlar asosida bajaradilar. Geografik koordinatalar bo'yicha mashqlarni muntazam bajarishi ko'nikmasi sekin-asta malakaga aylanishi mumkin. Yuqori sinflarga kutarilgan sari ko'nikma va malakalar shakllantirishi borasidagi mashqlar tizimi ham takomillashib boradi. Bunda albatta kuyi sinflarda egallangan ko'nikma va malakalarga tayaniladi. Yuqori sinflarda iqtisodiy-geografik kartalarni o'qish ko'nikmasini shakllantirish birmuncha qiyin kechadi. Iqtisodiy kartalarni o'qish usullari tabiiy geografik kartalarga bir-muncha o'xshab ketadi. Ammo u o'quvchidan iqtisodiy bilimlarni ham talab qiladi. Bu yerda reja asosida ta'rif berish yetakchi rolni o'ynaydi. Masalan, sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlariga tavsif berish rejasi, tarmoqlar, shaharlar, davlatlarga ta'rif berish rejalariga bunga misol bo'la oladi va boshqalar.

8-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Metodlarni tasniflash usullari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Geografiya ta'limida qo'llaniladigan metodlarni tasniflash usullariga o'g'risidagi bilimlarni mustahkamlash, talabalarda dars o'tish va dars tahlili ko'nikmasini shakllantirish

№	Bajariladigan topshiriqlar	Amaliy mashg'ulot natijasi
1	Geografiya ta'limi metodlari tasnifi bilan tanishing. Matndan foydalanib, ta'lim metodlariga qo'yiladigan talablarni 1-jadvalga yozing.	1-jadval
2	Geografiya ta'limi metodlari tasnifini sxemada ko'rsating	Sxema
3	Matndan foydalanib, quyidagi savollarga javob yozing	nazorat savollari

Uslubiy ko'rsatmalar

Metod so'zi grekcha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, "tadqiqot" degan ma'noni anglatadi. Didaktika fanida metod atamasiga ta'rif berish bo'yicha aniq bir qoidani mavjud emas. Bu borada xil-xilma ta'rif va koidalar mavjud. Shunga qaramasdan didaktikada metod quyidagicha talkin etildi: "Ta'lim metodi deganda o'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayonidagi birgalikdagi faoliyati tushuniladi. Bunda ular qo'yilgan maqsad uchun birgalikda harakat qiladilar". Metodning alohida detallari usul deyiladi.

Ta'lim metodlari-o'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan ish usullari bo'lib, o'quv materialini nazariy va amaliy o'zlashtirish shaklidir. Ta'lim metodlari o'quvchilarga bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmaydi. Ta'lim metodlari, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini shakllantirishga, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga, ilmiy bilimlarga asoslangan to'g'ri dunyoqarash va e'tiqodni tarbiyalashga ham yordam beradi. Shunday qilib, ta'lim metodlari uchun 2 ta asosiy xususiyat xos:

1. Metodlar o'qituvchi faoliyati yo'l-yo'riqlari bo'lib, o'quvchilar faoliyatini belgilashga va yo'naltirishga yordam beradi.

2. Ta'lim metodlari faqat bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish bilangina cheklanmasdan balki o'quvchilarda ijodiy faoliyat, bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatini tarbiyalashga ham yordam beradi.

Ta'lim metodlari o'qitishning umumiy va aniq maqsadlariga hamda maktab ta'limining mazmuniga ham bog'liq. Ta'lim metodlari ko'p hollarda o'quvchilarning ruhiyati yoki xususiyatlarini e'tiborga olishni ham talab qiladi. Uni tanlash geografiya ta'limining moddiy-texnika taminotiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Chunki o'qituvchi ta'lim usulini tanlar

ekan, maktabda mavjud bo'lgan texnika-vositalarini va ulardan foydalanish imkoniyatlarini hisobga oladi. Pedagogikada fanida o'qitish metodlari maktab joylashgan sharoitga, va o'qituvchilar tajribasida tarkib topgan ananalarga ham bog'liq. Masalan, o'qituvchi o'z ishiga alohida tus bagishlaydigan muayyan metodlardan foydalanishni afzal ko'radi. U ilmiy-texnika jarayoni sharoitida ananaviy metodlarini takomillash-tirishga va yangi metodlarni izlab topishga, harakat qiladi.

Hozirgi kunda metodlar muammosi ta'lim jarayonidagi eng asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. U quyidagi talablarga javob berishi kerak.

Birinchi talab - metodning tarbiyaviyligi bunda har qanday metod o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga, bilimga qiziqishlariga, etikod xis tuyg'u va qarash lariga ta'sir ko'rsatadi. ta'limning tarbiyaviy vazifa-sini amalga oshirish metodning tanlanishiga bog'liq.

Ikkinchi talab - metodning ilmiyligi dars berish va ta'limning har qanday metodi o'quv jarayonining qonuniyatlari bilan belgilanadi.

metod ilmiy jihatdan qanchalik asoslangan bo'lsa, shunchalik ravshan va aniq bo'ladi. eng muhimi shundaki, biror metod yordamida qanday umumiy va aniq vazifalarni xal etish mumkinligini, u qanday mazmunga mos kelishini, faoliyatining qanday turlarini talab qilishini va ularni qanday tashkil etish lozimligini ko'ra bilish kerak. Metodning ilmiyligi geografik voqea va hodisalarni, qonuniyatlarini to'g'ri anglanishini taminlaydi va o'quvchilarni to'g'ri ilmiy tasavvurga olib boradi.

Uchinchi talab - metodning ommabopligi, bunda o'quvchilar rivojlanishining pedagogik - ruhiy imkoniyatlari e'tiborga olinadi. agar metod o'quvchilarda mavxum tafakkurni ham e'tiboriga olib tanlansa, o'quvchi murakkabroq materialini hamegallay oladi va jadal rivojlanadi. demak, metod tanlanganda o'qituvchi nimalarni tushun-tirishi kerakligi haqida emas, balki o'quvchi nimani tushuna olishi haqida ham o'ylash kerak.

To'rtinchi talab - ta'lim metodining samaradorligi, uning o'quv materialining mustahkam egallashga qaratilganligidan kelib chiqadi.

Beshinchi talab - o'z ish faoliyatida ilg'or tajribalarni qo'llashi va uni muntazam o'rganishi zarur. Nazariya va amaliyda ta'lim metodlari bilan bog'liq yangiliklarni doimo o'rganib borish lozim.

Geografiya o'qitish metodlari haqida so'z borar ekan "metod", "usul" degan so'zlar yonma-yon uchraydi. Metod, usul bir-biridan ba'zan deyarli farq qilmaydi, ba'zan bir xil ma'noda yuritib kelinadi. Masalan: kartalarni solishtirish-taqqoslash metodi deb yuritiladi. Bu noto'g'ri, chunki kartalarni solishtirish metod emas, u solishtirish usulidir. O'zbek tilidagi mavjud qo'llanmalarda taqqoslash ham, solishtirish ham birdek-taqqoslash deb ishlatiladi. Vaholanki, taqqoslash - o'rganilayotgan geografik ob'ektning ilgari o'rganilgan ob'ekt bilan taqqoslash tufayli o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Masalan, Janubiy Amerika cho'lini Osiyo cho'li bilan, Sirdaryoni Enisey bilan taqqoslab, ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Taqqoslash og'zaki bayon metodining bir usulidir. Solishtirish - kartalarni solishtirish va tahlil qilish bilan bir geografik ob'ektga xos bo'lgan ob'ekt va hodisalarning sabablarini aniqlashdan iborat. Masalan: turli mazmundagi kartalar solishtirilib, tahlil etiladi. Solishtirish esa kartografik qo'llanmalar bilan ishlash metodining bir usulidir. Metod usullar yigindisidan iborat. Usul esa metodning tarkibiy qismidir. Masalan, geografiyaga xos bo'lgan karta bilan ishlash metodi bir necha usullarni o'z ichiga oladi. jumladan, karta bo'ylab sayohat, kontur kartaga geografik ob'ektlarni tushirish, kartalarni solishtirish va h.k.

Ayrim usullarni bir necha metod tarkibiga kiritish ham mumkin. Taniqli metodist olim m.k.kovalevskaya: ta'lim vositalarini (darslik, karta bilan ishlash), bilimning og'zaki bayon shakllari (hikoya, suhbat, tushuntirish, ma'ruza)ni bilish usullari (taqqoslash, kartalarni qiyoslash umumiy xulosalar chiqarish)ni va o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari va shakllari (nazariy bilimlarni egallash, amaliy ish usullari, mustaqil ish usullari)ni metodik usullar deb hisoblagan. U ayrim hollarda bir usulning metod tarkibida ishtirok etilishini misollarda keltirgan. Masalan; taqqoslash usuli og'zaki bayon, suhbat, karta bilan ishlash metodlarida ham ishtirok etishi mumkin. Demak, metod bilan usul o'rtasida uzviy bog'lanish bor. Ta'lim metodlarining tasnifi shu tarzda kelib

chiqadiki, bu narsa o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv materialini egallash shakllaridagi o'xshash va tafovut qiladigan muhitlarni chuqurroq anglab olishda, hamda o'z o'qituvchilik faoliyatini muvaffaqiyatliroq tashkil etishda yordam beradi. Ta'lim metodlari muayyan belgilariga ko'ra guruhlariga ajratiladi.

Hozirgi kunda ta'lim nazariyasi va geografiya ta'limida quyidagi metodlar tasnifi keng tarqalgan:

I. Bilim olishning asosiy manbalariga ko'ra:

1. Og'zaki-bayon (hikoya, tushuntirish, ma'ruza)
2. Suhbat, savol-javob
3. Kartografik qo'llanmalar bilan ishlash
4. Ko'rsatmali qo'llanmalar bilan ishlash
5. Kuzatish va tajribalar
6. Raqamli materiallar bilan ishlash
7. Darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash
8. Amaliy metodlar.

II. Didaktik maqsadlarga ko'ra:

1. Yangi materiallarni o'rganish metodlari
2. Bilimlarni mustahkamlash metodlari
3. Bilim, ko'nikma, malakalarni tekshirish metodlari

III. Xulosa chiqarish faoliyatiga ko'ra:

1. Analitik metodlar
2. Sintetik metodlar
3. Induktiv metodlar
4. Deduktiv metodlar

IV. Fikrlash faoliyati va bilim olish faolligi xususiyati bo'yicha

I.YA. Lerner M.N. Skatkinlar quyidagi metodlar tasnifini ilgari suradilar:

1. Izoxli ko'rgazmali metodlar.
2. Reproduktiv yoki olingan bilimlarni qayta tiklash metodi
3. Muammoli bayon metodi
4. Qisman izlanuvchan metod
5. Tadqiqot metodi

V. S.G. Shapovalenko didaktik metodlarni 3 ta guruhga ajratishni

tavsiya etadi. Bular: Og'zaki metodlar, Ko'rgazmali metodlar, Amaliy metodlar.

Yuqoridagi barcha metodlarni shartli ravishda "Yangi bilim olish metodlariga", va "Olingan bilimlarni qayta tiklash usullariga" ajratish ham mumkin. Har bir ta'lim metodi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ta'limiy va tarbiyaviy tomonlar bilan bog'lanib turadi. Ayrim pedagoglar ta'limda faol va sust metodlarni ham ajratadilar. Bu unchalik to'g'ri yo'l emas. Chunki, barcha metodlar ham o'z o'rnida to'g'ri qo'llanilsa, o'quvchilarni faoliyatini faollashtirishi mumkin. Metod tanlashda ko'pgina xususiyatlarni e'tiborga olish takozo etiladi. O'quvchilarning bilish faoliyati ko'pgina omillarga: Xususan o'quv materialining murakkabligi, nazariy bilimlar hajmi, sinfning bilim darajasi, o'quvchilarning mustaqil ishlarni kay darajada bajara olish qobiliyati va xakozalarga bog'liq. Ayrim metodlar o'quvchilarda esda saqlab qolishni, ayrimlari fikrlashni, bazilari xis-xayajonni rivojlantiradi.

Har bir metod ijobiy va salbiy tomonlarga ham ega. Masalan; hikoya va ma'ruza (ma'ruza) metodlarini qo'llash shu paytda yaxshi natija beradiki, kachonki o'quvchilarda bilim olishga ishtiyoq kuchli bo'lsa. Savol-javob metodi bilan dars o'tish o'quvchilardan ko'p vaqt va maxorat talab qilishi bilan birga o'quvchida ham zarur va tayanch bilimlar bo'lishini takozo etadi. Yoki muammoli yoki tadqiqot metodlarini qo'llash va uni uyushtirish o'qituvchidan kuchli bilim va ko'p vaqt talab etadi. Biror metodni tanlagan paytda albatta o'quvchilarning bilish faoliyati, aqliy darajasi, ta'lim vositalari bilan taminlanganlik axvoli ham e'tiborga olinishi kerak. Ta'lim metodlari samaradorligini oshirish hozirgi sharoitda dolzarb vazifalardan biridir. Ta'limda bir yoki bir necha metodni afzal ko'rish o'rinsizdir. Chunki bunga har tomonlama yondashish zarur. Ta'limdagi muvaffaqiyatni ko'p hollarda ta'lim metodlari tizimi taminlaydi. Metodlarning har biri o'ziga xos afzalliklarga ega u yoki bu tushunchani o'quvchi ongida shakllantirishda har bir metodning o'ziga xos o'rnini bor. Ta'lim metodlarida o'qituvchining qiyofasi, uning dunyoqarashi ruhiy-pedagogik,

metodik va maxsus ilmiy tayyorgarligi aks etgan bo‘ladi. Xuddi ana shu omillar ta‘lim metodlari samaradorligini belgilaydi. Muayyan metodga yaxshi tayyorgarligi bo‘lgan o‘qituvchida shu metodning o‘zi salbiy jihatlarni hamnamoyon qilishi mumkin. SHu sababli ta‘lim metodlari samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchining tayyorgarlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Metodlarni noto‘g‘ri tanlash o‘quvchilarning bilim va kunik malari sust egallashiga sabab bo‘ladi. Demak ta‘limda universal metod bo‘lishi amri maholdir.

Shu tufayli ham o‘qituvchi faqat bitta metoddan foydalanib dars utmaydi. Bunday bo‘lishi mumkin ham emas.

Geografiya ta‘limining eng muhim xususiyati shundan iboratki, o‘qituvchi aksariyat darslarni o‘qitishda og‘zaki bayon metodlarini (ma‘ruza, hikoya, suhbat, savol-javob) karta bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llaydi va samarali natijalarga erishadi. Har bir bilim ko‘nikma, malaka xilma-xil metodlarni qo‘llashni talab qiladi. Chunki u yoki bu metodni tanlash dars mazmuni, maqsadi, o‘quvchilarning tayyorgarligi, o‘quv jihozlari bilan taminlanganlik kabi ko‘plab omillarga bog‘liq ekanligini hayotning o‘zi talab qilmoqda.

Geografiya ta‘limida kartalarni, rasmlarni tanlashda izchillikning bo‘lmasligi ham bilimlarining sust o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ladi. Masalan, 6- sinfda "Afrika tabiat zonalari" mavzusida o‘quvchilar "Ekvatorial urmon", "Savanna", "Saxro" kabi tushunchalarni egallashlari kerak. Bunda dastlab o‘qituvchi o‘quvchilarda yuqoridagi tabiat komplekslarining tasvirini (ko‘rinishini) o‘quvchilar ko‘z oldida gavdalanti-rishi, keyin esa uni kartadagi o‘rni bilan bog‘lab ularda tabiiy hududiy komplekslar turli-tumanligi haqida o‘quvchilar va tassavur hosil qilishi zarur. Keyin esa turli metodlar yordamida yuqoridagi tushunchalar egallanadi.

1-jadval. Ta‘lim metodlariga qo‘yiladigan talablar

1-talab	2-talab	3-talab	4-talab	5-talab

9-amaliy mashg‘ulot (4 soat)

Mavzu: Og‘zaki bayon usullari

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Geografiya ta‘limida qo‘llaniladigan og‘zaki metodlarni tasniflash usullariga‘risidagi bilimlarni mustahkamlash, talabalarda dars o‘tish va dars tahlili ko‘nikmasini shakllantirish

№	Bajariladigan topshiriqlar	Amaliy mashg‘ulot natijasi
1	Og‘zaki bayon usullarini sxemada ko‘rsating	Sxema
2	Geografiya ta‘limida og‘zaki bayon usullarining tutgan o‘rni va ahamiyatini tushuntiring	Yozma tavsif
3	Hikoya va suhbat usullarini o‘xshash va farqli tomonlarini tushuntiring, T-sxema tuzing	T-sxema

10-amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Geografiya darslarida harita va globus bilan ishlash

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Geografiya darslarida harita va globus bilan ishlash metodining o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

№	Bajariladigan topshiriqlar	Amaliy mashg'ulot natijasi
1	Matn bilan tanishing, 1-jadvalda berilgan jummalarni to'ldiring va geografik kartaning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini aniqlang.	1-jadval
2	Matndan foydalanib, kartografik ko'nikma va malakalarni shakllantirish tizimini tahlil qiling va sxemasini chizing.	Yozma tahlil, sxema
3	O'quvchilar kartadagi geografik nomlarni o'rganishi uchun Siz qanday ishlarni amalga oshirasiz? Matn bilan tanishing	
4	5-sinf uchun chiqarilgan atlasni 1-jadval asosida tahlil qiling	1-jadval
5	Matn bilan tanishing Globus bilan ishlash metodini tahlil qiling.	Yozma tahlil

1-jadval

1	Karta ob'ektlar joylashgan o'rinni ko'rsatibgina qolmasdan, balki	
2		ularning bittasi bo'lmagan taqdirda ham kartografik bilimlarini to'la egallash qiyin kechadi.
3	O'quvchilarni kartadan ko'rgazmali qurol va bilim manbai sifatida foydalanishga o'rgatish lozim,	
4		narsa va hodisalarning tasvirini shartli belgilar asosida ongda aks etilishiga tushuniladi.
5	Fikrlash jarayoni murakkab, qator aqliy jarayonlarni -	

Uslubiy ko'rsatmalar

1-ilova

Geografiya ta'limini kartasiz tasavvur qilish qiyin. Karta geografiya fanidagina emas, balki insonning amaliy faoliyatida ham cheksiz ahamiyatga ega. Uchuvchi, quruvchi, geolog, tuproqshunos, ekolog, agronom kartasiz ish ko'ra olmaydi. Ta'lim jarayonida karta ta'limiy va tarbiyaviy vazifani bajaradi. Karta ob'ektlar joylashgan o'rinni ko'rsatibgina qolmasdan, balki voqea va hodisalarni, ular o'rtasidagi bog'liqlikni bilishga ham yordam beradi.

Kartaning eng muhim xususiyatlaridan biri bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo'lmagan hodisalarni modellashtirishdan iborat. (ob-havo, iqlim geologik kartalar va h.k.) Geografiya ta'limi metodikasi nuqtai nazardan qaraganda, karta o'qitish vositasi sifatida 4 ta vazifani bajaradi:

1. O'rganish ob'ekti bo'lib xizmat qiladi
2. Ko'rgazmali qurol bo'lib xizmat qiladi
3. Geografik hodisalarni o'rganishda bilim manbai bo'lib xizmat qiladi
4. Karta geografiya ta'limida psixologik-pedagogik vazifani ham bajaradi, ya'ni uning yordamida bilimlarni egallanishi, esda qolishi va ma'lum bir tizimga tushishi engillashadi.

Yuqoridagi 4 ta vazifa kartani o'rganishda bir-birini to'ldiradi, mabodo ularning bittasi bo'lmagan taqdirda ham kartografik bilimlarini to'la egallash qiyin kechadi. Kartani o'rganish ob'ekti deyilganda uning yordamida xilma-xil geografik ma'lumotlarni olishga tushuniladi. Karta faqat o'rganish ob'ektiga bo'lmay, balki kartani tushunishdek pedagogik maqsadga ham xizmat qiladi.

Kartalar bilan ishlash. Geografiya ta'limida kartografik bilimlar va ko'nikmalarni

shakllantirishga quyidagi yo‘llar bilan erishiladi:

1.O‘quvchilarga karta yer yuzasining modeli ekanligini, kartadagi har bir belgining ma’nosini tushuntirish kerak. Kartaga biron-bir belgi maqsadsiz qo‘yilmaydi.

2.O‘quvchilarni kartadan ko‘rgazmali qurol va bilim manbai sifatida foydalanishga o‘rgatish lozim, toki ular kartadan o‘z bilimlarini oshirish uchun hohlagan geografik ma’lumotlarni ola bilsinlar.

3.Karta o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantiradi ularda kuzatuvchanlik, fazoviy tasavvur, mantiqiy fikrlash kabi xislatlarni ham tarbiyalaydi.

O‘quvchilar kartografik bilimlarni amalda qo‘llay olishlari shart. Aks holda egallangan bilimlar kuruq bo‘ladi. Geografiya o‘qituvchisining asosiy vazifasi o‘quvchilarda quyidagi kartografik ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

1.Joyda va kartada mo‘ljal ola bilishni;

2.Kartada o‘lchash ishlarini bajara olishni;

3.Umumgeografik, tematik kartalarni qiyoslay olish va o‘qiy olishni;

4.Bir xil va turli masshtabdagi kartalarni taqqoslay olishni;

5.Karta asosida geografik ob’ektlarga, hududlarga, mamlakatlarga, tabiat zonolari va tabiiy komplekslarga ta’rif yoza olishni;

6.Sxema, kartasxema, kartogramma, kartodiagrammalarni tuza olishni va h.k.

2-ilova. Kartadagi geografik nomlarni o‘rganish.

Kartada ob’ektlarning joylashishini o‘quvchilar eslab qolishlari ancha murakkab jarayon. Buning uchun xilma-xil metodik usullarni qo‘llashga to‘g‘ri keladi. Odatda kartadagi ob’ektlarni avval o‘qituvchi, keyin o‘quvchilar topadilar. O‘qituvchining asosiy vazifasi ko‘rsatilgan ob’ekt nomining to‘g‘ri aytilishi va esda saqlab qolishini ta’minlashi kerak. O‘qituvchi ob’ektlarni qanday ko‘rsatish va ularni kartadan qanday qilib izlash kerakligi haqidagi yo‘l-yo‘riqlarini aytishi maqsadga muvofiq. Geografik nomlarni o‘quvchilar eslab qolishi uchun o‘qituvchi ob’ekt nomini to‘g‘ri talaffuz qilib, uni doskaga yozadi. Keyin shu ob’ektga xos bo‘lgan xususiyatlarni ya’ni uning shakli, kattaligi, ranggi, yo‘nalishining va boshqa tomonlarini aytadi. Imkoni boricha o‘sha ob’ektlarning kartadagi shaklini rangli qog‘ozlarda qirqib ko‘rsatadi va bu shakllarni o‘quvchilarga tanish bo‘lgan figuralar bilan qiyoslaydi.

O‘quvchilar geografik kartalarni o‘rganishda ob’ekt va hodisalarning xususiyatlarini sxematik chizmada, rasmlarda va boshqa belgilarda aks ettirishlari ham samarali natijalar beradi.

Materikda joylashgan davlatlar	Orollarda joylashgan davlatlar	Yarim orolda joylashgan davlatlar	Dengizga chiqq olmaydigan davlatlar	Tinch okean bo‘yida joylashgand avlatlar	Boshqa okeanlar buyida joylashgan davlatlar
--------------------------------	--------------------------------	-----------------------------------	-------------------------------------	--	---

1-jadval

Atlas nomi _____

Chop etilgan nashriyot va yili _____

Berilgan kartalarning nomi	Ajratilgan betlar	Masshtabi	Qo‘shimcha ma’lumotlar

11-amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Kuzatish va tajriba usullari. Amaliy va mustaqil ishlar

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Yangi pedagogik texnologiyalarning tasnifi, turlari va metodlari, ularning xususiyatlari va ta’limdagi o‘rni haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

№	Bajariladigan topshiriqlar	Amaliy mashg'ulot natijasi
1	Geografiya ta'limida kuzatish va tajriba usullaridan foydalanishning ahamiyatini tushuntiring. Kuzatish turlarini sxemada tasvirlang	Yozma tavsif, sxema
2	1-jadvalni tahlil qiling. Undagi ma'lumotlardan dars jarayonida foydalanish usullarini tushuntiring	Yozma tahlil
3	Tabiiy geografiya boshlang'ich kursining ayrim mavzularini o'qitishda tajriba metodidan foydalanish yo'llarini tushuntiring	Yozma tavsif
4	Quyida berilgan tajribalarni V sinf tabiiy geografiya boshlang'ich kursida "Yerning tosh qobig'i-litosfera" bo'limi 13-§ "Litosfera" mavzusini o'tishda foydalanish bo'yicha dars ishlanmasi tuzing	Dars ishlanma

1-jadval. Fenologik kuzatish jadvali

Kuzatiladigan hodisa	Oy va kun	Izoh
1	2	3
Sutkalik harorat 0 ⁰ li dastlabki kun		Bahorning boshlanishi
Qorning erib tugashi		
Maynaning birinchi sayrashi		
Boychechakning ochilishi		
Laylak kelishi		
Musichaning in qurishi		
O'rik daraxtining gullashi		Kun va tunning tenglashishi
Tolning barg chiqarishi		
Shaftolining gullashi		
Olchanning gullashi		
Bulbulning dastlabki sayrashi		Daryo suvining ko'payishi
Chumolilarning inidan chiqishi		
Olmaning guli		
Qaldirg'ochning kelishi		
Dastlabki momoqaldiroq		Yoz boshlanishi
Qulupnay pishishi		

Geografiya ta'limida tajribani samarali tashkil etish uchun quyidagi talablarga e'tibor berish talab qilinadi:

1. Tajriba yangi bilimlarni o'rganish bilan bog'langan bo'lishi lozim;
2. Tajribani amalga oshirishdan avval uning maqsadi va mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtirish kerak;
3. Tajriba davomida uning mazmuniga tegishli savollar berib borish kerak;
4. O'quvchilar olib borayotgan tajriba ustidan nazorat qilib turish maqsadga muvofiq;
5. Tajriba natijasini o'quvchilar tomonidan muhokama qilinishi talab etiladi;
6. Tajriba uzoq davom etmasligi kerak;
7. Tajribaning samaradorligi o'qituvchining tayyorgarligiga bog'liq.

1-tajriba

Kolbaga suv quyiladi va suvga bir necha tomchi siyoh yoki bo'yoq tomizib, rangdor qilinadi. Suvning kolbadagi sathi (kolbaning ingichka qismi)ga ip bog'lab belgilanadi. Kolbaning og'zi o'rtasidagi shisha naycha o'tkazilgan probka bilan yaxshilab berkitiladi. Kolbadagi suvni spirt lampasi alangasida qizdiriladi yoki qaynoq suvli idishga solib isitiladi. Shunda suv ip bilan belgilab

qo'yilgan sathdan yuqori ko'tarilib, shisha naycha ichiga kiradi. Ushbu tajribadan suvning isiganda kengayishini kuzatish mumkin. Bu tajribani tabiatshunoslik kursidagi "Suvning isiganda va sovuganda o'zgarishi" mavzusini o'tishda foydalanilsa, dars yanada qiziqarli va tushunarli bo'ladi. Tajriba esa o'quvchilar xotirasida uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Tuproqning xossalarini o'rganishda ham tajriba metodidan foydalanish mumkin. Turli xossaga ega bo'lgan tuproqlarning suvni qay tariqa o'tkazishini quyidagi tajriba yordamida aniqlash mumkin:

2-tajriba

Ikki dona shisha voronka shtativga o'rnatiladi. Birinchi voronkaga yarim stakan gil, ya'ni soz tuproq solinadi. Ikkinchi voronkaga esa yarim stakan qumli tuproq solinadi. Har ikki voronkaga solingan tuproqlar ustiga yana yarim stakandan suv quyiladi. Voronkadagi tuproqlarga e'tibor berilsa, suv gil tuproqqa nisbatan qumli tuproqdan yaxshi o'tishini ko'rish mumkin. Qumli tuproq yuzasiga quyilgan suvning deyarli hammasi undan o'tib ketadi. Gilli tuproq esa suvni yaxshi o'tkazmay, tutib qoladi.

12-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Yangi pedagogik texnologiyalarning tasnifi, turlari va metodlari, ularning xususiyatlari va ta'limdagi o'rni haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

№	Bajariladigan topshiriqlar	Amaliy mashg'ulot natijasi
1	Berilgan matndan foydalanib, yangi pedagogik texnologiyalarning tasnifi, tamoyillari, bosqichlari va turlarini o'rganing. Pedagogik texnologiyalarning turlarini sxemasini chizing	Yozma tavsif sxema chizish
2	Quyida berilgan chizma asosida an'anaviy va noan'anaviy ta'lim texnologiyalarin solishtiring	1-chizma, yozma tavsif

Uslubiy ko'rsatmalar

Pedagogik texnologiya - barcha boshqariluvchi tashkiliy qismlar va ularning bog'liqligini tahlil qilish, tanlash, loyihalash va nazorat qilish yo'li bilan pedagogik samaradorlikni yuqori darajaga ko'tarish hamda bu borada tizimli yondashuvni joriy etishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida XXI asrda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talabalarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muxabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllanadi.

Texnologiya tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga XX asrning 2-yarmida kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan-*texnos* (techt)- san'at, hunar, mahorat va *logos* (logos) - fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, hunar fani ma'nosini anglatadi. «Pedagogik texnologiya» iborasi fanga birinchi marta 1970 yilda yapon olimi T.Sakamoto tomonidan kiritilgan. Olimning fikricha, pedagogik texnologiya o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasidir. Professor N.F.Taluzina pedagogik texnologiyani belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat deb hisoblaydi.

Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda, amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda to'tadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlariga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchining faoliyatidir. "Pedagogik texnologiya" so'z birligi esa inglizcha "**an educational technology**" - "**ta'lim texnologiyasi**" iborasining aniq bo'lmagan tarjimasini bo'lib, ta'lim (o'qitish) jarayonini yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etish borasida ma'lumotlar beruvchi ta'limot ma'nosini anglatadi.

Ta'lim texnologiyasining juda ko'p ta'riflari mavjud. SHulardan eng maqbuli va jahon pedagoglari tomonidan e'tirof etilgani YUNESKO tomonidan quyidagicha berilgan ta'rifdir:

“Ta'lim texnologiyasi”–ta'lim olish shakllarini maqbullashtirishni o'z vazifalari deb qo'yuvchi, ya'ni butun ta'lim berish jarayonini hamda texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda, bilimlarni o'zlashtirish, ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usulidir”.

Pedagogik texnologiya esa – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida talaba-o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Yangi texnologiyalarni loyihalash va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. Bu asoslar pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlarini ifoda etadi va metodikadan farqli tomonlarini ko'rsatib beradi. Boshqacha aytganda, ularni pedagogik texnologiya tamoyillari (tamoyillari) deb atash mumkin.

Tamoyil yoki prinsip – yunoncha - "princip" so'zidan olingan bo'lib, “*asos, dastlabki holat, boshqaruvchi g'oya, umumlashgan talab*” kabi ma'nolarni anglatadi.

Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari: Yaxlitlik tamoyili, O'qitishning tugallanganlik tamoyili Yakuniy natijaning kafolatlanishi tamoyili Oldindan loyihalash tamoyili

Hozirgi kunda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida keng qo'llanilib kelinayotgan ta'lim texnologiyalariga didaktik o'yinlar, interfaol ta'lim, modulli ta'lim, loyihali ta'lim, muammoli ta'lim kabilarni kiritish mumkin.

Interfaol ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
2. Guruhning tajribasi o'qituvchi (pedagog)ning tajribasidan ko'p.
3. O'quvchilar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.
4. Har bir o'quvchi o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg'ulotda fikr tanqid qilinishi mumkin, lekin o'quvchi shaxsi tanqid qilinmaydi.
6. Bildirilgan g'oyalar o'quvchilarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi.

Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Ularga “ajurli arra” (fransuzcha “ajour” – bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq), “asalari galasi”, “aqliy hujum”, “baliq skeleti”, “bahs-munozara”, “BBB”, “blits-so'rov”, “venn diagrammasi”, “debat” va boshqa metodlarni kiritish mumkin.

O'qituvchi muammoli darsning loyahasini ishlab chiqishda quyidagi topshiriqlarni ketma-ket bir butunlikda amalga oshirishi kerak.

1-bosqich: O'qituvchi dastur, darslik, metodik qo'llanma va sinf o'quvchilarining umumiy tavsifi bilan tanishib chiqishi lozim.

2-bosqich: Darsning asosiy vazifalari majmuasini: o'qitish, ta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad va rivojlantiruvchi maqsadlarni va vazifalarini belgilash.

3-bosqich: Darsning asosiy bosqichlarini to'g'ri, aniq va izchillikda joylashtirish.

4-bosqich: Darsning har bir bosqichi mazmunidagi asosiy o'rinli ajratib olish.

5-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o'qitish metodlarini, vositalarini, texnologiyalarni tanlash.

6-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o'qitishning yetakchi; umumsinfiy, kichik guruh va individual shaklini tanlab olish.

7-bosqich: Bo'sh o'zlashtiruvchi va tayyorgarligi kuchli bo'lgan o'quvchilar uchun tafovutlangan mashq va vazifalarni tanlash.

8-bosqich: Tegishli sinf o'quvchilari uchun vaqt me'yorlariga muvofiq uy vazifasining maqbul hajmini tanlash.

13-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Geografiya ta'limida o'yinlardan foydalanish

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Yangi pedagogik texnologiyalarning tasnifi, turlari va metodlari, ularning xususiyatlari va ta'limdagi o'rni haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Geografiya

ta'limida hamkorlikda o'qitish va o'yinli texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari va asosiy g'oyasi, usullari va ulardan geografiya darslarida foydalanish yo'llari haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

№	Bajariladigan topshiriqlar	Amaliy mashg'ulot natijasi
1	Matnda berilgan hamkorlikda o'qitish metodlari bilan tanishing.	Yozma tavsif 1-ilova
2	Maktab geografiya kurslari bo'yicha ixtiyoriy mavzuga hamkorlikda o'qitish metodlari foydalanilgan dars ishlanmasini tuzing	dars ishlanmasini tuzish
3	Geografiya o'qituvchisi o'quv jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanishda nimalarga e'tibor qaratishi lozim? 1-jadvalni to'ldiring	1-jadval
4	Matndan foydalanib, o'quv jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish vazifalarini sxema ko'rinishida tasvirlang.	2-ilova Sxema tuzish.
5	Quyida berilgan geografiya ta'limida foydalaniladigan o'yinlar bilan tanishing. Sizningcha ulardan darsning qaysi qismida foydalanish mumkin?	
	Quyida berilgan geografik o'yinlar ishtirokida ixtiyoriy mavzuga dars ishlanmasi tayyorlang	3-ilova Dars ishlanmasi

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi

Bu metod 1976 yili Tel-Aviv universiteti professori SH.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko'proq o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar alohida individual yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o'quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z hissasini qo'shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinf o'quvchilari o'rtasida o'z ijodiy izlanish natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatning natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasidagi har bir o'quvchining, muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarning, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo'llab, yangi bilimlarni o'zlashtirilishiga zamin tayyorlaydi.

Geografiya o'qituvchisi o'quv jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanishda quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

- qaysi mavzularni hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib, o'rganish mumkinligini aniqlashi va mazkur darslarni taqvim-rejada belgilashi;

- tanlagan mavzu bo'yicha o'quvchilarga tavsiya etiladigan o'quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalarni tayyorlashi;

- hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib, o'tiladigan dars turi, dars tuzilishi va borishini loyihalashi;

- o'tgan va yangi mavzular yuzasidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish uchun test topshiriqlarini tuzishi kerak. Mazkur metodlardan foydalanganda shuni nazarda to'tish kerakki,

o'quvchilar o'z sheriklari bilan hamkorlikda o'quv topshiriqlarni to'g'ri bajarishlari barobarida guruh a'zolarining faolligi, hamkorlikning vujudga kelishi hisobga olinadi.

O'qituvchi dars jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanishi uchun ushbu texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni, o'quvchilarning mustaqil ishlari, o'quv bahsi va munozaralarni samarali tashkil etish yo'llarini egallagan, o'quvchilarda esa darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o'z fikrini qisqa va aniq bayon etish, fikrlarni asoslash va dalillash, mantiqiy fikr yuritish, o'quv bahsi va munozaralarda faol qatnashish ko'nikmalari shakllangan va ongli intizom vujudga kelgan bo'lishi lozim.

1-jadval

1	2	3	4

2-ilova.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'quv materialiga bo'lgan qiziqishini shakllantirish va tarbiyalashning samarali vositalaridan biri – didaktik o'yinlar hisoblanadi. O'yinli texnologiyalar o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga, fikrini erkin bayon etishga imkoniyat yaratadi. Geografiya darslarida foydalaniladigan o'yinlar o'quvchilarning amaliy faoliyatida bilim va malakalarni, mehnat ko'nikmalarini rivojlantiradi, mustaqillik, iroda, ma'naviy-estetik dunyoqarashni shakllantiradi, hamkorlik, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, solishtirish, ijodiy qobiliyat kabi xususiyatlarni rivojlantiradi.

O'quv jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. O'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
2. O'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
3. SHaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
4. Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
5. O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
6. Shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlanadi;
7. O'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi
8. Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;

3-ilova.

Geografiya ta'limida foydalaniladigan o'yinlar

«Kartografik loto» o'yini.

O'zbekiston Respublikasi kontur kartasida 4 qator ajratiladi:

1. 37 ° – 39 ° shim. kengliklar;
2. 39 ° – 41 ° shim. kengliklar;
3. 41 ° – 43 ° shim. kengliklar;
4. 43 ° – 45 ° shim. kengliklar.

Har bir qatorda besh geografik ob'ektga savol alomati qo'yiladi. Karta bo'yicha jami 20 ta ob'ektga savol alomati qo'yilgan bo'ladi. SHunday tartibda har xil variantlarda kontur karta tayyorlanadi. 2x1 sm kattalikda qog'oz qirgilib, unga savol alomati qo'yilgan ob'ektlarning nomi va nomeri yozib qo'yiladi. O'yin vaqtida o'qituvchi yoki boshqaruvchi xaltachadan qog'ozchalarni olib undagi ob'ektlarning nomlarini o'qiydi. O'quvchilar esa aytilgan geografik nomni kontur kartadan savol alomati qo'yilgan ob'ektlar bo'yicha topib, uni nomer yozilgan qog'ozcha bilan yopadilar. Kim birinchi bo'lib so'roq alomati qo'yilgan ob'ektlarni to'g'ri topsa, yani to'g'ri

«yopsa» o‘yin g‘olibi hisoblanadi.

«Zoogeografik domino» o‘yini.

O‘yinni o‘tkazish uchun 30 ta kartochka tayyorlanadi. Kartochkaga biror hayvonning rasmi chiziladi yoki yopishtiriladi. Har bir rasmning tagiga tabiat zonalaridan birining nomi yoziladi. Ulardagi yozuvlarning ko‘plari rasmga mos kelmaydi. O‘yin paytida kartochkalar o‘quvchilarga tarqatiladi. O‘quvchilarning vazifasi rasm bilan yozuvni mos kelishi va kelmasligini aniqlashdir. Qaysi o‘quvchi o‘ziga berilgan kartochkalarni tez va to‘g‘ri ajratsa, g‘olib xisoblanadi. Bu o‘yin o‘quvchilarning hayvonot dunyosini va ularni tabiat zonalar bo‘yicha tarqalishini bilib olishlarida yordam beradi. Bu o‘yinning “geobotanik domino”, “topografik domino”, “geografik domino” shakllarida ham o‘tkazilishi mumkin.










«Shartli belgilar» pochta o‘yini.

100x700 sm kattalikdagi ramka yasaladi va unga konvert xaltachari yopishtiriladi. Har bir konvert xaltachalariga turli shartli (geografik, topografik, meteorologik) belgilar chiziladi yoki chizilgan qog‘ozcha yopishtiriladi. Konvert xaltachalari kattaligiga mos keluvchi va ularning Iichiga solib qo‘yiladigan kartochkalar olib qo‘yiladi. So‘ngra chaqarilgan o‘quvchiga kartochkalardan bir nechta, masalan beshtasi beriladi. O‘quvchi kartochkaga yozilgan shartli belgi nomini ovoz chiqarib o‘qiydi va uni mos keluvchi shartli belgili konvert xaltachaga soladi. Bu ishni qanday bajarilishini sinf o‘quvchilari kuzatib turadilar. Agar o‘quvchi xato qilsa, boshqa o‘quvchi uni tuzatishi mumkin. Kartochkada yozilgan nom konvert xaltachasiga chizilgan shartli belgiga mos bo‘lishi lozim. O‘yin paytida kim to‘g‘ri va ko‘p ball to‘plasa g‘olib hisoblanadi. O‘rtog‘ining hatosini to‘g‘rilagan o‘quvchiga qo‘shimcha ball beriladi. Bu o‘yinlar turli shartli belgilarni o‘rganib olishga o‘quvchilarni undaydi. O‘yinlar har chorakda bir necha marta takroriy o‘tkazilib, turilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Geografik kartani bilasizmi” o‘yini. O‘yinni o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi chegaralari tushirilgan devoriy kontur karta, shartli belgilar jadvali, kartondan qirqib, turli ranglarga bo‘yalgan doiralar zarur bo‘ladi. Rangli doirachalar respublikamiz hududidagi daryo, ko‘l, tog‘, qazilma konlari va boshqa geografik ob‘ektlarni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Jadval kontur kartaning yoniga osib qo‘yiladi.

Rangli doirachalarning bir qismi magnitli doskaga o‘rnatilgan kontur kartadagi geografik ob‘ektlarga qadab qo‘yiladi. Chaqirilgan o‘quvchi alohida xaltachaga solib qo‘yilgan doirachalardan birortasini oladi. Masalan, u yashil rangli doirachani oldi, deylik. Jadvalda bu rang tekisliklarni bildiradi (1-jadval).

1-jadval.

T/r	Geografik ob‘ektlar	Shartli belgilar
1	Dayolar	
2	Qo‘llar	
3	Tog‘lar	
4	Tekisliklar	
5	Neft konlari	
6	Tabiiy gaz konlari	
7	Oltin konlari	
8	Ko‘mir konlari	
9	Marmar konlari	

O‘quvchi konturdagi respublikamiz hududida joylashgan yashil doirachalar qadab qo‘yilgan tekislik nomini aytadi. Nom to‘g‘ri aytilsa, doiracha kontur kartadan olib o‘qituvchiga topshiriladi. Topish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. Har bir to‘g‘ri topilgan ob‘ekt uchun 1 ball beriladi. To‘g‘ri

topilmagan ob'ektdagi doiracha olinmaydi. Keyingi chaqirilgan o'quvchi ularni topishi mumkin.

Doska yoniga chaqirilgan o'quvchi haltachadan 5 ta doirachani olib uni aniqlaydi. Navbat bilan boshqa o'quvchilar ham doska yoniga chiqib doirachalar qadalgan orollarni va boshqa ob'ektlar nomlarini aytiladi. To'plangan ballar bo'yicha o'quvchilar baholanadi. Agar sinfda o'quvchilar soni juda ko'p bo'lmasa, doiralarning soni 5 tadan 10 tagacha ko'paytirilishi mumkin.

“Geografik pochta” o'yini. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursining II qismida mamlakatimizning iqtisodiy rayonlari o'rganiladi. Bir nechta iqtisodiy rayon o'rganilgach, xususan o'tilgan darslarni takrorlash, o'quvchilarning bilimlarini tekshirish maqsadida “geografik pochta” o'yinini tashkil etish mumkin. Buning uchun ramkaga kattaligi 16x11 sm bo'lgan 3 ta konvert haltachalari yopishtiriladi. Ularga shu kunga qadar o'tilgan iqtisodiy rayonlar –Toshkent, Mirzacho'l va Farg'ona iqtisodiy rayonlari nomlari yozib qo'yiladi.

O'yin ishtirokchilariga teng miqdorda shu iqtisodiy rayonlar hududida joylashgan tog'liklar, tekisliklar, daryolar, konlar, shaharlar va boshqa geografik ob'ektlar nomlari yozilgan kartachalar tarqatiladi. (2-jadval).

2-jadval. Iqtisodiy rayonlar hududida joylashgan geografik ob'ektlar nomlari (kartachalarga yoziladi)

№	Tog'lik va tekisliklar	Daryo, kanal va qo'llar, suv omborlari	Yirik shaharlar va tumanlari	Yirik konlar
1	Nurota	Chirchiq	Ohangaron	Marjonbuloq
2	Farg'ona tizmasi	Sangzor	Xovos	Janubiy Olamushuk
3	Marhamat adirlari	SHoximardon	Qibray	Chimyon
4	Turkiston tizmasi	Nanay	Parkent	Angren
5	CHotqol tizmasi	Bo'zsuv	Namangan	Qalmoqqirkon
6	Zomin tog'lari	G'ovasoy	Bo'stoliq	Qo'rg'oshinkon
7	Oloy tizmasi	Zomin	Andijon	Chodak
8	Qurama tizmasi	Kosonsoy	Yangiyo'l	Oqtosh
9	Ugom	Ohangaron	Jizzax	Qo'ytosh
10	Oltiariq adirlari	Jan. Farg'ona	Farg'ona	Qoratosh
11	Quva adirlari	Sirdaryo	Guliston	Uzun
12	Pistalitog'	Andijon	Marg'ilon	Xo'jaobod
13	G'o'bdin	SHahrixonsoy	Qo'qon	Polvontosh
14	Baxmal	So'x	Yangier	Andijon
15		Isfara	Quvasoy	Mingbuloq
16		Tuyabo'g'iz	Asaka	Uchquloq

14-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Muammoli metodlar.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Geografiya ta'limida muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish usullari, muammoli ta'lim metodlari, Muammoli dars loyihasini ishlab chiqish bosqichlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

№	Topshiriqlar	Amaliy mashg'ulot natijasi
1	Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish usullarini tushuntiring.	yozma tavsif
2	Muammoli ta'lim metodlarini sxemada ko'rsating.	sxema
3	Muammoli dars loyihasini ishlab chiqish bosqichlarini o'rganing va daftaringizga yozing.	yozma tavsif
4	Muammoli ta'limni amalga oshirishda geografiya o'qituvchisining asosiy vazifalarini “jadval” metodidan foydalanib tahlil qiling	“jadval” metodi

Uslubiy ko'rsatmalar

Muammoli ta'lim haqida fikr yuritganimizda, "Muammoli ta'lim o'zi nima? Uning qanday nazariy asoslari bor? U an'anaviy ta'limdan nima bilan farq qiladi? Muammoli ta'limning maqsadi nima? Muammoli ta'limni o'qituvchi qanday amalga oshiradi?"- degan savollar paydo bo'lishi tabiiy. Muammoli o'qitish texnologiyasi o'rganilayotgan mavzudagi asosiy muammoni ajratib olish va muammoni o'quvchilar tomonidan mustaqil hal etilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi ta'lim texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Bunda muammoning turi, muammoning sabablari va ko'rinishlari, muammoni hal etish uchun harakatlar belgilanadi.

Muammoli ta'lim bu – o'quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo'l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o'qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta'lim darsda bir vaqtning o'zida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi harakati bo'lib, u o'quvchi shaxsidagi muhim belgi – ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. N.G.Dayri aytganidek, darsda o'rganiladigan mavzuning murakkab qismini o'zlashtirishda o'qituvchining faoliyati qanday bo'lsa, o'quvchi faoliyatini ham shu darajaga yetkazish muammoli ta'limning asosiy maqsadidir.

Muammoli ta'lim o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'zining fikrini erkin bayon qila olishga va fikrini yanada rivojlantirishga o'rgatadi. Bunda o'quvchi diqqat bilan tinglashi, mustaqil va yolg'iz fikrlashi, jamoa bo'lib fikrlashi, tahlil qilishi, ko'pchilik bo'lib muhokama qilishi va to'plangan fikrlarni bayon qila olishi kerak. Agar o'qituvchi yangi mavzuni ta'sirli bayon qilib, ko'rgazmalardan unumli foydalansa, bayon nihoyasida ayrim o'quvchilar bilan ish olib borsa, o'quv jarayoni samarali bo'ldi yoki faol bo'ldi, deb hisoblash mumkin. Ammo bu ta'lim usuli an'anaviy ta'lim berishdir.

Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkur – muammoli vaziyatdan boshlanadi"- degan g'oya yotadi va muammoli vaziyatda bilish faoliyatining ketma-ketligi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

- muammoli vaziyat;
- muammoni echish yo'llarini izlash;
- muammoning echimi.

An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi va darslik bilimning asosiy manbai bo'lsa, muammoli o'qitishning falsafasi va metodologiyasida o'qituvchi o'quvchilarning izlanish–tadqiqotchilik faoliyatining tashkilotchisi, mutasaddi maslahatchisi va yordamchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bu rol an'anaviy o'qitishdagi roldan ancha murakkab bo'lib, u o'qituvchidan chuqur bilim va pedagogik mahoratni talab qiladi.

Muammoli o'qitish konsepsiyasida muammoli vaziyatning birinchi sharti o'qituvchi o'zi echishi lozim bo'lgan zidlikni ko'rishidan iborat ekanligini ta'kidlanadi. Muammoli o'qitish texnologiyasi asosida amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog J. Dyui g'oyalari yotadi. U 1894 yilda CHiqago shahrida o'qitish asosini o'quv rejasi emas, balki o'yinlar va mehnat faoliyati tashkil etgan tajriba maktabini tashkil qilgan. O'qish, hisoblash, yozish bo'yicha mashg'ulotlar bolalarning fiziologik balog'atiga qarab, o'z – o'zidan paydo bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq o'tkazilgan. J.Dyui o'qish uchun to'rt ehtiyojni ajratgan: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifoda, tadqiqiy. Bilish manbalari sifatida bolalarga quyidagilar taqdim etilgan: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar.

J. Dyui g'oyalari bo'yicha, bola bilishda insoniyat yo'lini qaytaradi, bilimlarni o'zlashtirish boshqarilmaydigan jarayon bo'lib, bola o'zida hosil bo'lgan ehtiyojni qondirishi natijasi sifatida materialni o'zlashtiradi. J.Dyuining fikricha, o'qitish samaradorligining shartlari hamda o'quv materialini muammolashtirish o'quvchi faolligi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Muammoli o'qitish – o'quvchining muammoli taqdim etilgan ta'lim mazmuni bilan faol o'zaro bog'lanishni tashkil etadi. Bu jarayonda o'quvchi ilmiy bilimning ob'ektiv zidliklari va ularning echimlariga yaqinlashadi, fikrlash, bilimlarni ijodiy o'zlashtirishga o'rganadi.

Muammoli o'qitishning yakuniy maqsadi – o'quvchilarni muammolarni ko'rish va echishga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu faqat fikrlash faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

15-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Hamkorlikda o'qitish, interfaol va modulli ta'lim texnologiyalari

Maqsad: Talabalarga hamkorlikda o‘qitish, interfaol va modulli ta’lim texnologiyalarining asosiy mohiyatini tushuntirish, ulardan darslarda foydalanish usullarini o‘rgatish

1	Interfaol ta’limning maqsadi va vazifalari, didaktik imkoniyatlarini yoritish.	Yozma tavsif
2	Matndan foydalanib, interfaol ta’limning asosiy tamoyillarini sxema ko‘rinishida ifodalang	Sxema tuzish
3	Matnda berilgan hamkorlikda o‘qitish metodlari bilan tanishing. Geografiya o‘qituvchisi o‘quv jarayonida hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanishda nimalarga e’tibor qaratishi lozim? 1-jadvalni to‘ldiring	Yozma tavsif 2-ilova 1-jadval
4	Modulli ta’lim texnologiyalari ishlab chiqish bosqichlarini o‘rganing va daftaringizga yozing.	yozma tavsif

Uslubiy ko‘rsatmalar

Interfaol o‘qitish “ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quvchilar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi”.

Interfaol ta’lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mashg‘ulot – ma’ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
2. Guruhning tajribasi o‘qituvchi (pedagog)ning tajribasidan ko‘p.
3. O‘quvchilar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko‘ra o‘zaro teng.
4. Har bir o‘quvchi o‘rganilayotgan muammo yuzasidan o‘z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg‘ulotda fikr tanqid qilinishi mumkin, lekin o‘quvchi shaxsi tanqid qilinmaydi.
6. Bildirilgan g‘oyalar o‘quvchilarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma’lumot) bo‘lib xizmat qiladi.

interfaol ta’lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Ularga “ajurli arra” (fransuzcha “ajour” – bir yoqdan ikkinchi yoqqa o‘tgan, ikki tomoni ochiq), “asalari galasi”, “aqliy hujum”, “baliq skeleti”, “bahs-munozara”, “BBB”, “blits-so‘rov”, “venn diagrammasi”, “debat” va boshqa metodlarni kiritish mumkin.

O‘qituvchi muammoli darsning loyahasini ishlab chiqishda quyidagi topshiriqlarni ketma-ket bir butunlikda amalga oshirishi kerak.

1-bosqich: O‘qituvchi dastur, darslik, metodik qo‘llanma va sinf o‘quvchilarining umumiy tavsifi bilan tanishib chiqishi lozim.

2-bosqich: Darsning asosiy vazifalari majmuasini: o‘qitish, ta’limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad va rivojlantiruvchi maqsadlarni va vazifalarini belgilash.

3-bosqich: Darsning asosiy bosqichlarini to‘g‘ri, aniq va izchillikda joylashtirish.

4-bosqich: Darsning har bir bosqichi mazmunidagi asosiy o‘rinli ajratib olish.

5-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o‘qitish metodlarini, vositalarini, texnologiyalarni tanlash.

6-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o‘qitishning yetakchi; umumsinfiy, kichik guruh va individual shaklini tanlab olish.

7-bosqich: Bo‘sh o‘zlashtiruvchi va tayyorgarligi kuchli bo‘lgan o‘quvchilar uchun tafovutlangan mashq va vazifalarni tanlash.

8-bosqich: Tegishli sinf o'quvchilari uchun vaqt me'yorlariga muvofiq uy vazifasining maqbul hajmini tanlash.

2-ilova

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishiga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarni nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qishni o'rganish hamdir. Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bo'lgan. Mazkur texnologiya Buyuk Britaniya, Kanada, G'arbiy Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, YAponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llaniladi. Hamkorlikda o'qitish g'oyasini ishlab chiqqan olimlar Kaliforniya universiteti professori J.Aronson (1978), Minnesot universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson (1987), Isroildagi Tel-Aviv universiteti professori SH.Sharan (1988) Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori R.Slavin (1990) hisoblanadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi quyidagi metodlarni o'z ichiga oladi:

Komandada o'qitish (R.Slavin)

Mazkur metodda o'quvchilar teng sonli ikkita komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda to'tilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishiga e'tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish bo'yicha ko'rsatma berilishi etarli emas. O'quvchilar o'rtasida tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. SHundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda ma'suliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishga intiladi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish (R.Slavin 1986).

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish (R.Slavin 1986). Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test topshiriqlari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

Hamkorlikda o'qitishning zig-zag yoki arra metodi. (E.Aronson 1978).

Pedagogik amaliyotda bu metod qisqacha "arra" metodi deb nomlanadi. Mazkur metodda kichik guruhlar 6-8 ta o'quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o'rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qism (blok yoki modul)larga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlar tuziladi. Har bir o'quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo'yicha "mutaxassis"ga aylanadi. So'ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) "mutaxassisi" bo'lishi shart, mazkur "mutaxassis"lar o'zlari egallagan bilimlarni xuddi "arra" tishlari ketma-ket kelganidek, navbat bilan o'rtoqlariga bayon qiladi. Mazkur guruhlarda o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab

chiqiladi.

Shuni qayd etish kerakki, ushbu darsda o‘quvchilar ikki marta guruhlarga ajratiladi.

Birinchi guruh “mutaxassislar” tayyorlash guruhi.

Ikkinchi guruh “mutaxassislar” uchrashuvi guruhi.

Modulli ta’lim texnologiyasi.

Modul - bu o‘quv materialining yaxlitlik va tugallanganlik xarakteriga ega bo‘lgan va o‘zlashtirishni nazorat qilish uchun maxsus vazifalarni o‘z ichiga oluvchi mantiqiy ajratilgan qismidir.

Har bir modul motivatsiya bosqichidan boshlanadi.

O‘qituvchi ta’lim jarayonini tashkillovchi va boshqaruvchi vazifasini bajaradi, talabalar esa mustaqil tadqiqotchi sifatida faoliyat olib boradilar.

Modul qo‘yidagi elementlardan tashkil topadi:

- aniq shakllantirilgan o‘quv maqsadi;
- axborot banki: o‘quv dasturlari, matn shaklidagi o‘quv material;
- materialni o‘zlashtirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar;
- zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun amaliy mashg‘ulotlar;
- jixoz, asboblarni, materiallar majmuasi;
- berilgan modulda qo‘yilgan maqsadlarga qat’iy mos bo‘lgan diagnostik vazifa.

16-amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Dars konspektini tuzish (tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslari misolida).

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Geografiya darsini tashkil etish va uni ta’limda to‘tgan o‘rni, darsga qo‘yiladigan talablar va darsning turlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, dars konspektini tuzishni o‘rganish

№	Bajariladigan topshiriqlar	Amaliy mashg‘ulot natijasi
1	Matnda berilgan 1-ilovani o‘qing, darslarning turlarini o‘rganing va sxemasini chizing	Sxema
2	2-ilova bilan tanishing. Quyidagi jadvalni to‘ldiring	1-jadval
3	Dars konspekti yozish tartibini o‘rganish	1-ilova
4	1-ilova asosida tabiiy geografiya kurslari bo‘yicha ixtiyoriy mavzuga dars ishlanmasi tuzish	Dars ishlanmasi Tuzish
5	Darsni tashkil etish blok chizmasi asosida vaqtni taqsimlang	

Uslubiy ko‘rsatmalar

Darslar metodik adabiyotlarda turli xil klassifikatsiyada berilgan. Ba’zi qo‘llanmada dars o‘quvchilar faoliyatiga qarab klassifikatsiya qilinsa, boshqa bir qo‘llanmada uning mazmuniga qarab, uchinchi qo‘llanmada mashg‘ulot o‘tkazish usuliga qarab klassifikatsiya qilinadi. O‘qituvchi ishini rejalashtirishida darslarni klassifikatsiyalash katta rol o‘ynaydi. Didaktik maqsadni asos qilib darslarni quyidagicha klassifikatsiya qilish samarali natijalar berishidan dalolat beradi:

- kirish darsi;
- yangi bilimlarni o‘rganish darsi;
- aralash dars;
- ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish va mustahkamlash darsi
- takrorlash darsi.

Kirish darsi odatda yangi kurs boshlanishida o'tkaziladi. Kirish darsining maqsadi yangi kursni o'rganish uchun o'quvchilarni ko'proq jalb etishdan iboratdir. Kirish darslarida o'quvchilarning ilgari olgan bilimlariga asoslangan holda ularni yangi kurs mazmuni bilan tanishtiriladi. O'qtuvchi bu darsdan yangi kursni o'rgatishdagi ish usullari bilan asosiy o'quv qurollari bilan tanishtirishda foydalanadi. Shuningdek ayrim tashkiliy talablardan o'quvchilar habardor qilinadi

Yangi bilimlarni o'rganish darsi. Bu darsning asosiy maqsadi o'quvchilarga yangi bilim berishdir. Agar o'rganiladigan materialning hajmi keng, murakkab va uni o'zlashtirish uchun turli ko'rsatmali qurollar va vositalar talab etiladigan bo'lsa shu xil darsdan foydalaniladi. CHorak boshlanishida yoki yirik temada butun dars yangi materiallarni o'rganishga bag'ishlanishi mumkin. Darslarni o'tkazish o'qituvchidan katta kuch va ma'suliyat, mahorat va ijod talab etadi. Chunki bunday darslarda o'quvchilar diqqatini va ish qobiliyatini uzoq vaqt o'ziga jalb qilib turish, o'rganiladigan ob'ekt va xodisalarning muhim belgilarini mohirlik bilan ochib ko'rsatish, materiallarni o'rganish usullarini yangilab, o'zgartirib turish lozim. Yangi materiallarni butun dars davomida o'rganiladigan bo'lganda bir darsda har xil metod va usul tatbiq etiladi. Imkoniyat mavjud bo'lgan taqdirda bu xil darslarni bir qismini tashqarida ham o'tkazish mumkin

Aralash dars o'z oldiga bir necha didaktik maqsad qo'yganligi bilan boshqa darslardan farq qiladi. Bu dars o'z oldiga yangi materiallarni o'rganish va ularni mustahkamlash, o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash kabi masalalarni maqsad qilib qo'yadi. Aralash dars o'zining tuzilishi, metod va usullariga ko'ra juda murakkabdir. Geografiya o'qitishda eng ko'p tadbiq etiladigan va ommalashgan dars ham xuddi shu aralash darsdir. Aralash darslarda turli metod va usullardan foydalanish mumkin, bu darsda o'quvchilar bilimini tekshirish va uni hisobga olish masalalari boshqa darslarga qaraganda ancha oson hal etiladi. O'qituvchilarning aksariyati bir qolipda ishlashga o'rganib qolganlar. Ular darsni o'tgan temani takrorlashdan boshlaydilar, o'quvchilar bilimini aniqlaganlaridan keyin yangi materialni og'zaki bayon etadilar, so'ngra mustahkamlab uyga topshiriq beradilar. Darsni shu zaylda o'tish ta'lim tarbiya vazifalarni to'liq hal qila olmaydi. Aralash dars o'ylab oqilona tashkil etilsa, har bir dars o'rganiladigan materialga, o'quv qurollarining mavjudligi, o'quvchilarning tayyorgarligi va saviyalariga qarab uyushtirilsa yaxshi natija beradi

Ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va mustahkamalash darsi Geografik ko'nikma va malakalar odatda uzoq vaqt davomida shakllanadi. SHu bilan birga zarur ko'nikma va malakalarni egallash uchun amaliy ishlar tarzida alohida dars ajratish ehtiyoji ham tug'iladi. Bu darsda asosiy e'tibor ish usullarini takomillashtirishga yoki ularni o'quvchilar tomonidan mustaqil tatbiq etishga qaratilgan. Oldingi darslarda berilgan bilim va o'quvchilar egallay boshlagan ko'nikmalar mazkur darsda jamlanadi va ma'lum tartibga tushiriladi. Ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va mustahkamlash darslari tegishli nazariy ma'lumotlar o'rganilgandan keyin o'tkaziladi. Bunday darsda o'quvchilar tegishli o'quv qurollari bilan ta'minlanishlari lozim. Ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va mustahkamlash darslarida tadbiq etiladigan bilimlar o'quvchilar xotirasida qayta tiklanadi va ularga ish usullari tushuntiriladi va ko'rsatiladi. Dars oxirida bajarilgan ishlarga yakun yasash darsning zarur elementlaridan hisoblanadi

Takrorlash darslarida tegishli bo'limdagi hamma materiallar takrorlanmay, asosiy e'tibor temadagi eng muhim masalalarni chuqurlashtirish, yakunlash va yangi bilim elementlari bilan boyitish lozim. Takrorlash darsi temani eslatish va o'qituvchining kirish so'zi bilan boshlanadi. Takrorlash vaqtida yangi materialni o'rganishda ilgari qo'llanilgan o'quv qurollari bilan birga takrorlash uchun maxsus tayyorlangan o'quv qurollaridan foydalanish maqsadga muvofiq. YAxshi tashkil etilgan takrorlash darslari o'quvchilarni aktivlashtiradi va ular bu darsdan mamnun bo'ladilar. Takrorlash darslaridan yana bir o'quv yili oxirida o'tkaziladigan yakuniy takrorlashdir. Bu darsda butun

o'quv yili davomida olib borilgan ishlarga yakun yasaladi, ya'ni kurs davomida o'quvchilarning olgan bilimi yakunlanadi. O'quv yili oxirida o'tkazilgan yakunlovchi takrorlash darsida, o'quvchilarning yil davomida ishlagan ishlari ko'rsatiladi

1-jadval

№	Dars turlari	Asosiy xususiyatlari
1	Kirish darsi	
2	Yangi bilimlarni o'rganish darsi	
3	Aralash dars	
4	Mustahkamalash darsi	
5	Takrorlash darsi	

1-ilova

	Sana
	Sinf
	Darsning mavzusi
I	Darsning maqsadi:
a)	ta'limiy:
v)	tarbiyaviy:
s)	rivojlantiruvchi:
II	Darsning jihozi
III	Dars turi va metodi
IV	Darsning borishi
1	Tashkiliy qism:
a)	salomlashish;
b)	davomatni aniqlash;
c)	sinf va o'quvchilarni darsga tayyorligini tekshirish.
V	Uyga berilgan vazifani so'rash uchun savolllar:
a)
b)
c)
	Uyga berilgan vazifani umumlashtirib, mustahkamlash, o'quvchilarni baholash, baholarni izohlash.
VI	Yangi mavzu:
a)	Reja: 1..... 2.....
b)	Yangi mavzu bayoni
VII	Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savollar: 1. 3. 2. 4.
	Yangi mavzuni umumlashtirib mustahkamlash, faol qatnashgan o'quvchilarni baholash, baholarni izohlash.
XVIII	Uyga vazifa.

2-ilova. Darsni tashkil etish blok chizmasi

Darsning borishi	V a q t i
Tashkiliy qism	2 minut
Kirish suhbat	3 minut
O'tilgan mavzuni so'rash	5minut
Yangi mavzu bayoni	15 minut
Mavzu yuzasidan muammoli izlanish	16 minut
Uyga topshiriqlar	4 minut

17-amaliy mashg'ulot MAVZU: Darslarni rejalashtirish.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Geografiya darslarini rejalashtirish tartibi va qoidalari bilan tanishish, kalendar, mavzuli rejalar tuzishni o'rganish.

№	Bajariladigan topshiriqlar	Amaliy mashg'ulot natijasi
1	Geografiya darslarini rejalashtirish tartibini sxemada ko'rsating (1-ilova asosida)	Sxema chizish
	Maktab geografiya dasturi bo'yicha ixtiyoriy kursga yillik ish rejasi tuzish uchun daftar tayyorlashni o'rganish.	Ish reja uchun daftar
3	2-ilova bilan tanishing. Yillik ish rejasi tuzish qoidalarini o'rganing. Maktab geografiya dasturi bo'yicha ixtiyoriy kursga yillik ish rejasi tuzing	yillik ish rejasi tuzish
3	Maktab geografiya darsliklari bo'yicha ixtiyoriy mavzuga dars rejasining taxminiy matn qismini tuzing.	Dars rejasi tuzish

Uslubiy ko'rsatmalar

1-ilova.

Geografiya darslarini rejalashtirish. Har bir sinfda o'qitiladigan geografiya kurslari bir qancha mavzulardan iborat. Ular mazmunini va o'rganish tartibini o'quv dasturi belgilaydi. O'quv ishlarini rejalashtirish mavzularni va alohida darslarni rejalashtirishdan boshlanadi. Geografiya ta'limida darslarni rejalashtirish quyidagilardan iborat.

1. Har bir sinf o'quv dasturidagi mavzularni choraklarga yoki 2 ta yarim yilga taqsimlash (yillik ish rejasi).

2. Mavzularni darslarga bo'lib chiqish va ularning o'tish muddatini aniqlash. (kalendar mavzuli rejalashtirish)

3. Har bir darsni o'tishning bajarish rejasini (dars-reja konspekti) tuzish.

2-ilova. Yillik ish rejasi

Geografiya darslarining muvaffaqiyati avvalo o'qituvchining yillik rejalarini qanchalik muvaffaqiyatli tuza olishiga bog'liq. Har bir darsda o'qitiladigan predmet uchun alohida ish rejasi tuziladi. Uni bajarishdan oldin geografiya o'qituvchisi predmetning maqsad va vazifalarini aniq tasavvur qilishi zarur. Dasturdagi mavzularni choraklarga taqsimlashda o'qituvchi ijodiy yondoshishi zarur.

Mavzuli rejalar ko'p soatlik mavzularni sun'iy bo'lib tashlashni emas balki, ularni ma'lum tartib, mazmun asosida, ta'lim metodlarini tan lashni e'tiborga olgan holda taqsimlashni taqozo etadi. O'qituvchi dastur va darslik asosida har bir darsning ta'lim-tarbiyaviy maqsadini, mazmunini, tayanch bilimlarini, amaliy va mustaqil ishlarni, ta'lim vositalarini aniqlaydi. O'qituvchi o'quv

ishlarini rejalashtirishning turli shakllarini qo'llashi mumkin. Bunday rejalashtirishlar jurnallarda metodik adabiyotlarda keng yoritilgan. Ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan geografiya o'qituvchilari dars rejalarini tuzishda ijodiy yondoshadilar.

Masalan: har bir dars uchun katta lopa (konvert) to'tadilar. Unda dars rejasi bilan didaktik materiallar, topshiriqlar, gazeta va jurnallardan qirqilgan materiallar ham bo'ladi. Kelgusi o'quv yili lopa ko'zdan kechirilib unga zarur qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritiladi. Barcha lopalar sinflar bo'yicha alohida saqlanadi. Pedagogik amaliy dars o'tuvchi yuqori kurs talabalari va yosh o'qituvchilar juda oz tajribaga ega bo'lganliklari uchun dars ko'chirmalari (konspektlari) tayyorlaganlari ma'qul.

Maktablarda geografiya darslarini rejalashtirishda yagona tizim yo'q. Chunki o'quv jarayoni mazmuni va shakllarini tashkil qilish hamma o'qituvchida ham bir xil emas.

Geografiya ta'limida turli xil rejalar keng tarqalgan. Ayniqsa, kurslar bo'yicha butun o'quv jarayonini yirik bilim va mavzular bo'yicha rejalashtirish ko'p ishlatiladi. Geografiya darslariga tayyorlanish jarayonida mavzuli (tematik) reja keng ishlatiladi. Bunday reja o'qituvchiga bilimlarini tadrijiy shakllantirishni, mavzular o'rtasida aloqadorlikni o'rnatishda, tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirishda, tayanch bilimlar va ko'nikmalarni belgilashda, amaliy ishlar tizimini aniqlashda qanday ko'rgazmali qurollarni ishlatish zarurligini oldindan belgilab olish imkonini beradi. Mavzuli rejaning u yoki bu kurs bo'yicha darslarning turi, maqsadi, metodlari, vositalari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishligini oldindan belgilab olishda ham roli katta.

Har bir darsni rejalashtirishda taxminan quyidagi bandlarni e'tiborga olish lozim.

Dars tartib raqami

Dars mavzusi

Didaktik maqsad yoki ta'lim tarbiyaviy vazifalar

Tayanch bilimlar

Yangi mavzu bayoni

Ta'lim vositalari

Ta'lim metodlari va metodik tavsiyalar

Fanlararo aloqalar

O'quvchilarning mustaqil va amaliy ishlari

Uyga vazifa

Mazkur rejalashtirishga ijodiy yondoshish va o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Darslar tizimi rejasi asosida alohida darslar rejasi tuziladi. Bu rejada o'qituvchi faoliyatini tashkil qilishning aniq dasturi beriladi. Darslarni an'anaviy tarzda, ya'ni, bilim tekshirish, yangi bilim berish, mustahkamlash, uyga vazifa tarzida tashkil qilaverish ta'lim sifatini pasaytiradi. O'quvchilar faolligi, fikrlashni susaytiradi. Shuning uchun ham darslarni rejalashtirishda uning uslubiy tuzilishini doimo o'zgartirib turish kerak. Darslarni rejalashtirishga qarab o'qituvchilar ijodiga baho ham berish mumkin. Bu erda o'qituvchining ilmiy-metodik mahorati, topqirligi o'z fanini qanchalik puxta bilishligini aniqlab olish imkoniyati tug'iladi.

Demak darslarni rejalashtirish tartibi bo'yicha yagona usul bo'lishi mumkin emas ekan. Bitta kurs bo'yicha aynan shu o'qituvchi har yili turlicha darslar tartibini tuzishi mumkin. Taxminiy dars rejasi quyidagi bandlardan iborat bo'lishi mumkin.

- Sinf

- Kun

- Darsning tartib raqami va dars mavzusi.

- Dars jihozlari

- Maqsadi

- Darsning borishi (mazmuni, tanlangan metodlar, har bir qismga ketgan vaqt, qaysi o'quvchilardan suralishi, yakka va yalpi so'rash uchun savollar, doskaga chizilishi kerak bo'lgan rasm va chizgilar.

- Uyga vazifa.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Geografiya o'qitish metodikasi kursida mustaqil ta'lim auditoriyada o'qituvchi tomonidan o'tilgan har bir mavzu (ma'ruza va amaliy mashg'ulot mavzulari) talaba tomonidan darsdan tashqari vaqtda tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan hamda internet ma'lumotlaridan foydalangan holda muntazam ravishda qayta ishlanib, to'ldirilib, kengaytirilib borish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlari amaliy ishlarga singdirilgan holda joriy nazorat shaklida baholanadi. Talaba mustaqil ish uchun olgan mavzusini kunning ikkinchi yarimida mustaqil ravishda yoki fan o'qituvchisi ko'magida auditoriyada, oliygo'ha yoki markaziy kutubxonalar o'quv zallarida, axborot texnologiyalari markazida (ATM), axborot resurslari markazida (ARM) o'quv-uslubiy qo'llanmalar, adabiyotlar, disertatsiyalardan hamda internet saydlaridan foydalanib bajarishlari mumkin. Mustaqil ish mavzulari referat shaklida tayyorlanadi va himoya qilinadi. Talaba mustaqil ish mavzusini o'quv yili davomida tayyorlaydi va o'qituvchiga ximoya uchun mavzuni taqdim etadi. Mustaqil ish himoyasi o'qituvchi tomonidan belgilanadi va kunning ikkinchi yarmida amalga oshiriladi. Mustaqil ish mavzusi hajmi qo'l yozmada 20-25 betdan kam bo'lmasligi lozim. Baholashda mustaqil ish mavzusining tayyorlanish sifatiga, talabanning xusni-xatiga, grafikaviy tayyorlanishiga qattiq e'tibor beriladi. Talabanning mustaqil ish mavzusi bo'yicha to'plagan bali jami ballar yig'indisiga o'shib hisoblanadi.

Mustaqil ishning asosiy vazifalari: Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish; ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirish; ta'lim olish usullarini egallash; tushunish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish; mustaqil xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish kiradi.

Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shundan mustaqil ta'limga ko'nikma boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zurur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

Mustaqil ishni tayyorlashda Geografiya o'qitish metodikasi kursining xususiyatlarini hisobga olgan holda talabaga quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallardan foydalangan holda fanning ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlardan foydalangan holda, fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;

- fanning talaba tomonidan o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan bo'limlarini va mavzularini chuqur o'rganish;
- masofaviy (distansion) ta'limdan foydalanish va h.k.

1-mustaqil ish

Mavzu: Geografiya ta'limi metodikasining maktablardagi maqsadi va mazmuni (5 soat)

Maqsad: Geografiya ta'limining maktablardagi maqsadi va mazmunini o'rganish.

Mustaqil ish natijasi: Adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi reja asosida referat tayyorlash

Reja

1. Umumta'lim tizimi geografiyasining mazmuni va tarkibi.
2. Umumta'lim tizimi geografiyasining ta'limiy maqsadlari.
3. Umumta'lim tizimi geografiyasining tarbiyaviy maqsadlari.
4. Umumta'lim tizimi geografiyasining rivojlantiruvchi maqsadlari.

2-mustaqil ish

Mavzu: Geografiya o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi (6 soat)

Maqsad: Geografiya ta'limi metodikasining boshqa fanlar bilan aloqadorligini o'rganish.

Mustaqil ish natijasi: Adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi reja asosida referat tayyorlash

Reja

1. Geografiya o'qitish metodikasi fanining predmeti, tadqiqot ob'ekti, maqsadi va vazifalari.
2. Geografiya o'qitish metodikasi fanining geografiya fanlari bilan aloqasi.
3. Geografiya o'qitish metodikasi fanining pedagogika fanlari bilan aloqasi.

3-mustaqil ish

Mavzu: Geografik ta'lim jarayon qismlari (5 soat)

Maqsad: Geografik ta'lim jarayoni qismlari to'g'risidagi bilimlarni o'rganish va mustahkamlash.

Mustaqil ish natijasi: Adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi reja asosida referat tayyorlash

Reja.

1. Geografik bilim, tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish.
2. Geografik tushunchalarning turlari.
3. Geografiya ta'limida ko'nikma va malakalar shakllantirish

4-mustaqil ish

Mavzu: Geografiya ta'limini uyushtirishning shakllari (6 soat)

Maqsad: Geografik ta'limini uyushtirishning asosiy shakllari to'g'risidagi bilimlarni o'rganish va mustahkamlash.

Mustaqil ish natijasi: Adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi reja asosida referat tayyorlash

Reja.

1. Geografiya darslarini uyushtirish shakllari
2. Darsning ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati
3. Geografiya darsiga qo'yiladigan pedagogik talablar.
4. Geografiya darslarini rejalashtirish
5. Geografiya darslarining turlari va ularning tuzilishi.
6. Geografiya darslarining tahlili

5-mustaqil ish

Mavzu: O'qitish metodlari (6 soat)

Maqsad: Geografiya ta'limida foydalaniladigan metodlar to'g'risidagi bilimlarni o'rganish va mustahkamlash.

Mustaqil ish natijasi: Adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi reja asosida referat tayyorlash

Reja

1. Geografiya fanlardan dars o'tishda turli metodlarni qo'llash zaruriyati
2. Geografiya ta'limi metodlariga qo'yiladigan talablar
3. Geografiya ta'limi metodlari tasnifi
4. Geografiya ta'limida og'zaki metodning tutgan o'rni.

6-mustaqil ish

Mavzu: Tarbiya turlari (5 soat)

Maqsad: Geografiya ta'limida tarbiya turlari, axloqiy, estetik, ma'naviy va ekologik tarbiya berish to'g'risidagi bilimlarni o'rganish va mustahkamlash.

Mustaqil ish natijasi: Adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi reja asosida referat tayyorlash

Reja

1. Tarbiya tushunchasi, uning mazmuni va uning mohiyati.
2. Tarbiya jarayonining tamoyillari
3. Maktab geografiyasi kurslarida o'quvchilarga tarbiya berish masalalari.

7-mustaqil ish

Mavzu: Ta'limda tadqiqot usullari (6 soat)

Maqsad: Geografiya ta'limida tadqiqot uyushtirishning ahamiyati va tadqiqot usullari to'g'risidagi bilimlarni o'rganish va mustahkamlash.

Mustaqil ish natijasi: Adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi reja asosida referat tayyorlash

Reja

1. Ilmiy tadqiqot uyushtirishni ahamiyati.
2. Tadqiqotda nazariy va eksperimental-empirik metodlar.
3. Geografiya o'qitishda kuzatish va so'rovnoma uyushtirish.

8-mustaqil ish

Mavzu: Geografiya maydonchasi va xonasi (5 soat)

Maqsad: Geografiya ta'limida geografik maydoncha va geografiya xonasining tutgan o'rni to'g'risidagi bilimlarni o'rganish va mustahkamlash.

Mustaqil ish natijasi: Adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi reja asosida referat tayyorlash

Reja

1. Geografik maydonchani o'quv jarayonidagi ahamiyati.
2. Geografik maydonchani loyihalash va qurish, maydonchada asbob va vositalarni joylashtirish.
3. Geografiya xonasining o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati

9-mustaqil ish

Mavzu: Geografiya ta'limi vositalari (6 soat)

Maqsad: Geografiya o'qitishda foydalaniladigan ta'lim vositalari, ularning turlari, geografiya darsligi va u bilan ishlash texnologiyasi to'g'risidagi bilimlarni o'rganish va mustahkamlash.

Mustaqil ish natijasi: Adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi reja asosida referat tayyorlash

Reja

1. Ta'lim vositalari haqida tushuncha.
2. O'qitish vositalarining turlari.

3. Geografiya darsligi va u bilan ishlash texnologiyasi.
4. Geografiya darsligining tuzilishi.
5. Darslik bilan ishlash texnologiyasi.
6. Natural vositalardan foydalanish texnologiyasi.

10-mustaqil ish

Mavzu: Ta'limda noan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish (6 soat)

Maqsad: Geografiya o'qitishda noan'anaviy va interfaol usullardan foydalanish to'g'risidagi bilimlarni o'rganish va mustahkamlash.

Mustaqil ish natijasi: Adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi reja asosida referat tayyorlash

Reja

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mohiyati
2. Interfaol ta'limning umumiy tavsifi
3. Interfaol metodlar va ularning qo'llanilishi
4. Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish.
5. Geografiya ta'limida muammoli metodlardan foydalanish usullari.
6. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining metodlari

11-mustaqil ish

Mavzu: Geografiya ta'limida sinfdan tashqari ishlar (6 soat)

Maqsad: Geografiyadan Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi va vazifalari, shakllari va tashkil etish usullari to'g'risidagi bilimlarni o'rganish va mustahkamlash.

Mustaqil ish natijasi: Adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi reja asosida referat tayyorlash

Reja

1. Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi va vazifalari, ta'lim jarayonidagi o'rni.
2. Sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish va ularga qo'yiladigan pedagogik talablar.
3. Geografiya ta'limida tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlarning shakllari.
4. Geografiyadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish usullari.

GLOSSARIY ГЛОССАРИЙ GLOSSARIY

Авторитарный стиль управления – стиль управления (руководства), характеризующийся единоличным принятием руководителем управленческих решений, их реализации посредством жесткого контроля подчиненных

Boshqarishning avtoritar usuli – bunda pedagog o'quv tartiblovchi jarayonining asosiy sube'kti, talaba esa, faqat ob'ekt sifatida qatnashadi. U talabalarning erkinligini bo'g'ishi, majburiy o'qitish, tashabbusni bo'g'ish va o'quv tarbiyaviy jarayonini qattiq qo'llik bilan olib borishga asoslanadi.

Authoritarian management style - a management (leadership) style characterized by the sole adoption of managerial decisions by the head, their implementation through strict control of subordinates

Беседа – самостоятельный или дополнительный метод исследования, применяемый с целью получения необходимой информации или разъяснения того, что не было достаточно ясным при наблюдении.

Suhbat - Suhbat-o'qitish usullarining savol-javob shakli bo'lib, o'qituvchining savoli va o'quvchining javobi asosiy o'rin tutadi. O'qituvchi suhbat davomida o'quvchilar fikrini o'rganiladigan geografik ob'ekt va hodisalarning asosiy belgilariga yo'naltiradi va ularni bilish faoliyatini boshqarib boradi.

Conversation is an independent or additional research method used in order to obtain the necessary information or clarify what was not clear enough during observation.

Воспитание – в широком педагогическом смысле – процесс целенаправленного формирования личности в условиях специально организованной воспитательной системы, обеспечивающей взаимодействие воспитателей и воспитуемых.

Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi.

Upbringing - in a broad pedagogical sense - is the process of purposeful personality formation in the context of a specially organized upbringing system that ensures the interaction of educators and children.

Государственный образовательный стандарт - основной нормативный документ, устанавливающий обязательный минимум содержания основных образовательных программ, максимальный объем учебной нагрузки обучающихся, требования к уровню подготовки выпускников.

Davlat ta'lim standarti - kimyodan ta'lim mazmunining majburiy hajmini; o'quvchilarning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlanadigan o'quv yuklamasining yuqori

miqdoridagi hajmini; asosiy yo'nalishlar bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar va ularni baholash me'yorlarini belgilaydi.

The State Educational Standard is the main regulatory document that establishes the mandatory minimum content of basic educational programs, the maximum amount of study load of students, requirements for the level of training of graduates.

Деловые игры - форма деятельности людей, имитирующая те или иные практические ситуации, одно из средств активизации учебного процесса в системе образования; модель взаимодействия людей в процессе достижения целей экономического, политического или престижного характера.

Ishbilarmonlik o'yinlari - bu talabalar tomonidan ishlab chiqarishda uchraydigan turli holatlarda imitatsiyalangan vaziyatlar yuzasidan qarorlar qabul qilinishiga asoslangan usuldir. O'quv jarayonida ishbilarmonlik o'yinlarning har turlari ishlatiladi: imitatsion, operatsion, va b.

Business games are a form of human activity that imitates certain practical situations, one of the means of enhancing the educational process in the education system; a model of interaction between people in the process of achieving goals of an economic, political or prestigious nature.

Дидактика - наука об обучении и образовании, их целях содержании, методах, средствах, организации достигаемых результатах.

Didaktika - pedagogikaning tarmog'i bo'lib, ta'lim va ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi.

Didactics is the science of teaching and education, their goals, content, methods, means, organization of the results achieved.

Дискуссия (от лат. discussio рассмотрение, исследование) - публичное обсуждение какого-либо спорного вопроса, проблемы.

Diskussiya - o'qituvchi va ishtirokchilarning o'zaro erkin og'zaki fikr va bilimlar bilan almashinuvi jarayoni.

Discussion (from Lat. Discussio consideration, research) - public discussion of any controversial issue, problem.

Дистанционное образование - это технология целенаправленного и методически организованного руководства учебно-познавательной деятельностью студентов (независимо от уровня получаемого образования), проживающих на расстоянии от образовательного центра.

Masofaviy ta'lim - axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, masofadan turib, o'quv axborotlarining almashinuvini ta'minlaydigan, o'quv jarayonini olib borish hamda boshqarish tizimini amalga oshiradigan bilim va ko'nikmalarni egallash jarayonidir.

Distance education is a technology of purposeful and methodically organized guidance of

the educational and cognitive activity of students (regardless of the level of education received) living at a distance from the educational center.

Знание – результат познания действительности, получивший подтверждение в практике; адекватное ее отражение в сознании человека в виде представлений, понятий, суждений, теорий

Bilim - kishilarning tabiat jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan voqelik ma'lumotlar va uning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va hodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa bunday ishonch B. hisoblanadi.

Knowledge is the result of cognition of reality, which has been confirmed in practice; its adequate reflection in the human mind in the form of ideas, concepts, judgments, theories

Инновационная технология - технология обучения, предполагающая внедрение педагогических новаций в содержание образования.

Innovatsion ta'lim - ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'or, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'or, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim

Innovative technology is a teaching technology that involves the introduction of pedagogical innovations into the content of education.

Интерактивное обучение - это диалоговое обучение, в ходе которого осуществляется взаимодействие между учителем и учеником или учеником и учителем.

Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'limdir.

Interactive learning is interactive learning in which there is interaction between teacher and student or student and teacher.

Информационные технологии обучения (ИТО) - совокупность электронных средств и способов их функционирования, используемых для реализации обучающей деятельности.

Axborot texnologiyalari - ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyalaridir. Odatda bu atama ostida kompyuter texnologiyalari tushuniladi.

Information technology training (ИТО) - a set of electronic means and methods of their functioning, used for the implementation of training activities.

Метод обучения - способ обучающей работы преподавателя и организации учебно-познавательной деятельности обучаемых по решению различных дидактических задач, направленных на овладение изучаемым материалом.

The teaching method is a way of teaching a teacher and organizing educational and

cognitive activities of students to solve various didactic tasks aimed at mastering the material being studied.

Моделирование - метод исследования объектов познания на их моделях; построение моделей реально существующих предметов и явлений и конструируемых объектов для определения либо улучшения их характеристик, рационализации способов их построения, управления ими и т.п.

Modellashtirish - bilish ob`ektlari (fizik hodisa va jarayonlar) ni ularning modellari yordamida tadqiq, qilish mavjud predmet va hodisalarning modellarini yasash va o`rganishdir.

Modeling is a method of studying objects of knowledge on their models; construction of models of real-life objects and phenomena and constructed objects to determine or improve their characteristics, rationalize the methods of their construction, control them, etc.

Модуль - автономная организационно-методическая структура учебной дисциплины, которая включает в себя дидактические цели, логически завершенную единицу учебного материала, методическое руководство и систему контроля

Modul - bu o`quv materialining yaxlitlik va tugallanganlik xarakteriga ega bo`lgan va o`zlashtirishni nazorat qilish uchun maxsus vazifalarni o`z ichiga oluvchi mantiqiy ajratilgan qismidir.

A module is an autonomous organizational and methodological structure of an academic discipline, which includes didactic goals, a logically completed unit of educational material, methodological guidance and a control system

Модульное обучение - такая организация процесса обучения, при которой студент работает с учебной программой, составленной из модулей.

Modulli o`qitish - o`qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u o`quvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir

Modular learning is an organization of the learning process in which the student works with a curriculum made up of modules.

Мозговой штурм - групповое генерирование большого количества идей за относительно короткий отрезок времени.

Aqliy xujum - biror muammoni echishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to`plab, ular orqali ma`lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir.

Brainstorming is a group generation of a large number of ideas in a relatively short period of time.

Наблюдение - целенаправленное восприятие какого-либо педагогического явления, в процессе которого исследователь получает конкретный фактический материал

Kuzatish (psixologiyada) - voqelikdagi narsa va hodisalarni rejali, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish; voqelikni hissiy bilish uslubi.

Observation - purposeful perception of a pedagogical phenomenon, in the process of which the researcher receives specific factual material

Обучение – специально организованный процесс, включающий в себя две органично взаимосвязанные деятельности: преподавание и учение.

Ta'lim – bu bilim olish va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ko'pqirrali, murakkab jarayondir.

Learning is a specially organized process that includes two organically interrelated activities: teaching and learning.

Педагогика - наука, изучающая сущность, закономерности, тенденции и перспективы развития педагогического процесса (образования) как фактора и средства развития человека на протяжении всей его жизни.

Pedagogika - tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi bo'lib, tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish me-xanizmlarini tadqiq etadi.

Pedagogy is a science that studies the essence, patterns, tendencies and prospects for the development of the pedagogical process (education) as a factor and means of human development throughout his life.

Педагогическая технология - совокупность и система функционирования всех личностных, инструментальных и методических средств, используемых для достижения педагогических целей.

Pedagogik texnologiya - barcha boshqariluvchi tashkiliy qismlar va ularning bog'liqligini tahlil qilish, tanlash, loyihalash va nazorat qilish yo'li bilan pedagogik samaradorlikni yuqori darajaga ko'tarish hamda bu borada tizimli yondashuvni joriy etishni ifodalaydi.

Pedagogical technology is a set and system of functioning of all personal, instrumental and methodological means used to achieve pedagogical goals.

Педагогический эксперимент – исследовательская деятельность с целью изучения причинно-следственных связей в педагогических явлениях, которая предполагает опытное моделирование педагогического явления и условий его протекания.

Pedagogik eksperiment - kuzatish metodining mantiqiy davomi bo'lib, eksperiment yangi pedagogik tajribani yaratishga yo'naltiriladi, o'rganilayotgan pedagogik hodisa yoki voqealikning qanchalik to'g'ri qo'yilganligini ko'rsatadi.

A pedagogical experiment is a research activity aimed at studying cause-and-effect relationships in pedagogical phenomena, which involves the experimental modeling of a

pedagogical phenomenon and the conditions for its course.

Понятие - мысль об общих и специфических качествах предметов, которая фиксируется в соответствующем слове или словосочетании.

Tushuncha - narsa va hodisalarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi fikrlardan iborat.

Concept - a thought about the general and specific qualities of objects, which is fixed in the corresponding word or phrase.

Представления - чувственно-наглядные образы объектов и явлений в сознании, памяти, которые в данный момент не воспринимаются органами чувств. Это образ явления, объекта в памяти, который может быть ярким или нечетким.

Tasavvur - narsa va hodisalar, holatlarni, voqelik obrazlarini eslash, shuningdek, ijodiy xayol surish jarayoni bo'lib, хотира shaklida ham namoyon bo'ladi. Tasavvur ham o'tmishni, ham kelajakni o'zida mujassamlashtiradi, umumlashgan xususiyat kasb etadi.

Representations are sensually visual images of objects and phenomena in consciousness, memory, which at the moment are not perceived by the senses. This is an image of a phenomenon, an object in memory, which can be vivid or indistinct.

Проблемное обучение - самостоятельное добывание знаний учениками под руководством учителя. Оно обеспечивает активизацию учебнопознавательной деятельности ученика.

Muammoli o'qitish - o'qituvchi boshqaruvi ostida o'quvchilar ongida muammoli vaziyatlarni shakllantirish va ta'lim oluvchilarning ularni echishga qaratilgan mustaqil faoliyatini tashkillashni nazarda tutuvchi ta'lim jarayoniga aytiladi.

Problem-based learning is the independent acquisition of knowledge by students under the guidance of a teacher. It provides the activation of the student's educational and cognitive activity.

Проектное обучение - один из способов становления профессиональных компетенций будущих специалистов в профессиональном образовании.

Loyihalashtirilgan o'qitish - muammoli ta'lim g'oyalarining davomi bo'lib, unda talabalar o'qituvchi nazorati ostida yangi amaliy ahamiyatga ega bo'lgan (biror bir maqsadda qo'llanilishi mumkin bo'lgan) maxsulotni yaratadilar.

Project-based training is one of the ways of developing professional competencies of future specialists in vocational education.

Репродуктивный метод — научить школьника применять знания и умения в знакомой ему ситуации по известному образцу.

Reproduktiv metod - o'quvchini ko'proq mustaqil ishlashga va bilimlarni mustaqil egallashga undaydigan o'qitish uslubi.

The reproductive method is to teach the student to apply knowledge and skills in a familiar situation according to a well-known model.

Средства обучения - это различные виды источников знаний, включенные в учебный процесс с целью формирования знаний, умений и навыков учащихся.

O‘qitish vositalari - bu bilim, ko‘nikma va malakalarni shakillantirish maqsadida o‘quv jarayonini tarbiyaga kiritilgan turli xil bilim manbalaridir.

Teaching aids are various types of knowledge sources included in the educational process in order to form the knowledge, skills and abilities of students.

Теоретические знания - отражают сущность предметов и явлений, их связи и отношения. Они занимают главное место в школьной географии. От теоретических знаний зависит научный уровень содержания школьной географии.

Nazariy bilimlar - narsa va hodisalarning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari, ichki aloqadorligi va munosabatlarini aks ettiradi. Bu bilimlar umumlashgan bilimlar bo‘lib, o‘z ichiga nazariya qonun, qonuniyat, sabab-oqibat tushunchalarini oladi.

Theoretical knowledge - reflect the essence of objects and phenomena, their connections and relationships. They are central to school geography. The scientific level of the content of school geography depends on theoretical knowledge.

Тест - это специфический инструмент, состоящий из совокупности заданий или вопросов и проводимый в стандартных условиях, позволяющий выявить уровень владения знаниями.

Test - bu so‘z inglizcha bo‘lib, “tekshirish”, o‘rganish”, “sinov”, “imtihon” degan ma’noni bildiradi.

A test is a specific tool consisting of a set of tasks or questions and is conducted under standard conditions to determine the level of knowledge.

Технология - совокупность процессов, правил, навыков, применяемых при создании какого-либо вида продукции, главным образом в производственной деятельности.

Texnologiya - texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga XX asrning 2-yarmida kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan-**texnos** (technt)- san’at, hunar, mahorat va **logos** (logos) - fan, ta’limot so‘zlaridan tashkil topib, hunar fani ma’nosini anglatadi.

Technology - a set of processes, rules, skills used in the creation of any type of product, mainly in production activities.

Технология обучения – разнообразная педагогическая деятельность, реализующая научно-обоснованный проект дидактического процесса и обладающая значительно высокой степенью эффективности, надежности и гарантированности результата, чем традиционные способы обучения

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim olish shakllarini maqbullashtirishni o'z vazifalari deb qo'yuvchi, ya'ni butun ta'lim berish jarayonini hamda texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda, bilimlarni o'zlashtirish, ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usulidir”.

Teaching technology is a diverse pedagogical activity that implements a scientifically grounded project of the didactic process and has a significantly higher degree of efficiency, reliability and guarantee of the result than traditional teaching methods

Технология дистанционного обучения (ТДО) - система методов, специфичных средств и форм обучения для тиражируемой реализации заданного содержания образования.

Distance learning technology (TDL) is a system of methods, specific means and forms of education for the replicated implementation of a given educational content.

Технология модульного обучения - одна из технологий, которая является личностно-ориентированной, позволяет одновременно оптимизировать учебный процесс, обеспечить его целостность в реализации целей обучения, развития познавательной и личностной сферы студентов, совместить жесткое управление познавательной деятельностью студента с широкими возможностями для самоуправления.

Modulli o'qitish texnologiyasi - o'quvchilarning bilim imkoniyatlari, ijodiy qobiliyatlari va amaliy ko'nikmalarini, o'rganish darajalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan

The technology of modular learning is one of the technologies that is personality-oriented, it allows you to simultaneously optimize the educational process, ensure its integrity in the implementation of learning goals, develop the cognitive and personal spheres of students, combine strict management of the student's cognitive activity with ample opportunities for self-government.

Урок – основная форма организации обучения; законченный в смысловом, и организационном отношении этап учебного процесса

Dars - maktab ta'limining asosiy tashkiliy shakli. mantiqan tugalangan, butun vaqt bilan chegaralangan ўquvтарбия жараёнининг қисмидир

Lesson is the main form of organization of training; completed in semantic and organizational terms stage of the educational process

Учебник - печатное средство, которое материализует содержание обучения в виде конкретного учебного материала.

Darslik - muayyan fanga doir bilim asoslarini ma'lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma'naviy-g'oyaviy, ilmiy uslubiy saviyada yozilgan kitob; o'quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi.

A textbook is a printed medium that materializes the content of training in the form of a specific educational material.

Учебный план - документ, определяющий содержание общеобразовательной, общепрофессиональной и профессиональной подготовки специалиста.

О‘quv reja - o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan fan, ularning bo‘limlari, o‘qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o‘qitilishi, ularning o‘quv yili va haftasida qancha miqdorda o‘tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat.

Curriculum - a document that defines the content of general education, general professional and professional training of a specialist.

Учитель - педагогическая профессия или должность в системе общего и профессионального образования

О‘qituvchi, muallim - turli yo‘nalishdagi o‘rta umumiy ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilar bilan ta’limtarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis.

Teacher - teaching profession or position in the system of general and vocational education

Эмпирические знания - выражают внешние особенности объектов и явлений. К эмпирическим знаниям относятся представления и факты.

Empirik bilimlar - ob’ekt va hodisalarning tashki xususiyatlariga oid bilimlarni aks ettiradi, bularga tasavvur va faktlar kiradi.

Empirical knowledge - express the external features of objects and phenomena. Empirical knowledge includes ideas and facts.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUSTA`LIM VAZIRLIGI
FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
O`quv ishlari bo`yicha prorektor
_____ Q.G`oziyev

2020y.«_____»_____

TABIIYOT VA GEOGRAFIYA O`QITISH METODIKASI
FANINING ISHCHI O`QUV DASTURI

Ta`lim sohasi: 140000 – tabiiy fanlar sohasi
Ta`lim yo`nalishi: 5140600 – Geografiya

Umumiy o`quv soati – 126 soat

Shu jumladan:

Ma`ruza - 34 soat (5 semestr –34 soat)

Amaliy mashg`ulot - 34 soat (5 semestr – 34 soat)

Mustaqil ta`lim soati- 62 soat (5 semestr – 62 soat)

Farg`ona-2020 y.

Fanning ishchi o`quv dasturi O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi 2018 yil 25 avgustdagi “744”-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan “Geografiya o`qitish metodikasi” fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fanning ishchi o`quv dasturi FarDU Kengashining 2020 yil “___” “___” dagi “1” - son majlis bayoni bilan ma`qullangan.

Tuzuvchi:

X.Jo`raboyeva–FarDU “Geografiya” kafedrasida katta o`qituvchisi

Taqrizchilar:

K.Boymirzaev –NamDU “Geografiya” kafedrasida dotsenti, geografiya fanlari nomzodi

R.Y.Xoliqov –FarDU “Geografiya” kafedrasida dotsenti, geografiya fanlari nomzodi

Fanning ishchi o`quv dasturi “Geografiya” kafedrasining 2020 yil ___ avgustdagi 1–son yig`ilishida muhokamadan o`tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri : _____ **R.Y.Xoliqov**

Fanning ishchi o`quv dasturi “Tabiiy fanlar” fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2020 yil ___ avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

Fakultet dekani: _____ **Sh.A.Mamajonov**

I. O'quv fani o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

«Geografiya o'qitish metodikasi» fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar:

- geografiya o'qitish metodikasining tuzilishi va mazmuni, fanning metodlari va metodologiyasi, ta'limning jarayon qismlari, maktab geografiyasining mazmuni va tarkibi, o'qitish usullari, geografiya o'qitishning vositalari, geografiya ta'limini uyushtirishning shakllari, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish va baholash, geografiya o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy texnik vositalar, geografiyani o'qitishning interfaol usullari, geografiyani o'qitishda innovasion pedagogik texnologiyalar haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- ta'lim, tarbiya turlarini va dars turlaridan foydalanishni, tegishli mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishni, geografiyadan didaktik vositalar va ulardan foydalanishni, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish va baholashni, ta'limning zamonaviy texnik vositalaridan foydalana olishni, globus va haritalar bilan ishlashni, geografiya darsi, o'quv ekskursiyalari, fakultativ mashg'ulotlarni uyushtirishni bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;

- bilimlarni to'g'ri baholash, geografiya o'qitishda zamonaviy texnik vositalaridan foydalanib dars o'ta bilish, informatsion texnik vositalardan foydalanish, geografiyani o'qitishning interfaol usullaridan foydalanish, geografiyani o'qitishda innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

II. Ma'ruza mashg'ulotlari

1-jadval

T/r	Ma'ruza mavzulari	Soat
6-semestr		
1	“Geografiya o'qitish metodikasi” fanining predmeti, tadqiqot ob'ekti	2
2	Geografiya ta'limi metodikasining shakllanishi va rivojlanishi tarixi	2
3	O'rta maxsus, kasb-hunar, umumta'lim tizimi geografiyasining mazmuni, tarkibi.	2
4	O'qitish metodlari	2
5	Geografiya ta'limida qo'llaniladigan metodlar tasnifi	2
6	Og'zaki bayon usullari.	2
7	Geografiya ta'limida harita bilan ishlash.	2
8	Geografiya ta'limini uyushtirishning shakllari	2
9	O'quv ekskursiyalari. Geografiya ta'limida ekskursiyaning o'rni va roli	2
10	Geografik ta'lim jarayon qismlari	2
11	Tarbiya turlari	2
12	Ta'limda tadqiqot usullari	2
13	Geografiya maydonchasi va xonasi	2
14	Geografiya ta'limi vositalari	2
15	Geografiya o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	2
16	Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari	2
17	O'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash	2
	Jami:	34

Ma'ruza mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akadem, guruhlar oqimi uchun o'tiladi.

III. Amaliy mashg'ulotlar

2-jadval

T/r	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Soat
6-semestr		
1	Geografiya o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. Bilimlar hajmini belgilashda geografiya o'qitish metodikasining roli	2
2	Mustaqillik yillarida geografiya ta'limi	2
3	Xorijdagi ilg'or tajribalarni o'rganish va umumlashtirish	2
4	Germaniya, Fransiyada geografiya ta'limi	2
5	Geografiya darsliklari tahlili	2
6	Geografiya darslarida ma'naviy, ekologik, iqtisodiy tarbiya.	2
7	Tabiiy geografik tushunchalarni shakllantirish (THK, Geografik qobiq tushunchalari misolida).	2
8	Metodlarni tasniflash usullari	2
9	Og'zaki bayon usullari	2
10	Geografiya darslarida harita va globus bilan ishlash	2
11	Kuzatish va tajriba usullari. Amaliy va mustaqil ishlar	2
12	Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.	2
13	Geografiya ta'limida o'yinlardan foydalanish	2
14	Muammoli metodlar.	2
15	Hamkorlikda o'qitish, interfaol vamodulli ta'lim texnologiyalari	2
16	Dars konspektini tuzish (tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslari misolida).	2
17	Darslarni rejalashtirish.	2
	Jami:	34

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida olib boriladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi, Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

IV. Mustaqil ta'lim

3-jadval

T/r	Mustaqil ta'lim mavzulari	Soat
6-semestr		
1	Geografiya ta'limi metodikasining maktablardagi maqsadi va mazmuni	5
2	Geografiya o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi	6
3	Geografik ta'lim jarayon qismlari	5
4	Geografiya ta'limini uyushtirishning shakllari	6
5	O'qitish metodlari	6
6	Tarbiya turlari	5
7	Ta'limda tadqiqot usullari	6
8	Geografiya maydonchasi va xonasi	5
9	Geografiya ta'limi vositalari	6
10	Ta'limda noan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish	6
11	Geografiya ta'limida sinfdan tashqari ishlar.	6
	Jami:	62

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha har bir talaba YN gacha yuqoridagi mavzulardan mustaqil ish tayyorlaydi va uni taqdimoti shaklida topshiradi.

V. Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish me'zonlari

ON-1: 9.10.20-23.10.20 yilgacha

ON-2: 7.12.20-21.12.20 yilgacha

Yakuniy nazorat:

YaN: 10.02.21-28.02.21 yilgacha

Baholash usullari	Baholash mezonlari
5 baho «a'lo»	<ul style="list-style-type: none"> - fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtira olish; - fanga oid ko'rsatkichlarni iqtisodiy tahlil qilishda ijodiy fikrlayolish; - o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish; - mehnat munosabatlariga oid tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish; - o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to'la baho berish; - tahlil natijalari asosida vaziyatga to'g'ri va xolisona baho berish; - o'rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayon to'g'risida tasavvurga ega bo'lish; - o'rganilayotgan jarayonlarni analitik jadvallar orqali tahlil etish va tegishli qarorlar qabul qilish.
4 baho «yaxshi»	<ul style="list-style-type: none"> - o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish; - tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish; - qishloq xo'jaligi geografiyasi fani bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish; - o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to'la baho berish; - o'rganilayotgan jarayonlarni jadvallar orqali tahlil etish va tegishli qarorlar qabul qilish.
3 baho «qoniqarli»	<ul style="list-style-type: none"> - o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to'la baho berish; - o'rganilayotgan tabiiy hodisa va jarayon to'g'risida tasavvurga ega bo'lish; - o'rganilayotgan jarayonlarni analitik jadvallar orqali tahlil etish.
0-2 baho «qoniqarsiz»	<ul style="list-style-type: none"> - o'tilgan fanning nazariy va uslubiy asoslarini bilmaslik; - hodisa va jarayonlarni tahlil etish bo'yicha tasavvurga ega emaslik; - fan bo'yicha ma'lumotga ega bo'lmaslik

VI. Baholash tartibi va mezonlari

t/r	Kurs	Semestr	Maksimal baho	Fan soati	1- nazorat				2-nazorat			YaN	
					JN	Mustaqil ta'lim	ON1		JN ta'lim	Mustaqil	ON2		maksimal
1.	2	3	5	122	5	5	5		5	5	5	5	5

Joriy nazorat (bajargan ishlarini savol-javob shaklida topshirish natijalari uchun)	Mustaqil ta'lim	JN		Oraliq nazorat (yozma ish shaklida topshirish natijalari uchun)			ON	
Baho	<i>baho</i>	Max	Min	<i>baho</i>	Savol soni	max	Min	
5	5	5	3	5	3	5	3	

Yakuniy nazorat va umumiy baholash bo'yicha:

YAN			Baholash					
Baho	savollar soni	1 ta savol uchun	a'lo		yaxshi		Qoniqarli	
			Max	Min	max	min	max	Min
5	5	1	5	5	4	4	3	3

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Vahobov H., Zaynutdinov A. Geografiya o'qitish metodikasi. 1-qism Ma'ruzalar matni. - T.: Universitet, 2000.
2. Metodika obucheniya geografii v sredney shkole. Pod. red. L.M.Pancheshnikovoy. -M.: Prosveteniye, 1983.
3. Qurboniyozov R. Geografiya ta'limi metodikasi. -T.: Universitet, 1992.
4. Qurboniyozov R. Geografiya ta'limi metodikasi. -Urganch, 2002.
5. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. T.: TDPU, 2013.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
2. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi//Xalq so'zi gazetasi 2017 yil 16 yanvar, №11.
3. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2017 yil, 488 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, «O'zbekiston», 2017 yil, 48 bet.
6. Abdug'aniev I. Geografiya darslarida ta'limning texnika vositalaridan foydalanish. -T.: «O'qituvchi», 1990.
7. Abdieva Z.A. Geografiya fanida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish. -Navoiy., 2003.
8. Крылова O.V. Uroki geografii. -M.: Prosveteniye, 1990.
9. Korinskaya V.A. i dr. Metodicheskoe posobie po geografii materikov. -M.: 1987.
10. Maksakovskiy V.T. Nauchnye osnovy shkolnoy geografii. -M.: 1982.
11. Sayidahmedov M.S. Didaktik jarayon loyihasining interfaol metodlari. -T.: Universitet, 2005.
12. Hayitov A., Boymurodov N. Ta'limda noan'anaviy darslar va interfaol usullaridan foydalanish. -T.: YAngi asr avlodi, 2006.

Elektron resurslar:

6. www.ziyo.net
7. www.unep.org
8. www.nuu.uz
9. www.lex.uz
10. www.ziyouz.com
11. www.geografiya.uz

TARQATMA MATERIALLAR

B.B.B. texnikasini qo'llash bo'yicha ko'rsatma

1. Ma'ruza rejasiga mos holda 2-ustunni to'ldiring.
2. O'ylang, juftlikda hal eting va javob bering, ushbu savollar bo'yicha nimani bilasiz, 3-ustunni to'ldiring.
3. O'ylang, juftlikda hal eting va javob bering, ushbu savollar bo'yicha nimani bilish kerak, 4-ustunni to'ldiring.
4. Ma'ruzani eshiting.
5. 5-ustunni to'ldiring.

1-ilova

B.B.B. jadvali (bilaman, bilishni xohlayman, bildim)

№	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1	2	3	4	5
1	Pedagogik texnologiya			
2	Ilg'or texnologiya			
3	Axborot texnologiyasi			
4	Integratsiyalashgan texnologiya			
5	Kartografik texnologiya			

Darsni tashkil etish blok chizmasi

Darsning borishi	V a q t i
Tashkiliy qism	2 minut
Kirish suhbat	3 minut
Yangi mavzu bayoni	15-20 minut
Mavzu yuzasidan muammoli izlanish	16 minut
Uyga topshiriqlar	4-5 minut


1.	Darsning mavzusi
2.	Darsning ta'limiy maqsadi.
3	Darsning tarbiyaviy maqsadi.
4	Darsning jihozi.
5	Dars tipi va metodi.
6	Darsning borishi. 1. Tashkiliy qism:
7	a) salomlashish;
8	b) davomatni aniqlash;
	v) sinf va o'quvchilarni darsga tayyorligini tekshirish.
	2. Uyga berilgan vazifani so'rash uchun savollar:
	a)
	3. Uyga berilgan vazifani umumlashtirib, mustahkamlash, o'quvchilarni baholash, baholarni izohlash.
	4. Yangi mavzu:
	a) Reja:
	1.....
	b) yangi mavzu bayoni
	5. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savollar:
	1. 3.
	6. Yangi mavzuni umumlashtirib mustahkamlash, faol qatnashgan o'quvchilarni baholash, baholarni izohlash.
	7. Uyga vazifa.

ALFAVIT O‘YINI

A	SH
B	O‘
V	U
G	S
D	Y
J	F
Z	Q
I	E
K	YA
L	CH
M	T
N	
O	YU
P	S
R	T

Izoh: Alfavit o‘yinida talabalarga yoki o‘quvchilarga bir nushadan tarqatiladi. mahlum vaqt oralig‘ida ular tegishli xarflarga iqtisodiy atamalar va tushunchalarni tez tuldirishga xarakat qiladi.

«Nima uchun?» texnikasi



“Insert” jadvali

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

V	+	-	?

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

“Insert” jadvali

“Insert” jadvali
Mustaqil o‘qish vaqtida olgan ma’lumotlarni, eshitgan ma’ruzalarni tizimlashtirishni ta’minlaydi; olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o‘zlashtirgan ma’lumotlarni bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Insert jadvalini to‘ldirish qoidasi bilan tanishadilar va alohida o‘zlari to‘ldiradilar.

O‘qish jarayonida olingan ma’lumotlarni alohida o‘zlari tizimlashtiradilar - jadval ustunlariga "kiritadilar" matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofi?:
"v" - men bilgan ma’lumotlarga mos;
"-" - men bilgan ma’lumotlarga zid;
"+" - men uchun yangi ma’lumot;
"?" - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to‘ldirish talab etiladi.

Klasterni tuzish qoidasi

Кластер (туғам, боғлам)-ахборот харитасини тузиш йўли- барча тузилманинг моҳиятини марказлаштириш ва аниқлаш учун қандайдир бирор асосий омил атрофида ғояларни йиғиш. Билимларни фаоллаштиришни тезлаштиради, фикрлаш жараёнига мавзу бўйича янги ўзаро боғланишли тасаввурларни эркин ва очиқ жалб қилишга ёрдам беради Ёзув тахтаси ёки катта қоғоз варағининг ўртасига асосий сўз ёки 1-2 сўздан иборат бўлган мавзу номи ёзилади Бирикма бўйича асосий сўз билан унинг ёнида мавзу билан боғлиқ сўз ва таклифлар кичик доирачалар “йўлдошлар” ёзиб қўшилади. Уларни “асосий” сўз билан чизиклар ёрдамида бирлаштирилади. Ёзув ажратилган вақт давомида ёки ғоялар туғағунича давом этиши мумкин. Муҳокама учун кластерлар билан алмашинадилар.

**“Ахборот узатиш”
usuli**
Neft sanoati

**“Ахборот узатиш”
usuli**
Gaz sanoati

**“Ахборот узатиш”
usuli**
Ko‘mir sanoati

“Ахборот узатиш”

Bir varaq oq qog‘ozga muayyan mavzu bo‘yicha har bir partadagi talabalar o‘z fikrini 1ta gap bilan yozadi (bunda 1-partadagi talabalar boshlaydi va orqadagi talabaga uzatadi, u yuqorida yozilgan gapga qo‘shimcha qiladi, yozuv shu tariqa davom etadi). Keyin xulosa yasaladi.

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Namuna: SWOT-tahlil jadvali

O‘ZBEKISTON KIMYO SANOATI

S - kuchli tomoni	W- kuchsiz tomoni	O- imkoniyatlar	T- xavf-xatarlar

Sinkveyn usuli

Sinkveyn bu besh qatordan iborat bo‘lgan qofiyalanmagan she‘r. U orqali talaba muayyan mummoga nisbatan o‘z munosabatini bildiradi.

Ushbu usul ko‘proq yangi ma‘lumotni o‘zlashtirish (anglash) bosqichida qo‘llaniladi.

Sinkveyn yozish tartibi:

Birinchi qator – mazmunni belgilovchi bitta so‘z (ot so‘z turkumi) yoki so‘zlar birikmasi

Ikkinchi qator — mavzuni xarakterlovchi ikkita sifat (qanday, qanaqa?)

Uchinchi qator — berilgan tushunchaning harakatini bildiruvchi uchta fe‘l. (nima qildi, nima qiladi?)

To‘rtinchi qator — mashg‘ulotda olingan ma‘lumotga yozuvchining munosabatini belgilovchi qisqa gap (1-2ta gap)

Beshinchi qator — berilgan tushunchaga bilan bog‘liq xis-tuyg‘u, assotsiyasiyalarni belgilovchi bitta so‘z.

Sinkveyn Mashinasozlik

1	mazmunni belgilovchi bitta so‘z ot so‘z turkumi	
2	mavzuni xarakterlovchi ikkita sifat (qanday, qanaqa?)	
3	berilgan tushunchaning harakatini bildiruvchi uchta fe‘l. (nima qildi, nima qiladi?)	
4	mashg‘ulotda olingan ma‘lumotga yozuvchining munosabatini belgilovchi qisqa gap (1-4ta gap)	
5	berilgan tushunchaga bilan bog‘liq xis-tuyg‘u, assotsiyasiyalarni belgilovchi bitta so‘z.	

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma‘ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi.

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What)

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining echimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

TESTLAR

- 1 “Dars o‘qituvchi tomondan o‘quvchi ongida barpo etilayotgan binoning g‘ishtidir” iborasi kimga tegishli?
- A *N.Baranskiy C N.Skatkin
B P.Shapovalenko D A.Matrusov
- 2 “Jo‘g‘rofiyai riyoziy” risolasining muallifi kim va qachon chon etilgan
- A *Muhammad Amin Karimiy, 1914 yil C M.Behbudiy, 1914 yil
B Muhammad Amin Karimiy, 1979 yil D M.Behbudiy, 1920 yil
- 3 «Aholi geografiyasiga kirish» (1909 y) nomli kitobi qaysi olimga tegishli?
- A *Muhammad Amin Karimiy, 1914 yil C M.Behbudiy, 1914 yil
B Munavvar Kori Abdurashid o‘g‘li D A. Donish
- 4 «Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo haloqat, yo saodat - yo faloqat masalasidir» iborasi kimga tegishli?
- A *Abdulla Avloniy C YA.A.Komenskiy
B I.F.Gerbard D K.D.Ushinskiy
- 5 «O‘quvchi-ta’lim jarayonida markaziy figura» deb qayta-qayta ta’kidlagan olim kim?
- A *N.Baranskiy C N.Skatkin
B P.Shapovalenko D A.Matrusov
- 6 1918-1922 yillarda geografiya o‘qitishda qanday dasturdan foydalanildi?
- A *Landshaft dasturi C Anuchin dasturi
B Kamenskiy dasturi D Tabiat dasturi
- 7 1921 yilda qanday dastur ishlab chiqildi?
- A *Anuchin dasturi C Landshaft dasturi
B Tabiat dasturi D Kamenskiy dasturi
- 8 2002 yilda nashr etilgan “Geografik ta’limi metodikasi” muallifini belgilang
- A *R.Qurbonniyozov C X.Vaxobov
B A.Darinskiy D O.Mo‘minov
- 9 6-7 sinflarda hikoya yoki tushuntirish kancha davom etishi zarur
- A *10-15 minut C 15-20 minut
B 20-25 minut D 25-30 minut
- 10 8 kitobdan iborat «Geografiya» nomli asarni yaratgan olimni aniqlang?
- A *Ptolomey C Erotasfen
B Aristotel D Strabon
- 11 995 yilda dunyoda birinchi bo‘lib globusni yasagan olim kim?

- A *Beruniy C Xorazmiy
 B Jomiy D Ibn Sino
- 12 Avval javoblar beriladigan testlarga misollar keltiring?
 A *Dunyoda birinchi bo'lib globusni yasagan olim kim C Passat nima
 B Siklon nima D Iqlim elementlarini keltiring
- 13 Akademik litseylarda 1- kursda geografiyaga oid qaysi fan o'kitiladi?
 A *Amaliy geografiya C Ijtimoiy geografiya
 B Iqtisodiy geografiya D Tabiiy geografiya
- 14 Asosan tasvirlash xarakteriga ega bo'lgan o'quv materialini bayon qilish uslubi nima?
 A *Hikoya C Izoxli o'kish
 B Tushuntirish D Kuzatish
- 15 Barcha o'quvchilar uchun yagona o'quv rejasi va dasturi asosida ta'lim olib borish qaysi davlatlar uchun xos?
 A *Sharqiy Yevropa va MDX davlatlarida C Filippin, Fransiya
 B AQSH, Buyuk Britaniya D Buyuk Britaniya, Yaponiya
- 16 Beruniy meridian yoyi uzunligini 1 gradusini necha km ga teng deb aytgan?
 A *111,6 km C 121,1 km
 B 101,1 km D 111,1 km
- 17 Bilim olishning asosiy manbalariga ko'ra geografiya ta'limida necha xil uslub bor.
 A *6 ta C 5 ta
 B 7 ta D 4 ta
- 18 Bilimlilar necha guruxga ajratiladi va ular qaysilar?
 A *2 guruxga, nazariy va empirik bilimlar C 3 guruxga, nazariy, ilmiy, amaliy
 B 1 guruxga, nazariy D 4 guruxga, nazariy, ilmiy, amaliy, madaniy
- 19 Bir butun narsaga aloqador tushuncha qanday tushuncha deyiladi?
 A *Aniq S mavxum
 B Noaniq D extimolli
- 20 Bir vaqtni o'zida qanday uslubda bir necha o'quvchini baholash mumkin?
 A *Mustaqil topshiriqlar, kartada topshiriq C Kartada topshiriq berish orqali
 va uyga vazifani tekshirish orqali
 B Mustaqil topshiriqlar orqali D Uyga vazifani tekshirish orqali
- 21 Bir nechta asosiy fanlar qatorida ayrim kurslarni fakultativ tarzda o'rganish qaysi davlatlarda amalga oshiriladi?

- A *AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Yevropaning ko'pchilik mamlakatlarida
- B Filippin, Fransiya, Germaniya
- 22 Birinchi tur olimpiada qanday miqyosda o'tkaziladi?
- A *Maktab
- B Tuman
- 23 Biror bir geografik muammoga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbir nima deb yuritiladi?
- A *Konferensiya
- B Ekspeditsiya
- 24 Viloyatda o'tkaziladigan olimpiada nechanchi tur bo'lib xisoblanadi?
- A 3 tur
- B 1 tur
- 25 Geografik karta o'kitish vositasi sifatida necha asosiy vazifani bajaradi?
- A *4 ta
- B 5 ta
- 26 Geografik kartaning eng muxim vazifasi nima?
- A O'rganish ob'ekti ekanligi
- B Ko'rgazmali qurol ekanligi
- C Sharqiy Yevropa va MDX davlatlarida
- D Buyuk Britaniya va Yaponiya
- C Respublika
- D Viloyat
- C Ma'ruza
- D Sayoxat
- C 4 tur
- D 5 tur
- C 2 ta
- D 3 ta
- C Darsga mazmun kirita olish
- D Tadqiqot ob'ekti ekanligi
- 27 Geografik maydonchada qanday kuzatishlar olib boriladi.
- A * Meteorologik, astronomik, geomorfologik, gidrologik
- B Astronomik
- C Meteorologik
- D gidrologik
- 28 Geografik tushunchalarni shakllantirishda geografik ob'ekt va xodisalarni kuzatish qanday yo'l bilan amalga oshiriladi?
- A *Tajribalar orqali
- B Deduktiv yo'l bilan
- C Induktiv yo'l bilan
- D Distansion yo'l bilan
- 29 Geografik xodisa va jarayonlarni bog'lashda va yaxlit tushunchalar xosil qilishda qaysi uslub muhim?
- A *O'tgan va yangi darsni bog'lash
- B O'tgan darsni mustaxkamlash
- C Yangi darsni izchil bayoni
- D Takrorlash
- 30 Geografiya darsarida o'quvchilar bilimini mustaxkamlashda qaysi uslubni ahamiyati /katta?
- A *Amaliyot metodi
- B Savol javob metodi
- C Suxbat metodi
- D Karta bilan ishlash metodi
- 31 Geografiya darsida o'qituvchining o'qib berish qanday amalga oshiriladi?

- A *Darslikda yo‘q bo‘lgan materialni o‘qib berish C Kartaga karab o‘qish
- B Darslikdagi materialni o‘qib berishi D Rasmni o‘qish
- 32 Geografiya darsini muxim didaktik prinsipi nima?
- A *Ta‘lim va tarbiyani birligi C Ta‘limni izchiligi
- B Ta‘limni uzviyligi D Ta‘limni yoshga xosligi
- 33 Geografiya darslari eng muxim kurgazmali qurol nima?
- A Geografik karta C Geografik globus
- B Darslik D Texnika vositalari
- 34 Geografiya darslarida asosiy manba nima?
- A *Darslik C Texnika vositalari
- B Geografik karta D Geografik globus
- 35 Geografiya darslarida uslubni qanday tanlash zarur?
- A *O‘tiladigan mavzuni mazmuniga qarab C O‘quvchilarni yosh xususiyatiga qarab
- B O‘qituvchining imkoniyatiga karab D Darslik asosida
- 36 Geografiya darsligi bilan ishlash usullarini belgilang?
- A * Matn bilan, savol va topshiriqlar C Matn bilan ishlash, Darslikdagi Darslikdagi illyustratsiyalar va rakamli illyustratsiyalar va rakamli materiallar bilan ishlash materiallar bilan ishlash
- B Darslikdagi illyustratsiyalar va rakamli D Savol va topshiriqlar bilan ishlash materiallar bilan ishlash
- 37 Geografiya kurslarida asosiy o‘rinni qanday tushunchalar egallaydi?
- A Ilmiy bilimlar C Nazariy bilimlar
- B Amaliy bilimlar D Empirik bilimlar
- 38 Geografiya ta‘lim metodikasi qaysi fanning tarkibiy qismidir?
- A *Pedagogika C Falsafa
- B Geografiya D Sotsiologiya
- 39 Geografiya ta‘lim metodikasining nazariy metodologik masalalari qaysi metodist – geograf olimlar asarlarida o‘z ifodasini topgan?
- A *O.Muminov, X.Hasanov C E.Axmedov, M.Mamatqulov
- B A.Soliev, S.Abduvoxidov D T.Jumaboev, N.Mamatqulov
- 40 Geografiya ta‘limida keng tarkalgan darsdan tashqari ishlar shakli nima?
- A *Geografiya to‘garaklari C Konferensiya
- B Geografiya jamiyatlari D Olimpiada

- 41 Geografiya ta'limida tanlangan uslub kachon yaxshi natija beradi?
- A * O'quvchilarni faolligini ta'minlaganda C Dars oxirgacha uslubga kat'iy amal qilinganda
- B Boshqa uslublar bilan birga qo'llanilganda D Ko'rgazmali qurollar etarli bo'lganda
- 42 Geografiya ta'limida ma'ruza metodidan qaysi sinflarda foydalaniladi?
- A *Yuqori sinflarda C Yirik boblarni va nazariy mavzularni
- B Quyi sinflarda D Og'zaki uslublar qo'llanilganda
- 43 Geografiya ta'limida o'quvchilar bilimini aniqlashda eng ko'p qo'llaniladigan uslub?
- A *Og'zaki so'rash C Test
- B Savol-javob D Yozma ishlar
- 44 Geografiya ta'limida o'quvchilarga geografik jarayon va qonuniyatlarni kengroq ochib beradigan uslubni belgilang.
- A *Kuzatish C Tushuntirish
- B Hikoya D Suxbat
- 45 Geografiya ta'limida o'quvchilarga tabiiy, iqtisodiy, kartografiya va boshqa geografiya fanlarining asoslarini o'rgatish qanday maqsadlar xisoblanadi?
- A *Ta'limiy maqsadlar C Tarbiyaviy maqsadlar
- B O'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish D Ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlar
- 46 Geografiya ta'limida harita bilan ishlash usullarini tushuntiring.
- A * Haritalarga tasnif berish, tushunish, bilish, o'qish va solishtirish C Haritalarga tasnif berish, o'qish va solishtirish
- B Tushunish, bilish, o'qish va solishtirish D Iqtisodiy va tabiiy geografik kartalarni o'qish
- 47 Geografiya ta'limida evristik uslub nima?
- A *Mustaqil bilim olishga va kichik tadqiqotlar C O'qituvchining faoliyatiga asoslangan uslub
- B Darslik bilan ishlashga asoslangan uslub D Yangi ma'lumotlarga asoslangan uslub
- 48 Geografiya ta'limidagi tarbiya turlarini belgilang.
- A *Ilmiy dunyoqarash, ekologik, estetik, axloq –odob, vatanparvarlik, mehnat va iqtisodiy C Ilmiy dunyoqarash, ekologik, estetik
- B Ekologik, estetik, axloq –odob D Vatanparvarlik mehnat va iqtisodiy
- 49 Geografik tushunchalar qo'llash jihatdan necha qismga bo'linadi?

- A *2 kismga C 3 kismga
 B 4 kismga D 8 kismga
- 50 Geografiya o'qitishning qaysi metodida o'quvchilar bilishning barcha bosqichlarini o'ziga qamragan xolda, yangi materialni mustaqil o'rganadilar?
- A *Tadqiqot C Illyustratsiyali-tushuntirish
 B Qisman izlanish D suhbat
- 51 Geografiya o'qitish metodikasi necha qismga bo'linadi?
- A *Umumiy va xususiy qismga C Umumiy qismga
 B Xususiy qismga D Didaktika
- 52 Geografiya o'qitish metodikasi, geografiya o'qitish jarayonini o'rganishda qaysi fanga tayanadi?
- A *Psixologiya C Dinshunoslik
 B Sotsiologiya D Iqtisodiy nazariya
- 53 Geografiya o'qitishda qo'llaniladigan modellarni ko'rsating?
- A *Geografik globus C Geografik karta
 B Standart kurgazmalar D Darslik
- 54 Geografiya o'qitishning mazmuni nimalardan iborat?
- A *O'quvchilarga geografik ob'ektlar, xodisalar, vokealar va ularning sabablari tushuntiriladi C O'simliklarning kelib chikishi va tarkalishini o'rgatadi
 B O'lka tarixini va tarixiy vokealarning sabablari tushuntiriladi D O'quvchilarga tabiiy geografik jarayonlarning sabablari tushuntiriladi
- 55 Geografiyada ko'nikma va malaka qay xolatda shakllantiriladi?
- A *Tajribalar orqali C Takrorlash orqali
 B Alohida-alohida D Yangi bilimlarni o'zlashtirish orqali
- 56 Geografiyada kuzatish va tajriba o'tkazish metodi necha turga ajraladi?
- A *Uchga C Beshga
 B To'rtga D Ikkiga
- 57 Geografiyada ko'nikma va malaka qanday tartibda keladi?
- A *Bilim malakani u esa, ko'nikmani xosil qiladi C Malaka ko'nikma aylanadi
 B Ko'nikma malakaga aylanadi D Jami bilimlarni o'zlashtirish orqali
- 58 Geografiyada ob'ekt va xodisalarni tashqi xususiyatlariga oid aks ettiradigan bilimlar nima?
- A *Empirik bilimlar C Amaliy bilimlar

- V Nazariy bilimlar D Mavxum tushunchalar
- 59 Geografiyada o'quvchilarni bilimini mazmunan chuqurlashtiruvchi savollar qanday savollar xisoblanadi?
- A *Muammoli savollar C Ochiq savollar
B Aniq savollar D Mavxum savollar
- 60 Geografiyada o'quvchilarni maxalliy materiallar bilan bog'laydigan metodni ayting?
- A *Kuzatish C Darslik bilan ishlash
B Kartografik qo'llanmalar bilan ishlash D Laboratoriya darsi
- 61 Globus va kartalar foydalanishiga ko'ra qanday materialga kiradi?
- A *Kurgazmali C Asboblari
B Yordamchi D Moslama
- 62 Darsining yuqori baxolanishi nimaga bog'liq?
- A *O'qituvchining bilim va maxoratiga C O'qituvchining tashqi qiyofasiga
B O'qituvchining tajribasiga D O'qituvchining yoshiga
- 63 Darslik ma'lumotlarini tuldiruvchi kushimcha manba nima?
- A *Qo'llanma C Atlas
B Globus D Karta
- 64 Joyda orientirovka olish uchun ishlatiladigan asboblarni aniqlang.
- A *Kompas, gnomon C Rumb xalqasi, nefoskop
B Termometr, barometr D Vizir chizg'ichi, planshet
- 65 I.Nazarov tomonidan qaysi viloyatning tabiiy va iqtisodiy geografiyasi yaratildi?
- A *Buxoro C Toshkent
B Farg'ona D Andijon
- 66 Iborani to'ldiring.
".....suhbatining maqsadi yangi bilimni yaxshiroq o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan (ilgari o'zlashtirilgan) bilim va ko'nikmalarni o'quvchilar xotirasida qayta tiklashdan iborat."
- A * Kirish suhbat C Umumlashtiruvchi suhbat
B Yakunlovchi suhbat D O'zlashtirish suhbat
- 67 Iborani to'ldiring.
".....suhbatning maqsadi takrorlash va bilimlarni ma'lum bir tartibga tushirish, shuningdek, o'rganilgan narsalarni umumlashtirish va kengaytirishdan iborat."
- A *Yakunlovchi suhbat C Umumlashtiruvchi suhbat
B Kirish suhbat D O'zlashtirish suhbat
- 68 Iborani to'ldiring.

“.....suhbatining maqsadi yangi bilimni o‘quvchilar olgan bilim asosida o‘rgatishdan iborat.”

- A * O‘zlashtirish suhbat
C Umumlashtiruvchi suhbat
- B Kirish suhbat
D Yakunlovchi suhbat
- 69 Ilgari egallangan bilimlarni takrorlash, mustaxkamlash, o‘zlashtirilgan bilim hamda ko‘nikmalarni tekshirishga xizmat qiladigan metodni aniqlang?
- A *Olingan bilimlarni qayta tiklash metodi
C Yangi bilimlar egallash
- B Illyustratsiyali tushuntirish
D Tadqiqot metod
- 70 Illyustratsiyali-tushuntirish, qisman izlanish, tadqiqot metodlarini o‘z ichiga oladigan metodni aniqlang?
- A *Yangi bilimlarni egallash metodi
C Qisman izlanish
- B Olingan bilimlarni qayta tiklash metodi
D Yangi bilimlar egallash
- 71 Qaysi atoqli pedagog Rossiyada geografiya ta‘limi metodikasini rivojlantirishda geografiyani maktabdagi asosiy predmetlardan biri bo‘lishi kerak degan g‘oyani ilgari so‘radi?
- A *K.D.Ushinskiy
C N.Skatkin
- B N. N. Baranskiy
D A.Matrusov
- 72 Qaysi bilimlarga narsa va xodisalarning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari ichki aloqadorligi va munosabati kiradi?
- A Nazariy bilimlar
C Ilmiy bilimlar
- B Amaliy bilimlar
D Empirik bilimlar
- 73 Qaysi geografik fan – jamiyat xodisalari ishlab-chiqarish, xo‘jalik va aholining joylanishi qonuniyatlarini o‘rganadi?
- A *Iqtisodiy geografiya
C Hidrologiya
- B Tabiiy geografiya
D Geomorfologiya
- 74 Qaysi davlatda sinflar teskari xisob bilan yuritiladi?
- A *Fransiya
C Germaniya
- B AQSH
D Belgiya
- 75 Umumiy ta‘lim maktablarida 7-sinf 2-yarmida qaysi geografiya o‘qitiladi?
- A *O‘zbekiston tabiiy geografiyasi
C O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi
- B O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasi
D Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi
- 76 Qaysi maqsadlar-o‘quvchilarga tabiatga, xo‘jalikka, tabiat bilan xo‘jalik o‘rtasidagi aloqalarga nisbatan to‘g‘ri ilmiy dunyokarashni shakllantiradi?
- A *Tarbiyaviy maqsadlar
C Ko‘nikma hosil qilish
- B Ta‘limiy maqsadlar
D Rivojlantiruvchi maqsadlar

- B Grekcha «tadqiqot» ma'nosini D Ruscha yo'nalish ma'nosini
- 86 Moddiy borlikdagi narsalardan fikran ajratib olingan ba'zi xususiyat sifat, xolatlarga shuningdek narsalar urtasidagi ichki munosabat qonuniyatlarga karatilgan tushunchalar qanday tushuncha deb ataladi?
- A *Abstrakt (mavxum C Daliliy
- B Aniq D Isbotli
- 87 Narsa va xodisalarning umumiy va muxim belgilarini aks ettiruvchi fikrlar nima deb ataladi?
- A *Tushuncha C Qiyoslash
- B Bilish D Ifodalash
- 88 Fan yutuqlari asoslarini o'zida mujassamlashtirgan eng muxim ta'lim vositalaridan biri xisoblanadi?
- A *Darslik C Atlas
- B Karta D Qo'llanma
- 89 Ob-havoni kuzatishda qaysi asboblardan biri ishlatiladi?
- A Barometr C Voltmetr
- B Ampermetr D Planshet
- 90 Sxematik ko'llanmalarni belgilang?
- A *Grafik, diagramma, jadvallar C Umumgeografik kartalar, atlas
- B Fotosur'at, ekranli qo'llanmalar D Termometr, flyuger
- 91 Tajriba o'tkazish uchun ishlatiladigan asboblarni aniqlang.
- A *Shtativ, spirt lampasi C Termometr, barometr
- B Rumb xalqasi, nefoskop D Vizir chizg'ichi, planshet
- 92 "Interfaol" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
- A ingliz tilida "interact" "inter" – o'zaro, C ingliz tilida "interact" "inter" "Birgalikda ikki taraflama, "act" – harakat qilmoq, o'qiyamiz" ma'nolarini anglatadi. ma'nolarini anglatadi.
- B o'quvchiga beriladigan bilimning qaysi D asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarni nafaqat qismini, qanday yo'l bilan berish birgalikda bajarish, balki hamkorlikda muammosini samarali hal qilishga o'qishni o'rganish hamdir. qaratilgan o'qituvchi faoliyati.
- 93 O'qituvchi o'quvchi ongiga nima orqali tez ta'sir etishi mumkin?
- A *Jonli nutq orqali C Xis tuygular orqali
- B Intonatsiya orqali D Mantik orqali
- 94 Xar qanday geografiya tadqiqot nima bilan boshlanib nima bilan tugaydi?

- A *Karta bilan boshlanib karta bilan tugaydi C Xulosa bilan tugaydi
- B Reja bilan boshlanib reja bilan tugaydi D Kitob bilan boshlanib kitob bilan tugaydi
- 95 O'quvchilarga geografik ob'ekt va xodisalar haqidagi sistemali bilimni nima beradi?
- A * Geografik atlas C Geografik karta
- B Geografik globus D Darslik
- 96 O'quvchilardagi ruxiy faoliyatning umumiy qonuniyatlarini qaysi fan o'rganadi?
- A *Psixologiya C Dinshunoslik
- B Sotsiologiya D Iqtisodiy nazariya
- 97 Kirish darsi
- A *Bunday dars turi yil boshida C Bunday dars oyning oxirida uyushtiriladi uyushtiriladi
- B Bunday dars har hafta uyushtiriladi D Bunday dars yil va oy davomida uyushtiriladi
- 98 Ta'lim metodlariga qo'yiladigan birinchi talab nima?
- A *Metodning tarbiyaviyligi C Metodning ilmiyligi
- B Metodning samaradorligi D Metodning ommabopligi
- 99 Mavzuni ravon, ilmiy va izchil bayon etilishi qaysi metodda amalga oshiriladi?
- A *Ma'ruza C Hikoya
- B Tushuntirish D Og'zaki bayon
- 100 Maktablarda ommaviy tus olgan dars turi?
- A *Aralash dars C Kirish darsi
- B Aniq materialni o'rganish darsi D Malaka va ko'nikmalar hosil qilish darsi

V. Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish me'zonlari

Baholash usullari	Baholash mezonlari
5 baho «a'lo»	<ul style="list-style-type: none"> - fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtira olish; - fanga oid ko'rsatkichlarni iqtisodiy tahlil qilishda ijodiy fikrlayolish; - o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish; - mehnat munosabatlariga oid tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish; - o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to'la baho berish; - tahlil natijalari asosida vaziyatga to'g'ri va xolisona baho berish; - o'rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayon to'g'risida tasavvurga ega bo'lish; - o'rganilayotgan jarayonlarni analitik jadvallar orqali tahlil etish va tegishli qarorlar qabul qilish.
4 baho «yaxshi»	<ul style="list-style-type: none"> - o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish; - tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish; - qishloq xo'jaligi geografiyasi fani bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish; - o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to'la baho berish; - o'rganilayotgan jarayonlarni jadvallar orqali tahlil etish va tegishli qarorlar qabul qilish.
3 baho «qoniqarli»	<ul style="list-style-type: none"> - o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to'la baho berish; - o'rganilayotgan tabiiy hodisa va jarayon to'g'risida tasavvurga ega bo'lish; - o'rganilayotgan jarayonlarni analitik jadvallar orqali tahlil etish.
0-2 baho «qoniqarsiz»	<ul style="list-style-type: none"> - o'tilgan fanning nazariy va uslubiy asoslarini bilmaslik; - hodisa va jarayonlarni tahlil etish bo'yicha tasavvurga ega emaslik; - fan bo'yicha ma'lumotga ega bo'lmaslik

VI. Baholash tartibi va mezonlari

t/r	Kurs	Semestr	Maksimal baho	Fan soati	1- nazorat			2-nazorat			maksimal	YaN
					JN	Mustaqil ta'lim	ON1	JN ta'lim	Mustaqil	ON2		
1.	2	3	5	122	5	5	5	5	5	5	5	5

Joriy nazorat (bajargan ishlarini savol-javob shaklida topshirish natijalari uchun)	Mustaqil ta'lim	JN		Oraliq nazorat (yozma ish shaklida topshirish natijalari uchun)			ON	
Baho	baho	Max	Min	baho	Savol soni	max	Min	
5	5	5	3	5	3	5	3	

Yakuniy nazorat va umumiy baholash bo'yicha:

YAN			Baholash					
Baho	savollar soni	1 ta savol uchun	a'lo		yaxshi		Qoniqarli	
			Max	Min	max	min	max	Min
5	5	1	5	5	4	4	3	3